Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotini chuqur o‘rganish umumta’lim maktablari, akademlitsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy maktab filologik ta’limini yo‘lga qo‘yishda ushbu fan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu davr adabiyoti oliy o‘quv yurtlarining gumanitar fakultetlari, umumta’lim maktablari va litseylar dasturlaridan mustahkam o‘rin egallagan.

Fanni o‘qitishdagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash

“O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti” fanini o‘qitishda o‘quvchilarni ta’lim kechimining sub'ektiga, ya’ni ijrochisiga aylantirish uchun zarur bo‘lgan barcha zamonaviy metodlardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Ayni vaqtda, ta’lim jarayonida qatnashishi zarur bo‘lgan talabalarga texnologiyalashgan pedagogika, ta’limning interfaol usullari to‘g‘risida muayyan tushunchalar beriladi. Shuningdek, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti fani bo‘yicha o‘tkazilgan ma’ruza, amaliyot va seminar mashg‘ulotlarida bugun urf bo‘lgan interfaol usullardan foydalilanildi. Lekin yangicha usullarning o‘zigina yutuqni ta’minlaydigan yagona omil emasligidan kelib chiqib, asrlar sinovidan o‘tib kelayotgan usullar ham chetga surib qo‘yilmaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, jadid mutafakkirlari o‘z davrida eng yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda namuna ko‘rsatganlar.

Fan modulining dasturi (module syllabus)

O‘quv kursining to‘liq nomi:	O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti	
Kursining qisqacha nomi:	O‘MMUA	O‘MMUA
Kafedra:	O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik	
O‘qituvchi haqida ma’lumot:	1.Jabborov Nurboy Abdulhakimovich 2.Amonov Shermuhammad Normurotovich	E-mail: jabborov-nurboy@rambler.ru sher1109@rambler.ru
Semestr va o‘quv kursining davomiyligi:	5-6-semestrlar, 19x2=38 hafta.	

O‘quv soatlari hajmi:	jami:	156				
	shuningdek:					
	ma’ruza	38				
	seminar	26				
	amaliy	30				
	mustaqil ta’lim	62				
O‘quv kursining statusi:	umumkasbiy fanlar bloki					
Dastlabki tayyorgarlik:	<ul style="list-style-type: none"> - milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotiga kirish kursining maqsad va vazifalari); - mumtoz adabiyot; 					
<p>Fanning predmeti va mazmuni - “O‘zbek mumtoz va milliy uyg‘onish adabiyoti” fanidan talabalar milliy uyg‘onish davrining vujudga kelishi, uning mohiyati, maqsadlari hamda mazkur davr namoyandalari hayoti, ijodi va eng muhim asarlarini, ushbu davr bo‘yicha muammoli masalalarni, mazkur muammolar bo‘yicha adabiyotshunoslikda bo‘layotgan munozaralarni bilishi, ushbu davr bo‘yicha qo‘lyozma, bosma hamda davr matbuotida e’lon qilingan asarlarni, “Istiqlol qahramonlari” rukni ostida nashr qilingan mutafakkirlar asarlarini bilishi, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti namoyandalari faoliyati haqida o‘quvchilarga chuqur bilim berish, mazkur davr bo‘yicha o‘quvchilar bilan muammoli masalalar bo‘yicha munozaralar olib borish va to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsata olish malakalariga ega bo‘lishi kerak.</p>						
<p>Fanni o‘qitishdan maqsad - talabalarda milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish, ularni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalash hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun zamin hozirlash.</p>						
<p>Fanni vazifasi talabalarni o‘quvchilarni ta’limning sub'ektiga aylantirish yo‘llari, ularni faollashtirish usullarini o‘rgatish; milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti bo‘yicha darsliklar mazmuni bilan tanishtirish; jadid namoyandalari bilan yaqindan tanishtirish, ularning asarlari o‘qitish, tahlil qila oldirishdan iboratdir.</p>						

Kursning tematik tarkibi va mazmuni				
Nº	Mavzu	Ma’ruz a	Amaliy va seminar	Mustaqil ish
5-semestr				
1	Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti ilk bosqichi	2	4	-
2	Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlanish	-	-	6
3	Komil Xorazmiy (1825-1899)	2	4	
4	Seminar mashg‘ulotlariga tayyorlanish	-	-	6
5	Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910)	2	4	-
6	Muhammad Yusuf Bayoniy	-	-	2
7	Ahmad Tabibiy (1969–1911)	2	2	-
8	Zavqiy. Biografiyasi. G‘azallari tahlili	-	-	2
9	Muqimiy (1850-1903)	2	2	-
10	Anbar Otin. Hayoti va ijodi. “Qarolar falsafasi” dostoni tahlili.	-	-	2
11	Furqat (1859-1909)	2	2	-
12	Yusuf Saryomiy va tasavvuf adabiyoti	-	-	2
13	Is’hoqxon Ibrat (1862-1937)	2	2	-
14	Avaz O‘tar o‘g‘li. She’rlari tahlili	-	-	2
15	Almaiyl (1852-1891), Karimbek Kamiy (1865 – 1922)	2	2	-
16	Haziniy. Devoni. G‘azallari tahlili	-	-	4
	Yakuniy nazorat (YN)			
	Jami 16+22+26=64	16	22	26

6-semestr				
1	XX asr boshlari Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot.	2	4	-
2	Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlanish			6
3	Ismoilbek Gasprinskiy. Hayoti va faoliyati. Ijodiy merosi. Gasprinskiy asarlarida Turkiston mavzusi.	2	4	-
4	Seminar mashg‘ulotlariga tayyorlanish			6
5	Siddiqiy-Ajziy ijodida ma'rifat va Vatan mavzusi talqini			4
6	Mahmudxo'ja Behbudiy. Faoliyati va ijodiy merosi. O'rganilish tarixi	2	4	
7	Munavvarqori Abdirashidxonov – o'zbek jadidchilik harakatining yo'lboshchilaridan biri			4
8	Abdulla Avloniy. Hayoti sahifalari. Pedagogik va ijodiy faoliyati.	2	2	
9	Vasliy Samarqandiy hayoti va ijodiy merosi.			4
10	To'lagan Xo'jamyorov-Tavallo. Hayoti sahifalari. Ijodi.	2	2	
11	Sirojiddin Sidqiy. Hayoti va ijodiy merosi. Asarlarining o'rganilishi.	2	2	
12	So'fizoda. She'riyati va pedagogik faoliyati.	2	2	
13	Abdurauf Fitrat. She'riyati, nasriy va dramatik asarlari. Ilmiy merosi. Fitratshunoslik tadriji.	2	4	
14	Hamza Hakizoda Niyoziy. Lirik va ijtimoiy-siyosiy she'riyati. Hamzashunoslik bosqichlari.	2	2	4

15	Abdulla Qodiriy. Hayoti va ijodiy merosi. Qodiriyyunoslik.	2	4	
16	Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining o'rganilishi			4
17	Cho'lpon. She'riyati, dramatik asarlari va publitsistikasi. Ijodiy merosining o'rganilishi.	2	4	
18	O'zbek milliy uyg'onish adabiyotining xorijda tadqiq qilinishi			4
	Yakuniy nazorat (YN)			
	Jami 22+34+36=92	22	34	36

Ta'lim berish va o'qitish uslubi	Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ishlar (aylana stol, keys stadi, BBB va boshq.)			
Mustaqil ishlar	O'quv loyihalar, guruhli taqdimot, referatlar, keyslar, dokladlar va boshq.			
Maslahatlar va topshiriqlarni topshirish vaqtি	Kunlar	Vaqti	Aud	
1.				
2.				
3.				
Bilimlarni baholash usullari, mezonlari va tartibi:				
JN va ONning ballari ishchi dasturda beriladi				
Baholash usullari	Testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov va hokazo			
Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish va baholash	Nazorat shakllari Baholash turlari fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda testlar, yozma ishlar, og'zaki so'rov yoki boshqa ko'rinishda o'tkazilishi mumkin.			

	Fan bo‘yicha talabalar bilimini baholash mezoni
	Ball Talabaning bilim darajasi
86-100 ball	<p>talaba mashg’ulotlarga doimo tayyorlangan, juda faol, dasturiy materiallarni yaxshi biladi, xulosa va qarorlar qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarni amaliyotda qo’llay oladi;</p> <ul style="list-style-type: none"> -talaba ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo’llash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimnoi topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo’nalishlarni topa oladi, o’quv materialininig mohiyatini tushunadi; -talaba taqdim etilgan o’quv materiallarini yechish yo’llarni izlaydi, dasturiy materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo’ladi.
71-85 ball	<ul style="list-style-type: none"> - talaba o’rganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilish hamda obyektni tavsiflay olish ko’nikmasiga ega bo’lishi bilan birgalikda, qo’yilgan masalalarni sabab-oqibat aloqadorligini ochoib bergen holda yecha oladi, o’rganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lay oladi va mustaqil mushohada qila oladi; - bilim va ko’nikmalar mazmunini tatbiq qila olish mahorati, bir turdagи masalani yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni amalyotda qo’llay oladi; - talaba mashg’ulotlarga tayyorlangan, dasturiy materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega.
55-70 ball	<ul style="list-style-type: none"> -talabaning eshitganlari ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritm va ko’rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi; -talaba qator belgilar asosida ma’lum obyektni farqlash bilan birgalikda unga ta’rif bera oladi va o’quv materialini tushuntirib bera oladi va tasavvurga ega.

0-54 ball	talaba tasavvurga ega emas; -talaba dasturiy materiallarni bilmaydi.
Fanga doir video ma’ruzalar, video roliklar:	
Glossariylar:	
Axborot resurs baza:	

Reyting nazorati va baholash mezonlari

(3-kurs, 5-semestr uchun)

Ilova

Reyting nazorati jadvali

Nº	Reyting nazorati shakli/Maksimal ballari	1-JN	2-JN	ON	YN	Ballar yig‘indisi
1	Maksimal ball	20	20	30	30	100
2	Shakli	Og’zaki	Og’zaki	Test	Yozma	
3	Muddati (haftalarda)	6	15	12	19	

Reyting nazorati va baholash mezonlari

(3-kurs, 6-semestr uchun)

Ilova

Reyting nazorati jadvali

Nº	Reyting nazorati shakli/Maksimal ballari	1-JN	2-JN	ON	YN	Ballar yig‘indisi
1	Maksimal ball	20	20	30	30	100
2	Shakli	Og’zaki	Og’zaki	Test	Yozma	
3	Muddati (haftalarda)	11	16	14	20	

**Asosiy qism
(5-semestr)**

1-modul. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti ilk bosqichi

Milliy uyg'onish davrining o'zbek adabiyotining birinchi bosqichi "ilk mustamlakachilik davri adabiyoti" 1865-1905-yillarni o'z ichiga oladi. Davrning dahshatli voqyealarga to'la kordinasi tarixiy-badiiy asarlarda o'z ifodasini topdi. Chor Rossiya tomonidan xonliklarning, markaziy shaharlarning bosib olinishi, mustamlaka zulmining kuchayishi, ma'naviy hayotning porakandalikka yuz tutishi, xalq ozodlik harakatlari bu davr adabiyotiga alohida mavzu sifatida kirib keldi. Bu o'z navbatida adabiy janrlar va vaznlarning yangilanishiga ham asos bo'ldi. Yangicha yo'nalihsdagi hajvchilik maydonga keldi: she'riy manzumalar, sayohatnomalar, maktubotlar turkumi yaratildi. Toshkent va boshqa markaziy shaharlarda bosmaxonalarning vujudga kelishi, matbuotning yo'lga qo'yilishi, o'qitish tuzumidagi yangiliklar mustamlakaga o'lkada yangicha ma'rifatparvarlikning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Tarjimachilik ancha rivoj topdi: sharq adabiyotidan "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Guliston" asarlari tarjimasi bilan barobar rus va yevropa adabiyotidan tarjima qilindi.

2-modul. Komil Xorazmiy (1825-1899)

Ijodiy merosining o'rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Komil yirik madaniy tadbirlar tashkilotchisi sifatida. Toshkent safari (1991). Komil ijodida yangicha ma'rifatparvarlik. Hayotining oxirgi yillari, fofiasi. Komil va Feruz munosabatlarining yangicha talqini. Ijodiy merosi, lirkasi, hajviyoti, tadqiqotlari. Bastakor, musiqashunos va tarjimonlik faoliyati.

3-modul. Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910)

Adabiy merosi. Shoir ijodini o'rganish tarixidan. Tarjimai holi. Adabiyot va san'at rahnamosi. Feruz-musiqashunos, mohir sozanda va bastakor, san'atkor hamda talabchan muxlis. Feruz – maorif homiysi va taraqqiyatparvar. Ilk matbaachilik va adabiy meros targ'ibidagi xizmatlari. Feruz va Rossiya istilochilik siyosati. Feruz va Xorazm adabiy muhit.

4-modul. Ahmad Tabibiy (1969–1911)

Hayoti va ijodi. Tabibiy va mumtoz adabiyot. "Majmuat ush-shuar" tazkirasi. Lirk merosi. "Vomiq va Uzro" dostoni. Tabibiyning san'at, musiqa, xattotlik sohasidagi faoliyati, o'zbek madaniyati tarixidagi o'rni.

5-modul. Muqimiyy (1850-1903)

Hayoti va adabiy merosi o'rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Toshkentdag'i hayoti (1887, 1892, 1899-yillar). Hayotining so'nggi yillari. Ijodiy merosi: lirkasi, hajviyoti.

Shoir satirasida siyosiy mavzu. Yumorlari. (“Ot”, “Ko’sa” turkumlari). “Sayohatnoma”lari. Muqimiy ijodida maktub janri.

6-modul. Furqat (1859-1909)

Tarjimai holi. Farg‘ona hamda Toshkent davri faoliyati. Furqatshunoslik tadriji. Yangicha ma'rifatparvarlik faoliyati. Rus mustamlaka siyosatiga munosabati. Furqat va jadidchilik. Tasavvuf ta'limotiga oid qarashlari. Chet ellardagi faoliyati. Ijodiy merosi.

7-modul. Is’hoqxon Ibrat (1862-1937)

Ma'rifatparvar shoir, publitsist, tarixshunos, tilshunos olim, sayyoh, ilk o‘zbek matbaachilaridan biri sifatidagi faoliyati. Hayoti va ijodi. Chet ellarga sayohati. “Usuli jadid” maktablarini ochishi. “Matbaai Is’hoqiya”, “Kutubxonai Is’hoqiya”ning vujudga kelishi. Matbuotda chop etilgan asarlari. Ilmiy faoliyati. Rus bosqiniga munosabati.

8-modul. Almaiy (1852-1891), Karimbek Kamiy (1865 – 1922)

Ijodiy merosi. Lirikasi. Tarjimalari (“Kalila va Dimna”). Hikoyalaridan namunalar. Almaiyning o‘zbek tarjima adabiyotida tutgan o‘rni.

Kamiy ijodiga munosabat masalasi. Tarjimai holi. Kamiy va Toshkent adabiy muhiti. Ma'rifat mavzuidagi she'rlari. Hajviyoti. Tarjimalari. Kamiy dunyoqarashi. Shoir ijodida tasavvufiy unsurlar. Diniy mavzu. Jadidcha va qadimcha qarashlari.

(6-semestr)

9-modul. Milliy va ijtimoiy kurashlar davri adabiyoti

XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Jadidchilik. Turkistonda jadidchilikning rivojlanish bosqichlari. Davrlashtirish tamoyillari. Ma'rifiy islohotlar davri. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri.

Madaniy-adabiy hayot (1905-1917). “Usuli jadid” maktablari. Milliy matbuot. Xayriya jamiyatlari va boshqa turli ma'rifiy tashkilotlar. Yangi milliy teatr. Badiiy adabiyot. Adabiy tanqid. Badiiy tarjimachilik.

Ijtimoiy tarixiy voqyealar. 1917-yil fevral inqilobi va uning Turkistonidagi aks-sadosi. Milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurash g‘oyalari. “Turkiston muxtoriyati”. Mafkuraviy bo‘ronlar. Adabiy-madaniy harakatchilik. 20-yillar matbuoti va adabiyoti. O‘zbek romanchilik maktabi. Milliy dramaturgiya. Teatr va adabiy tanqidchilik. Sho‘rolar tomonidan adabiyotni mafkuraviy kurashlar vositasiga aylantirish siyosati.

10-modul. Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914)

Hayoti va faoliyati. Jadid maktablarining ta'sischisi. Gasprinskiy va Turkiston. “Tarjimon” gazetasida Turkiston hayotining yoritilishi. Badiiy asarlarida Turkiston mavzusi. Adabiy-estetik qarashlari.

11-modul. Mahmudxo‘ja Behbudi (1875-1919)

Hayoti va faoliyatining o‘rganilish tarixi. Tarjimai holi. Turkistonda jadid maktablarining tolmas targ‘ibotchisi va tashabbuskorlaridan biri. Behbudi va Turkiston milliy matbuoti. Ijodiy merosi. “Padarkush” pesasi. Publisistikasi. Adabiyestetik qarashlari. “Sayohat xotiralari”.

12-modul. Abdulla Avloniy (1878-1934)

Avloniyshunoslik. Hayoti sahifalari. “Shuhrat” gazetasini chiqarishi. Yangi maktablar tashkil etishi. Ijtimoiy faoliyati. Avloniy - aktyor, rejissyor, xormeystr, teatr badiiy rahbari, dramaturg, tarjimon. Ijodiy merosi. Pedagogik asarlari, she'riyati, dramalari, publitsistikasi. Til, adabiyot, san'at, matbuot, maorifga oid maqolalari. “Afg‘on kundaliklari” - o‘zbek publisistikasi va memuar adabiyoti namunasi.

13-modul. To‘lagan Xo‘jamayorov - Tavallo (1883-1937)

Hayoti sahifalari. Vaqtli matbuotdagi ishtiroki. Ijodi. “Ravnaq ul-islom” to‘plami. Tavallo va Munavvarqori, Behbudi munosabatlari. She'rlarining badiiyati. Tavallo va tatar adabiyoti.

14-modul. Sirojiddin Sidqiy (1884-1934)

Shoir ijodining o‘rganilishi. Hayoti va ijodiy faoliyati. Shoirning ilk bosma kitoblari. Birinchi jahon urushi va shoirning unga munosabati. She'rlarida mardikorlik voqyealari talqini. 1917-yil va Sidqiy. "Rabo(t)chilar namoyishi", "Rabo(t)chilar kelishi", "Toza hurriyat", "Rusiya inqilobi" asarlarining yozilishi. Shoirning 1917 yildan keyingi hayoti va ijodi.

15-modul. So‘fizoda (1880-1937)

Ijodining o‘rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Hajviyalari. So‘fizoda va ozarboyjon mutafakkirlari. So‘fizodaning “usuli savtiya” maktablari ochishi. Matbuotdagi ishtiroki. Ma'rifatparvarlik yo‘nalishidagi she'rlari. Lirikasi.

16-modul. Abdurauf Fitrat (1886-1938)

Hayoti va ijodining o‘rganilishi tarixi, manbalari. Tarjimai holi. Ijodiy merosi. She'riyati. Nasriy asarlari. Turkiy til bilimdoni va jonkuyari sifatidagi faoliyati. Adabiyot nazariyasiga oid ishlari. Qadimgi turkiy yodgorliklar ustida olib borgan tadqiqotlari. Mumtoz adabiy merosga oid ilmiy ishlari. Tarixiy asarlari.

17-modul. Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929)

Ijodining yangicha talqini. Tarjimai holi. Ijodiy merosi. She'rlarida milliy uyg‘onish g‘oyasi. Hamza nasri va jadidchilik. “Yangi saodat” milliy romani. Dramalari.

18-modul. Abdulla Qodiriy (1894-1938)

Hayoti sahifalari. Ijodiy merosi. “Baxtsiz kuyov” pesasi. Jadidchilik va Abdulla Qodiriy hikoyalari. Hajviy asarlari. Birinchi roman - “O’tkan kunlar”ning yaratilishi. “Mehrobdan chayon” romani. Bu romanlarning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’siri. Abdulla Qodiriyning 30-yillardagi ijodida zamonasozlik mayllari, buning sabablari.

19-modul. Cho’lpon (1897-1938)

Tarjimai holi. Jadidchilik va Cho’lpon she’riyati. Shoiring o’zbek she’r tizimidagi islohotlari. Hikoyalari. Dramalari. “Kecha va kunduz” romani. Romanning o’zbek realistik nasri shakllanishi va taraqqiyotidagi ahamiyati.

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar ilk mustamlakachilik davriga oid tarixiy, ilmiy badiiy adabiyotlarni o‘rganish va ularni o‘zlashtirishlari ko‘zda tutiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha tavsiya etiladigan mavzular:

1. Milliy uyg‘onish davri o’zbek adabiyoti. Maqsad va vazifalari. Muhammad Rahimxon Feruzning “Elga shohu ishqqa qul” asarini o‘rganish.
2. Ahmad Tabibiyning lirikasi, dostonnavislik va tazkiranavislik faoliyatiga oid asarlarni o‘rganish.
3. Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga oid ilmiy asarlarni o‘rganish, shoir asarlari tahlili.
4. Karimbek Kamiy she’riyati va ijodiga oid ilmiy asarlar tahlili.
5. Furqat va uning ijodini tahlil qilish.
6. Is’hoqxon Ibrat va uning asarlari tahlili.
7. XX asr boshlari Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotiga oid ilmiy asarlar ustida ishslash.
8. Ismoilbek Gasprinskiyning Turkistonga oid asarlari. “Dorur-rohat musulmonlari”, “Mukolamai salotin” asarlari tahlili.
9. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnali.
10. Abdulla Avloniyning Turkiston matbuot va teatri taraqqiyotidagi o‘rni.
11. Abdurauf Fitrat – yangicha adabiy tafakkur asoschisi. Fitratning she’riy, nasriy va dramatik asarlari tahlili.
12. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodini mustaqillik davrida o‘rganish muammolari haqida munozara.
13. Cho’lpon she’rlari tahlili.
14. Abdulla Qodiriy “Baxtsiz kuyov” pesasi. Jadidchilik va Abdulla Qodiriy hikoyalari. Hajviy asarlari. Birinchi roman-“O’tkan kunlar”ning yaratilishi.

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Talabalar seminar mashg‘ulotlarida milliy uyg‘onish davri o’zbek adabiyotidagi namoyandalar va mustamlakachilik davridagi ijtimoiy-siyosiy hamda adabiy-madaniy

hayot bilan bog‘liq masalalarga aniqlik kiritishga xizmat qiladigan ilmiy adabiyotlar bilan tanishib, ulardagi yetakchi qarashlarni o‘zlashtirib, berilgan mavzuni qanchalik o‘zlashtirgani va bilimlarini mustqil ravishda qay yo‘sinda qo‘llamoqchi ekanligi borasida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Seminar mashg‘ulotlari mavzulari:

1. Ilk mustamlakachilik davri: ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot.
2. Komil Xorazmiy – yangicha ma'rifatparvarlikning ilk namoyondasi. G‘azallari tahlili.
3. Muhammad Rahimxon Feruz – muarrix zamondoshlari talqinida. Ahmad Tabibiyning hayoti va ijodi.
4. Muqimiy adabiy merosi. Sayohatnomalarida ijtimoiy turmush manzarasining aks etishi.
5. Furqatning ma'rifiy g‘azallari tahlili.
6. Ma'rifatparvarlik va milliy uyg‘onish. Jadidchilik.
7. Jadidchilik va milliy teatr.
8. Jadidchilik va milliy istiqlol g‘oyasi.
9. Ma'rifatparvarlik va milliy uyg‘onish.
10. Jadidchilik va milliy matbuot.
11. Jadidchilik va zamonaviy nasr.
12. She'riyatning yangilanish tamoyillari.
13. Jadidchilik va ta'lif-tarbiya masalalari.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Ushbu fanni o‘rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy masalalarni yechishda ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta’lim tizimiga asoslanib, kafedra o‘qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo‘srimcha adabiyotlarni o‘rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar, va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg‘ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi:

- amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishslash;

- talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari hamda mavzularni chuqr o‘rganish;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorlanish.
2. Seminar mashg‘ulotlariga tayyorlanish.
3. Muhammad Yusuf Bayoniy.
4. Zavqiy. Biografiyasi. G‘azallari tahlili.
5. Anbar Otin. Hayoti va ijodi. “Qarolar falsafasi” dostoni tahlili.
6. Yusuf Saryomiy va tasavvuf adabiyoti.
7. Avaz O‘tar o‘g‘li. She’rlari tahlili.
8. Haziniy. Devoni. G‘azallari tahlili.
9. Siddiqiy-Ajziy ijodida ma’rifat va Vatan mavzusi talqini.
10. Munavvarqori Abdirashidxonov – o‘zbek jadidchilik harakatining yo‘lboshchilaridan biri.
11. Vasliy Samarcandiy hayoti va ijodiy merosi.
12. Hamza. Dramalari. Publitsistikasi.
13. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining o‘rganilishi.
14. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotining xorijda tadqiq qilinishi.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti

Jadid adabiyotiga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, dissertatsiya va monografiyalar, internet ma'lumotlari dasturning informatsion-metodik ta'minotini tashkil etadi.

Dasturdagi mavzularni o‘tishda ta’limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o‘quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Klaster”, “Matbuot konferensiyasi”, “Bumerang”, “yelpig‘ich”, “Zinama-zina”, “Toifali jadval”, “ko‘rgazmali taqdimot”, “Rezyume” hamda «Muammoli ta’lim» texnologiyasining “Munozarali dars” metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

42. Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: Маънавият, 2005.
43. Қосимов Б. Ўзбек адабиёти ва адабий алоқалари тарихи. –Т.: Фан ва технология, 2008.
44. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. –Т.: Ўзбекистон, 2008.
45. Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. USA: University of California Press, 1998.

Qo‘shimcha adabiyotlar

46. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср адабиёти тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 1999.
47. Қосимов Б. Излай-излай топганим. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983.
48. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. Истиқлол фидойилари. –Т.: Шарқ, 1994.
49. Шарафиддинов О. Чўлпонни англаш. –Т.: Хазина, 1994.
50. Ризаев Ш. Жадид драмаси. –Т.: Шарқ, 1997.
51. Юсупов Ш. Хуфия қатламлар. –Т.: 1999.
52. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун қураш. Тўплам. – Т.: Университети, 1999.
53. Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. –Т.: 2003.
54. Қуронов Д. Чўлпон насли поэтикаси. – Т.: Шарқ, 2004.
55. Каримов Б. Янгиланиш соғинчи. Адабиёт жамғармаси нашриёти. -Т.: 2004.
56. Пардаев Қ. Ўзбек миллий уйғониш адабиётини ўрганишда матбуотнинг ўрни – Т.: Муҳаррир, 2012.

Internet saytlari

57. www.alishernavoiy.uz – [http:// www.alishernavoiy.uz/](http://www.alishernavoiy.uz)
58. www.ziyo-net.uz – [http:// zionet.uz/](http://www.ziyo-net.uz)
59. www.literature.uz – [http:// literature.uz/](http://www.literature.uz)
60. www.kutubxona.uz – [http:// kutubxona.uz/](http://www.kutubxona.uz)

«O‘ZBEK MUMTOZ VA MILLIY UYG‘ONISH ADABIYOTI» FANI BO‘YICHA TA’LIM TEXNOLOGIYASI

1- mavzu. Milliy uyg‘onish davrining o‘zbek adabiyotining ilk bosqichi

Mavzuning dolzarbliги:

Milliy uyg‘onish davrining o‘zbek adabiyotining birinchi bosqichi – “Ilk mustamlakachilik davri: manbalari, yuzaga kelishi” 1865-1905 yillarni o‘z ichiga oladi. Davr voqyealarining tarixiy-badiiy asarlarda o‘z ifodasini topishi. Chor Rossiyasi tomonidan xonliklarning, markaziy shaharlarning bosib olinishi, mustamlaka zulmining kuchayishi, ma’naviy hayotning porakandalikka yuz tutishi, xalq ozodlik harakatlarining bu davr adabiyotiga alohida mavzu sifatida kirib kelishi. Adabiy janrlar va vaznlarning yangilanishi. Bosmaxonalarning vujudga kelishi, matbuotning yo‘lga qo‘yilishi, o‘qitish tizimidagi yangiliklar mustamlaka o‘lkada yangicha ma’rifatparvarlikning vujudga kelishi.

Ma’ruzaning qisqacha bayoni:

“Uyg‘onish” (Renessans) tushunchasi qadim antik adabiyotga nisbatan olingan bo‘lib, o‘rtalarda ilm-fan jonlanishini ko‘zda tutadi. “Milliy uyg‘onish”da, esa, millatning o‘zligini anglashi asos qilib olinadi. “Milliy uyg‘onish” davri adabiyoti” deyilganda 1865-1929 yillar adabiyoti ko‘zda tutiladi. U o‘ziga xos bir davrdir. 1853-1885 yillarda Turkiston Rossiya tomonidan bosib olindi. O‘scha davrda yozilgan tarixiy asarlarida istiloning dahshatli manzaralari hikoya qilingan.

Bu davr adabiyoti yangilanish davri adabiyotidir. Unda qadim davrlardan kelayotgan adabiy turlar saqlandi. Devon adabiyotida she’riyat asosiy o‘rin egalladi. Aruz asosiy vazn bo‘ldi. Sayohat xotiralarini ifodalovchi sayohatnomalar janri maydonga keldi.

Keng ma’noni qamrab oluvchi ishq mavzui bu davrda ham she’riyatning markaziy mavzui bo‘lib qoldi. Lekin ilohiy ishq, tasavvuf g‘oyalari kuchaydi. Badiiy adabiyotda hajviyot rivoj topdi. Adresli tanqid kuchaydi. Realistik tasvir keng o‘rin ola boshladi. Kundalik matbuot va bosmaxonalarning maydonga kelishi bilan she’riyat va o‘quvchi orasi yaqinlashdi. Yangi janrlar paydo bo‘ldi.

Ikkitillilik (zullisonayn) an'anasi davom etdi.

Xorazmda Ogahiy, Bayoniy kabi ijodkorlar tashabbusi bilan tarjima maktabi maydonga keldi. O‘nlab asarlar fors tilidan tarjima qilindi. Rus adabiyotidan tarjimalar usuli jadid maktablari uchun tuzilgan darsliklariga kiritildi.

Adabiy harakatchilik an'anaga ko‘ra ko‘proq Qo‘qon, Xiva, Samarqand, Buxoroda rivoj topdi. Toshkent ham yangi poytaxt sifatida tez yuksalib, adabiy-madaniy markazga aylana boshladi, noshirlik va gazetachilik rivojlandi.

2-mavzu. Komil Xorazmiy (1825 – 1899) – yangicha ma’rifatparvarlik namoyandasasi (2 soat)

Mavzuning dolzarbliги:

Ijodiy merosining o‘rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Komil yirik madaniy tadbirlar tashkilotchisi sifatida. Toshkent safari (1991). Komil ijodida yangicha ma’rifatparvarlik. Hayotining oxirgi yillari, fojiasi. Komil va Feruz

munosabatlarining yangicha talqini. Ijodiy merosi: lirikasi, hajviyoti, tadqiqotlari. Bastakor, musiqashunos va tarjimon sifatidagi faoliyati.

Ma'ruzaning qisqacha bayoni:

Komil hayotlik chog‘idayoq xalqning e’tiboriga tushgan va ijodiga bo‘lgan qiziqish paydo bo‘la boshlagan hamda zamondagi shoirlari tomonidan tan olingan edi. Shuning uchun ham shu davrda tuzilgan ko‘plab bayoz-majmualarda shoир ijodidan namunalar kiritildi hamda fazlu kamolotga erishgan shoир, tiyrak aql hamda fikrda sobit davlat va jamoat arbobi sifatida yuqori baholandi. Shuningdek, ingliz va rus tarixchilar tomonidan Komil shaxsiga alohida e’tibor qaratilgan.

Komil Xorazmiyning musiqa sohasidagi xizmatlari turli asarlarda alohida e’tirof etilgan.

Komil Xorazmiy yaxshi xattot ham edi. U bu san’atni yuqori darajada egalladi, shogirdlar yetishtirdi. Komil shoир sifatida el orasida erta shuhrat qozondi.

Komil Xorazmiyning faoliyatida tarjimonlik muhim o‘rin tutadi. Mumtoz forstojik adabiyoti namunalaridan “Mahbub ul-qulub” (xalq orasida “Mahfil oro” nomi bilan mashhur), “Latoyif ut-tavoyif” kabi asarlarni o‘zbekchaga o‘girdi.

3-mavzu. Feruz (1844 – 1910) – adabiyot va ma'rifat, ilm-fan va madaniyat homiysi (2 soat)

Mavzuning dolzarbligi:

Feruzning adabiy merosi. Shoир ijodini o‘rganish tarixidan. Tarjimai holi. Adabiyot va san’at rahnamosi. Feruz – musiqashunos, mohir sozanda va bastakor, san’atkor hamda talabchan muxlis. Feruz – maorif homiysi va taraqqiyatparvar. Ilk matbaachilik va adabiy meros targ‘ibidagi xizmatlari. Feruz va Rossiya istilochilik siyosati. Feruz va Xorazm adabiy muhiti.

Ma'ruzaning qisqacha bayoni:

Muhammad Rahimxon Soniy Feruz XIX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo‘shti: saroyda o‘nlab shoirlar, sozanda va go‘yandalar, muarrixlar, tarjimonlar, xattotlar, noshirlar uning homiyligida badiiy ijod bilan shug‘ullandilar.

Xorazm tarixiga oid birlamchi manbalarda Feruz haqida ilk ma'lumotlar berilgan. Feruz faoliyati va ijodini o‘rganish Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi.

1863 yili Feruzning otasi Sayyid Muhammadxon vafot etadi, 19 yoshli Muhammad Rahim Xiva xonligi taxtiga ko‘tariladi. Feruz adolatli xon, aql bilan siyosat yurgizuvchi davlat arbobi edi. U o‘ta og‘ir sharoitda davlatni boshqardi.

Muhammad Rahimxon Xorazmda ulkan tarjima maktabini vujudga keltirdi, Sharqning o‘nlab adabiy-tarixiy, pedagogik obidalarini tarjima qilishga bosh bo‘ldi. U Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib Xivada bosmaxona tashkil qildi va kitob nashrini yo‘lga qo‘ydi.

Feruz o‘z davrining nihoyatda peshqadam ziyolisi edi. U musiqashunos, bastakor, musiqa sirlaridan xabardor san’atkordir. U bastakor sifatida «Shashmaqom» yo‘llarida o‘ndan ortiq mustaqil kuy yaratdi.

1891 yili Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Xivada «usuli savtiya» metodiga asoslangan maktab ochildi. Xon bunga nafaqat xayrixohlik bildirdi, o‘zi ham bunday maktablarni ochishga bosh-qosh bo‘ldi. Xon farmoniga binoan 1904 yili Urganchda «usuli savtiya» maktabi ochiladi. 1906 yili esa xuddi shunday maktab qizlar uchun ham tashkil qilinadi.

Shoir merosi bizgacha ancha parokanda holda yetib kelgan. Uning bizgacha yetib kelgan ijodiy merosi u darajada katta emas. Umumiy hajmi 2534 misradan – 98 g‘azal, 7 muxammas, 2 musaddas, 4 masnaviy, 7 ruboiydan iborat.

Feruzning o‘ziga xos so‘z san’atkori bo‘lib yetishuvida Ogahiy she’riyati ijod maktabi vazifasini o‘tadi. Feruz lirikasining asosiy mavzui ishq-muhabbatdir. Uning lirikasida shohning emas, oddiy insonning – oshiqning ruhiy kechinmalari, iztiroblari o‘z ifodasini topgan. Feruz masnaviy janrida ham muvaffaqiyatlari qalam tebratdi. Jami 706 misrani o‘z ichiga olgan to‘rt masnaviysi buning yorqin dalili.

4-mavzu. Ahmad Tabibiy (1869-1911).

Mavzuning dolzarbligi:

Tabibiy hayoti va ijodi. Tabibiy va mumtoz adabiyot. “Majmuat ush –shuar” tazkirasi. Lirik merosi. “Vomiq va Uzro” dostoni. Tabibiyning san’at, musiqa, xattotlik sohasidagi faoliyati, o‘zbek madaniyati tarixidagi o‘rni.

Qo‘qon adabiy muhiti. Muqimiy hayoti va adabiy merosi o‘rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Toshkentdagi hayoti (1887, 1892, 1899 yillar). Hayotining so‘nggi yillari. Ijodiy merosi: lirikasi, hajviyoti. Shoir satirasida siyosiy mavzu. Yumorlari. (“Ot”, “Ko‘s” turkumlari). “Sayohatnomalar”. Muqimiy ijodida maktub janri.

Ma’ruzaning qisqacha bayoni:

Ahmad Tabibiy XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida faoliyat ko‘rsatgan sermahsul ijod sohibi. U badiiy adabiyotning deyarli barcha turlarida ijod qildi, betakror asarlar yaratdi, o‘ziga xos shoir, dostonnavis, tarjimon, tazkiravanis bo‘lib tanildi.

Ahmad Tabibiy shaxsiyati, ijodiy merosi haqida dastlab o‘z zamonasida yaratilgan asarlarda ma’lumot berilgan.

Otasi o‘g‘lining o‘qishiga katta ahamiyat berdi. Fors, arab tillarini chuqr o‘rganishiga rahnamolik qildi, tabiblikni o‘rgatdi. Shuning uchun ham Ahmad o‘ziga “Tabibiy” taxallusini tanladi. Uning she’riyatdagi shuhrati keng yoyildi. Natijada Feruz uni saroya taklif qildi. Xon Tabibiyning kuchli iqtidorini bilib Xorazm shoirlari tazkirasini tuzishini amr etadi. Ahmad Tabibiy «Majmuatush-shuar»ni 1909 yili poyoniga yetkazdi. Uning qurilishi va uslubida Qo‘qonda tuzilgan Fazliy Namangoniy tazkirasining ta’siri seziladi.

Tabibiy salmoqli adabiy meros qoldirdi. Uning besh devoni bor.

Tabibiy Alisher Navoiy va Fuzuliy ijodiga alohida ixlos bilan qaradi. Umuman, unda an'anaviylik kuchli. Tabibiy ijodida ma’rifat mavzui, ma’rifatparvarlik g‘oyasi muhim o‘rin tutadi.

1908 yili Ahmad Tabibiy Fuzuliyning falsafiy-didaktik dostoni «Haft jom» («etti jom»)ni fors tilidan tarjima qildi. Fuzuliyning ushbu dostoni ta’sirida «etti ravza» («etti bog») nomli axloqiy-ta’limiy doston yaratdi.

Tabibiy adabiyotimiz tarixida dostonnavis shoir sifatida tanilgan. U Sharq adabiyotida mashhur bo‘lgan «Vomiq va Azro» afsonasining she’riy variantini yaratdi.

5-mavzu. Muqimiyl (1850-1903)

Mavzuning dolzarbliyi:

Muqimiyl o‘z ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida devon adabiyoti deb nomlanadigan Sharq adabiyotidagi eng yaxshi an’analarni davom ettirdi. Ayni paytda rus istilosiga bois ijtimoiy hayotda kechayotgan o‘zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida munosib hissa qo‘shdi.

Shoir ijodini o‘rganish uning hayotlik chog‘idan boshlangan. Shoir vafotidan keyin uning devoni «Devoni Muqimiyl» nomi bilan ilk bor 1907, 1910 va 1912 yillari uch marta nashr etildi.

Ma’ruzaning qisqacha bayoni:

Muqimiyl 1887-1888 yillarda Toshkentga keladi, Almaiy, Nodim Namangoniy bilan tanishadi. Ular bilan yaqindan aloqa bog‘laydi.

Shoirning bizgacha yetib kelgan ijodiy merosi 10 ming misra atrofida. Ular asosan lirika va hajviyotdan iborat.

Muqimiyning juda ko‘p g‘azallari uning tirikligidayoq qo‘shiq qilib kuylangan. Uning she’rlari ko‘proq xonandalar orqali yoyilgan. Bu she’rlarning mavzui aksariyat an’anaviy, yor haqida.

Muqimiyl lirik janrlardan murabbaga alohida e’tibor berdi. Muqimiyning murabbalari yigirmadan ortiq, deyarli hammasi ishqiy mavzuda.

Muqimiyl ko‘plab hajviy she’rlar ham yozdi. XIX asr oxiridagi tarixiy sharoitda tomir otgan takabbur, poraxo‘r tanobchilarining, tovlamachi, yulgi‘ichlarning esda qoladigan obrazlarini yaratdi.

Muqimiyl Farg‘ona vodiysi bo‘ylab qilgan sayohatlari taassurotlarini she’r qilib yozdi va bular “Sayohatnoma” nomi bilan shuhrat topdi. Jami: 244 misra. Asarda sayohat sababi beriladi, so‘ng turli manzil-qishloqlar, ularning tabiatni, manzaralari tasvir etiladi. Joylardagi odamlar, fe'l-udumlar hikoya qilinadi.

Muqimiyl “Sayohatnoma”si Qo‘qon shoirlari orasida aks-sado topgan. Furqat, Zavqiy, Tajalliy kabi shoirlar Muqimiyl asarining vazni va radifi bilan sayohatnomalar yozganlar.

6-mavzu. Furqat (1859-1909). Furqatshunoslik tadriji. Ijodiy merosi

Mavzuning dolzarbliyi:

Furqatning Farg‘ona hamda Toshkent davri faoliyati. Furqatshunoslik tadriji. Yangicha ma’rifatparvarlik faoliyati. Rus mustamlaka siyosatiga munosabati. Furqat va jadidchilik. Tasavvuf ta’limotiga oid qarashlari. Chet ellardagi faoliyati. Ijodiy merosi.

Ma’ruzaning qisqacha mazmuni:

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o‘zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodiyoti uning tirikligidayoq matbuot sahifalarida, bayozlarda ko‘rindi. Uning hayot yo‘li «Turkiston

viloyatining gazeti»da «Qo‘qonlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti» nomi bilan o‘zbek-rus tillarida chop etildi.

Furqat Qo‘qonda Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir kabi shoirlarning muhitida ijod qildi. Ayni shu davrlarda Furqat faqat she’rlargina emas, balki “Hammomi xayol” deb nomlangan risola ham yozadi. «Nuh manzar», “Chor darvesh” degan asarlarni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiladi.

Shoir Furqatning 1889-1891 yillar Toshkentdagi hayoti uning taqdirida ayricha ahamiyatga ega. Bu yerda Furqat Sattorxon Abdug‘afforov, Saidrasul Saidazimov, Sharifxo‘ja Poshshoxo‘ja o‘g‘li, Muhiddinxo‘ja Hakimxo‘ja o‘g‘li kabilar bilan tanishadi.

Furqat Toshkentning madaniy hayoti bilan doimo qiziqib yashadi. Teatrلarga bordi, ko‘rgazmalarни tomosho qildi, gimnaziya darsxonalarini ko‘zdan kechirdi va taassurotlarini “Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Vistavka xususida”, “Suvorov haqida doston”, “Nag‘ma bazmi xususida” kabi asarlarda bayon qildi.

Furqatning “Turkiston viloyati gazeti” muharriri N.P.Ostroumov bilan tanishuvi uni shu gazet bilan doimiy bog‘ladi. Ma'lum muddat mazkur gazetaning tarjimoni bo‘lib ham ishladi. “Ho‘qandlik Zokirjon Furqatning ahvoloti, o‘zi yozg‘onlari” deb atalgan tarjimai holi ham aynan shu gazetaning 1891 yildagi bir necha sonlarida bosilib chiqdi. Mutaxassislar esa uni “Furqatnama”, «Sarguzashtnama», «Ahvolot» nomlari bilan ataydilar.

1892 yilning may-iyun oylarida haj ziyoratidan so‘ng 1893 Yorkentga keladi va shu yerda umrining oxirigacha yashab qoladi.

Shoir lirik merosining eng yuqori mavqyeini asosan g‘azallar egallaydi. G‘azallarining umumiyligi adadi 200 atrofida.

Furqatning “Qavodi Chin va umuroti siyosiy” asari tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. Asarda oila va uning mustahkamligini ta'minlashda eru xotinning huquq va burchlari, aka-ukalar munosabati, do'stlik va qo‘ni-qo‘shnichilik odoblari haqida ibratli mulohazalar bayon qilingan.

Furqatning uchta elshunoslik yo‘nalishidagi va bitta adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi ilmiy asari yetib kelgan.

Furqatning dastlabki jurnalistlik faoliyati “Turkiston viloyati gazeti”da boshlandi. Ilk maqolasi Toshkentdagi rus gimnaziyasidan olgan taassurotlari asosida yozilgan. Keyinchalik esa Xorijdan – Istanbul, Hindiston, Qashqardan yo‘llagan xabar va maqolalarida bu mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti haqidagi muhim masalalarni ko‘tarib chiqadi.

7-mavzu. Is’hoqxon Ibrat (1862-1937). Ma'rifatparvar shoir, publisist, tarixshunos, tilshunos olim

Mavzuning dolzarbli:

Ma'rifatparvar shoir, publisist, tarixshunos, tilshunos olim, sayyoh, ilk o‘zbek matbaachilaridan biri sifatidagi faoliyati. Hayoti va ijodi. Chet ellarga sayohati. “Usuli jadid” maktabalarini ochishi. “Matbaai Is’hoqiya”, “Kutubxonai Is’hoqiya”ning vujudga kelishi. Matbuotda chop etilgan asarlari. Ilmiy faoliyati. Rus bosqiniga munosabati.

Ma'ruzanining qisqacha mazmuni:

Is'hoqxon Junaydullo o'g'li Ibrat 1862 yilda Namangan viloyatidagi To'raqo'rg'on tumanida tug'ildi. Uning ota-onalari Junaydullaxo'ja va Huribibi o'z davrining o'qimishli kishilaridan bo'lganlar. Yosh Is'hoqxon ilk tahsilni onasidan oladi.

U 1878 yili Qo'qondagi Muhammad Siddiq Tunqator madrasasiga o'qishga boradi. Ibratning Qo'qon madrasasida tahsil ko'rgan yillari (1878-1886) o'zbek adabiyoti, madaniy hayotida tub o'zgarish sodir bo'layotgan davrga to'g'ri keldi. U Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyandalari – Muqimiyl, Furqat, Zavqiy, Nodim, Haziniy va Muhyilar bilan yaqin aloqada bo'lgan.

1886 yilda shoir To'raqo'rg'onga qaytib keladi va yangicha usuldagagi maktab ochadi. 1887 yilda onasini Makkaga olib borishga otlanadi. Ibratning Sharq mamlakatlariga safarga chiqishdan asosiy maqsadi, chet el xalqlari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishish edi. Safar davomida Is'hoqxon Ibrat Istanbul, Suriya, Afina, Rim kabi yevropaning markaziy shaharlarida bo'ldi. 1892-1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombey va Kalkuttada yashadi. U bu yerda arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini, shu bilan birga eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o'rgandi. Ibrat 1896 yilda Qashqar orqali o'z yurtiga qaytib keldi.

Ibrat u olti tildagi: arab, fors, hind, turk, rus va o'zbek tillaridagi «Lug'ati sitta-al-sina» («Olti tilli lug'at»)ni yaratdi. Mazkur asar 1901 yilda Toshkentdag'i V.I.Ilin bosmaxonasida nashrdan chiqdi. Keyinroq «Jome' ul-xutut» («Yozuvlar mazmuasi») nomli ilmiy asar yaratdi. Bu asarda muallif yozuvlarning eng ibtidoysi – piktografik yozuvlardan to so'nggi davr eng mukammal yozuvlargacha bosib o'tgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qiladi.

Ibrat 1907 yilda o'z xonardonida yangi usuldagagi maktab ochdi. O'zi ochgan maktabni stol, stul, parta, doska, yangi darsliklar bilan ta'minladi. Maktab uchun darsliklar yozdi. Uning 14 ta ilmiy-pedagogik asari mavjud.

Is'hoqxon Ibrat 1913 yilda «Matbaai Is'hoqiya» qoshida «Al-tijor al-Namangan» nomida gazeta chiqarishga harakat qildi va bu haqda hukumatga ariza ham beradi. Is'hoqxon gazeta nashr qilishga muvaffaq bo'la olmadi, lekin o'z uyida anchagina boy kutubxona tashkil qildi va uni «Kutubxonai Is'hoqiya» deb atadi. Mazkur kutubxonada ta'llim-tarbiya va o'qitishga oid o'zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida ko'plab kitoblar bo'lgan. «Kutubxonai Is'hoqiya» kitob fondining kattalashib borishida «Matbaai Is'hoqiya» katta rol o'ynagan. Bu matbaada chop etilgan kitoblarning deyarli hammasidan bir necha nusxa «Kutubxonai Is'hoqiya»ga topshirilar edi.

Ibrat o'zining 1916 yilda yaratgan «Tarixi madaniyat» asaridan keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asarlar va 30 yillik nazmiy ijodining majmui bo'lmish «Devoni Ibrat» she'rlar to'plamini yaratdi.

Ibrat yaratgan she'rlar o'zining mazmuni va ilgari surgan g'oyalariga ko'ra juda xalqchil, insonparvarona xarakterga ega. Is'hoqxon Ibrat yirik tarixnavis hamdir. Uning "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat", "Mezon-uz zamon" kabi tarixiy-ilmiy asarlari Vatanimiz tarixi va madaniyatini o'rganishda birlamchi manbalardan bo'lib xizmat qilishi tayin.

8-mavzu. Fazlluloh Almaiy. Karimbek Kamiy (1865-1922).

Ma'ruzuning dolzarbligi:

Ijodiy merosi. Lirikasi. Tarjimalari (“Kalila va Dimna”). Hikoyalaridan namunalar. Almaiyning o‘zbek tarjima adabiyotida tutgan o‘rni.

Kamiy ijodiga munosabat masalasi. Tarjimai holi. Kamiy va Toshkent adabiy muhiti. Ma'rifat mavzuidagi she'rlari. Hajviyoti. Tarjimalari. Kamiy dunyoqarashi. Shoир ijodida tasavvufiy unsurlar. Diniy mavzu. Jadidcha va qadimcha qarashlari.

Ma'ruzaning qisqacha mazmuni:

Almaiy XIX asr o‘zbek adabiyotining Toshkentda yetishgan taniqli vakillaridan, shoир, olim va tarjimondir. El orasida “Qori Fazlulloh” nomi bilan mashhur bo‘lgan.

U 1852 yilda Toshkent shahrining Qo‘shtut mahallasida tug‘ilgan. Otasi Mirjalol bo‘zchilik bilan shug‘ullangan. Yosh Fazlulloh mahalladagi eski maktabda, so‘ng Hastimom yonidagi “Mo‘yi Muborak” madrasasida, so‘ng Buxoro madrasasida o‘qiydi.

Madrasadan keyin Fazlulloh Eski Jo‘vada joylashgan Shukurxon madrasasida mudarrislik qila boshlaydi.

U asosan xattotlik va tarjimonlik bilan ro‘zg‘or tebratgan. Fazlulloh “nasta’liq” va “xatti noxuniy” (tirnoq bilan yozish) san'atlarini egallagan xattot edi. U Toshkentda keng tarqalgan “Bedilxonlik” yig‘inlarida qatnashgani ma'lum. XIX asrning so‘ngida Toshkentda tan olingan 7 bedilxonning biri Qori Fazlulloh edi.

Fazlulloh yoshligidan she'rga ko‘ngil qo‘ydi. G‘azallar mashq qildi. Hajvlar, hazil-mutoyibalar yozdi. So‘ngroq u “Almaiy” (arabcha “sinchkov, ziyrak” degani) taxallusli shoир sifatida tanildi. Arab tili grammatikasiga oid “Avzon ul-jumu” (“Ko‘plik vaznlari”) nomli kitob yozdi.

Fazlulloh uch tilda baravar ijod eta olgan shoир edi. She'rlarini to‘plab, devon tuzgan, biroq bu devonning taqdiri noma'lum.

Almaiyning eng katta xizmatlaridan biri “Kalila va Dimna”ni tarjima qilishi bo‘ldi. 15 yilda “Kalila va Dimnai turkiy” nomi bilan uch marta (1898-1901-1913) chop etildi.

“Kalila va Dimna” o‘zbek tiliga birinchi marta XVIII asrda Sharqiy Turkistonda tarjima qilingan. So‘ng 1718-19 yillarda Qashqarda, 1837-38 yillarda Xorazmda tarjima qilingan. Almaiyning tarjiması “Kalila va Dimna”ning turk (o‘zbek) tilidagi ilmga ma'lum bo‘lgan to‘rtinchi tarjimasidir.

Karimbek Kamiy – milliy uyg‘onish davrining faol ijodkorlaridan. Shoир ijodini o‘rganishda asosiy manba – uning asarlari. Asarlarining shu davrda tuzilgan bayozlarga kiritilishi, vaqtli matbuotlarda bot-bot chop etilishi shoир ijodini ommalashtirishning birinchi bosqichi edi.

Shoир Karimbek Kamiy o‘z davrining e’tirof etilgan shoirlaridan biri sifatida haqli suratda XX asrda tuzilgan majmua-bayozlardan o‘rin olishi bilan bir qatorda, bayozlarda ijodkor do‘sstar tomonidan u haqda yozilgan g‘azallar ham uchraydiki, bu ham Kamiyning shoirlilik darajasini belgilab beradi.

Kamiy ibridoiy maktabni tamom qilib, «Beklarbegi» madrasasiga kelgan. Shoир Karimbek Kamiy 90-yillarga kelib ustoz shoirlar qatoridan o‘rin oldi. Shoирning ba'zi bir she'rlari va ayrim manbalar uning 1899 yili Chimkent, 1911 yili Andijon va Qo‘qon, 1912 yilda Chimkent, Sayram, Avliyoota safarlarida bo‘lganligidan dalolat beradi.

Kamiy sermahsul mumtoz she'riyatimizning g'azal, murabba', muxammas, musaddas, ruboiy, qit'a, fard kabi janrlarida qalam tebratdi. Ijtimoiy - falsafiy ruhdagi manzumalar yozdi. Adabiy-ijtimoiy hayotdagi eng muhim voqyealar sanasini o'zida darj etgan ta'rixlar yaratdi. Shoirdan 6000 misraga yaqinroq adabiy meros qolgan.

Kamiy ijodiyotining asosiy qismini ishqiy lirika tashkil qiladi. Kamiyning ma'rifatparvarlik she'riyati gimnaziyanı tanishtiruvchi she'lari bilan boshlandi. Bu jihatdan u Furqat maktabining davomchisiga aylangan edi. Lekin, shoir ijodida keyinchalik uslubiy o'zgarishlar yuz berdi. U, asosan, milliy madrasalarimizning tolibi ilmlarini ilmga chaqiruvchi da'vatkorona ruh oldi. XX asrning 10-yillarga kelib Kamiy ma'rifatparvarligi yangi bosqichga ko'tarildi. Endi uning da'vati ilm toliblariga emas, millatga qaratildi. Kamiyning bunday xarakterdagi she'lari milliy-ma'rifiy ruh bilan uyg'unlashib, shoir ijodida millatparvarlik she'riyatining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Kamiy an'anaviy shakllarni takomillashtirish, yangi mazmunni ifodalovchi yangi obraz va tasviriy vositalar yaratish bilan milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotini boyitishga munosib hissa qo'shdi.

9-10-mavzular: XX asr boshlari Turkiston ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot.

Ismoilbek Gasprinskiy (1851-1914). Hayoti va faoliyati (2 soat)

Mavzuning dolzarbligi:

XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy siyosiy, madaniy hayot. Jadidchilik. Turkistonda jadidchilikning rivojlanish bosqichlari. Davrlashtirish tamoyillari. Jadid adabiyoti.

Gasprinskiy jadid harakatining asoschisi. "Tarjimon" gazetasining tashkil etilishi va turkiy dunyodagi matbuotga ta'siri. Ijtimoiy-siyosiy faoliyati. Publitsistikasi va nasriy asarlari.

Ma'ruzaning qisqacha mazmuni:

Mazkur davr xronologiyaga ko'ra ikki qismni o'z ichiga oladi: 1. 1905-1917 yillar; 2. XX asrning 20-yillari.

1905-1917 yillarda Rusiya va jahon tarixida yuz bergen bir qator muhim siyosiy voqyealar Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Chunonchi, 1904 yilda boshlangan rus-yapon urushi va Rusiyaning yengilishi, 1905 yilda mamlakatda yuz bergen hukumatga qarshi g'alayonlar va bularning natijasi o'laroq podsho 2-Nikolayning barcha fuqarolarga, shu jumladan, tobe' millatlarga so'z, matbuot, vijdon erkinligini va'da etuvchi 17 Oktyabr Manifestini e'lon qilishga majbur bo'lishi, Birinchi Juhon urushi va Turkistondagi mardikorlik voqyealari, 1917 yil Fevral, Oktyabr o'zgarishlari, nihoyat shu yili 27 noyabrda Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi va xoinona qonga botirilishi kabi olamshumul hodisalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. XX asr boshida Rusiyaning bir-biridan uzoq uch nuqtasida - Turkiston, Kavkaz, Volgabo'yida istiqomat qilayotgan turkiy xalqlar o'rtasida qardoshlik va hamkorlikka tayanuvchi o'zaro xabardorlik paydo bo'ldi.

1920-yillarning birinchi yarmidagi qizg'in adabiy-madaniy harakatchilik va Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon ijodi misolida yangi adabiyotning eng sara namunalarining xuddi shu davrda maydonga kelishi bejiz emas.

1905 yil 17 Oktyabr Manifesti xalqqa matbuot va siyosiy tashkilotlar tuzishga ruxsat bergach, Turkiston jadidlari bir qator uyushma-jamiyatlar bilan birga gazeta-jurnal ishlariga ham kirishdilar. Adabiy kuchlar ko‘proq mana shu gazeta-jurnallar atrofida uyushdilar.

1910-yillarning boshida yangi adabiyot shakllanib ulgurgan edi. Asr boshlarida yaratilgan darslik va darslik-majmualari, xususan, ulardagi ixcham didaktik she'r va hikoyalar yangi adabiyotning shakllanishida ilk tajribalar vazifasini o‘tadi.

Matbuotning maydonga kelishi publisistika taraqqiyotiga yo‘l ochdi. Birinchi Jahon urushi yillarida, so‘ng inqilobiy harakatlar davrida matbuot va adabiyot faollashdi.

1910-yillarning ikkinchi yarmi “O‘zbek jadid adabiyoti” nomi bilan tarixga kirgan yangi adabiyotning shakllanib, dastlabki dadil qadamlarini tashlagan yillar bo‘ldi. Davrning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda sotsial-ijtimoiy mavzularga, zamonaviy masalalarga, ma’rifat va ozodlikka katta e’tibor berildi.

Yangi zamonaviy adabiyotshunoslik va tanqid shakllandı. Zamon va ijod, badiiy adabiyot tili, yangi adabiy janrlar bilan bog‘liq masalalar matbuot sahifalarida keng muhokama qilindi.

Ismoilbek Gasprinskiy Rusiya jadidchilik harakatining rahnamosi edi. Turkistonda XIX asrning oxirlaridan ko‘zga tashlangan yangilanish harakatlari ko‘p jihatlari bilan shu nomga, uning “Tarjimon” gazetasiga kelib bog‘lanadi. Uning ijodiy faoliyati va ayniqsa, maslak-tilishlari bilan tanishish Turkiston jadidchiligi va jadid adabiyotining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarinigina emas, umuman mazmun-mohiyatini anglashda, yo‘nalishlarini belgilashda ham benihoya muhim ahamiyatga ega.

Ismoilbek Sharq xalqlari ma’naviy hayotida, xususan, maktab-maorifida chinakam inqilob yasagan, “usuli jadid” nomi bilan tarixga kirgan “usuli savtiya”ni boshlab berdi. XX asr Sharqining eng mashhur, eng taraqqiyparvar harakatchiligidagi jadidchilikka asos soldi.

Ismoilbek 1893 va 1908 yillarda Turkistonga keladi.

Uning “Farangiston maktublari” (1887), “Dorur-rohat musulmonlari” (1889), “Sudan maktublari” (1889), “Xotinlar o‘lkasi” (1890), “Gulbobo ziyorati” (1908), “Arslon qiz”, “Kun tug‘di”, “Ivan va Sulaymon” (1897), “Baloyi islom” (1905), “Mukolamayi salotin” kabi ko‘plab nasriy asarlari bor. Gaspralining xotin-qizlar va ularning jamiyatdagi o‘rni masalasi haqidagi qarashlari “Xotinlar o‘lkasi” nomli xayoliy-sarguzasht qissasida aks etdi.

I.Gasprinskiyning hayoti va sermazmun faoliyatini Turkistonsiz, uning tarixi va taqdiri haqidagi o‘ylarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ulug‘ mutafakkir Turkiston xalqlarining boy ma’naviy merosini Rusiya musulmonlari borasidagi yangilanish va islohotchilik harakatlari uchun ma’naviy omil deb biladi. Ayni paytda, butun vujudi bilan Turkiston uchun ham najot yo‘lini izlaydi va buni yangilanishda, islohotda ko‘radi. Shunga ko‘ra, uning qarashlari ham Turkiston bilan teran bog‘langan edi. Shu sababli bu fikr-qarashlar Turkistonda aks-sado topdigina emas, turkistonlik taraqqiyparvar ziylolar uchun dasturilamal vazifasini bajardi.

11-mavzu: Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919).

Hayoti va faoliyatining o‘rganilish tarixi

Mavzuning dolzarbliji:

Hayoti va faoliyatining o‘rganilishi tarixi. Tarjimai holi. Behbudiy va Turkiston milliy matbuoti. Ijodiy merosi. “Padarkush” pesasi. Publitsistikasi. Adabiy- estetik qarashlari.

Ma’ruzaning qisqacha mazmuni:

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida 20-yillarda mahalliy matbuotda Sadriddin Ayniy, Hoji Muin ibn Shukrullo, Laziz Azizzoda kabi zamondoshlari tomonidan bir qator maqola, xotiralar e’lon qilingan. Keyingi yillarda, xususan, mustaqillikka erishilgandan so‘ng jadidlar faoliyatini o‘rganishga qiziqish kuchayishi bilan Behbudiy ham qayta kashf etila boshlandi.

U dastlab Samarqand madrasasida, so‘ngroq Buxoroda tahsil ko‘rgan. 1899-1900 yillarda Behbudiy buxorolik do‘sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi va g‘ayrati bilan 1903 yilda Samarqand atrofidagi Halvoyi, Rajabamin qishloqlarida yangi maktablar tashkil topadi. Adib ushbu maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Ketma-ket uning “Risolai asbobi savod” (1904), “Risolai jug‘rofiyai umroniy” (1905), “Risolai jug‘rofiyai Rusiy” (1905), “Kitobat-ul atfol” (1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi kitoblari paydo bo‘ladi. Mahmudxo‘ja 1903-1904 yillarda Moskva, Peterburgga boradi, 1906 yilda Qozon, Ufa, Nijniy Novgorodda bo‘ladi. Bular sayohat emas, xizmat safari edi.

1911 yilda yozilgan “Padarkush” dramasi o‘zbek dramachiligining hamma yakdil e’tirof etgan birinchi namunasidir. Mutaxassislar uni ham janr, ham mazmuniga ko‘ra yangi o‘zbek adabiyotini boshlab bergen bir asar sifatida baholaydilar. “Padarkush” dastlab Samarqandda 1914 yilning 15 yanvarida sahnaga qo‘yildi. Toshkentda 1914 yilning 27 fevralida qo‘yildi. Avloniyning “Turon” truppasi Kolizey (hozirgi Savdo birjasi binosi)da o‘z faoliyatini mana shu “Padarkush” bilan boshlagan edi.

1913 yidan Behbudiy matbuot ishlari bilan shug‘ullanadi. Apreldan “Samarqand” gazetasini chiqaradi. O‘sha yilning 20 avgustidan u “Oyna” jurnalini chiqara boshlaydi. “Nashriyoti Behbudiya” nomi bilan o‘z xususiy nashriyotini ochdi. Kutubxonani yo‘lga qo‘ydi.

Behbudiy publitsist sifatida yuzlab maqolalar yozdi. O‘zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko‘proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi.

Behbudiy 1919 yilning bahorida Shahrisabzda qo‘lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi.

12-mavzu: Abdulla Avloniy (1878-1934). Hayoti sahifalari.

Mavzuning dolzarbliji:

Hayoti sahifalari. “Shuhrat” gazetasini chiqarish. Yangi maktablar tashkil etish. Ijtimoiy faoliyati. Ijodiy merosi. Pedagogik asarlari, she’riyati, dramalari, publitsistikasi.

Ma'ruzaning qisqacha mazmuni:

Abdulla Avloniy 1878 yilning 12 iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. U 7 yoshdan O'qchidagi eski maktabda Akramxon domlada savod chiqardi. 1890 yilda shu mahalladagi madrasaga o'tdi. So'ng Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxundda tahsil ko'rdi. Adabiyotga havas unda shu yillari uyg'ondi. 1904 yilda Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabi ochadi. 1907 yilda o'z hovlisida "Shuhrat" gazetasini chiqara boshlaydi. Gazeta yopiladi, Redaksiya mulki musodara qilinadi Lekin Avloniy bo'sh kelmaydi. A.Bektemirov nomiga ruxsat olib "Osiyo"ni chiqara boshladi. Bu gazetalar milliy matbuotning dastlabki namunalari bo'lishi bilan ham muhim edi. 1914-15 yillarda advokat U.Xo'jaev bilan "Sadoyi Turkiston"da hamkorlik qiladi.

Avloniy 1904-1905 yillardan ham ijodiy, ham amaliy ish bilan qizg'in shug'ullandi. O'z she'rlarini "Hijron" taxallusi bilan e'lon qildi. Maqolalarini esa "Mulla Abdulla", "Avloniy", "Abdulla Avloniy" nomlari bilan bosdirdi. So'ngroq uning ko'p ishlatgan laqablaridan biri "Indamas" bo'lgan edi.

1909 yilda "Jamiyati xayriya" ochdi va mahalliy xalq bolalarining o'qib bilim olishi uchun pul yig'ib, maktablarga tarqatdi. Jamiyat qoshida teatr truppassi tuzildi. Avloniy truppa uchun "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Biz va Siz", "Ikki sevgi", "Po'rtugaliya inqilobi" kabi dramalar yozdi, "Qotili Karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor oilasi", "Badbaxt kelin", "Xo'r-xo'r", "Jaholat", "O'liklar" kabi sahna asarlarini tatarcha, ozarbayjonchadan tarjima qildi. Shu yillari "Nashriyot", "Maktab" kabi shirkatlarni tuzishda bosh-qosh bo'ldi.

Avloniy 1917 yil Fevral voqyealaridan keyin "Yashasin xalq jumhuriyati!" shiori ostida "Turon" gazetasini chiqardi.

1909-17 yillar davomida maxsus maktab bolalari uchun yozilgan o'ndan ortiq kitobi maydonga keldi. Uning "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni" singari darsliklari, "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" to'plami 10-yillarda bir necha bor qayta bosilib chiqdi va Turkistonning juda ko'p yangi usul maktablari uchun qo'llanma bo'lib xizmat etdi.

Avloniy "1894 yildan boshlab she'r yozishga tutingan" bo'lsa-da, u she'rlar bizgacha yetib kelmagan. Uning 1917 yilgacha bo'lgan poetik merosi, asosan, "Adabiyot" nomli 6 qismdan iborat she'riy to'plamlarida jamlangan. Ularning har biri 1909-1917 yillar oralig'ida alohida-alohida bir necha marotaba nashr qilingan. Avloniy erk va ozodlikka olib boradigan birdan-bir yo'l deb ilm-ma'rifatni bildi. Shu sabab Vatani, xalqi uchun zarracha manfaat yetkazishni o'yagan kishini ma'rifatga da'vat etdi. Avloniyning "Mardikorlar ashulasi" kitobi ham shular sirasida.

Avloniy 1917 yilda o'qituvchilik bilan shug'ullanishga ham imkon topdi. Shoir 1917 yilda mahalliy muallimlar o'rtasida siyosiy ishlar olib boruvchi "O'qituvchilar soyuzi"ni tuzgan edi. 1919 yil iyunida Avloniy RSFSR hukumati topshirig'i bilan Afg'onistonga boradi. 1919 yil 28 sentyabridan 1920 yil 20 iyuligacha Hirotda bosh konsul bo'lib turdi. 1920 yili u sog'lig'i yomonlashgani bois Afg'onistondan chaqirib olindi va Turkbyuroning madaniyat bo'limiga boshliq etib tayinlandi. Shu yillari "Kasabachilik harakati" jurnali muharriri bo'lib ishladi. 1921 yidan Toshkentdagi o'lka bilim yurtida, 1923 yili xotin-qizlar bilim yurtida mudir, 1924 yilda harbiy maktabda o'qituvchilik qildi. 1925-30 yillarda O'rta Osiyo Kommunistik universiteti

(SAKU), O‘rta Osiyo Qishloq xo‘jaligi mактабида (SAVKSXSh) дарс берди. O‘rta Osiyo Davlat universiteti (SAGU) pedagogika fakultetining til va adabiyot kafedrasi professori, so‘ng mudiri bo‘lib ishlaydi.

Avloniy sovet davrida ijoddha ham faoliyatda ham inqilobdan ilgarigidek serharakat bo‘lgan emas. “Nabil”, “Indamas”, “Shuhrat”, “Tangriquli”, “Surayyo”, “Chol”, “Ab”, “Chegaboy”, “Abdulhaq” kabi imzolar bilan ko‘plab hajviy she’rlar, kulgi hikoyalar bostirib turdi. 1934 yil 25 avgustda vafot etdi.

13-14-mavzular: To‘lagan Xo‘jamyorov-Tavallo (1883-1937). Hayoti sahifalari. Ijodi. So‘fizoda (1880-1937)

Mavzuning dolzarbligi:

Tavallo va So‘fizodaning hayoti va ijodini o‘rganilish tarixi. Ijodkorlarning hayot yo‘li. Tavallo va So‘fizoda she’riyati. Tavallo va So‘fizoda – ma’rifatparvar shoirlar. Ular ijodining milliy uyg‘onish davri adabiyotida tutgan o‘rni.

Ma’ruzaning qisqacha mazmuni:

Tavallo – To‘lagan Xo‘jamyorov XX asr boshida Toshkentda yetishgan, xalq o‘rtasida katta shuhrat qozongan iste’doddardan. Eski mактабда savod chiqardi. “Beklarbegi” madrasasida, rus-tuzem mактабida o‘qidi. 17 yoshlik To‘lagan 1900 yilda otasining maslahati bilan Prjevalsk shahriga borib, Usmonbek Solihjonboev degan kishining qo‘lida ish yurituvchi (prikazchik) bo‘lib ishlay boshladи.

1910-yillardan vaqtli matbuotda “Tavallo” taxallusi bilan she’r va maqolalari bosila boshlaydi. 1914 yil 30 avgustda bir qator jadidlar bilan birgalikda Toshkentda “Nashriyot shirkatini tuzib, kitob chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. 1915 yilda esa Avloniy tashabbusi bilan tuzilgan “Turon” jamiyatida faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

1937 yil 14 avgustda Tavallo «aksilinqilobiy» “Turon”, “Sho‘royi islom”, “Ittihodi taraqqiy”, “Milliy ittihod”, “Milliy istiqlol” tashkilotlarining a’zosi”, “millionerning o‘g‘li”, “she’rlarida millatchilik g‘oyalarini ilgari surgan”likda ayblanib, qamoqqa olinadi. Shu yilning 19 oktyabrida NKVD qoshidagi uchlik majlisida Tavallo otib o‘ldirishga hukm qilinadi. Hukm shu yil 10 noyabrdan ijro etiladi.

Tavallo asarlarining qayta nashri va u haqdagi ma'lumotlarning berilishi 1968 yilga to‘g‘ri keladi. Uning yagona she’riy to‘plami “Ravnaq ul-isлом” alohida holda 1993 yildagina nashr qilindi.

Tavalloning ijodkor sifatida shakllanishida Toshkent adabiy muhitining roli katta bo‘ldi. Unga sayramlik shoir Yusuf Saryomiy ustozlik qildi. Taxallusni ham unga Yusuf Saryomiy bergan. Tavalloning she’r va maqolalari 10-yillardan matbuotda ko‘rinadi. Shoirning 1916 yilda “Ravnaq ul-isлом” nomi bilan chop etilgan she’riy to‘plami uning hayotlik davrida bosilgan bitta-yu bitta kitobidir. Maqolalari to‘plangan emas. 20-yillarda “Mushtum” hajviy jurnalining faollaridan edi. Mazkur jurnal sahifalarida “Mag‘zava” imzosi bilan o‘nlab hajviy she’rlari chop etilgan, ular ham yig‘ilgan, o‘rganilgan emas.

Tavallo Vatan mavzuiga alohida e’tibor beradi. She’rlaridan biri hatto “Suyukli Vatan haqinda” deb atalgan. Shoirning sevimli mavzularidan biri hurriyat edi. U inson erkini har narsadan ustun qo‘ydi. Uning talqinidagi erkning ma’nosi g‘oyat keng. Bu

erk siyosiy, iqtisodiy mustaqillikdan tortib nafsga, huzur-halovatga, qullikdan ozod bo‘lishgacha o‘z ichiga qamrab oldi.

Shoirning bir qator she’rlari davr yangiliklari, voqyealari haqida. Sovet davrida yozilgan she’rlarini na g‘oyaviy, na badiiy jihatdan 10-yillardagi she’rlariga qiyoslab bo‘lmaydi. Ular yengil-yelpi yozilgandek, ko‘ngli to‘lib turgan kishining istehzosidek taassurot qoldiradi.

Muhammadsharif So‘fizoda 1880 yili Chustda hunarmand oilasida dunyoga keldi. So‘fizoda adabiyot dargohiga 90-yillarda kirib keldi. 1893-1898 yillarda Qo‘qonda yashab, Muqimiyl to‘garagida faol qatnashishi shoirning dunyoqarashining shakllanishida, badiiy mahoratining o‘sishida o‘ziga xos maktab bo‘ldi. Juda qisqa muddat ichida Muhammadsharif «Vahshiy», «So‘fizoda» taxalluslari bilan butun Farg‘ona vodiysida shuhrat topdi. Lekin ijtimoiy tuzum homiyalarini sharmanda qiluvchi hajviyalari shoir boshiga katta tashvish olib keldi. Uni «dahriy» deb e’lon qildilar. Shoir qochishga va natijada 1900-1913 yillarda ona diyordan uzoqda darbadar hayot kechirishga majbur bo‘ldi. O‘rtta Osiyoning butun shaharlarini kezib chiqdi. Tiflis, Baku, Arabiston, Hindiston, Turkiyada bo‘ldi. Nihoyat, 1913 yilning oxirlarida Chustga qaytib, yangi usuldagagi maktab ochdi.

So‘fizoda dastlab o‘z zamondoshlari, safdoshlari singari ma’rifatparvar shoir sifatida tanildi. Uning ozarbayjon adiblari Jalil Mamadqulizoda, Aliakbar Sobir bilan yaqindan tanishuvchi dunyoqarashining shakllanishiga katta yordam berdi. 1905 yildan keyin shoir ijodi yangi bosqichga ko‘tarildi. Uning bu davr she’riyatida milliy tuyg‘ular paydo bo‘ldi. So‘fizoda hayotidagi har bir yangi hodisaga o‘zining faol munosabatini bildirib bordi. Saylov yer islohoti, xotin-qizlar ozodligi haqida she’rlar yozilib, xalqni hushyor bo‘lishga chaqiradi, uning mohiyatini keng xalqqa tushuntirdi.

So‘fizoda ijodiy faoliyatida ma’rifatparvarlik ustuvor ahamiyatga ega. U gazetaga alohida ahamiyat berdi va xalqning madaniy hayotida gazetaning katta rol o‘ynashini tushuntirdi. Mazkur mavzuga bag‘ishlangan «Yashnatib dil g‘unchasin fasli bahor aytar gazet» deb boshlanuvchi gazeta to‘g‘risida g‘azali, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Shoir ijodiyoti o‘ziga xosligi bilan, serqirra va sermazmunligi bilan ajralib turadi.

15-mavzu: Abdurauf Fitrat (1886-1938)

Ma’ruzaning qisqacha mazmuni:

Abdurauf Fitrat adabiyotimiz tarixida shoir va olim, nosir va dramaturg, o‘qituvchi va ma’rifatparvar sifatida muhim o‘rin egallaydi. U 1886 yilda Buxoroda ziyoli oilasida tugi‘igan bo‘lib, Buxoro, Istambul madrasalari va dorilfununlarida o‘qydi. U arab, fors, turk tillarini mukammal bilganligi tufayli Sharqning buyuk allomalari ijodini yaxshi o‘zlashtiradi.

Uning ilk to‘plami 1911 yilda «Sayha» («Chorlov») nomi bilan chop etiladi. «Sayyohi hindi», «Munozara» kabi asarlarini ham shu yillarda nashr etilgan.

Uning «Hind ixtitolchilari», «Temur sag‘anasi», «O‘g‘izzon», «Abo Muslim», «Turk tili» kabi asarlarida ham hurfikrlar, qarashlar, ko‘zga tashlanadi. Shular qatorida «Qon», «Begijon», «Chin sevish», «To‘lqin», «Vose’ qo‘zg‘oloni», «Ro‘zalar» kabi dramalari yaratildi.

Fitratning 1922 yilda nashr etilgan «O‘zbek shoirlari» to‘plamiga kirgan «Kecha», «Behbudiy mozorini izlab», «Sharq» kabi she’rlarida izlanish jarayoni

uchraydi. «Shoir» she'rida «o‘zim uchun ko‘p umidlar to‘qidim» degan xulosaga keladi. Uning 1920 yilda yozilgan «Kim deyay seni» kabi she'rida oshiqning ma’shuqqa katta umid bilan intilishi, kutishi, suyishi lirik bir «ohangda kuyylanadiki, shoir endi ijodning yangi pog‘onasiga ko‘tarilayotganligidan dalolat beradi.

Fitrat yirik olim, adabiyotshunos sifatida ham bir qancha asarlar yaratgan. Jumladan, «Adabiyot qoidalari», «eski o‘zbek adabiyoti namunalari», «Aruz haqida» kabi ilmiy kuzatuvlari adabiyotshunoslik fani tarixida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, uning Umar Xayyom, Firdavsiy, Navoiy, Bedil, M. Solih, Muqimiyy, Furqat haqidagi tadqiqotlari ham adabiyotimiz tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat etishi shubhasiz.

«O‘zbek tili» darsligi, «O‘zbek tili sarfi» (grammatikasi) kitoblari esa 1925—1930 yillarda besh marta chop etildi. Uning «Tilimiz», «O‘zbekcha til saboqlari», «Imlo konferensiyasi munosabati bilan» maqolalari ham yaratildi.

Fitrat 1938 yil 4 oktyabrda qatorida qatl etildi.

16-mavzu: Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929)

Ma’ruzaning qisqacha mazmuni:

Yangi davr o‘zbek adabiyoti yalovbardorlaridan biri, yetuk shoir va bastakor, dramaturg va rejissor, ma’rifatchi va matbaachi, publitsist va jamoat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889 yil 7 martida Qo‘qon shahrida tabib oilasida tug‘ildi.

Hamza avval eski maktab va madrasalarda o‘qib arab, fors, turk tillarini mukammal bilgan. Rus-tuzem maktablarida esa rus tilini o‘rganishga muvaffaq bo‘lgan. Mana shu ijodiy muhit uni erta ijodga yetaklagan.

Hamza 1903—1904 yillar orasida 197 ta she'r yaratib, uni «Devoni Nihoniy» nomi bilan chop ettiradi. Undagi she'rlarda ham o‘z xalqining himoyachisi, zulmga qarshi isyon ko‘targan yosh adib sifatida namoyon bo‘ladi.

1910-1916 yillarda yetimlar maktabini ochib, muallimlik qiladi. Mazkur maktablar uchun «engil adabiyot», «O‘qish kitobi», «Qiroat kitobi» kabi darsliklar ham yaratadi. 1915—1916 yillarda nashr etilgan «Milliy ashulalar», «Oqgul», «Qizil gul», «Pushti gul», «Sariq gul» kabi she'riy to‘plamlarida va «Yangi saodat», «Uchrashuv» kabi romanlarida ana shu ma’rifatga chorlov asos bo‘lgan. Shuningdek, uning «Ilm hidoyati», «Normuhammad domlaning kufr xatosi», «O‘ch» va «Zaharli hayot» (1916) kabi ilk dramalarida ham zulm va xurofot avj olgan davrda o‘z xalqining ilmgama’rifatga intilishini ulug‘laydi.

Hamza Hakimzoda 1918-1923 yillar mobaynida jumhuriyatning deyarli barcha viloyatlarida maktab-maorif va madaniy qurilish ishlari bilan band bo‘ldi.

Hamza hayoti va ijodi haqida hozirgi adabiyotshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Keyingi yillar hamzashunosligida Hamza tarjimai holining ilgarigi an'anaviy tadqiqiga qarama-qarshi fikrlar ilgari surilmoqda. Vaqt eng yaxshi sinov. Hamza sinovdan o‘ta oladi.

17-mavzu: Abdulla Qodiriy (1894-1938)

Ma’ruzaning qisqacha mazmuni:

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Qodiriy (Julqunboy) 1894 yil 10 aprelda Toshkent shahrida tug‘ildi.

Bo‘lg‘usi adibning ilk ijodi 1913—1914 yillarda boshlangan bo‘lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratdi. Uning «Ahvolimiz», «Millatimga», «To‘y» (1914-1915) kabi she'rlari «Oina» jaridasida bosilib chiqqan edi. U o‘z millatini ma’rifatga chaqiradi,

ma'rifatparvar shoir va adib sifatida maydonga chiqadi. «Baxtsiz kuyov» (1915) nomli fojeasi, «Juvonboz» (1915), «Uloqda» (1916) kabi hikoyalarda ham o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko'rish istagi sezilib turadi.

1924 yili Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Jurnalistlar institutida tahsil oldi. Moskvadan qaytib «Mushtum» jurnalida shtatsiz muxbir bo'lib ishlay boshladi. Uning «Toshpo'lat tajang nima deydi?» va «Kalvak mahzumying xotira daftaridan» turkumidagi satirik hikoyalari ana shu jurnalda ilk bor bosilib bordi.

Abdulla Qodiriy 1917-1918 yillardan boshlab «O'tgan kunlar» romani uchun material yig'ishga kirishdi. 1922 yilda birinchi o'zbek romanining dastlabki boblari «Inqilob» jurnalida chop etila boshlandi. 1925-1926 yillarda «O'tgan kunlar» uch bo'lim holida kitob» bo'lib nashr etildi.

1928 yil yozuvchining ikkinchi tarixiy romani «Mehrobdan chayon» nashrdan chiqdi.

Abdulla Qodiriy 1937 yilning 31 dekabrida qamoqqa olindi. 1938 yil 4 oktyabrdan Toshkentda otildi.

18-mavzu: Cho'lpon (1897-1938)

Ma'ruzaning qisqacha mazmuni:

O'zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov — Cho'lpon 1897 yilda Andijonda dunyoga kelgan.

Cho'lpon avval eski maktabda, so'ngra esa Avdijon va Toshkentdagi madrasalarda tahsil olib, turk, arab, fors tillarini mukammal o'zlashtiradi.

Cho'lponning ijodi 1913-1914 yillardan boshlanga bo'lib, u avval «Qalandar», «Mirzaqalandar», «Andijonlik» va nihoyat Cho'lpon (Tong yulduzi) taxallus bilan ijod qila boshladi. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida o'z xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo'shdi. Uning dastlabki asarlari «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» kabi mahalliy ro'znomalarda, shuningdek, Orenburgda chiqadigan «Sho'ro» nomli oynomada ham nashr etiladi.

1914-1917 boshlarda «Bahor ovullari», «O'sh», «Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar» hamda «Do'xtir Muhammadiyor» asarlarnda madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisi sifatida maydonga chiqdi.

Cho'lpon 1922-1926 yillarda o'zining «Tong sirlari», «Uyg'onish» va «Buloqlar» kabi uchta she'riy to'plamini nashr ettirdi. 30-yillarga kelib «Soz» va «Jo'r» kabo she'riy to'plamlari tayyorlandi.

Cho'lpon yetuk lirik shoirgina emas, yirik nosir sifatida o'nlab publitsistik maqolalar, ocherk va hikoyalari, «Qor qo'ynida lola», «Yov» qissalari va «Kecha va kunduz» (1938) kabi ajoyib romanining birinchi («Kecha») qismini nashr ettirgan iste'dodli adib hamdir.

U dramaturg sifatida ham salmoqli ijod qilgan. Uning «Xalil farang», «Cho'rining isyonii» kabi kichik p'esalari, «O'rtoq Qarshiboev», «Mushtumzo'r» kabi yetuk dramalari hamda ko'p vaqt sahnadan tushmagan «Yorqinoy» p'esalari mashhur bo'lgan. Shuningdek, rus yozuvchisi V. Yan bilan hamkorlikda «Hujum» dramasini yaratgan.

U 1937 yilning 14 iyulida qamoqqa olinib, 1938 yilning 4 oktyabrida otib tashlangan.

«MILLIY UYG‘ONISH DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI» FANI BO‘YICHA MA’RUZA MASHG‘ULOTLARDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINING ASOSLARI

«Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti» fani bo‘yicha ma’ruza mashg‘ulotlarini olib borishda ta’lim texnologiyasini loyihalashtirish va uning yo‘nalishlari sifatida quyidagilar asos qilib olindi:

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘la qamrab olishni ko‘zda tutadi. Bu esa talabaning kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqgan holda yondoshishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasining bu usulida darsning umumiyligi, yaxlit tarzda olib borilishini ta’minlaydi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Ushbu ta’lim texnologiyasi mashg‘ulot davomida talabaning faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, dars jaryonida uning tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o‘qituvchi va talabaning o‘zaro munosabatlari qurishi va buning natijasida talabaning faollashtirishni ko‘zlaydi.

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratilik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi sub’ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birlashtirishda ishlashni joriy etishga e’tibor qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri.

Axborot taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo‘llash – kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llash.

O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza davomida qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalar majmuasi.

O‘qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asolangan frontal, kollektiv va guruh.

O‘qitish vositalari o‘qitishning an'anaviy shakllari bilan bir qatorda informatsion texnologiyalardan foydalanish.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlari.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so‘rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlari rejasi.

MA'RUZA MASHG‘ULOTLARDA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

1-mavzu: Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti.
Ilk mustamlakachilik davri: ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot

1.1. Ma'ruza mashg‘ulotining ta'lif texnologiyasi modeli

Talabalar soni: 87	Vaqti: 2 soat
Mashg‘ulot shakli	Kirish mavzu bo‘yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Turkiston o‘lkasining Rusiya tomonidan istilo qilinishi. 2. XIX asrning so‘nggi choragida o‘lkada sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. 3. Davr jarayonlarining adabiy-madaniy hayotga ta’siri. 4. Kursning manbalari.

Mashg‘ulotning maqsadi: Milliy uyg‘onish davrining o‘zbek adabiyotining birinchi bosqichi – “Ilk mustamlakachilik davri: manbalari, yuzaga kelishi” 1865-1905 yillarni o‘z ichiga olishi; davr voqyealarining tarixiy-badiiy asarlarda o‘z ifodasini topishi; chor Rossiyasi tomonidan xonliklarning, markaziy shaharlarning bosib olinishi, mustamlaka zulmining kuchayishi, ma’naviy hayotning porakandalikka yuz tutishi, xalq ozodlik harakatlarining bu davr adabiyotiga alohida mavzu sifatida kirib kelishi; adabiy janrlar va vaznlarning yangilanishi; bosmaxonalarning vujudga kelishi, matbuotning yo‘lga qo‘yilishi, o‘qitish tizimidagi yangiliklar mustamlaka o‘lkada yangicha ma’rifatparvarlikning vujudga kelishi haqida tasavvurga ega bo‘lishini ta’minlash.

Pedagogik vazifalar	O‘quv faoliyati natijalari
Milliy uyg‘onish davrining o‘zbek adabiyotining birinchi bosqichi – “Ilk mustamlakachilik davri: manbalari, yuzaga kelishi” 1865-1905 yillarni o‘z ichiga olishi; davr voqyealarining tarixiy-badiiy asarlarda o‘z ifodasini topishi asosidagi manbalar tavsifi orqali fanning maqsadi va vazifasi bilan tanishtirish	Davrga oid manba va ma'lumuotlar asosida fanning maqsadi va vazifasini aytib beradi
XIX asrning so‘nggi choragida o‘lkada sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritib berish	Chor Rossiyasi tomonidan xonliklarning, markaziy shaharlarning bosib olinishi, mustamlaka zulmining kuchayishi, ma’naviy hayotning porakandalikka yuz tutishi, xalq ozodlik harakatlarining bu davr adabiyotiga alohida mavzu sifatida kirib kelishini tahlil qiladi

Davr jarayonlarining adabiy-madaniy hayotga ta'sirini yoritib berish	adabiy janrlar va vaznlarning yangilanishi; bosmaxonalarning vujudga kelishi, matbuotning yo'lga qo'yilishi, o'qitish tizimidagi yangiliklar mustamlaka o'lkada yangicha ma'rifatparvarlikning vujudga kelishini tahlil qiladi
Kursning manbalari va ularni tahlil qilish	Davr tarixi, adabiyo va madaniy hayotiga oid asarlarni tahlil qiladi
O'qitish metodlari	Ma'ruza, munozara, muammoli vaziyatlar usuli
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri va guruhlarda ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Qaytar aloqa usul va vositalari	Savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish

1.2. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish jarayonla ri vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
I-bosqich. Kursga va mavzuga kirish (20 minut)	1.1. O'quv kursi nomlanishi, kurs doirasida dastlabki umumiy tasavvurni beradi hamda uslubiy va tashkiliy tomonlari bilan tanishtiradi	Tinglaydi
	1.2. Kurs bo'yicha o'tiladigan mavzular, ularning uzviyligi haqida qisqacha ma'lumot beradi	Tinglaydi
	1.3. Kurs yakunida qo'yiladigan reyting baholash mezonlari bilan tanishtiradi	Slaydga qaraydi
	1.4. Kursni o'zlashtirishda foydalanish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi	Slaydga qaraydi
	1.5. Birinchi ma'ruza mashg'uloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalari bilan tanishtiradi	Mavzu nomini yozib oladi
	1.6. Birinchi mavzu yuzasidan munozara usulida dars o'tkazishni taklif etadi. Dars davomida muamoli vaziyatlar yuzasidan savol tashlaydi	Tushunchalarni erkin fikr orqali bildiradi
II-bosqich. Asosiy qism (50 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch tushunchalar bilan tanishtiradi	Tinglaydi
	2.2. Ma'ruzani reja asosida olib boradi, rejaning har bir qismidan so'ng xulosalarini	Tinglaydi, slaydga qaraydi, uni o'ziga yozib oladi va

	bildiradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi	savollar beradi
	2.3. Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollarni beradi: 1. Ilk mustamlakachilik davrining xos xususiyatlari. 2. Ijtimoiy voqyelikning badiiy adabiyotdagi talqini. 3. Adabiy maktablar va ularning o‘ziga xos jihatlari. 4. Janr va mavzularning yangilanishi.	Savollarga munozara asosida javob beradi
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi.	Har bir tayanch tushuncha va iborani muhokama qiladi
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. Kelgusi mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish uchun topshiriq va foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati beriladi	Tinglaydi Eshitadi Slaydga qaraydi

2-mavzu: Komil Xorazmiy (1825 – 1899) – yangicha ma'rifatparvarlik namoyandasasi

2.1. Ma'ruza mashg‘ulotining ta'lif texnologiyasi modeli

Talabalar soni: 87	Vaqti: 2 soat
Mashg‘ulot shakli	Kirish mavzu bo‘yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Komil Xorazmiy ijodining o‘rganilishi tarixi. 2. Komil Xorazmiy – davlat va jamoat arbobi. 3. Komil Xorazmiyning tarixiy va tarjima asarlari. 4. Komil Xorazmiy – bastakor, musiqashunos va tarjimon.

Mashg‘ulotning maqsadi: Ijodiy merosining o‘rganilishi tarixi; tarjimai holi; Komil yirik madaniy tadbirlar tashkilotchisi ekanligi; Toshkent safari (1991); Komil ijodida yangicha ma'rifatparvarlik; hayotining oxirgi yillari, fojiasi; Komil va Feruz munosabatlarining yangicha talqini; ijodiy merosi: lirikasi, hajviyoti, tadqiqotlari; bastakor, musiqashunos va tarjimon sifatidagi faoliyati haqida tasavvurga ega bo‘lishini ta'minlash

Pedagogik vazifalar	O‘quv faoliyati natijalari
Komil Xorazmiy ijodining o‘rganilish tarixi	Komil ijodiy merosining o‘rganilishi tarixi, tadqiq etgan olimlar, ularning asarlari, tarixiy manbalar va ularning shoir tarjimai holi va ijodini o‘rganishdagi ahamiyati haqida aytib beradi
Komil Xorazmiy – davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyatini yoritib berish	O‘sha davrda yaratilgan adabiy va tarixiy manbalar hamda zamonaviy tadqiqotlar, tarixiy asarlar misolida Komilning davlat va jamoat arbobi sifatidagi

	faoliyatini tahlil qiladi
Komil Xorazmiyning tarixiy va tarjima asarlari bilan tanishtirish	Komilning saroydagi faoliyati davrida yaratgan tarixiy va boshqa tillardan tarjima qilgan asarlari haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda ularning o'zbek adabiyotida tutgan o'rmini tahlil qiladi
Komil Xorazmiy – bastakor, musiqashunos va tarjimon sifatidagi faoliyatini yoritish	Komil yaratgan Xorazm notasi, xalq musiqalarining notaga tushirilishi va abadiylashtirilishida Komilning xizmati, u yaratgan kuylarning o'zbek musiqa tarixidagi o'rni hamda boshqa tillardan tarjima qilgan asarlari haqida ma'lumot beradi va tahlil qiladi
O'qitish metodlari	Ma'ruza, munozara, muammoli vaziyatlar usuli
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Jamoa, to'g'ridan-to'g'ri ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Qaytar aloqa usul va vositalari	Savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish

2.2. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish jarayonla ri vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Ma'ruza mashg'uloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalari bilan tanishtiradi	Tinglaydi. Mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mavzuga oid tarqatma materiallar tarqatadi	Tarqatma materialga qaraydi
II-bosqich. Asosiy qism (60 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch iboralar bilan tanishtiradi	Tinglaydi
	2.2. Ma'ruzani reja asosida olib boradi, rejaning har bir qismidan so'ng xulosalarini bildiradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi	Tinglaydi, slaydga qaraydi, uni o'ziga yozib oladi va savollar beradi
	2.3. Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollarni beradi: 1. Komil Xorazmiyning saroy hayoti. 2. Komil Xorazmiyning Rossiya va ruslarga munosabati. 3. Munis va Ogahiylar bilan Komil Xorazmiy dunyoqarashi o'rtasidagi mushtaraklik. 4. Shoir asarlaridagi asosiy g'oyalari.	Savollarga guruhlarda ishslash asosida javob beradi
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi.	Har bir tayanch tushuncha

		va iborani muhokama qiladi
III-bosqich.	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi.	Tinglaydi
Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.2. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriq va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Eshitadi
		Slaydga qaraydi

3-mavzu: Feruz (1844 – 1910) – adabiyot va ma'rifat, ilm-fan va madaniyat homiysi

3.1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lif texnologiyasi modeli

Talabalar soni: 87	Vaqti: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Kirish mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<p>1. Feruz adabiy merosi va uning o'rganilishi.</p> <p>2. Feruz –shoh va shoир.</p> <p>3. Feruz – adabiyot va san'at homiysi.</p> <p>4. Feruzning o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi o'rni.</p>

Mashg'ulotning maqsadi: Feruzning adabiy merosi; shoир ijodini o'rganish tarixidan; tarjimai holi; adabiyot va san'at rahnamosi; Feruz – musiqashunos, mohir sozanda va bastakor, san'atkor hamda talabchan muxlis; Feruz – maorif homiysi va taraqqiyat parvar; ilk matbaachilik va adabiy meros targ'ibidagi xizmatlari; Feruz va Rossiya istilochilik siyosati; Feruz va Xorazm adabiy muhitini tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash

Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
Feruz adabiy merosi va uning o'rganilishini yoritib berish	Feruz faoliyati va ijodini o'rganish Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyin boshlangani, D.Rahim va Sh.Matasul «Feruz: shoh va shoир qismati» kitobini bosmadan chiqqani, 1994 yili shoirning 150 yilligi Vatanimiz miqyosida keng nishonlangani, Feruz haqida ilmiy, badiiy asarlar yaratilgani, shoirning devoni 1994 yili «Elga shohu ishqqa qul» nomi bilan nashr qilingani, 1995 yili G.Ismoilova «Feruz davri Xorazm adabiy muhiti» mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgani, 1995 yili N. Jumaxo'ja «Feruz – madaniyat va san'at homiysi» asarini yaratgani haqida aytib beradi
Feruz –shoh va shoир sifatidagi faoliyatini yoritib berish	Muhammad Rahim 1863 yili Xiva xonligi taxtiga ko'tarilgani, Feruz adolatli xon, aql bilan siyosat yurgizuvchi davlat arbobi ekanligi, u o'ta og'ir sharoitda davlatni boshqargani, Feruz Xorazm adabiy muhitini yanada kuchaytirgani, Xorazmda ulkan tarjima mifiktabini vujudga keltirgani, Sharqning o'nlab adabiy-tarixiy, pedagogik obidalarini tarjima qilishga bosh bo'lgani, Markaziy

	Osiyoda birinchi bo‘lib Xivada bosmaxona tashkil qilgani va kitob nashrini yo‘lga qo‘ygani sifatidagi faoliyatini tahlil qiladi
Feruzning adabiyot va san'at homiysi sifatidagi ishlarini yoritib berish	U bastakor sifatida «Shashmaqom» yo‘llarida o‘ndan ortiq mustaqil kuy yaratgani, 1891 yili Komil Xorazmiy tashabbusi bilan Xivada «usuli savtiya» metodiga asoslangan maktab ochilgani va xon bunga nafaqat xayrixohlik bildirdirgani, o‘zi ham bunday maktablarni ochishga bosh-qosh bo‘lgani, xon farmoniga binoan 1904 yili Urganchda «usuli savtiya» maktabi ochilgani, 1906 yili esa xuddi shunday maktab qizlar uchun ham tashkil qilingani, uning tashabbusi bilan maktab va madrasalar uchun vaqf mulkidan tashqari davlat daromadidan mablag‘ ajratilgani, XX asr boshlariga kelib Xorazm xonligi hududida 130 madrasa, 1636 masjid, 1500 maktab faoliyat ko‘rsatgani, ularda 45000 dan ziyoda talaba-o‘quvchi tahsil ko‘rgani haqida ma'lumot beradi
Feruzning o‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi o‘rnini yoritish	Shoir merosi bizgacha ancha parokanda holda yetib kelgani, o‘z she’rlarini to‘plib nashr etishga sa'y-harakat qilmagani, uning yetib kelgan ijodiy merosi hajmi 2534 misradan – 98 g‘azal, 7 muxammas, 2 musaddas, 4 masnaviy, 7 ruboiydan iboratligi, “Ishqiy g‘azallar piri” deb e’tirof etilgan Feruz lirikasining asosiy mavzui ishq-muhabbat ekanligi, Feruz she’riyatda qofiyaga alohida e’tibor bergani, Feruz masnaviy janrida ham muvaffaqiyatlari qalam tebratgani, jami 706 misrani o‘z ichiga olgan to‘rt masnaviysi borligi haqida ma'lumot beradi
O‘qitish metodlari	Ma’ruza, munozara, muammoli vaziyatlar usuli
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Jamoa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash
O‘qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Qaytar aloqa usul va vositalari	Savol-javob, o‘z-o‘zini nazorat qilish

3.2. O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish jarayonla ri vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	o‘qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga	1.1. Ma’ruza mashg‘uloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalari bilan tanishtiradi	Tinglaydi. Mavzu nomini yozib oladi

kirish (10 minut)	1.2. Mavzuga oid tarqatma materiallar tarqatadi	Tarqatma materialga qaraydi
II-bosqich. Asosiy qism (60 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch iboralar bilan tanishtiradi	Tinglaydi
	2.2. Ma'ruzani reja asosida olib boradi, rejaning har bir qismidan so'ng xulosalarini bildiradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi	Tinglaydi, slaydga qaraydi, uni o'ziga yozib oladi va savollar beradi
	2.3. Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollarni beradi: 1. Feruzning davlatchilik faoliyati. 2. Feruz she'riyatining g'oyaviy-tematik doirasi. 3. Feruzning shohlik va shoirlig sifatlari. 4. Shoirlar lirikasining badiiy miqyosi	Savollarga guruhlarda ishlash asosida javob beradi
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi.	Har bir tayanch tushuncha va iborani muhokama qiladi
	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi.	Tinglaydi
III- bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.2. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriq va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Eshitadi
		Slaydga qaraydi

4-5-mavzular: Ahmad Tabibiy (1869-1911). Qo'qon adabiy muhiti. Muqimiy

4.1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lif texnologiyasi modeli

Talabalar soni: 87	Vaqti: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Kirish mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Tabibiy – tazkiranavis. 2. Tabibiyning Xorazm adabiy muhitida tutgan o'rni 3. Muqimiy hajviyoti. 4. Muqimiy «Sayohatnama»lari haqida.

Mashg'ulotning maqsadi: Tabibiy va mumtoz adabiyot; “Majmuat ush –shuar” tazkirasi; “Vomiq va Uzro” dostoni; Tabibiyning san'at, musiqa, xattotlik sohasidagi faoliyati, o'zbek madaniyati tarixidagi o'rni; Muqimiy ijodiy merosi: lirkasi, hajviyoti; shoirlar satirasida siyosiy mavzu. Yumorlari; “Sayohatnama”lari; Muqimiy ijodida maktub janri haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash

Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
Tabibiyning tazkiranavis ijodkor sifatidagi faoliyatini yoritish	Tabibiy va mumtoz adabiyot an'analirining davomiyligi, uning “Majmuat ush –shuar” tazkirasini yaratish tarixi va sabablari, ushbu tazkiraning Xorazm adabiy muhitini o'rganishdagi ahamiyati, tazkiraning o'rganilish tarixi, tadqiq etган

	olimlar, ularning asarlari ahamiyati haqida aytib beradi
Tabibiyning Xorazm adabiy muhitida tutgan o‘rni yoritib berish	O‘sha davrda yaratilgan adabiy va tarixiy manbalar hamda zamonaviy tadqiqotlar, tarixiy asarlar misolida Tabibiyning Xorazm adabiy muhitidagi o‘rni va uning merosiini tahlil qiladi
Muqimiylar hajviyoti bilan tanishtirish	O‘zbek adabiyotida hajviyotning yangi darajaga ko‘tarilishida Qo‘qon adabiy muhiti vakillari, xususan, Muqimiylar ijodida hajviyotning o‘rni, shoir satirasida siyosiy va ijtimoiy mavzu ko‘lамини tahlil qiladi
Muqimiylar «Sayohatnoma»lari va sayohatnoma janri haqida ma'lumot berish	Davr adabiyotiga sayohatnoma janrining kirib kelishi va uning yangi adabiyotda tutgan o‘rni, Muqimiylar ijodida sayohatnomalar hamda shoirning ushbu janrning ommalashuviga qo‘shgan hissasi haqida ma'lumot beradi va tahlil qiladi
O‘qitish metodlari	Ma’ruza, munozara, muammoli vaziyatlar usuli
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Jamoa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash
O‘qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Qaytar aloqa usul va vositalari	Savol-javob, o‘z-o‘zini nazorat qilish

4.2. O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish jarayonla ri vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	o‘qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Ma’ruza mashg‘uloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalari bilan tanishtiradi	Tinglaydi. Mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mavzuga oid tarqatma materiallar tarqatadi	Tarqatma materialga qaraydi
II-bosqich. Asosiy qism (60 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch iboralar bilan tanishtiradi	Tinglaydi
	2.2. Ma’ruzani reja asosida olib boradi, rejaning har bir qismidan so‘ng xulosalarini bildiradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi	Tinglaydi, slaydga qaraydi, uni o‘ziga yozib oladi va savollar beradi
	2.3. Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollarni beradi: 1. Tabibiy yashagan muhit. 2. Tabibiyning ma'rifatparvarlik g‘oyalari va tarjimashunoslik.	Savollarga guruhlarda ishlash asosida javob beradi

	3. Muqimiy adabiy merosini asosiy g‘oyasi. 4. Muqimiyyning hajviy qahramonlari. 5. Muqimiyyning «Sayohatnama»sining ahamiyati.	
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi.	Har bir tayanch tushuncha va iborani muhokama qiladi
III-bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosa qiladi.	Tinglaydi
	3.2. Kelgusi mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘rish uchun topshiriq va foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati beriladi	Eshitadi
		Slaydga qaraydi

6-mavzu: Furqat (1859-1909). Furqatshunoslik tadriji. Ijodiy merosi

5.1. Ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

Talabalar soni: 87	Vaqti: 2 soat
Mashg‘ulot shakli	Kirish mavzu bo‘yicha ma’ruza
Ma’ruza rejasi	1. Furqatning ijodiy hayot yo‘lini o‘rganish tarixi. 2. Furqat Toshkentda. 3. Furqatning chet ellardagi hayoti. 4. Furqat ijodiy merosi.
Mashg‘ulotning maqsadi:	Furqatning Farg‘ona hamda Toshkent davri faoliyati; Furqatshunoslik tadriji; shoirning yangicha ma'rifatparvarlik faoliyati; rus mustamlaka siyosatiga munosabati; Furqat va jadidchilik; tasavvuf ta'limotiga oid qarashlari; chet ellardagi faoliyati; ijodiy merosi haqida tasavvurga ega bo‘lishini ta'minlash
Pedagogik vazifalar	O‘quv faoliyati natijalari
Furqatning ijodiy hayot yo‘lini o‘rganish tarixini yoritish	XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o‘zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Furqat ijodiyoti uning tirikligidayoq matbuot sahifalarida, bayozlarda ko‘rinshi, uning hayot yo‘li «Turkiston viloyatining gazeti»da «Qo‘qonlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti» nomi bilan o‘zbek-rus tillarida chop etilishi, sovet davri hamda mustaqillik yillarda Furqat ijodiy hayot yo‘lining o‘rganilishi haqida aytib beradi
Furqat Toshkentga kelishi va u yerdagи faoliyatini yoritib berish	Shoir Furqatning 1889-1891 yillar Toshkentdagи hayoti uning taqdirida ayricha ahamiyatga egaligi, bu yerda Furqat Sattorxon Abdug‘afforov, Saidrasul Saidazimov, Sharifxo‘ja Poshshoxo‘ja o‘g‘li, Muhiddinxo‘ja Hakimxo‘ja o‘g‘li kabilar bilan tanishuvi, Furqat Toshkentning madaniy hayoti bilan doimo qiziqib yashagani, teatrarga borgani, ko‘rgazmalarni tomosho qilgani, gimnaziya

	darsxonalarini ko‘zdan kechirgani va taassurotlarini “Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Vistavka xususida”, “Suvorov haqida doston”, “Nag‘ma bazmi xususida” kabi asarlarida bayon qilgani, Furqatning “Turkiston viloyati gazeti” muharriri N.P.Ostroumov bilan tanishuvi uni shu gazet bilan doimiy bog‘lagani hamda ma'lum muddat mazkur gazetaning tarjimoni bo‘lib ishlagan faoliyatini tahlil qiladi
Furqatning chet ellardagi hayotini yortib berish	Furqat 1892 yilning may-iyun oylarida haj ziyoratidan so‘ng 1893 Yorkentga kelishi, sayohati davomida yevropa va Osiyo mamlakatlarida bo‘lishi, olgan taassurotlari, sayohati davomida yozgan maqola va she’rlari, Furqatning Yorkentda umrining oxirigacha yashab qolishi va yurtga qayta olmaslik sabablarini tahlil qiladi
Furqat ijodiy merosi haqida ma'lumot berish	Furqatning “Qavodi Chin va umuroti siyosiy” asari tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga egaligi, asarda oila va uning mustahkamligini ta'minlashda eru xotinning huquq va burchlari, aka-ukalar munosabati, do'stlik va qo‘ni-qo‘sni-chilik odoblari haqida ibratli mulohazalar bayon qilingligi, Furqatning uchta elshunoslik yo‘nalishidagi va bitta adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi ilmiy asari yetib kelgani, Furqatning dastlabki jurnalistlik faoliyati “Turkiston viloyati gazeti”da boshlangani, ilk maqolasi Toshkentdagi rus gimnaziyasidan olgan taassurotlari asosida yozilgani, keyinchalik esa xorijdan – Istanbul, Hindiston, Qashqardan yo‘llagan xabar va maqolalarida bu mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti haqidagi muhim masalalarni ko‘tarib chiqqani haqida gapiradi va tahlil qiladi
O‘qitish metodlari	Ma’ruza, munozara, muammoli vaziyatlar usuli
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Jamoa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash
O‘qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Qaytar aloqa usul va vositalari	Savol-javob, o‘z-o‘zini nazorat qilish

5.2. O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish jarayonla ri vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	o‘qituvchi	talaba

I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Ma'ruza mashg'uloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalari bilan tanishtiradi	Tinglaydi. Mavzu nomini yozib oladi
	1.2. Mavzuga oid tarqatma materiallar tarqatadi	Tarqatma materialga qaraydi
II-bosqich. Asosiy qism (60 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch iboralar bilan tanishtiradi	Tinglaydi
	2.2. Ma'ruzani reja asosida olib boradi, rejaning har bir qismidan so'ng xulosalarini bildiradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi	Tinglaydi, slaydga qaraydi, uni o'ziga yozib oladi va savollar beradi
III- bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	2.3. Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollarni beradi: 1. Furqatning Qo'qon adabiy muhitida tutgan o'rni. 2. Furqat ijodiyotining o'ziga xos xususiyatlari 3. Furqatning xalqparvar, millatsevar ekanligini asarlari misolida tahlil qiling. 4. Furqatning nasriy, ilmiy-etnografik asarlari.	Savollarga guruhlarda ishlash asosida javob beradi
	2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi.	Har bir tayanch tushuncha va iborani muhokama qiladi
IV- bosqich. Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi.	Tinglaydi
	3.2. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriq va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Eshitadi Slaydga qaraydi

7-mavzu: Is'hoqxon Ibrat (1862-1937). Ma'rifatparvar shoir, publitsist, tarixshunos, tilshunos olim

6.1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi modeli

Talabalar soni: 87	Vaqti: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Kirish mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<p>1. Ibratning hayot yo'li.</p> <p>2. Shoирning ma'rifatparvarlik faoliyati.</p> <p>3. Ibrat – ilk o'zbek matbaachisi.</p> <p>4. Ibrat – tilshunos va tarixchi</p>
Mashg'ulotning maqsadi:	Ibratning hayot yo'li; ma'rifatparvar shoir, publitsist, tarixshunos, tilshunos olim, sayyoh, ilk o'zbek matbaachilaridan biri sifatidagi faoliyati; ijodi; chet ellarga sayohati; "Usuli jadid" muktabalarini ochishi; "Matbaai Is'hoqiya", "Kutubxonai Is'hoqiya"ning vujudga kelishi; matbuotda chop etilgan asarlari; ilmiy faoliyati; rus bosqiniga munosabati haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash

Pedagogik vazifalar	O‘quv faoliyati natijalari
Ibratning hayot yo‘lini yoritish	Is’hoqxon Junaydullo o‘g‘li Ibrat 1862 yilda Namangan viloyatidagi To‘raqo‘rg‘on tumanida tug‘ilgani, ota-onasi, tahsili, Qo‘qondagi hayoti va ijodi (1878-1886) o‘zbek adabiyoti, madaniy hayotida tub o‘zgarish sodir bo‘layotgan davrga to‘g‘ri kelishi, uning Qo‘qon adabiy muhitining yirik namoyandalari – Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Nodim, Haziniy va Muhyilar bilan yaqin aloqada bo‘lgani, 1886 yilda shoir To‘raqo‘rg‘onga qaytib keladi va yangicha usuldagagi maktab ochgani, 1887 yilda Ibratning Sharq mamlakatlariga safarga chiqishdan asosiy maqsadi, chet el xalqlari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishishi, safar davomida Is’hoqxon Ibrat Istanbul, Suriya, Afina, Rim kabi yevropaning markaziy shaharlarida bo‘lgani, 1892-1896 yillarda Hindistonning eng katta port shaharlaridan Bombey va Kalkuttada yashagani, 1896 yilda Qashqar orqali o‘z yurtiga qaytib kelgani va umrining oxirigacha maktabdorlik qilgani haqida gapiradi.
Shoirning ma'rifatparvarlik faoliyatini yoritib berish	Ibrat 1907 yilda o‘z xonadonida yangi usuldagagi maktab ochgani, o‘zi ochgan maktabni stol, stul, parta, doska, yangi darsliklar bilan ta'minlagani, maktab uchun darsliklar yozgani, uning 14 ta ilmiy-pedagogik asari mavjudligi, Is’hoqxon Ibrat 1913 yilda «Matbaai Is’hoqiya» qoshida «Al-tijor al-Namangan» nomida gazeta chiqarishga harakat qilgani, o‘z uyida anchagina boy kutubxona tashkil qilgani va uni «Kutubxonai Is’hoqiya» deb atagani, mazkur kutubxonada ta’limtarbiya va o‘qitishga oid o‘zbek, rus, turk, tatar, forstojik tillarida ko‘plab kitoblar bo‘lgani hamda Ibratning yangi usul maktablaridagi faoliyatini tahlil qiladi
Ibrat – ilk o‘zbek matbaachisi ekanligini yortib berish	Ibratning Turkistondaga yerli ziyorolar orasida birinchilardan bo‘lib matbaa ochgani, uning faoliyatini tashkillashtirishdagi xizmati, «Kutubxonai Is’hoqiya» kitob fondining kattalashib borishida «Matbaai Is’hoqiya» katta rol o‘ynagani, bu matbaada chop etilgan kitoblarning mahalliy aholining savodini chiqarishdagi xizmatini tahlil qiladi
Ibratning tilshunoslik va tarixnavislik merosi haqida ma'lumot berish	Ibrat olti tildagi: arab, fors, hind, turk, rus va o‘zbek tillaridagi «Lug‘ati sitta-al-sina» («Olti tilli lug‘at»)ni yaratgani, keyinroq «Jome' ul-xutut» («Yozuvlar mazmuasi») nomli ilmiy asar yozib nashr etgani, bu

	asarda muallif yozuvlarning eng ibtidoysi – piktografik yozuvlardan to so'nggi davr eng mukammal yozuvlargacha bosib o'tgan taraqqiyot tarixini yoritib berishga harakat qilgani, Ibrat o'zining 1916 yilda yaratgan «Tarixi madaniyat» asaridan keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asarlar yaratgan yirik tilshunos va tarixnavis ekanligi, uning “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Mezon-uz zamon” kabi tarixiy-ilmiy asarlari Vatanimiz tarixi va madaniyatini o'rganishda birlamchi manbalardan bo'lib xizmat qilishi haqida gapiradi va tahlil qiladi
O'qitish metodlari	Ma'ruza, munozara, muammoli vaziyatlar usuli
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slaydlar, proektor
O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari	Jamoa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Qaytar aloqa usul va vositalari	Savol-javob, o‘z-o‘zini nazorat qilish

6.2. O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish jarayonla ri vaqtি	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
I-bosqich. Mavzuga kirish (10 minut)	1.1. Ma'ruza mashg'uloti mavzusi, uning maqsadi va vazifalari bilan tanishtiradi 1.2. Mavzuga oid tarqatma materiallar tarqatadi	Tinglaydi. Mavzu nomini yozib oladi Tarqatma materialga qaraydi
II-bosqich. Asosiy qism (60 minut)	2.1. Mavzu rejasi va tayanch iboralar bilan tanishtiradi 2.2. Ma'ruzani reja asosida olib boradi, rejaning har bir qismidan so'ng xulosalarini bildiradi. Jarayon kompyuter slaydlarini namoyish qilish bilan olib boriladi	Tinglaydi Tinglaydi, slaydga qaraydi, uni o'ziga yozib oladi va savollar beradi
	2.3. Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi savollarni beradi: 1. Shoir hayotidagi eng ibratli jihat. 2. Ibratning ilmiy faoliyati. 3. Ibratning madaniyat va ma'rifat bobidagi faoliyati. 4. Ibrat she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyati. 2.4. Tayanch iboralarga qaytiladi.	Savollarga guruhlarda ishlash asosida javob beradi Har bir tayanch tushuncha

		va iborani muhokama qiladi
III-bosqich.	3.1. Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosa qiladi.	Tinglaydi
Yakuniy bosqich. (10 minut)	3.2. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriq va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati beriladi	Eshitadi
		Slaydga qaraydi

8-mavzu: Fazlluloh Almaiy. Karimbek Kamiy (1865-1922). Sidqiy Xondayliqiy – dostonnavis shoir

7.1. Ma'ruza mashg'ulotining ta'lif texnologiyasi modeli

Talabalar soni: 87	Vaqti: 2 soat
Mashg'ulot shakli	Kirish mavzu bo'yicha ma'ruza
Ma'ruza rejasi	<p>1. Almaiyning ijodiy merosi, uning o'zbek tarjima adabiyotida tutgan o'rni.</p> <p>2. Karimbek Kamiy va Toshkent adabiy muhiti.</p> <p>3. Kamiyning milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida tutgan o'rni.</p> <p>4. Xondayliqiy ijodida dostonnavislik.</p>

Mashg'ulotning maqsadi: Almaiyning ijodiy merosi; lirkasi; tarjimalari ("Kalila va Dimna"); Almaiyning o'zbek tarjima adabiyotida tutgan o'rni; Kamiy ijodiga munosabat masalasi; tarjimai holi; Kamiy va Toshkent adabiy muhiti; ma'rifat mavzuidagi she'rlari; hajviyoti; tarjimalari; shoir ijodida tasavvufiy unsurlar; jadidcha va qadimcha qarashlari; Sidqiy Xondayliqiy shoir, xattot, tarjimonligi; ijtimoiy-siyosiy she'rlari; diniy-axloqiy mavzudagi asarlari; tarjimashunoslikda tutgan o'rni; dostonnavisligi haqida tasavvurga ega bo'lishini ta'minlash

Labing so'zdin berur jon o'lgan elga dardi ishqingdin,
Ravoniarvar dabi jonbaxshi guftoringg'a sallamno!

Hama ishq ahlidur, ey mug'bacha, zulfning giriftori,
Bori din ahlini band etdi — zunroringg'a sallamno!

Deding: «Lutf aylagum!», o'lturding, ammo necha noz aylab,
Agar lutfing bu ersa, javru ozoringga sallamno!

Qilursan noz, agar man har necha arzi niyoz etsam,
Sitamkor mahvasho, bu nav' atvoringg'a sallamno!

Senga, Feruz, o'lub baxt, etding ul op qaddi, zulfin vasf,
Bu yanglig' tab'i iozik birla ash'oringg'a sallamno!

* * *

Ul oy vasfini vird etsam zabonda,
Necha yillar ado bo'lmas bayonda.

Debon ma'shuqing asru bevafodur,
Manga ko'p ta'nalar aylar jahonda.

Netaykim, ishq zo'r anlab ko'ngulga,
Ul oyning mehrini asratdi jonda.

Habibimg'a chu mahram bo'ldi ag'yor,
Erurman ushbu hasratdin fig'onda.

Firoq ichra mening bag'rim qilib qon,
Nngorim, bilmadim, ermish qayonda.

Humoyun baxt ila bo'lsun salomat,
Agar bo'lsa habibim har makonda.

Agar Feruzlik iqboling esa,
Visolig'a yetushkung bir zamonda.

* * *

Gul yuzungga bulbuloso o'tlug' afg'onim fido,
Sarvi ozodingg'a qumridek xush alhonim fido.

Xirmani guldek bo'lub kirgil quchog'im ichrakim,
Gul kibi islab yuzung, aylay sanga jonim fido.

Vah, nechuk kofirdurur ikki ko'zingkim, bir qiyo
Holima boqmas ham etsam naqdi imonim fido.

Goh-gohi man sori qo'ygil qadamkim, aylayin
Maqdaming gardig'a jon, ey ko'nglum olg'onim, fido.

Ey parivash kulbamg'a eldin nihonu oshkor
Kelki, to aylay sanga paydoyu pihonim fido.

Chashmi umidim yor o‘lg‘il mehrdek yuz birlakim,
Bahri kon etsun sanga chashmi durafshonim fido.

Baxti Feruz ila gar topsam visoling davlatin,
So‘z durrin bazmingda aylay, ey suxandonim, fido.

* * *

Ruxsorin ochib bir pari keldi bu tun bazmim aro.
Boshdin oyoqi bor ekan mehru vafo, nozu ado.

Chiqlsa falakka har sahar ohu fig‘onim, ne ajab,
Aylar fuzunroq har kecha ul oy menga javru jafo.

Bilmon, ne ofat erdi ul bo‘lg‘och nazarga jilvagar,
Aqlu xirad, islomu din o‘ldi bori mendin judo.

Joning uchun har dam manga ko‘rguz tarahhum, ey pari
Kim, sabru toqat qolmadi javring chekib subhu maso.

Oydek yuzungning partavi tushsun karo kulbamg‘a ham,
Ko‘yg‘il qadam, ey mahliqo, ochib uzori dilkusho.

Ne sud, tole' bo‘lsa gar yuz oyu kun, har subhu shom,
Nechunki bor Feruzg‘a mehru jamoling muddao.

MUXAMMASLAR

Ko‘rmak tilab yuzungni, ey sho‘x guluzorim,
Qonlar to‘kar damodam bu chashmi ashkborim,
Quchmok tilab belingni hyech qolmadi qarorim,
Yo‘lungda tufroq o‘ldi bu jjismi xoksorim,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Bo‘lg‘och nazarda zohir tovusdek xiroming,
Aqlimni qildi hayron ta‘zim ila saloming,
Lol ayladi tilimni to‘tisifat kaloming,
Yo‘qtur jahonda mandek bir kamtarin g‘uloming,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Sen husn shohidursen, rahm ayla bu gadog‘a,
Kelmasmu hyech rahming bu zori mubtalog‘a,
Kahrin aylab afzun ko‘p qo‘ymag‘il balog‘a,
Lutfu karam shior et, xo‘y aylama jafog‘a,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Gulgunguzoring uzra chiqmish xatti zumurrad,
Bu xat bila bo‘lub sen husn ahlig‘a saromad,
Go‘yo sanga bo‘lubdur shamsu qamar obo jadd,
Mundin ziyod etarga vasfingni yo‘q manga had,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Qadding xayoli tushgach xotirg‘a, ey sumanbar,
Ermas nazarg‘a manzur shamshod ila sanavbar,
Bo‘lmas esa muyassar ul kokili muanbar,
Tutg‘oymu o‘rnin oning rayhonu sunbulu tar,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Qil holima tarahhum, ey soqiyyi diloro,
Soldi sipohi ishqing jon kishvarig‘a yag‘mo,
Mani zor bedilingg‘a lutf aylagil nigor,
Qolmadi furqatingda sabru qarorim aslo,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Mehri kamardek olib toju kamarni pinhon,
Oxir boshu beliga ziynat yeturdi ul jon,
Qilsang muni tafakkur, ey shoiri suxandon,
Bir sho‘xi dilraboning ismi bo‘lur namoyon,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

Bo‘stonda bazm etarga jam' o‘lsalar sanamlar,
Ul bazm ichida Feruz o‘lsun desang suxanvar,
O‘z ilking ila tutg‘il bir lolarang sog‘ar,
Yuz nozu ishva birla kirganda bog‘a dilbar,
Oromijon nigorim, sarviravon nigorim.

* * *

Chekib hijronda ranji bekaron ohista-ohista,
Yutar erdim labi fikrida qon ohista-ohista,
Bu holimdin topib bu kun nishon ohista-ohista,
Manga rahm aylab ul shirin zabon ohista-ohista,
yetushti boshim uzra nogahon ohista-ohista.

Shabi hijronda aylab dardu mehnat kulbasin maskan,
Sochar erdim sirishkim donasin har sori yuz xirman,
Bu hol ichra tarahhum ko‘rguzub ul dilbari purfan,
Firoqida qororg‘oh ko‘zlarimni ayladi ravshan,
Ochib ruxsorai xurshidson ohista-ohista.

Qudumi intizorida bo‘lub tong otgucha bedor,

Chekib har damda gardun sori yuz ming ohi otashbor,
Bo‘lub g‘am tig‘i birla sarbasar jonusu tanim afgor,
Edim hijroni dardi shiddatidin o‘lgudek bemor,
yetushti vaslidin suhbat ravon ohista-ohista.

Minib raxshig‘a bukun man sori atfi inon aylab,
Shitob ichra araqni gul uza shabnam fishon aylab,
Kelib bazmim qudumi birla gulzori jikon aylab,
Masiho mo‘jizin jonbaxshi la'lidan ayon aylab,
O‘luk jismimga berdi toza jon ohista-ohista.

Rusumi dilrabolig‘ ko‘rguzub gul yuzli jononim,
Bilib hijron o‘ti kuydurganni boshdin-oyoq jonom,
Ko‘rub rahm aylabon jismi nizoru chashmi giryonim,
So‘rub dildorlig‘ rasmi bila holi parishonim,
Qilib oshino dilbarlik ayon ohista-ohista.

Tarahhum ko‘zguzub har dam fuzun a'dodi imkondin,
Tabassum aylabon yuz ishva birla la'li xandondin,
Takallum boshlabon har lafzni aylab chuchuk jondin,
Dedi:«—Ey oshiqi zorim maloli dardi hijrondin,
Bo‘lubsan asru zoru notavon ohista-ohista»

Mayi la'limni dardingga davo aylarga kelmishman,
Zamiringda ne ersa muddao aylarga kelmishman,
Nekim rasmu muhabbatdur, sango aylarga kelmishman,
Bu dam vaslim bila koming ravo aylarga kelmishman,
Maqomingg‘a bori eldin nihon ohista-ohista.

Qilib tun-kun visolim bazmig‘a yetmakni andisha,
Urub Farhod yanglig‘ ranju mehnat tog‘ig‘a tesha,
Qilib ishqimda ko‘nglungni musaffo, o‘ylakim, shisha,
Necha kun dardi hijronim aro sabr aylading pesha,
Bo‘l emdi vaslim ichra shodmon ohista-ohista.

Edi hijron aro maqsuding o‘pmak borho la'lim,
Quchub nozik belim ko‘nglungga so‘rmoq muddao la'lim,
Bugun koming ne ersa qilg‘usi oni ravo la'lim,
Agar istarsan o‘pmaklikni, eng jonfizo la'lim,
Qucharsan, quch belim, engu miyon ohista-ohista.

Manga iqbol yanglig‘ bo‘ldi chun ul hamdamu hamdast,
Oyoqing o‘pkali man ollida tufroqg‘a bo‘ldum past,
Talattuf birla ul la'lin labimga ayladi payvast,
Man o‘ldum yor la'li bodasi birla bo‘lub sarmast,
Firoqi ranjidin toptim omon ohista-ohista.

Ko‘zumdin oqizib ashkni hijron ichra suv yanglig‘,
Bo‘lub obi ravon ondin ayon har sori jo‘ yanglig‘,
Riyozat tortibon aylab tanin za‘f ichra mu yanglig‘,
Kishi gar sodiq ersa ishq aro vasl ichra bu yanglig‘,
Bo‘lur Feruzbaxtu komron ohista-ohista.

OGAHİY G‘AZALLARIGA TAXMISLAR

Rangin takallummu bo‘lur chunkim guharafshon labing,
Fayzu farah yetkurgusi ko‘nglumga bepoyon labing,
Fahm etmadim ne xosiyat qilmushdurur pinhon labing,
Yoqtdurmu bilmadim yo la'l ey jonon, labing,
Yo orazing gulzorida bormu guli xandon labing.

La'lning firoqida bo‘lub asru zaifu xasta jon,
Jismi nizorimdin olib qadding g‘ami tobu tavon,
O‘lmakka yetganda yovuq kelding boshimg‘a nogahon,
La'lingni bir o‘pmak bila toptim hayoti jovidon,
E'jozi Isomu ekan yo sharbati hayvon labing.

Javru jafolar aylabon jonimga bu garduni dun,
Qildi labing hijronida ashkimni qon, bag‘rimni xun,
Dardim erur behad fuzun, kun-kundin ahvolim zabun,
Ko‘zdin to‘kub hijron aro doim sirishqi lolagun,
O‘pmaklik aylab orzu tun-kun yutarman qon labing.

Ko‘nglumga bo‘lmishdur labing bir bo‘sa qilmoq muddao,
Muft ermas ushbu matlabim, bo‘lsa agar, sandin ravo,
Oltun-kumish xud sahl erur, ey dilbari shirinliqo,
Gar bo‘sa la'lingga jon naqdin qilur ersang baho,
Olg‘um nedinkim bir o‘pub o‘lganga na armon labing.

Taqvoi toat aylabon zuhd ahli tinmay ro‘zi shab,
Jannatga kirmak orzu aylab chekar ranju taab,
Aql eli ko‘ying borida jannatni qilgaymu talab,
Feruz, jannat ravzasin, gar, istamas ermas, ajab
Kim, orazing jannat guli, kavsar suyi, ey jon, labing.

* * *

Bir jilvagar bo‘lg‘och ko‘zum ollida to qoshu ko‘zung,
Fahmi xiradin ayladi mandin judo qoshu ko‘zung,
Jonimni oldi aylabon nozu ado qoshu ko‘zung,
Vah ne balodur bilmadim, ey dilrabob, qoshu ko‘zung

Kim, bir nazarda soldi o‘t jonio aro qoshu ko‘zung.

Ham Xizri xatting dilkusho, bordur masihoniy so‘zung,
Ham ko‘zu qoshing qotili jonbaxga erur, rangin so‘zung,
Ham beqaror o‘lg‘on ko‘ngullarga berur taskin so‘zung,
Ham yuz o‘lukni turguzur la‘ling aro shirin so‘zung,
Ham ming tirikni o‘lturur aylab jafo qoshu ko‘zung.

Tun-kun so‘rog‘ing aylabon istab muallo manziling,
Ko‘rgach musaffo orazing, bo‘ldum asiri bediling,
Jonu ko‘ngul betob erur so‘rmoq tilab shirin labing,
Oldi karori toqatim oq siynayu nozik beling,
Soldi qaro kun boshima ikki qaro qoshu ko‘zung.

Boqgoch ko‘z ila qoshinga, bo‘ldum asir, ey no‘shlab,
Joniyoqar oshiq o‘ti, qoshu ko‘zung bo‘ldi sabab,
Emdi fig‘onlar aylabon hijroning ichra ro‘zu shab,
Qoshu ko‘zung bedodidin dod aylasam ermas ajab,
Kim, ne jafolar qilmadi oxir mango qoshu ko‘zung.

Farrux yuzung husn avjining bordur mohitobopikim,
Xanling erur mahbublar, sansan alar sultonikim,
Mankim tamanno aylamak, san sho‘x beparvonikim,
Yo‘qtur manga ishqing aro yurmak tirik imkonikim,
Joniymni yo qaddu yuzung olg‘usi yo qoshu ko‘zung.

Husn ahli shohisan, erur mulkung malohat kishvari,
Ikki ko‘zung jodu erur, qoshing alarning xanjari,
Majnundek o‘ldi ko‘rgach, ul husning jahon donolari,
Man zori hayroning nechuk devona bo‘lmay, ey pari
Kim, aqlu hushim ayladi mandin judo qoshu ko‘zung.

Istab visoling bazmini, ey xo‘blarning ahsani,
Iqboli Feruzing kibi ko‘b justujo‘ aylab sani,
Ko‘rgach yuzung ishq o‘tiga ko‘pdi vujudi xirmani,
Shirin labingdin Ogahiy jismig‘a jon berkim, ani,
O‘lturdi bir imo qilib boqg‘och qiyoy qoshu ko‘zung.

MUSADDASLAR

Subhkim, ul sarvi gulro‘x sayri gulzor ayladi,
Sarvu gulg‘a qaddu ruxsorni namudor ayladi,
Sarv qaddig‘a egib bosh qulluq izhor ayladi,
Gul yuzin surtub poyig‘a o‘zini xor ayladi,
Rashk tig‘i joy ila ko‘ngulni afgor ayladi.

Do'stlar, ul dilrabo ishqı manı zor ayladı.

Gar nafas qilgach nazora ul quyosh ruxsorga,
Jon ko'nglum qoldi ishqı ranjidin ozorg'a,
Aylasam joniofido boqmay man bemorga,
Har nafasda ko'rguzur yuz iltifot ag'yorg'a,
Aylamas bir rahme zohir man g'aribu zorg'a,
Do'stlar, ul dilrabo ishqı manı zor ayladı.

Jonfizo la'lin takallumga oyursa nogahon,
Har kalomidin topar o'lgan badan ruhi ravon,
Go'yiyo uldur bu davron nchra Isoyi zamon
Kim, kishi ko'r maydur andoq mahvashi shirin zabon,
Ayb qilmang, istab oni, aylasam ohu fig'on,
Do'stlar, ul dilrabo ishqı manı zor ayladı.

Xo'b emastur qaddi to'bi qomati raftoricha,
Dilkash ermas ravzai rizvon yuzi gulzoricha,
Yo'qturur xurshid nuri jabhai anvoricha,
Sunbul ermas atrparvar zulfi anbarboricha,
Tong emas, vaslin talab qilsam agar jon boricha,
Do'stlar, ul dilrabo haqi manı zor ayladı.

Ohkim, tarki muhabbat aylabon ul dilrabo,
Notavon joniof a ko'rdi hajr anduhin ravo,
Muncha ham bo'lg'oymu bir bedilg'a qilmoqlik jafo,
Dilrabolig' rasmida avval qilib mehru vafo,
So'ngra qildi mehnat hijroni birla mubtalo,
Do'stlar, ul dilrabo ishqı manı zor ayladı.

Ul quyoshdin ayru bir zarra qarorim qolmadı,
Aqlu hushim ketdi-yu, sabr-ixtiyorim qolmadı,
Dardi hijron chekkali tanda madorim qolmadı,
Vasl uchun aylab gadoliq nangu orim qolmadı,
Yig'lamoqdin o'zga hajr ichra shiorim qolmadı,
Do'stlar, ul dilrabo ishqı manı zor ayladı.

Ishq mulkida edim Feruzbaxtu komkor,
Amrima ma'mur erdi necha sho'xi guluzor,
Lekin oni ko'rgach o'ldum bandasi beixtiyor,
Qolmayin ko'nglum aro bir zarracha sabru qaror,
Aql ila hushu xiradni qildi mandin beqaror,
Do'stlar, ul dilrabo ishqı manı zor ayladı.

* * *

Ul pari egnida gulrang libosini ko‘rung,
Mehrdek orazining nuru ziyoisini ko‘rung,
Nutqi jonbaxshu labi ruhafzosnni ko‘rung,
Otg‘oli g‘amza o‘qin qoshlari yosini ko‘rung,
Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozoru jafosini ko‘rung.

Orazidin olib ul mehru jahontob niqob,
Zeb uchun ko‘zga chekib surma, urub yuzga gulob,
Ko‘zlari fitnasidin qilg‘oli olamni xarob,
Yuzi o‘ti bila aylarga jigarlarni kabob,
Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozoru jafosini ko‘rung.

Gul xijil bog‘ aro oning gul ruxsoridin,
Sarupo dar gul erur qomati raftoridin,
Lol erur qumriyu bulbul labi guftoridin,
Sindi shakkarga baho la‘li shakkarboridin,
Vahki, ul mehrliqo nozu adosinn ko‘rung.
Jonima har nafas ozoru jafosini ko‘rung.

Jon olur har boqishi birla qaro ko‘zginasi,
Toza jon ham berur elga shakkarin so‘zginasi,
Koshi yo, kipriki o‘q, ofatijon yuzginasi,
Fitnagar chobuk xudroyi erur o‘zginasi,
Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozoru jafosini ko‘rung.

Ko‘z yumub noz ila gohi chekibon xomyoza,
Kosh qoqib gah qilibon jilvai beandoza,
O‘ziga har dam etib g‘amza fununi toza,
Kildi oshiqlig‘im olam eliga ovoza,
Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozoru jafosini ko‘rung.

Jilvai qomatig‘a tu‘bini rizvon banda,
Mutabassim labig‘a g‘unchai xandon banda,
Ikki shahlo ko‘zig‘a nargisi fatton banda,
Orazi mehrig‘a xurshidi duraxshon banda,
Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozoru jafosini ko‘rung.

Toki ul sho‘x g‘ami ishqig‘a duchor o‘ldum,
Dam-badam dardi balo xayli bila yor o‘ldum,
Kokili domiga pobasti giriftor o‘ldum,
Talab vaslida Feruz kibi zor o‘ldum,

Vahki, ul mehrliqo nozu adosini ko‘rung,
Jonima har nafas ozoru jafosini ko‘rung.

RUBOIYLAR

Ey sho‘x, tarahhum aylakim, zoringman,
Jonu dilu din ila giriftoringman.
Gar vaslingga aylasang baho jon naqdin,
Yuz jon esa ham berib xaridoringman.

* * *

Qilmish mani bir dilbari zebo oshiq,
Boshdin oyoqi latifu ra'no oshiq,
Yo‘q mumkin o‘zi xoli hamsuhbati man,
Bo‘lg‘aymu maningdek yana paydo oshiq.

* * *

Jonbaxshi kaloming erur ul nav' fasih,
Iso kibi jon bergusidur elga sarih,
Har sho‘xki, husn ichra tutar o‘zni sabih,
San borchasidin sabih ham asru malih.

* * *

Ko‘rgach yuzung, zy dilbar, farxunda sifot,
Hyech qolmadi ko‘nglum aro oromu sabot,
Xosiyati la'ling obi hayvon yanglig‘,
So‘rg‘on kishiga bergusi jovidi hayot.

* * *

Kam etmadi qahrin manga dildor hanuz,
Tark aylamadi javr ila ozor hanuz.
Man hajrida subhu shom yig‘larman qon,
Xushnud erur bazmida ag‘yor hanuz.

2-mavzu. Ahmad Tabibiyning lirikasi, dostonnavislik va tazkiranvaslik faoliyatiga oid asarlarni o‘rganish.

Ahmad Tabibiy (taxallusi; asl ismsharifi Ahmad Ali Muhammad o‘g‘li, 1869—Xiva—1911) — shoir, tarjimon, tabib. Xiva madrasalaridan birida o‘qigan. Otasidan va zamonasining mashhur tabibi Yaxshimurodbekdan tabiblikni o‘rgangan, Muhammad Rahimxon II (Feruz) saroyida tabiblik qilgan. She’riyatda shuhrat qozongan. O‘zbek va fors-tojik tillarida, mumtoz adabiyotning an'anaviy janlarida ijod qilgan. She’rlaridan 5 devon — «Tuhfat us-sulton», «Munis ul-ushshoq», «Hayrat ul-oshiqin» (o‘zbek tilida), «Mir’ot ul-ishq», «Mazhar ul-ishtiyooq» (fors-tojik tilida) tuzgan. Ularda real hayotni,

sof muhabbatni ulug‘lagan («Aylading», «Ozoridur» va b.). Tabibiy o‘zbek adabiyotida muxammas janrini rivojlantirgan: Navoiy, Sa'diy, Jomiy, Zebunniso, Munis, Ogahiy, Mirzo G‘olib va boshqaning g‘azallariga 518 ta muxammas bog‘lagan. Xorazm shoirlari haqida «Majmuat ush-shuaroi payravi Feruz Shohiy», «Majmuai muxammasoti ash-shuaroi Feruz Shoqiy» (1909) tazkiralarini tuzgan. Ikkinchi majmuasi, asosan 33 shoir muxammaslaridan tashkil topgan. Unda dastavval Ogahiy g‘azallariga, so‘ng Feruz she'rlariga boglangan muxammaslar, keyin esa Feruzning «Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim» g‘azaliga taxmis, muxammas va musaddaslar keltirilgan. Xotima qismida esa shu to‘plamga kirgan Umidiy, Doiy va Xayoliyning vafoti haqida xabar, Bayoniyning «Majmuat ush-shuaroi payravi Feruz Shohiy»ga yozgan taqrizi berilgan.

Tabibiy «Vomiq va Uzro» qissasining o‘zbekcha she'riy (masnaviy) variantlarini yaratgan (8100 bayt). Fuzuliyning «Haft jom» asarini forstojik tilidan o‘zbekchaga tarjima qilgan. «etti ravza» nomli asar ham yozgan. Asarlarining bir necha qo‘lyozma va toshbosma nusxalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

TARQATMA MATERIAL

Shoh Vomiq bir kecha Azroni tushida ko‘rib tozadin oshiftalig‘da yagona bo‘lg‘oni va Azroning hama ahvolin so‘rub yuz shavqu zavq bila yo‘lg‘a ravona bo‘lg‘oni.

Xush ulkim baxtni bedor topg‘ay,
Agar uyquda vasli yor topg‘ay.
Hamul kim ishq ilmida mudarris,
Edi ham nuqta fannig‘a muhandis.
Bu yanglig‘ qildi bu yerda hikoyat,
Ki Vomiq uyquda qilg‘ach farog‘at.
Tushida ko‘rdikim mahbubi Azro.
Hamul kecha dog‘i chodirda, ammo—
O‘tirmish o‘zi birla suhbat aylab,
Takallum behadu beg‘oyat aylab.
Boqib chun ko‘rdi ul ishqilahongir,
Erur Azro ayoqi uzra zanjir,
Balo zindonida mahbus bo‘lmish,
Ko‘zi ham qonlig‘ ashki birla to‘lmish.
Ko‘rub Azroni ul shohi vafokesh,
Oyoqda qayd ila g‘amgin dili resh.
Qilib hayratni bermas hyechgah yod,
Ki topg‘ay band poyi sarv ozod.
Magar oshiq erur zanjiri avbosh,
Ki zulfidek oyoqig‘a qo‘yar bosh.
Qilib bu vajhdin zulfin parishon,
Ki o‘pgay soqini zanjiri pechon.
Ko‘rub Vomiq, bu yanglig‘ mojaroni,
Chekib afsus ila ohu navoni.

Dedi: «Key halqai zulging girihgir,
Sani kim qildi mundoq poy zanjir?
Nedindur tavq bandi siym soqing,
Bu zindon ne uchun bo‘ldi visoqing?
Qafasda rasm erur band o‘lsa bulbul,
Kishi hargiz qafasda ko‘rmamish gul.
Bu dam ko‘rdum ajab rasmi digargun,
Ki Layli bastai zanjiri Majnun.
Sen o‘lmishsen chu zanjir ila basta,
Anga loyuq meni majnuni xasta.
Seni qilg‘uncha bu zanjir dilgir
Mening bo‘ynimg‘a tushgay erdi zanjir».
Dedi Azro bo‘lub xun ashk afshon:
«Ki, ey mehru vafo shahrida sulton.
Ham ul tunkim bo‘lub shavqim ziyoda
Qo‘lingg‘a bermisham bir jom boda.
Bo‘lub andin pari ranju anolig‘,
Topib ishqing g‘amig‘a mubtalolig‘.
Manga tushdi bu ikki band mushkil,
Oyoq zanjir toptiyu, girihsil.
yetushdi behadu son ishq dog‘i,
Balo bazmida ichdim davr ayog‘i.
Vale sen saltanatda shod bo‘lg‘il,
Xilofat taxtida obod bo‘lg‘il.
Buni bil lekkim g‘amxonai ishq,
Na g‘amxona, buyuk koshonai ishq.
Emas g‘ammozdin bir lahza xoli,
Gar oshiq dun erur, yo‘q ersa oliy.
Erur paydo jinu ins ichra hosid,
Qilurg‘a o‘rtada raddi maqosid,
Bu vajh ila manga ham bir jamoat,
Hasad aylab ayon behaddu g‘oyat.
yeturdilar qilib ko‘nglumni g‘amlig‘,
Otam nazdida asru kuttahamlig‘.
Bo‘l emdi voqif, ey shohi yagona,
Eshitsang bor uzun munda fasona.
Meni ishq ayladi bu nav' pobast,
Balou, dardu, anduh ila hamdast.
Sening ishq ichra ahvoling nechukdur
De, o‘tgan moh ila soling nechukdur?
Mening hijronda dardu mehnatim ko‘p.
Mashaqqat birla dog‘u hasratim ko‘p.

Shoh Vomiqning beqarorlig‘ vajhidin Azrog‘a noma yozg‘oni

Alo, yo ey nasimi subhgohi,
Erursan subhi sodiqning guvohi.
yeturgung har sahar, ey fayzi dovar,
Payomi subh to xurshidi xovar.
yetur Azrog‘a ham payg‘omi Vomiq,
Ki ul xurshid erur men subhi sodiq.
yetur arzim qilib ko‘nglumni masrur,
Bo‘lay chun subhi sodiq matlai nur.
Degil, key Zuhra chehra, Mushtariy ro‘y,
Hilol abro‘, qamar tal'at, suman bo‘y,
Sanga payvasta ko‘nglum erdi mushtoq,
Firoqiig toqatimni ayladi toq.
Qilib mehri ruhing shavqing o‘tin tez,
Vujudim zarra yanglig‘ bo‘ldi nochiz.
Ko‘ngul abro‘yinga mushtoq doim,
Hiloli iyd uchun andoqki soyim.
Quyoshing tole' et, ey mahjabinim,
Ki to yuz mehr bo‘lsun xo‘shachinim,
Bo‘lurmu muncha hijron shomi jovid,
Tulu' etmasmu hargiz subhi ummid.
Qachong‘a tegru bo‘lg‘um zoru mahzun,
Qilib ishqing manga chun nasra afsun,
Manga jodu ko‘zungdur sehr payvand
Ki, solmay nasra sehri ul qadar band.
Meni afsuni zulfiq qildi bad hol,
Agarchi nasra sehrin qildim ibtol.
Erur ko‘nglum g‘aming tig‘idin afkor.
Firoqing yetkurur jonimg‘a ozor.
G‘amingdin, ey nigori siym g‘abg‘ab,
Qachon farq aylagumdur ro‘z ila shab..
Chekib anduhi kulfat subh ila shom,
«Manga ne xobi rohatdur, ne orom.
Firoqing o‘t solib jonimg‘a asru,
Chekarman ul jihatdin haznu qayg‘u.
Chekarman har nafas faryodu afg‘on,
Bo‘lub bag‘rim g‘aming birla to‘la qon.
Ko‘ngulda dardu olomim fuzundur,
Ko‘zum ashki mudomo lolagundur.
Tilarman borho vaslingg‘a yetmak,
Mayi vaslingdin o‘zni mast etmak,
Qachonkim esgusi bodi sahargoh,
Chekarman tinmay asru nolau oh.
Qaro bo‘lmish jahon sensiz ko‘zimga,
Takallumlar qilurman o‘z-o‘zimga.

Ki, ey bargashta tole', baxti vojun,
Bo'lurson tobakay bu nav' mahzun.
Qilib ishq ichra baxting rahnamolig',.
Qachon komingg'a yetgusi ravolig'.
Agarchi ishq aro sobit qadamsen,
Vale hijronda pobasti alamsen.
Agarchi o'zni tutg'ung mardi komil,
Vale yoring sanga yo'q lahza moyil.
Nishoti ayshdin begonadursen,
Jahon ichra base afsonadursen.
Agar ko'rsa nigoring bu maoshing,
Sarig' yuz uzra oqg'on qonlu yoshing.
So'rар erdy tarahhum birla holing,
Ko'rub furqatda o'tgan mohu soling.
Vale na sudkim ermas xabardor,
Sanga bir lahza ermas dilbaring yor.
G'araz aylab bu yanglig' so'z namoyon,
Chekarman har kecha faryodu afg'on.
Sanga aylab bu lahza sharhi ahvol,
Salomu nomani qilg'umdir irsol.
Salom, ey qoshi you kirpigi o'q,
Sening hajringg'a emdi toqatim yo'q.
Salom, ey nozanini sho'xi tannoz,
Bo'lubdur mehnatim ko'p, rohatim oz.
Salom, ey lablari koni halovat,
Manga yo'q sensizin xobi farog'at.
Salom, ey nozparvar nozipiyro,
Nechuk topg'um visoling bazmin oyo.
Salom, ey ko'zlar shahlou fatton,
Ani o'pmakni istab chekkum afg'on.
Salom, ey jabhasi xurshidi xovar.
Qachon shomimni qilg'ungdur munavvar.
Salom, ey mahvashi sarvi gulandom,
Qachon ilgingdin ichkumdur to'la jom.
Salom, ey insu jins ichra yagona,
Mening sori qachon bo'lg'ung ravona.
Salom, ey lutfi dardimning davosi,
Yorutg'ay ko'zlarim husnin ziyosi.
Salom, ey mehribonim, rozdorim,
Qachon ollingda bo'lg'usi qarorim.
Salom, ey hurvash, Iso sifotim,
Bo'lur oyo qachon g'amdin najotim.
Salom, ey vaslinga jonim fidodur,
G'aming tig'i bila ko'ksum yarodur.
Salom, ey la'l koni qandu shakkar,
Qachon bo'lg'umdur ondin bahra parvar.

Salom, ey noz fanni ichra mohir.
Visoling birla qil xushnud xotyr.
Salom, ey fikri oromi zamirim,
Qolibmen hajr aro bo'l. dastgyrim.
Salom, ey tal'ating tobanda xurshid,
Qilurman ko'rmaq oni doim ummid.
Salom, ey komi jonu rohati dil,
Manga lutf ila bo'l bir lahza moyil.
Labingdin ayru ichsam bodai bob,
Topar ondin mazoqim ta'mi xunob.
Yuzing hijronida o'tdur manga gul,
Soching fikridadur o't dudi sunbul.
Tuzar bazm ichra mutrib zer ila bam,
Qulqimg'a kelur faryodi motam.
Agar partav solur ustimga mahtob,
Qaton yanglig' meni o'rtar o'shul tob.
Ko'runur ko'zuma gul shakli axgar,
Urar gul reshasi jonimg'a nishtar.
Nasimi jonfizo yetsa mutayyab,
Samum oso yeturgay jonica tab.
Ko'runsa ko'zuma miynoyi gulrang,
Topar ul lahza ko'nglum shishasi zang,
yetibdur jong'a bas anduhi g'amdin,
Yuzum kohi erur dardu alamdin.
Qilib lutfu karam, ey sho'xi dilkash,
Meni chekkil o'zingga kahrabovash,
Iloji vasl uchun aylab chu tadbir,
Manga qilding ishorat azmi taxsir,
Qilib lutfu inoyat hayyi yazdon,
Tamomi mushkil ishlar bo'ldi oson.
Vale bordur bu mushkil uzra mushkil,
Ki ko'rmasmen qilib ko'yingda manzil.
Kecha-kunduz bo'lib ko'yungda zoyir,
Zamone bo'l madim husningg'a nozir,
Qilurmen jon bila, ey g'ayrati hur,
Yana bo'lsam ne yanglig' ishga ma'mur,
Chu Vomiq nomasi Azrog'a yetdi,
O'qub sirridin o'zni ogah etdi.
Olib ilgiga Azro ham qalamni,
Javobig'a bu nav' etti raqamni.

*Azroning shoh Vomiq nomasig'a javob yozib Bahrom bila Bejodaning ham siyosat
bila qatlga yetmagin iltimos qilg'oni*

Ne hush farxunda soatdur bu ayyom,
Ki yetdi yordin jonbaxsh payg'om.

Saharkim aylabon iqbol ta'yid,
yetushmay subhg'a payg'omi xurshid.
Hanuz ogoh bo'lmay shohi xovar,
Ki vaqt o'ldiki qo'yg'ay boshg'a afsar.
yeturdi bas nasimi subhi sodiq,
Hazin Azro uchun payg'omi Vomiq.
Bo'lub bu baxti xob oluda bedor,
Manga nogah yetushdi va'dai yor.
Erur ul nomai dildori gulchehr,
Muhabbat bar muhabbat, mehr bar mehr.
yetib ul noma qildi xotirim shod,
Ki g'am ilgidin erdi xatti ozod.
Oritdi xotirimdin gardi kulfat,
Hazin ko'nglumga yetkurdi masarrat.
Ochib ko'rgach savodin oshikora,
Nishoti ishratim bo'ldi du bora.
Xatidin topdi afzoyish nishotim,
Rumuzi qildi afzun inbisotim.
Manga hosil bo'lub baxtu saodat,
Jahon andar, jahon komi murodat.
Alo, ey xisravi xurshid afoar.
Sarafrozi salotin banda parvar.
Ko'rub nomang'ni bo'ldi toza jonim,
Balolardin erur oxir zamonim.
Demishsankim g'ami hijron qilur sho'r
Balou dardi furqat kelturur zo'r.
Nechuk men kelturay bu so'zga toqat,
Ki menda yo'qdur aslo omnu rohat.
Bahar surat sanga yetsun payomim,
Sabo birla yetushgan chog' salomim.
Salom, ey qomati sarvu sanubar,
Sanga bormen kanizi zoru kamtar.
Salom, ey husni mehri olam aro,
Aning hajrida shomim tiyra ammo.
Salom, ey mardlar farzona mardi,
Rahi ishq ichra ushshoq ahli fardi.
Salom, ey xotirim ichra nishotim,
Xayoling birla bordur inbisotim.
Salom, ey ishqning mulkida sulton,
Salom, ey zubdai oli Sulaymon.
Salom, ey zoyiri dargohi taqdis,
Kelib sen nisbati ahfodi Bilqis.
Salom, ey nisbati pokiza gavhar,
Qachon vasling manga bo'lg'ay tuyassar.
Salom, ey ishq ahlin pokbozi,
Jamiyi poklarning sarfarozi.

Salom, ey qomati sarvi ravanim,
Zamirim quvvati, jism ichra janim.
Salom, ey quvvati jismi nizorim,
Habibim, mehribonim, rozdorim.
Salom, ey fazlu hikmat ichra yakto,
Sanga yo'qdur jinu insonda hamto.
Salom, ey mahjabini shahd guftor,
Eshitmakka kaloming bo'lmisham zor.
Salom, ey ishq ichra sobit aqdom,
Visolingdin manga yo'q o'zga bir kom.
Salom, ey lutf pesha mehr bunyod,
Musallam der sanga ishq ichra Farhod.
Salom, ey sohibi mehru muhabbat,
Erur oshiqlig'ing har kimga musbat.
Meni sendin fuzundur ishtiyoyim,
Tutashqon sarbasar o'tdur visoqim.
Mening ilgimda bo'lsa chorai kor,
Bo'lur erdimmu muncha xastai zor.
Sening birla bo'lub payvasta hambar,
Hamog'ush o'lmag'ay erdimmu yaksar.
Qilur erdim bu ishda sa'y ila jahd,
Labim la'lingdin o'lg'ay erdi pur shahd.
Qilib jon javharin har dam nisoring,
Ko'zunga to'tiyo aylab g'uboring.
Qilib sarving bila sarvimihamdo'sh,
Niholing birla shamshodim ham og'o'sh.
Gulu bulbul kabi bo'lsak, chamanda,
Masarratdin bo'lub labriz handa.
Tarabgoh o'lsa vuslat gulistonni,
Nishimin bo'lsa vuslat oshiyoni.
Topib vaxdat mayidin kom payvast,
Gar o'lsaq g'aybati bazmida sarmast.
Visol o'lsa aro yerda agar kom,
O'zing sa'y aylasang topg'ay saranjom.
Bu dam bo'l vasl ishig'a chora pardoz,
Visol ohangin emdi aylagil soz.
Bu dam elga sening hukming ravondur,
Buyurmoqlig' hamon butmak hamondur.
Sening farmoningga eldur musaxxar,
Nega vuslat ishin qo'yg'ung muaxxar.
Yana qilg'um bir ish sendin tavaqqu',
Xusulidin base qilg'um tazarru',
Ki ul Bejodau Bahromi nammom,
Ki qildilar meni ishqingda badnom.
Alardin chekmisham doim taallum,
Alam andog' yeturmas moru kajdum.

Base ochdilar abvobi xusumat,
Adovat nishidin yetkurdy zahmat.
Chekib tig'i zabonu xanjari ta'n,
Havolat ayladilar dashnai la'n.
Qilib bo'hton, urub jonimg'a yuz nish
Malomat birla ko'nglum qildilar resh.
Aningdek qildilar shonimda bo'hton,
Ki qatlimg'a alardin bo'ldi farmon.
Manga axtar olardin bo'ldi manhus,
Ki men bo'ldum balo sajnida mahbus.
Bu holatda meni gar ko'rsa gardun,
Qotig' holim uchun yig'lar edi xun.
Sen emdi qil manga lutfu inoyat,
Alarni qil sazovori siyosat.
Alar kirdorig'a loyiq jazo ber,
Sazovor o'lsa qaysi ish sazo ber.
Agar sen qilmasang bu ishni mafqud,
Visolimdin yetushmas bo'yi behbud».«
Chu noma shoh Vomiq sori yetti,
Bu holatg'a base afsus etdi.
Taassuf aylabon behad ayon ul,
Bu yanglig' nuqtalar qildi bayon ul:
«Ki ul muddatki aylab no'sh boda,
Maqomim erdi bog'i dilkushoda.
Chun aylab bu xabar ko'nglumni noshod,
Qasam bu ish uchun qilmish edim yod.
Ki gar topsam parilar mulkiga dast,
Alarni qilg'amen tufroqg'a payvast.
Olurman intiqomi yor alardin,
Ki ko'rmish ranju g'am bisyor alardin,
Niholi davlatimkim topdi bolish,
Kerak dushmang'a bersam emdi molish».

***Shoh Vomiqning malik Shahbolg'a nasihat berib, Bahrom bila Bejodaning siyosat
bila qatlg'a yetkurgoni***

Sen, ey nafsim sitamkeshi sitamkor,
Nechun muncha yeturgung elga ozor,
Ichirgung elga doim javr ila qon,
Bu ishdin bo'limg'ung hargiz pushaymon.
Bu savdo hyech sanga behbud qilmas,
Sanga aslo nasihat sud qilmas.
Oshiqma, bir kuni bo'lg'ung sazogir,
Nekim qilding kelur olingg'a bir-bir.
Ko'rursen harna bergen zahmatingni,
O'zing ichkung ichurgan sharbatingni.

Kishi har yerda sochsa tuxmi xanzal,
Tama' qilsa shakar, bil oni ajhal.
Bo'lur, bas, ul nafas Vomiq g'azabnok,
Turub o'z manzilidin chustu cholok.
Shahi Shahbol sori bordi filhol,
Ko'rub bu holin aning shoh Shahbol.
Dedi lutf ila: «Key farzona farzand,
Jabiningg'a nedindur qahr payvand.
Aning gar boisin qilsang izhor,
Mening holingdin ar qilsang xabardor.
Nekim daf'idurur qilg'um tadorak,
So'zini aylab o'zga toji torak».
Dedi Vomiq: «Shaho, olam panoho,
Faridunfar. Skandar dastgoho,
Bu dargoh ichra ikki shum niyat—
Ki, durlar shohg'a arkoni davlat.
Alar chun mardi davlatxoh emaslar,
Bilingkim loyiqi dargoh emaslar.
Alarni shah tutubdur garchi ma'fu,
Bu ish shahlarg'a loyiq keldi asru,
Vale qilmoq ul ikkini siyosat,
Kelibdur sizga qonuni riyosat.
Bu ikki kim erurlar shahg'a badxoh,
Alarni hushturur qatl aylasa shoh».
Malik Shahbol eshitdi chun bu so'zni,
Qilib g'arqi xijolat ul ham o'zni,
Dedi Vomiqg'a: «Bersang har nekim pand,
Barisidin bo'lurmiz biz barumand,
Burundin ham manga bu ishda Tayfur
Nasihat birla taklif etti mavfur.
Bu ishda men va lekin aylab ehmol,
Xato birla o'turgum moh ila sol»,
Debon bu so'zni andoq qildi farmon,
Ki qatl ettilar ul ikkini ul on,
Bas ondin so'ngra Vomiq birla Azro
Tashakkur sajdasini qildi barjo,
Ko'ngulni aylabon shodonu xurram,
Sharobi aysh ichdilar damodam.

***Shoh Vomiq o'z mansublari birla Chin shahrida qolib malik Shahbolning Jobilso
kishvarig'a murojaat qilg'oni***

Chu topti to'yning ayyomi itmom,
Dog'i aysh ila o'tdi necha ayyom.
Ki Vomiq oldi hoqondin ijozat,
Bilodi Chindin etmakka azimat.

Dedi Vomiqg‘a onda shoh Fag‘fur
Ki ey ko‘nglum visoling birla masrur!
Bilodi Chin ajab dilkash makondur,
Jahondin o‘zga bu ham bir jahondur.
Erur onda nihoyatsiz ajoyib,
Ajoyibdin dog‘i ko‘bdur g‘aroyib.
Nishoti aysh erur anda farovon,
Jahon sayri erur bir yon, bu bir yon.
Turub qil munda sayru ishrati bazm,
Chu bir yil o‘tkarib so‘ng aylagil azm.
Bo‘loli necha kun hamsuhbatu yor,
G‘animatdur bu dam bir-birga diydor».
Shahi Vomiq chu bu so‘zni eshitdi,
Qolurni shahri Chinda jazm etdi.
Nechunkim Chinni sayriyu, havosi,
Ko‘ngulda erdi doim muddaosi.
Vale Shahbol ila o‘zga necha shoh,
Hama qildilar o‘zni ozimi roh.
Malik Shahbol Jobilsog‘a ketdi,
Bori shah o‘z bilody sori yetdi.
Qolib Chin uzra Vomiq shodu xurram.,
Chekib bazm ichra tun-kun sog‘ari jam.
Taxayyul mujibatidin uzub qayd,
Tuzub gah bazmu gohi aylabon sayd.
Gahi Azro bila xilvatda erdi,
Gahi ahbob ila ishratda erdi.
Gahi sayr etdi bog‘i dilkushoda,
Tuzub bazm onda, oshom etdi boda.
G‘araz shohi Naimu, shoh Vomiq,
Ham Osafi soniy — uch yori muvofiq.
Haram ahli bila bir necha muddat,
Qilib Chin mulki sayrin ikki navbat.
Nekim anda esa asbobu ashyo,
Borisin qildilar yaksar tamoshlo.
Bu sayr ichra ajoyib ko‘rdilar ko‘b,
Tilsimotu g‘aroyib ko‘rdilar ko‘b.
Xudo turluk ajoyib qildi ijod,
Qoyu birni ko‘rubdur odamizod.
Base sayru tomosho ayladilar,
Topib nekim tamanno ayladilar.
Agar bersam olar borig‘a tafsil,
yetar bu nusxag‘a itlolu tatvil.
Banogah bir kuni majlis edi garm,
Dedi Vomiqg‘a Osaf: «Bu sifat bazm,
Ki erdi mardi neku Sa‘d tojir,
yeturdi bizga turluk naf’ vofir.

Bu muddat ichrakim biz komronmiz,
 Topib maqsudi xotir shodmonmiz.
 Erur vojib angakim ushbu ayyom,
 Muruvvat birla qilmoq lutfi in'om».
 Shahi Vomiq bu yanglig‘ qildi farmon,
 Ki oni qildilar hozir ham ul on.
 Anga aylab muhibbona muloqot,
 Maqomin sadri majlis qildilar bot.
 Bo‘lub ogoh mundin shoh Fag‘fur,
 Anga lutfu karam ko‘rsatdi mavfur.
 Ki ya'ni o‘z nadimi xosi etdi,
 Vaziri sohibul ixlosi etdi,
 yetib chun Sa'd bozirgong‘a davlat,
 Musallam bo‘ldi manshuri vazorat.
 Ne xush xislat erur axloqi neku,
 Nekim qilding kelur ollingg‘a o‘tru.
 Muruvvat pesha qilkim hayyi sone',
 yeturgay, qilmayin ajringni zoe'.
 Ketur, soqiy, sharobi behjat anjom,
 Ki qilg‘umdur vatan sorig‘a quddom.
 Minal imon emish chun hubbul avton,
 Bas o‘lg‘umdur vatan sori shitobon.

3-mavzu. Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga oid ilmiy asarlarni o‘rganish, shoir asarlari tahlili.

Komil Xorazmiy (taxallusi; asl ismi Paqlavon Muhammadniyoz Abdulla Oxund o‘g‘li) (1825 — Xiva — 1899) — o‘zbek shoiri, xattot, musiqashunos, tarjimon va davlat arbobi. Jahon madaniyatining Xorazmdagi ilk targ‘ibotchilaridan biri. Xiva madrasasida o‘qigan. Arab va fors tillarini mukammal bilgan. Sharq adabiyoti namoyandalari ijodini, mumtoz musiqani, xattotlik sirlarini qunt bilan o‘rgangan. 25—30 yoshlarida shoir sifatida tanilgan. Ogahiy uning nomini o‘zining «Gulshani davlat» kitobiga kiritgan. Xiva xoni Sayd Muhammadxon saroyida kotiblik qilgan. Muhammad Rahim II uni mirzaboshilik vazifasiga ko‘targan. Rossiya bilan Xiva xonligi o‘rtasida imzolangan sulh shartnomasi (Gandimiyon shartnomasi) Komil Xorazmiy qo‘li bilan yozilgan (1873). So‘ngra saroyda devonbegi (1873—80), mirzaboshi lavozimlarida ishlagan (1880 yildan). Xorazmda birinchi bo‘lib bosmaxona tashqil etgan (1880—81). Komil Xorazmiy Sharq mumtoz musiqasi, xususan, maqomchilik an'analarini rivojlantirishga homiylik qilgan, o‘zbek kuylarini yozib olish uchun «Tanbur chizig‘i» deb ataluvchi nota tizimini joriy etgan. Bu o‘ziga xos notada «Rost» maqomining bosh qismini yozgan. O‘g‘li Mirzo Muhammadrasul otasi boshlagan ishni davom ettirib, Xorazm «Shashmaqom»ining qolgan ashula va cholg‘u yo‘llarini to‘la notaga olgan. «Rost» maqomiga bog‘langan «Murabbai Komil» va «Peshravi Fero‘z» kuylarining notasi bizgacha yetib kelgan. Komil Xorazmiy Moskva va Peterburg shaharlariga 2 marta safar qilgan (1873, 1883). 1891, 1896—97 yillarda esa Toshkentga kelib, bu

yerdagi madaniy yangiliklar haqidagi «Dar bayoni ta'rif va tavsif Toshkand» («Toshkent ta'rifi va tavsifi bayonida») qasidasini bitgan. Bu qasida o'zbek adabiyotida ijtimoiy taraqqiyotni aks ettirgan dastlabki yirik she'riy asarlardan bo'lib, unda yangi, zamonaviy madaniyat ulug'lanadi.

Komil Xorazmiy Sharq mumtoz shoirlari an'analari ruhida lirk shew'rlar yozgan, devon tuzgan. Bu devonda 8000 misradan ortiq shew'rlar bo'lib, ular g'azal, murabba, muxammas, musaddas, masnaviy, ruboiy, qasida, muammo kabi janrlarda yozilgan. Ularda chin insoniy fazilatlar ulug'langan, jaholat qoralangan, ishq-muhabbat tarannum etilgan. Komil Xorazmiyning deyarli barcha janrdagi asarlarida ijtimoiy tanqidga keng o'rin berilgan, ayrim misralari aforizm darajasiga ko'tarilgan («Falak zulmi bir yonu, bir yon alar...» va b.). Shayx Sulaymon Buxoriy o'zining mashhur «Lug'oti chig'atoysi va turki usmoniy» («Chig'atoyscha va usmoniy turkcha lug'at») asarida Komil Xorazmiyning ijodidan o'rinli foydalangan va Xorazm shevasidagi ko'pchilik so'zlarning ma'nosini uning shew'rlari orqali izohlab bergan. Komil Xorazmiy 1865 yilda Barxurdor bin Mahmud turkman Farohiynmng (adabiy taxallusi Mumtoz) «Mahbub ul-qulub» (bu asar ayrim manbalarda «Mahfiloro» — «Majlisga ziynat beruvchi» deb ham yuritiladi) hamda 1869—70 yillarda Faxriddin Ali Sayfiyning «Latoy-if at-tavoyif» («Turli toifalarning latifalari») asarlarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Alisher Navoiy «Xamsa»sining birinchi Xorazm toshbosma nashriga so'zboshi yozgan. Komil Xorazmiy devoni qo'lyozmalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi (inv. №1849, 1025). M.Yunusov, F.Karimov, A.Hayitmetov, va boshqa olimlar Komil Xorazmiy ijodini tadqiq etganlar.

TARQATMA MATERIAL

«LATOFIF-UZ-ZAROIF»DAN

Bir ota va o'g'ulni bir hokim qoshig'a kelturdilarkim, tayoq urg'aylar. Avval otosin yotquzub yuz tayoq urg'oymal. U hyech so'zlamodi. Andin so'ng o'g'lini yotquzib bir tayoq urub erdilarkim, ota dodu faryod qila boshladi. Hakim dedi:
— Sen yuz tayoq yeding, hyech bir daming chiqmodi, o'g'lungga bir tayoq urganda nechun nola qilursan?
Ul dedi:

— Ul tayoqkim tanimga tegdi, tahammul qildum. Endi jigarimga tekkan erdi, chiday olmadum.

* * *

Bir kambag'al olim kishi faqir bo'lgani uchun bir baxil boyni eshikiga boribdurkim:
— Men, siz sadaqa bermoqchisiz, deb eshitdim. Men g'oyat daraja muhtoj va mustahiqdurman,— dedi. Baxil boy bahonalar qilib dedikim:
— Men sadaqamni ko'rlarga berurman, deb ahd qilib erdim. Sen ersang ko'r emassan.
Olim dedi:

— G'atal qilibdursan, ko'r haqiqiy mandurmankim, maxluqotga rizq beruvchi zotdan yuz o'gurib, seningdek baxilning yoniga kelibdurman.

Bu so'zni aytib olim qaytib ketdi. Olimning so'zi baxilga bag'oyat ta'sir qilib, izidan yugurdi. Olim qabul etmadi.

* * *

Bir tabibni ko‘rdilarkim, har vaqt go‘ristondan o‘tsa ridosini boshiga solub yopunib o‘tar erdi. Aning sababin so‘radilar. Tabib dedikim!

— Bu go‘ristonda yotg‘on o‘luklardin uyalurman. Chunki har biri meni dorimni yeb va mening sharbatimdin ichib o‘lgandurlar.

* * *

Bir kun shoir Anvari Balx bozoridin o‘tub borur erdi. Ko‘rdikim, xaloyiqlar halqa qurmishlar. O‘rtada bir kishi turib Anvariyning qasidalaridan o‘z otig‘a o‘qur erdi. Xaloyiq anga tahsin va ofarin qilur erdilar. Anvari debdur:

— Bu kimning ash'oridurkim, o‘qursan?

Ul debdur:

— Anvariyning ash'oridur.

— Anvariyni tanurmisan?

Ul dedi:

— Ne aytursan, Anvari mendurman.

Anvari kulib debdur:

— She‘r o‘g‘risin eshutib erdim, shoirning o‘g‘risin ko‘rmamish erdim.

* * *

Keltiribdurki, Abu Ayyub Mansur xalifaning yaqin va hamsuhbatlaridan erdi. Ammo har vaqt Mansur ani chaqirsa, rangi sarg‘ayib, badanlarig‘a larza tushar erdi. Bir kun bir mahram joeda anga dedikim:

— Sen xalifaning yaqin va hamsuhbatlaridansan. Ne uchun seni har vaqt chaqirsa qo‘l-oyog‘ing bo‘shashib, o‘zingni yo‘qotib qo‘yursan. Abu Ayyub ul mahram javobida dedikim:

— Bir qarchig‘ay bir xo‘rozdin so‘rdikim, sen yoshlikdan odamlarning uyida bo‘lursan. Ular sanga o‘z qo‘llari bilan don va suv berurlar, saning uchun uylarida joy solurlar. Ammo har vaqt seni tutar bo‘lsalar ne uchun g‘avg‘o qilib, faryod bilan ul uydin bul uysa, ul o‘choqdin bu o‘choqg‘a qocharsan. Men esam bir vahshiy qushdirman. Ulug‘ tog‘larda kezarmen. Qachon meni tutib keltirsalar, qo‘llarida orom olurman, meni ovga yuborsalar hyech g‘avg‘o va mojaro qilmay parvozga chiqib, aylanib, yana qaytib kelurman. Xo‘roz dedikim:

— O qarchig‘ay qush, hyech joyda ko‘rdingmi yoki eshitdingmi, bir qushni sixga tortib, o‘tga qo‘yib, kabob qilganliklarini. Qush yo‘q, dedi. Xo‘roz dedikim:

— Men bu xonadonda bo‘lganimdan beri yuz xo‘rozni ko‘rdim: boshini uzib, qanotlarini yilib qrrnini yorub, sixg‘a tortib, kabob qilib, yeydilar. Mening faryodimning sababi shudir.

* * *

Abdulfazl bilan Umayt Ruknuddavlanning vaziri erdi. Ug‘li Abdulfathni Abul Husayn Ahmad binni Foris degan muallimg‘a topshirdi. Abul Husayn esa o‘z zamonining fasohatli tengsiz adiblaridan erdi. Abdulfath o‘qishda tamballik qilar erdi. Muallim Abul Husayn otasi Abdulfazlga yozdikim:

«O‘g‘lingiz Abdulfathning o‘qishdagisi harakati chumolining bosh barmog‘idan ham kamroq va pashshaning gardanidan kaltaroqdur».

* * *

Bir kecha Hajjoj dedikim:

— Ko‘ringlar, zindonda biror fazilatliq kishi bormukin? Agar bo‘lsa, men aning bilan suhbatlashurman.

Zindondan qidirib bir fozil kishini topib kelturdilar... Hajjoj andin so‘rdikim:

— Sen nima sababdin zindong‘a tushding?

Fozil dedikim:

— Maning amakimning bir o‘g‘li bor erdi. Chun nohaq qon to‘kib qochib ketdi. Aning o‘rnig‘a mani tutib zindong‘a soldilar.

Hajjoj dedikim:

— Shoirning bir so‘zi borki, rost aytibdur. Amakingning o‘g‘li gunoh qildi. Sen aning o‘rnig‘a mubtalo bo‘lding. Albatta mard kishi amakisining yomon axloqli o‘g‘li sababidin giriftor bo‘lg‘usidir. Hajjoj shoirning shu so‘zini o‘qigach, ul adib dedikim:

— Tangri shoirdin rostgo‘yroqdur. Chunki tangri buyuradi: «Qishi ikkinchi bir kishining gunohi uchun tutilmasin». Hajjoj bu so‘zni eshitgach unga ming tillo berib ozod qilib yubordi.

* * *

Xalifalardan biri vazirig‘a dedikim;

— Qayda erding?

Ul dedi:

— Sening uchun ko‘shk bino qilur erdim. Xalifa ani javobidin hayron bo‘ldi. Chunki aning javobida ishorat bor erdi. Shundayki, xalifa Fir‘avn hukmida bo‘lib qoldi. Xalifa:

— Ey Homon,— deb chaqirgani uchun vaziri ham unga munosib javob berdi. Chunki Homon Fir‘avnning vaziri erdi.

* * *

Bir kun devon kotiblaridin biri Hajjojning qoshig‘a kelib, ba’zi ehtiyojini arz qilib chiqib ketdi. Hajjojning oldida doimo birga turadigan va uning kuldiradigan Mabra degan nadimi bor edi. U dedikim!

— Odamlarning eng yomoni devonxona kotiblaridur.

Shunda Hajjoj aytdikim:

— Nima uchun sen kotiblarni shikoyat qilursan. Holbuki tangri, «kiromun kotibin», deb yod qilubdur, sen tangrining kalomiga qarshi so‘z aytursan. Agar sen eski hamsuhbatlarimdan bo‘lmasang erdi senga siyosat qilur erdim. Mabra:

— Ey xalifa, men devon kotiblarini ayturman, osmondagи farishtalarni aytmadim va alarni shikoyat qilmadim,— dedi.

Hajjoj kulib, aning javobiga ming diram in'om etdi.

* * *

Bir podshoh nadimga dedikim:

— Bu shaharning ablalalarining otini ro‘yxat qilgin.

Nadim:

— Har kimning otini yozsam g‘azab qilmasligingga shart qilasanmi,— dedi. Podshoh qabul qildi. Nadim eng avval gyudshohning otini yozdi. Podshoh dedi:

— Ablahlikni menga isbot qil. Agar isbot qilolmasang senga siyosat qilurman,— dedi.

Nadim dedikim:

— Yuz ming tilloning hujjatini falon navkarg‘a berib, buyurdingkim, falon mamlakatga

borib shul tilloni naqd qilib, olib kelsang, deding. Holbuki men o'sha navkarni yaxshi taniyman. Ani bizning mamlakatda na farzandi bor. Hyech bir narsasi yo'q bir kishidur. Agar ul o'sha vajhni qo'lig'a kirgizsa boshqa bir viloyatg'a borib, tirikchilik qilur. Anga sening hukming hyech bir o'tmaydi. Shul holda sen aning ustida ne ish ko'rursan. Podshoh dedikim:

— Agar ul mandin yuz o'gurmay u tilloni naqd olib kelsa, sen na dersan,—dedi.

Nadim:

— Agar, ul olib kelsa, ablahlik daftaridan podshohning otini qirib tashlab, o'rnig'a aning otini yozib qo'yurman, dedi.

* * *

Bir kun Iskandar Doro bilan urushish munosabati bilan o'z askarlarini ko'zdan kechirdi. Usha ko'rik kuni shamol va chaqmoqdek tezlikda uchib yuradigan bir otg'a mingan erdi. Shul vaqtda navkarlaridin biri bir oriq va cho'loq otga minib podshoh oldidin o'tdi. Podshoh g'azab bilan ani otdan tushishga buyurdi. Shul vaqtda navkar kulib yubordi. Iskandar chaqirib, kulganligini sababini so'rabdi, ul dedikim:

— Sening g'azab va qahringdan kulgum keldi. Chunki sen uchar bir otg'a minib turib, men esam yurolmay to'xtab qoladigan otga minibdurman. Yana shunday bo'la turib menga g'azab qilursan. Iskandarg'a aning so'zi ma'qul tushib, oni askarboshilaridan qilibdur.

* * *

Bir kun Amru Lays askarlarini ko'zdan kechirar erdi. Askarlaridan biri ko'rdiki, biri oriq ot minibdur. Amru Lays qahrlanib dedi:

— Mening askarlarimga tangrining la'nat bo'l sinkim, har vaqt tanga va tillolarni ularg'a berurman va ta'minotlarig'a sarf qilurman, ular esa xotunlarini semirtirib, o'z minadigan otlarig'a qaramay, oriq holda saqlaydilar. Ul askar dedi:

— Ey amir, tangri haqida, agar haqiqat qilsang, uydagi xotinimiz bu otimizdan ham oriqroqdir.

Bu so'zdan Amru Lays kulub, ango o'n ming tillo in'om qilub vazifasini oshurdi.

* * *

Askarlardan biri har vaqt hammomga borsa, hammomdan chiqar vaqtida hammomchig'a tuhmat qilur erdikim:

— Mening falon narsam yo'q, ani topib bergil yoki tavon bergil, deb shu tariqada da'vo qilib, g'avg'o qilib, hammomning sartarosh va xodmilarin haqlarini bermay ketar erdi. Qisqasi, barcha hammomchilar ani tanib, hyech bir hammomg'a kirgazmadilar. Oxiri noiloj bo'lub, bir hammomg'a borib, ahd qildikim, endi hammomchi, sartarosh va xodmilarning haqini berib, tuhmat qilmayman, degan so'ziga ko'pchilik guvohlik berdi. So'ngra hammomga kirdi. Hammomchi bir kishiga buyurdi:

— Askarni hamma kiyimlarini yashirib qo'ying. Ammo kamar bilan qilichni yashirmay joyiga qo'y,—dedi. Ul askar hammomdan chiqdi. Ko'rdikim, barcha liboslari yo'qdur. Bu to'g'rida hyech bir dam urolmadi. Chunki guvohlar hozir erdilar. Askar nima qilishini bilmay zaruriyat yuzasidan yalang'och beliga kamar bilan qilichini bog'lab hammomchini oldiga kelib dedikim:

— Men o'zim sizga hyech bir so'z aytolmasman, ammo insof o'zingizga bersinkim, men hammomga kelgan vaqtimda shu surat bilan kelib erdimmi?

Hammomchi va hozir turgan kishilar kulishib, kiyimlarini berib, endi har hafta bir

martaba haq to‘lamay hammomg‘a tushib ketishga rizolik berdilar.

* * *

Bir askarning bir chiroylik xotini bor erdi. Aning oti «Hur» erdi. U bir kun urushdan yuz o‘girib qochdi. Anga dedilarkim:

— Ey nomard, qaytg‘il! Agar bir kofirni o‘ldirsang, g‘oziy bo‘lursan. Va agar kofir seni o‘ldirsa, shahid bo‘lib, qiyomatda hurlar xizmatingda bo‘lur.

Ul dedikim:

— Mening bu dunyoda hurim bordir. Boshqa hur uchun o‘zimga o‘limni ravo ko‘rmayman.

* * *

Hajjojga jam'e odam xuruj qildi. Ul jam'edan bir xotunni Hajjoj qoshig‘a kelturdilar. Hajjoj ango g‘azab qila boshladn va itob bilan so‘zлади. U xotun boshini tuban solib, hyech bir so‘zlamadi. Hozir bo‘lgan odamlardan biri dedi:

— Amir senga so‘zlaydur, nega indamaysan?—dedi.

Xotun dedikim:

— Men tangri nazar qilmagan kishiga nazar qilib, so‘zlagani uyalaman.

Hajjoj dedikim:

— Qaydan bildingkim, tangri menga nazar qilmaganini?

Xotun dedi:

— Agar senga tangri nazar solsa erdi, seni tangri buncha zolim qilmas erdi.

Hajjoj dedi:

— Xudo haqida, bu xotun rost aytur.

So‘ngra anga ming tillo berib, o‘z uyiga yubordi.

* * *

Luqmoni hakim qora tanli kishi erdi. Bir kishi uni qul qilib sotib oldi. Qo‘p muddat anga xizmat buyurub, andin ilm va hikmat asarlarini ko‘rur erdi. Bir kun imtihon yo‘li bilan Luqmonga dedikim:

— Bir qo‘yni so‘yub, eng yaxshi joyidin manga kelturgil.

Luqmon qo‘yni so‘yub, tilini va yuragini kelturdi. Yana bir kun buyurdi:

— Bir qo‘yni so‘yub eng yomon joyidin menga kelturgil.

Luqmon yana qo‘yni so‘yub tilini va yuragini xojasiga keltirdi. Xojasi so‘radikim:

— Bu qanday ishdir?

Luqmon dedi:

— Agar pok bo‘lsa hyech narsa til va yurakdan yaxshi ermasdur va agar nopol bo‘lsa ham hyech narsa andin yomonroq ermasdur.

* * *

Bir nodon kishi bir hakimga dedikim:

— Ne uchun og‘zingdin yomon is keladur?

Hakim dedi:

— Saning ayblaringni ko‘kragimda ko‘p saqlar erdim. Tanamga ta’sir qilibdur.

* * *

Bir baxil boy bir hakimni ko‘rdikim, ko‘p mehnat bila kumush ma’danidin toshlarni qazib chiqarib, ushatur. Andin tillo zarralarini hosil qilar erdi. Baxil dedi:

— Ey hakim, bundan boshqa osonroq avqot o‘tkazgudek kasb va hunar yo‘qmi erdi. Na

uchun shuncha mashaqqat chekarsen?

— Menga yuz muncha mehnat va mashaqqat bilan zar hosil qilish sening qo'lingdan bir pulni chiqarib olgandan ming marta osonroqdur.

* * *

Debdurlarkim, uylanmoqliq bir oy shodmonliq bo'lsa, andin so'nggi qolg'on barcha umr anduh va pushaymonlikduri.

* * *

Bir hakim uylangandan so'ng buyurubdurkim, men qachon bo'ydoq erdim, uylangan kishilar gung erdilar, ya'ni nasihat berib meni qaytarmadilar. Endi men uylandim, bo'ydoq kishilar kar bo'libdurlar, ya'ni nasihat eshitmaydurlar.

* * *

Bir hakim dedikim:

— Uylanmog'lik bir chuqur quduq kabitur. Har kim anga tushsa xaloslik yo'qduri.

Andin so'rdilarkim:

— Oyo andin qutulmoq mumkinmu?

Hakim dedi:

— Agar quduq boshiga xarsang qo'ysalar ozod bo'lish mumkindur.

So'radilarkim:

— Xarsang nimadur?

Hakim dedi:

— Har bir farzand tug'ilsha, ul quduq boshiga xarsang quyorlar.

* * *

Bir hakim sharob ichmas erdi. Hakimdan so'radilar:

— Nechun sharob ichmassan?

Hakim dedikim:

— Meni aqlimni ichgan narsani men ichmasman.

* * *

Bir podsho bir hakimni o'z holiga qo'ymadi. Mastlikdan andin behuda so'zlar og'zidan chiqqa boshladidi va bema'ni so'zlarni ham ko'p aytdi. O'ziga kelgandin so'ng malomat qildilarkim:

— Ne so'zlarni so'zlading?

Hakim dedikim, men bu so'zlarni aytganim yo'q. Lekin meni sharob ichmakka taklif qilgan kishi aytdi.

* * *

Bir kishi bir tabib qoshig'a borib:

— Qornim ko'p og'riydur, betoqatdurman. Biror iloj etkil,— dedi.

Tabib dedikim:

— Bugun ne taom yegan eding.

Ul kishi dedi:

— Kuyuk nonni ko'p yedim.

Tabib g'ulomni chaqirib dedi:

— Ko'z dori keltirgin. Ko'ziga tomizgaymiz.

Kasal dedi:

— Mening qornim og'riydur, ko'z dorisini nima qilaman?

Tabib dedi:

— Agar ko‘zing ravshan bo‘lsa erdi, kuygan nonni yemas erding.

* * *

Bnr kishi tabib qoshig‘a borib dedi:

— Men qulunj kasaliga giriftor bo‘lubman. Menga bir nyaoj eting.

Tabib dedikim:

— Bugun ne yeding?

Ul dedi:

— Tuzlangan sigir go‘shtini yedim, hamda qoq go‘sht, pishloq, tovuq tuxumi, harisa mevalardan: anor va oluxurot ko‘p yedim.

Tabib dedikim:

— Agar bu kecha o‘lsang dori qilishdan qutulasan.

Agar o‘lmay qolsang, ertaga erta bilan shaharning minorasiga chiqib, o‘zungni pastga tashlagin, shundagina bu qulunj dardidan xalos bo‘lursan.

* * *

Bir kishi bir tabibning qoshig‘a kelib dedikim:

— Men uch kundan beri kasalman, hyech ishtaham yo‘qdur. Juda quvvatsizlanib qoldim. Buni ilojini qilsangiz. Tabib aning tomurini ushlab ko‘rib so‘radikim:

— Bugun ne taom yeding?

Ul dedi:

— Uch kundur, bir narsa yemadim.

Tabib dedi:

— Ozmi, ko‘pmi, ne yeganing bo‘lsa aytgil.

Ul dedi:

— Aytmoqqa arziguek biror narsa .yemadim.

Tabib dedi:

— Har ne to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, yegan narsangni aytgin.

— Hozir sizni oldingizga kelur oldimdan yo‘lda kallapazni do‘koniga kirib qoldim.

Kallani isi dumog‘imni xush qilib, kallapazzdan olti kalla olib yedim. Sen uch kalla hisob qilgin. Andin so‘ng, to‘rt botmon non yedim. Sen ikki botmon hisob qilgin.

Andin keyin ko‘nglim shirinlik yeyishni istadi. Sakkiz botmon halvoyi bodom yedim.

Sen to‘rt botmon hisob qilgin. Andin keyin o‘tib yigirma botmon amiriyl uzumini yedim, sen o‘n botmon faraz qilgin. So‘ngra, qovunfurushni do‘konig‘a kelib xisraviy qovunlarini ko‘rib, undin qirq qovun olib yedim. Sen yigirma qovun deb bilgin. Tabib bu so‘zlarni eshitgandan so‘ngra dedikim:

— Sen dag‘i hisob etgil. Men aytayin, sen endi olti yil «sarson» kasaliga giriftor bo‘lursan, sen uch yil faraz etgin. Andin keyin, to‘rt yil diq bo‘lursan, sen ikki yil hisob etgil. So‘ngra ikki ko‘zing ko‘r bo‘lur, sen bir ko‘z degil. Andin so‘ng ikki oyog‘ing shol bo‘lur, sen bir oyoq deb hisoblagin. Andin so‘ng ich og‘rig‘i kasaliga uchrab, shu kasal bilan o‘lursan, seni qabrga qo‘yib, ustingga 100 eshak tuproq solurlar. Sen ellik eshak deb faraz qilgin.

* * *

Bir kishi bir tabib qoshig‘a borib, dedikim:

— Meni bir kasalim bordur. Bir iloj qilsangiz!

Tabib so‘radikim:

— Ne kasalingiz bordur?

Ul dedi:

— Nеча kundurkim, mo'yim (soch) og'riydur.

Tabib hayron bo'lib dedi:

— Bugun nima taom yeding?

Ul dedi:

— Non bilan muz yedim.

Tabib dedi:

— Darding biror dardga o'xshamaydur va yegan ovqating ham odamlarni ovqatiga o'xshamaydur.

* * *

Bir bemaza so'zlovchi sovuq nafas shoir bir tabib qoshig'a borib dedikim:

— Ko'nglimda bir narsa aylanib, meni hushsiz qilmoqqa olib bormoqdadur. Shu sababdan barcha a'zoyimg'a muzlashlik ta'sir qilibdur.

Tabib nihoyatda ziyrak kishi edi, dedikim:

— Bu yaqinda hyech bir she'r aytdingmu? Ani xolis kishilar oldida o'qimagandirsan?

Shoir dedikim:

— Ha, bir she'r aytgan erdim. Lekin hyech kim oldida o'qiganim yo'q.

Tabib dedikim:

— Ani o'qig'il.

Shoir o'qidi.

Tabib dedi:

— Yana o'qig'il.

She'rini yana o'qidi, qisqasi, shoir she'rini uch marta o'qidi.

Tabib dedi:

— Borgil, kasaling endi tarqaldi, chunki bu she'r yuragingga tugun bo'lib turub erdi.

* * *

Bir podsho tushida ko'rsa barcha tishlari to'kildi. Bu tushdan nihoyat xafa bo'lub, erta bilan ta'bir etuvchini chaqirib, ko'rgan tushini aytib berdi.

Ta'birchi dedikim:

— Podshoni barcha bolalari va xotunlari, yaqinlari o'z huzurida o'lg'uvsidirlar.

Podshoga bu ta'bir juda qattiq ko'rinish, buyurdikim, ta'birchining barcha tishlarini ombir bilan tortib oldilar va tilini kesdilar. So'ngra boshqa bir ta'birchini chaqirib, ul tushni bunga ham bayon etdilar. Ikkinci ta'birchi juda dono va xushtabiat kishi erdi. Ul dedi:

— Ey podshoh, bu tushingiz umringizni uzoqligiga dalolat qiladur. Ta'biri budurkim, barcha bolalachingiz, xotuningiz va yaqinlaringizdan podshoni umri uzoq bo'lg'uvsidur.

* * *

Iskandar bilan Doro o'rtasida qattiq urush, janjal, bahs bo'ldi. Lekin Doro tarafi g'alabada erdi. Shu sababdin Iskandar xafa bo'lub, o'ylab bir qancha fikrlarga bordi. Bir kecha u g'am bilan charchab uxbab qoldi. Tushida ko'rdikim, Doro bilan kurash tushar erdi. Ittifoqan Doro yerga urub, orqasini yerga yetkazdi. Shundaykim, butun orqasining daxni bilan yerga qo'ydi. Iskandar uyqusidan uyg'onib, qo'rquinchi, g'am va anduhi burungidan ham ko'paydi. Shu holda ta'bir ilmiga mohir bir hakim bor erdi, uni chaqirub, tushuni anga bayon qildi. Hakim ul tushni eshitgach, ochiq yuzlik va

xursandlik bildirib, Iskandarga xushxabar berdikim, sen bu tushdan umidvor bo‘lgan. Chunon bu dalolat qiladurkim, Dorodan so‘ng, butun yer yuzi senga taslim bo‘lgan usidir. Sening orqangni yerga qo‘ygani yer yuzini senga bergani demakdur. Bu ta‘bir Iskandarga ma‘qul tushub mukofotlar berdi. Bu ta‘bir kuchi bilan butun dunyoni o‘ziga qaratdi.

4-mavzu. Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy

Muqimiy (taxallusi; asl ism-sharifi Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li) (1850 — Qo‘qon — 1903.25.5) — shoir va mutafakkir. O‘zbek demokratik adabiyoti asoschilaridan. Otasi toshkentlik, onasi Oyshabibi xo‘jandlik bo‘lib, Qo‘qonda yashaganlar.

Muqimiy boshlang‘ich ma'lumotni mahallasidagi maktabda olgan. Onasi Muhammad Aminxo‘jada she'riyatga havas uyg‘otgan. Muqimiy Qo‘qondagi Nodira bino qildirgan «Moxlar oyim» madrasasida, so‘ng Buxoro madrasalaridan birida o‘qigan (1864—65; 1875—76). 1876 yilda Qo‘qonga qaytgach, yer qurilishi mahkamasida mirzalik qilgan. 70-yillar oxirlarida Qo‘qonga qaytgan va ijod bilan shug‘ullangan. Otasi vafotidan so‘ng moddiy ahvoli og‘irlashgach, «Hazrat» madrasasining kichik bir hujrasiga ko‘chib o‘tgan (1885), butun umri qashshoklikda kechgan.

Bir necha bor Toshkentga sayohat qilgan (1887—88, 1892), Toshkentdagagi yangiliklar bilan tanishgan. Toshkent madaniy va adabiy hayotini chuqr o‘rgangan. Almai, Nodim kabi ilg‘or ruhdagi ijodkorlar bilan aloqa bog‘lab, ijodiy hamkorlik qilgan. Muqimiy yashab ijod etgan davr adabiy hayoti murakkab edi. Bunday muhit Muqimiy ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ijodining ilk davrida qisman shaklbozlik unsurlari, san’atpardonlik mayllariga berilish ham uchraydi. Lekin tezda bu xil an‘analardan voz kechib, jamiyatdagi illatlarga, eskilik aqidalariga tanqidiy nazar bilan qaradi. Navoiy, Jomiy, Nizomiy va Fuzuliydan o‘rgandi, ular g‘azallariga muxammaslar bog‘ladi. Jomiyni o‘ziga ustoz bildi. O‘zbek, fors mumtoz shoirlari an‘analarini davom ettirdi. O‘zbek adabiyotida demokratik yo‘nalishning vujudga kelishi va shakllanishi Muqimiy nomi bilan bog‘liq. U boshliq Furqat, Zavqiy, Avaz, Komil kabi ilg‘or fikrli shoirlar o‘zbek adabieti tarixida yangi sahifa ochdilar. Muqimiy lirikasi chuqr optimizm bilan sug‘orilgan, hayotiylik ushbu lirikaning asosiy va yetakchi xususiyatlaridan. Muqimiy real muhabbatni, insonni kuylagan. She’rlarining tub mohiyatini inson kechinmalar, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda do‘stlik, sadoqat, samimiyat, vafodorlik, sabot va matonat ulug‘langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan. Adolatli va baxtli zamonni orzu qilgan, shunday kunlar kelishiga ishongan («Kelur oxir seni ham yo‘qlag‘udek bir zamon yaxshi» va boshqa). Hasrat, shikoyat, norozilik motivlari mavjud bo‘lgan she’rlarida ham kelajakka ishonch, farovon hayot haqidagi orzu-ideallari aks etgan.

Muqimiy dunyoqarashi va intilishlari bilan muhit o‘rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo‘nalishni maydonga keltirgan. Bu uning hajviyotida ko‘proq aks etgan. Hajviyoti mazmunan satira va yumorga bo‘linadi. Satiralarida chor amaldorlari, ayrim mahalliy boylarning kirdikorlari ochib tashlangan («Tanobchilar» va boshqa) «Saylov», «Dar mazammati zamona» va boshqada o‘lkaga kirib kelayotgan kapitalistik

va g‘ayriaxloqiy munosabatlar hamda ularning oqibatlari ko‘rsatilgan. Ba’zan, o‘sha davrdagi hukmron qarashlarga ergashib, Dukchi eshon haqida ham hajviy asarlar yozgan («Hajvi halifai Mingtepa»).

Ot, arava, loy, pashsha, bezgak kabi mavzularda 30 ga yaqin hajviy asar yaratgan. Ularda shoir turmushning qoloq va chirkin tomonlari, ijtimoiy ongdagi nuqsonlar ustidan kulgan, mustamlakachilik azobi, xarobalikni zaharxandalik bilan tasvirlagan («Devonamen», «Ko‘samen» «Hayron qildi loy», «Pashshalar», «Shikoyati bezak» va boshqa). Boshqa bir qator hajviyalarida jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarga yangicha munosabat aks etgan («Ta'rifi pech», «Aroba qursin», «Loy» va boshqa).

Muqimiy o‘zbek adabiyotiga ishchilar mavzuini olib kirdi, tiplar galereyasini yaratdi («Maskovchi boy ta‘rifida», «Voqyeai Viktor» va boshqa). Turli shaxar va qishloqlarga qilgan sayohatlari taassurotlari asosida 4 qismli «Sayohatnama» asarini yozdi. Asar yengil, o‘ynoqi vaznda yozilgan, 4 misrali bandlardan tashkil topgan. Unda xalq turmushining og‘irligi, qishloklarning vayronaligi realistik tasvirlangan. Shoir yaxshilikni ma‘qullab, go‘zallikni madh etgan, kamchiliklar ustidan kulib, tanbeh bergen, yovuzlikni, turli illatlarni tanqid qilgan. Muqimiyning nasr va nazmdagi maktublari epistolyar adabiyot namunasi hisoblanadi. 10 she’riy, 20 ga yaqin nasriy maktublari saqlangan. She’rlari qo‘lyozmalar, bayozlar, 20-asr boshlarida litografiyada nashr qilingan kitoblar, Toshkent va Peterburgda bosilgan vaqtli matbuot sahifalarida bizgacha yetib kelgan.

M. ijodini o‘rganish, asarlarini to‘plash va nashr ettirish u hayot davridayoq boshlangan. Dastlab Ostroumov «Devoni Muqimiy» to‘plamini (T., 1907) nashr qilgan, so‘ng 1910, 1912 yillarda «Devoni Muqimiy maa hajviyot» nomi bilan asarlari to‘plami bosilgan. Keyingi davrlarda G. G‘ulom, Oybek, H. Zarifov, H. Yoqubov, H. Razzoqov, G. Karimov, A. Hayitmetov va boshqa Muqimiy ijodini tadqiq etganlar. She’rlaridan namunalar chet tillarga tarjima qilingan. Qo‘qonda uy-muzeyi tashkil etilgan. Farg‘ona viloyatidagi shaharcha, Toshkent ko‘chalaridan biri, O‘zbek davlat musiqali drama teatri Muqimiy nomi bilan ataladi. Shoir haqida Sobir Abdulla «Mavlono Muqimiy» romani va «Muqimiy» dramasini yaratgan. Muqimiyning aksariyat g‘azallari ashulaga aylangan.

TARQATMA MATERIAL

EY, YORI JONIM

Oshiq bo‘libman, ey yori jonim,
Vaslingni izlab, yo‘qdur majolim.

Bir yo‘qlamaysan kuygan qulingni,
Ko‘zlari jallod, nozik niholim.

Rahm ayla manga, ey bag‘ri qattiq,
Diydam to‘la qon, ey sho‘xi zolim.

Lab tashnalarga ayla nazora,

Qaddi chu shamshod qoshi hilolim.

Olding ko‘ngulni bir-ikki so‘zlab,
Devona bo‘ldim, to‘ti maqolim.

Har dam kuyarman, yodimga tushsang,
Bir ko‘rmaguncha yo‘qdur majolim.

Necha zamondur, ko‘zdin nihondur,
Oshiq Muqimi, ey xasta holim.

KIM DESUN

Ul tag‘ofulpeshag‘a holi xarobim kim desun?
Hajrida mundog‘ meni ko‘rgan azobim, kim desun?

Kunduzi bir yerda bir dam olmay oromu qaror,
Lahzae yo‘q kechalar ko‘zlarda xobim, kim desun?

O‘z ko‘mochig‘a, masalkim, tortadur kul har kishi,
Bas, kuyub ishqida chekkan iztirobim, kim desun?

Kuymagan bo‘lsa birov mehru muhabbat o‘tig‘a,
Sham'dek to subh o‘rtab tabu tobim, kim desun?

Hamnishindurlar ulug‘larga xushomadgo‘ylar,
Yo‘lida jononimi xayru savobim kim desun?

Gar qilich boshimg‘a ham kelsa, degayman rostin,
So‘zki haq bo‘lsa, savolimg‘a javobim, kim desun?

Do‘stlar, so‘rsang g‘izosidin Muqimi, erta-kech,
Qon sharob ichsam, jigarlardur kabobim, kim desun?

ZULMILA QAHRU G‘AZAB

Zulm ila qahru g‘azab izhor qilmoq shunchalar,
Oshiqi bechoraga ozor qilmoq shunchalar.

Gul debon sevgon kishining ko‘kragiga nish urib,
Xasta-yu ma'yus etib, afgor qilmoq shunchalar.

To‘tiyi shirinsuxan ag‘yorlarning bazmida,
Bizga kelganda gapirmay, zor qilmoq shunchalar.

Sizga kim aydi: muhabbat ahlini qil ihtisob,

Qo‘rqutib o‘y aybiga iqror qilmoq shunchalar.

Garchi kelsa, eski to‘n, bizdek duogo‘yi faqir,
Kambag‘alning xirqasidan or qilmoq shunchalar.

Har balo-yu, jabr kelsa, yonmagay hargiz, Muqim,
Oshiq ahlini urubon xor qilmoq shunchalar.

TOLEIM

Ohkim, afsus, emas har ishda rahbar toleim,
Vojgundur, imtihon qildimki, aksar toleim.

Yuz tarafdin yetkurub gardi kudurat, zangi g‘am,
Aylagay oinayi tab‘im mukaddar toleim.

Har necha qilsam tavallo – zori qilmas, iltifot,
Ro‘yigardon teskari, tobora badtar toleim.

Ro‘zgorim tiyra, iqbolim zabun, baxtim qaro,
Bo‘lsa ravshan, bormukin tadbiri digar toleim?

Nogahon bersam, Muqimiy, bir musulmonga salom,
Dafatan ikki qulog‘ini qilur kar, toleim.

TANOBCHILAR

Bo‘ldi taajjub, qiziq hangomalar,
Arz etayin emdi yozib nomalar.

Adl qulog‘i-la eshit hlimi,
Zulm qilur, baski, menga zolimi.

O‘n ik(k)i oyda keladur bir tanob,
O‘zgalara rohatu menga azob.

Sulton Alixo‘ja, Hakimjon – ikav,
Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyav.

Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq,
Go‘yo xayol aylaki (qilmay nifoq).

Osh yesalar, o‘rtada sarson ilik,
Xo‘ja – chiroq yog‘i, Hakimjon – pilik.

Bir-birisig‘a solishurlar o‘run,
Erta-yu kech o‘pushib og‘iz-burun.

Sallalari boshlarida oq savat,
Ko‘rpacha tagda hama vaqt uch qavat.

Birlari mo‘ltoninamo, hiylagar,
Birlaridur kunda pixu gavda xar.

Og‘izlar maqtanib, o‘n besh qarish,
Maydasuxan, ezma (churuk), zanchalish.

Qaysiki qishloqqa tushar otidin,
Elni yig‘ib, voqif etar zotidin.

Derki: “Ko‘zungga xali kal jo‘jaman,
Maxdumi a’zamlik o‘zim xo‘jaman.

Bizga bobo hazrati Shoxlig‘ mazor,
Muxlisimiz mardumi ahli diyor.

Ham yana Erhubbi bo‘lodur tag‘o,
Ammamizning erlaridur Nurato.

Bibi Ubayda bo‘ladur holamiz,
Goh kelur erdi kichik bolamiz.

Xizr otamlarga birodar erur,
Chimlig‘ azizlar menga dodar erur.

Garchiki men olimu shayxi zamon,
Qirqingizga emdi beray bir qozon.

Manki, tanobingg‘a chiqibman kelib,
Xizmatimi yaxshi qilinglar bilib.

O‘t qo‘yubon kuyduradurg‘on o‘zim,
Hokimingu o‘lduradurg‘on o‘zim.

Xoh tanobingni duchandon qilay,
Xoq karam birla boshingni silay”.

Xo‘ja so‘zini munga bermay qaror,
Mardumi sahroyi bo‘lur beqaror.

Derki Hakimjoni: “Ayo, oqsoqol,
Bizni topibsan magaramkim o‘sol?

Hozir eting to‘rt nafar mardikor,
To‘g‘ri qil, oldimga qilibon qator.

Arqonimi yeringa sudrab chiqay,
Bachchataloq qishloqilarni (uray).

Bir burayin mo‘yilabimni chiqib,
Tort tanobini – jazosi – siqib.

Yaxshilingningni fuqaro bilmagay,
Holi bular ko‘zga bizi ilmagay.

Ikki tanobini qilay o‘n tanob,
Yurtingizni kuydurub, aylay harob.

Xoh o‘lung, xoh qoling, bachchag‘ar”, —
Debki, uzanguga ayog‘in tirar.

Bir-biriga qishloq eli boqishib,
Goh u yon, goh bu yon chopishib.

Jam bo‘lib aylayubon maslahat:
- “Do‘g‘mag‘a, - der, - bir nima berib jo‘nat!”

Aqcha qo‘lida ik(k)i-uch mo‘ysafid
Derki: - “Bu nazringizu, bizlar – murid”,

Zulm bilan elligu yuzni olur,
Boz tanobini duchandon solur.

Tag‘i bular yaxshi-yu, bizlar yomon,
El tamizidin hazar et, al’amon.

O‘zga yana g‘ussa budurkim, deyin,
Shunchaki bir qissa bulardin keyin:

Qo‘shti Jalolxon degan o‘g‘lin menga,
Dedi: “Ruqum o‘rgatasiz siz anga”.

Yukladi o‘g‘lini senga, muxtasar,
Bu dag‘i ortiqcha (menga dardisar)...

So‘zni, Muqimiy, kerka etmak tamom,
Mazzasi qolmas, uzun o‘lsa kalom.

“Sayohatnoma”lardan

QO ‘QONDAN SHOHIMARDONGA

Faryodkim, garduni dun
Aylar yurak bag‘rimni xun,
Ko‘rdiki, bir ahli funun –
Charx anga kajraftor ekan.

Qolmay shaharda toqatim,
Qishloq chiqardim odatim,
Xohi yayov, bo‘lsun otim,
Goh sayr ham darkor ekan.

“Ultarma”ga qildim yurush,
Yo‘ldosh edi bir chitfurush,
yetdim jadallab vaqt tush,
Bir dam qiziq bozor ekan.

Bir ma'raka ko‘rdim butun,
Ja'mi yopingan boshga to‘n,
Boqsamki, besh yuzcha xotun,
Voiz so‘zin tinglor ekan.

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,
Bir “Qo‘shtegirmon”lik kishi,
Xo‘ja Iso badkor ekan.

Mag‘rur, xasisu beshu kam,
Har gapda yuz ichgay qasam,
Takjoy olur moxovdan ham,
Hoji o‘zi murdor ekan.

“Do‘rmoncha”ga ketdim o‘tub,
Yoqamni har soat tutub,
Yotdim ul oqshom g‘am yutub,
Dashti qaroqchizor ekan.

Unda bo‘lus G‘ozi dedi,
Ham mufti, ham qozi dedi,
Yurt barcha norozi, dedi,
Qilg‘on ishi ozor ekan.

Boz izdihami voizi,

Badkayf, ochilmas ko‘zi.
Yuqori boshidin tizi,
Ermaklari ko‘knor ekan.

So‘rsam, dedilar: “Bo‘rbaliq”,
Birmuncha echkilar ariq,
Kelsa kishi yeyar tariq,
Shomu sahar tayyor ekan.

“Oq yer”din o‘tdim, boylari –
Oliy imorat joylari,
Mehmonsiz o‘tkay oylari,
Kelsa birov nochor ekan.

Ammo nazarda “Roshidon”,
Firdavs bog‘idin nishon,
O‘ynab oqar obi ravon,
Sahni gulu gulzor ekan.

Ma'yus bordim “Zohidon”,
Bir ko‘cha ketguncha do‘kon,
Sho‘x odami, ichmay piyon,
Mast, otasi bezor ekan.

Suvlar sepilgan so‘rilar,
Bo‘rlangan o‘choq-mo‘rilar,
Tab‘ing mabodo choy tilar,
Damlashlari ishqor ekan.

“Oltiariq” qursin o‘shal,
Sellarda qoldim bir mahal,
Bo‘ldim ivib, yomg‘urda shal,
To‘n shilta, ho‘l ezor ekan.

Mingboshisi so‘finamo,
Tasbehu bo‘ynida rido,
Cho‘qub qochar zog‘i alo
Bir dog‘uli ayyor ekan.

Xayru soho vajhiga kar,
Bir pulni yuz yerdin tugar,
Kelsa gadoy nogah agar,
Bir non chiqish dushvor ekan.

Ko‘rdim chuqr “Chimyon” erur,
yer ostida zindon erur.

Dushmanlari mehmon erur,
Bog‘i uning tutzor ekan.

Vodil maqomi dilfizo
Ko‘chalaridur dilkusho,
Anhorida obi safo,
Sebarga obishor ekan.

QO‘QONDAN FARG‘ONAGA

Chun shahrdin chiqdim «Qudash»,
Ko‘ngul bo‘lub mahzun-u g‘ash,
Majnunsifat, devonavash,
Serchashma-yu kam chang ekan.

«Yayfan» agarchi xush havo,
Odamlari yengilnamo,
Bir-birlari-la doimo
Bo‘lar-bo‘lmasga jang ekan.

«Nursux» kabi bir joy kam,
Tushmay o‘tib qildi alam,
Olma, anor o‘rniga ham
Bog‘ida tok-u zang ekan.

Ko‘p odamidin «Beshariq»,
Bog‘larda ekmishlar tariq.
yetim haqi — go‘shti baliq,
Qilmishlari nayrang ekan.

Charchashni bilmas yursalar,
Purzo‘r ketmon ursalar,
Vaqt namozga kelsalar,
Masjid soriga lang ekan.

«Rafqon» ajoyib joy ekan,
Bir ko‘cha ketgan soy ekan,
Salqin supa hoy-hoy ekan,
Kim ko‘rsa hang-u mang ekan.

Ozodadin to‘pori ko‘p,
Dukchisidin attori ko‘p,
Choyxo‘ridin ko‘knori ko‘p,
Bir rasta nos-u bang ekan.

Ayvonchalar misli katak,

Bir yo‘lki, odam siqqudak,
Chit birla bir yerda alak,
Bozori tor-u tang ekan.

Xuftonda kirdim bir do‘kon,
Qildi ashula bir juvon,
Eshak demang, undin yamon,
Hangarda yaxshi hang ekan.

Qiyg‘ir ko‘targon uch yigit,
Uxlatmadilar bir minit,
Ham boshda tong otquncha it
G‘ingshib chiqib, vang-vang ekan.

Aylay sayohat endi bas,
«Konibodom» qilmay havas,
Har yerda yotgan xor-u xas,
Ko‘zga tikan yakrang ekan.

QO‘QONDAN ISFARAGA

Aflok kajraftor uchun,
Har dam ko‘ngul afgor uchun,
Ho‘qand tang-u tor uchun,
Sahro chiqish darkor ekan.

Bordim shahardin «Yakkatut»,
Baqqoli duzdi badburut,
Bir tanga sotkay bir qurut,
Insofi yo‘q, tarrow ekan.

Qishloq juvoni yig‘lishib,
Issig‘da o‘ynashgay pishib,
O‘tgan tamoshobin tushib,
Seshanba kun bozor ekan...

Mingboshi Eshdavlat akam,
Ammo quruq savlat akam,
Qilsa chiqim gar bir diram,
Uyqu qochib, bedor ekan.

«Yayfan» kabi tolzor kam,
Yo‘q soyasida zarra g‘am,
Zebo sanam, qoshi qalam
Jononlari bisyor1 ekan.

Do‘g‘mali ham xo‘b bajo,
Volosnoyi uhdaburo,
Yurt ishlarini doimo
Xayriyat ko‘zlor ekan.

«Nursux» kabi ham yurt yo‘q,
Bog‘dor-u dehqon qorni to‘q,
Masjidlari ham ko‘p uluq,
Turfa farah osor ekan.

«Rafqon»ni bozor joyi tang,
Mullolari chaqqon, garang,
Omilari ham mullarang,
Ko‘ylak kiyib, dastor ekan.

Gar mevasi bir tup sotar,
Bir pulni yuz yerdin tugar,
Bersa gadoga non agar,
Ming yilda ham dushvor ekan.

Ammo «Raboti» bachchag‘ar,
Yo‘q hyech odamdin asar,
Bir podajoyi gov-u xai,
Chun og‘uli tayyor ekan.

Du bora yurdim dashtlab,
Bodom koniga qarab,
Mirza Umarni so‘rag‘lab,
Havlisida najrjor3 ekan.

Bo‘lg‘ay o‘shal Burhon omon,
Yaxshi yigittur begumon,
Xursand qildi nogahon,
Mingboshi Xol sarkor ekan.

Armonki, ko‘prak yurmadi,
Bir-ikki hafta turmadim,
«Tikka Rabot»ni ko‘rmadim,
Purfayz buzrukvor ekan.

Ma'yus chiqdim «Isfara»,
Dil xasta, majruh-u yara,
Issiqqa kuygan qop-qora,
Olti jihat ko‘hsor ekan.

Anhor-u soy-u cho‘llari,

O‘ynab kelodur suvlari,
Shirinki zardolulari,
Qand-u asal bekor ekan.

Shersiz emasdur beshalar,
Bordur saxovatpeshalar,
Qilmang yomon andeshalar,
Yaxshilari ham bor ekan.

Hoji Zuhur ham o‘rdada,
Sarhavzalar, oliv sada,
Borsa agar bir g‘amzada,
Jonig‘acha esor ekan.

Bovvachchasidur badburush,
To‘g‘ri so‘zi achchig‘-turush,
Sil, eski bachcha, choyfurush,
Hofiz Umar, Qahhor ekan.

Bo‘lma halovatga kasal,
Olamda yo‘q benish asal,
Beshak mukofoti amal,
Dunyo qurulg‘on dor ekan.

Alhamdulillo, bexatar,
Keldim, Muqim, aylab safar,
Muztar qolib, ko‘rmay zarar,
Haq bandasiga yor ekan

5-mavzu. Furqat va uning ijodini tahlil qilish.

Furqat (taxallusi; asl ismsharifi Zokirjon Mullo Holmuhammad o‘g‘li) (1859, Qo‘qon —1909, Yorkend) — taraqqiyatparvar shoir, mutafakkir, publisist. Mahallasidagi maktabda savod chiqargan, mudarris va kotiblardan xattotlik, arab tilini o‘rgangan. Madrasada o‘qigan (1873—76). Alisher Navoiy ijodini, fors adabiyoti namoyandalari merosini chuqur o‘rgangan, fors tilini mukammal o‘zlashtirgan. 1876 yilda Yangi Marg‘ilon (hozirgi Farg‘ona) shahridagi savdogar togasining iltimosiga ko‘ra u yerga borib, savdo ishlarida unga yordamlashgan, keyinchalik o‘zi ham kichik do‘kon ochgan. Ayni paytda bilimdon ziyoli sifatida kishilarning arz va iltimoslarini rasmiy mahkamalarga arizalar shaklida bitib, mirzalik ham qilgan. Furqat Yangi Marg‘ilonda ijodkor sifatida to‘la shakllandi, o‘z g‘azallariga «Furqat» taxallusini qo‘yib, shuhrat qozona boshladi. Bu yerda o‘tkazilgan yillar Furqatning xalqchil dunyoqarashi, ilg‘or adabiestetik tushunchalarining shakllanishida ham muhim bir bosqich bo‘ldi.

80-yillarning boshlarida Furqat Qo‘qonga qaytib, oila quradi va, asosan, ijodiy ish bilan shug‘ullanadi. Muqimiy va Muhyi yetakchi bo‘lgan Zavqiy, Nodim, Nisbat, Muhayyir kabi ijodkorlar guruhi bilan bevosita muloqotda bo‘ladi, ular uyshtirib turadigan adabiy majlislar, she’riyat kechalarining faol ishtirokchisiga aylanadi. Furqatning Qo‘qondagi bu davr ijodi tur va mavzu, mazmun va shakl rang-barangligi jihatidan ham, sermahsulligi jihatidan ham diqqatga sazovor. U mumtoz she’riyat an’analari ruhida ko‘plab ishqiy g‘azallar, muxammaslar yaratgan. Alisher Navoiy asarlariga go‘zal nazira va taxmislari bog‘lagan, uning she’rlarida ijtimoiy ruh va zamonaviylik tobora keng o‘rin egallay boshlagan (mas, «Bo‘ldi» radifli muxammasi va boshqa she’rlarida). Furqat xalqning siyosiy huquqsizligi va iqtisodiy nochor ahvoldidan qayg‘irgan («Ne jurm o‘ttiki bizdin, bunchalik Farg‘ona tang bo‘ldi?...») Qo‘qon xonligining uzilkesil tugatilib, batamom mustamlakaga aylantirilishi voqyeasiga bog‘liq holda yaratilgan: «Demish xon bir kunikim, davru davronlar qayon qoldi?» misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi ham Furqatning shu davrdagi ijodi mahsulidir. Toju taxtdan, sha’nu shavkat va a’yonlardan maxrum bo‘lgan Xudoyorxon nomidan bitilgan bu asar ham shoir ijodida zamonaviy ijtimoiy mavzu keng o‘rin egallaganinint isbotidir.

Furqatning ijodiy merosida an’anaviy she’riy turlar, o‘zbek mumtoz adabiyotidagi asosiy mavzular yetakchi o‘rin egallaydi. Uning g‘azal va muxammaslari, bog‘lagan taxmislari uzining hayotiyligi, musiqiyligi, nihoyatda samimiyligi bilan o‘quvchini maftun etadi. Furqat she’rlarida ona-yurt tabiatni va bahor go‘zalligi, jo‘shqin sevgi-muhabbat va chin insoniy fazilatlar, hayot shodliklaridan quvonish va turmush tashvishlaridan shikoyat qilish, umuman, odam va olam, kishilarning ma’naviy dunyosi, mehri va qahri yaqqol tasvirlangan. Masalan, «Bahor ayyomida gulgasht etarga bir chaman bo‘lsa», «Umr xush o‘tmas bahor ayyomi sahro bo‘lmasa», «Surmadin ko‘zlar qaro, qo’llar xinodin lolarang», «Jannatning gullaridan gulzoringiz chiroylilik», «Ko‘ngul dardig‘a topmay boraman hargiz davo istab», «Fasli navbahor o‘ldi ketubon zimistonlar» kabi misralar bilan boshlanuvchi g‘azallari, «etti falak», «Biri», «Istar ko‘ngul», «Do‘st», «Kokulung» radifli muxammaslari, Navoiy g‘azallariga taxmislari davr she’riyatining ham g‘oyaviy, ham badiiy jihatdan yetuk namunalari hisoblanadi. Furqat she’riyatida mustamlaka tuzumining illatlarini qoralash, joriy adolatsizlik va zo‘ravonlikdan, huquqsizlik va nochor hayotdan, nodonlarning zamonada e’tibor topib, donolarning xorzor etilishidan norozilik esda qolarli badiiy bo‘yoqlarda tasvirlangan.

«Charxi kajraftorning bir shevasidan dog‘men:
Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur»

kabi barkamol misralar shoir ijodidagi ijtimoiy yo‘nalishni aks ettiradi. «Bormasmiz» radifli she’rida esa o‘zbek milliy ruhiyati badiiy ifodalangan. Mashhur «Sayding qo‘yaber, sayyod...» musaddasida esa shoir shaxsning erkin yashash huquqini himoya qiladi, zulm va istibdodni qat‘iy qoralaydi.

Furqat xuddi shu yillarda «Xammomi xayol» risolasini yozadi. «Chor darvesh» hikoyatini forschadan tarjima qiladi. «Nuh manzar» nomli she’riy kitob yaratadi. «Bulardin bo‘lak har xil g‘azaliyotim Farg‘ona muzofotig‘a (ya’ni, yonatrof qishloqshaharlariga) va digar mamlakatlarga muntashir (mashhur) bo‘ldi», deb yozadi shoir. Xuddi shu yillarda Furqat ilk bor she’rlarini to‘plab, majmua holiga ham

keltirgan. Afsuski, shoirning o‘zi qayd etgan risola, manzuma va tarjimalari kabi bu majmua ham shu kunga qadar topilgan emas.

Furqat taxminan 1886—87 yillarda Marg‘ilonga borib, u yerdagi Masjidi jome hujrasida istiqomat qilgan, yoru birodarlar ko‘magida kichik do‘kon ochgan bo‘lsada, asosan, she’riyat bilan shug‘ullangan, shaharning ziyolilari, jumladan, Xo‘ajon Rojiy, Muhammad Umar Umidiy-Havoiy, Mulla Toshboltu Royiq kabi ijodkorlar bilan tanishib, adabiy suhbatlar qurban. Furqat ilk bor gazeta bilan tanishib, uning «Toshkent shahrida bosma bo‘lg‘on»ligini shu yerda biladi. Yangilikka chanqoq, taraqqiyat parvar shoirda ijtimoiy hayotda yuz bergen o‘zgarishlarga, sekinasta yoyila borayotgan fan va texnika namunalariga qiziqish uyg‘onadi, yangiliklar bilan bevosita tanishish, o‘z ko‘zi bilan ko‘rish ishtiyogi zo‘rayadi. 1889 yil boshlarida Toshkent safariga chiqadi, Xo‘jandda to‘xtab, Toshxo‘ja Asiriy boshliq shoirlar, adabiyot muxlislari bilan uchrashadi, adabiy kechalarda ishtirok etadi. Nihoyat, 1889 yilning iyunida Toshkentga keladi. Toshkentdagi Ko‘kaldosh madrasasi hujralaridan birida yashaydi. Ko‘zga ko‘ringan olim, fazillar bilan tanishadi. Sharifxo‘ja eshon tavsiyasi bilan ma‘lum muddat «Farhat» (shodlik, xursandlik) taxallusida she’rlar yozadi, lekin ko‘p o‘tmay, eski taxallusiga qaytadi.

Furqat Toshkentda rus ziyolilari, yevropacha hayot tarzi bilan tanishdi. Chorma’murlari shoirning teatr, gimnaziya, turli kontsertlarga kiritishni uyuştirdilar, ko‘rgazmalarga olib bordilar. Yangi tarixiy sharoit tufayli yuz bergen o‘zgarishlarni mushohada etish natijasida Furqat dunyoqarashida jiddiy o‘zgarish bo‘ladi va bu hol uning ijodida o‘z badiiy ifodasini topadi — ma‘rifatparvarlik, yevropacha ilmmadaniyat, fan-texnikaga xayrixohlik shoir she’rlarining yetakchi g‘oyasiga aylana boradi. Bu esa Furqatnint ko‘p asrli o‘zbek adabiyotiga yangi mavzular, yangi g‘oyalar olib kirishiga zamin bo‘ldi. Toshkentda ochilgan erlar gimnaziysi, maorif muassasalari, madaniyat va san‘at o‘choqlarini, tobora ko‘proq kirib kelayotgan fantexnika yangiliklarini kuzatish oqibatida uning «Ilm xosiyati», «Gimnaziya», «Vistavka xususida», «Akt majlisi xususida», «Toshkent shaxrida bo‘lg‘on nag‘ma bazmi xususida», «Suvorov» va boshqa asarlari maydonga keldi va ularning barchasi 1890 yillarda «Turkiston viloyatining gazeti»da chop qilindi.

Bu turkum asarlarida Furqat yangilik va taraqqiyotning, ilm-fan va yevropacha maorif-madaniyatning targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi; o‘z vatandoshlarini zamonaviy bilimlarni puxta egallashga va ilg‘or xalqlar qatoridan o‘rin olishga da‘vat etadi. Birok Furqat ayrim zamondoshlari singari rus istilochilik siyosatining asl mohiyatini birdaniga anglay olmadi. Rus, yevropa madaniyatparvarligi orqasida mahalliy ruslashtirish siyosati pinhon ekanligini so‘ngroq tushunib yetdi. Xuddi shu yillarda yaratilgan «Shoir ahvoli va she‘r mubolag‘asi xususida» asarida Furqat ijodkor va badiiy adabiyot xususida ran ochib, she’riyatda realistik tasvir masalasini ko‘tardi. Furqat hakli ravishda o‘zbek publitsistikasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Furqatning publitsist sifatidagi faoliyati 1890 yildan boshlandi. «Turkiston viloyatining gazeti»ga rasman ishga kirdi, gazetani tayyorlashda bevosita katnashdi. Bir yildan ko‘proq vaqt mobaynida Sattorxon kabi ilg‘or ma‘rifatparvarlar bilan hamkorlikda ishlab, gazeta sahifalarida o‘z maqolalarini e‘lon qildi. Masalan, 1891 yil 1-yarmida «Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O‘zi yozgoni» publitsistik asarini yozib, shu gazetada e‘lon qildi. 1891 yil mayda Samarqandga bordi, osori-atiqalar bilan tanishdi, gazetaga xabarlar yo‘lladi, keyin Buxoroda bo‘ldi. Iyulda esa chet el

sayohatiga chiqdi. Uning chet elga sayohati haqida turli taxminlar bor. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u atayin keytib kelmaydigan qilib o'z yurtidan chiqarib yuborilgan. Xullas, 1891 yilning iyulida Marv —Ashxobod—Boku—Batumi orqali Istanbulga bordi. Do'stlariga yozgan maktublarida, voqyealarni oldindan bilgandek, vatanidan bir umr ajralib qoladigan odamning kayfiyatini aks ettirdi. Masalan, Istanbuldan yozgan «Sabog'a xitob» she'riy maktubida Vatan ishtiyoqi, do'stlar sog'inchi, g'urbat azoblari va yolg'izlik motivlari birinchi o'ringa chiqqan. Furqat Istanbuldan Bulg'oriya va Yunonistonga o'gdi. Bolqon yarim orolining qator shaharlarida bo'ldi. 1892 yilning martida Istanbuldan O'rta dengiz orqali Arabistoniga — Makka, Jidda, Madina shaharlariga bordi. Makkadagi haj ziyorati munosabati bilan «Hajnama» asarini yaratdi. So'ng Bombayga keldi, Hindistonning qator viloyatlariga sayohat qildi. Uning bu davrda yozgan nasriy va nazmiy maktublarida tushkunlik, onayurt sog'inchi va iztiroblari aks etgan. «Adashganman» radifli hamda «Kashmirda», «Bulbul» deb nomlanuvchi lirik she'rlar turkumi shu jihatdan o'ziga xos hijronnomadir. 1893 yil martida Furqat Kashmir va Tibet orqali Sharqiy Turkistonga borib, Yorkendda turg'un yashab qoldi. Oila qurdi. Tabiblikdan xabardor bo'lgan shoir dorivor o'simliklar bilan savdo qiluvchi do'kon ochdi, ijodiy ish va xattotlik bilan shug'ullandi. Furqat doimo Vataniga qaytish umidi bilan yashadi. Avval boshlagan «Sayohatnama» asari ustidagi ishni Yorkendda davom ettirdi. Lekin bu asar hanuz topilgani yo'q. U yerdan Toshkentga publisistik asarlar, turli mavzudagi xat-maqolalar, Farg'ona va Toshkentdag'i yordo'stlariga maktublar yo'llab turgan. Furqat o'zbek matbuoti tarixida feleton janrini boshlab berdi («Hind nayrangbozi Yorkendda», 1905). Barkamol lirikasi, jozibali nasri va gublitsistikasi bilan 19-asr oxiri va 20-asr boshlaridagi milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qushgan Furqat onavatanidan uzoqda vafot etdi. Uning jasadi Yorkendning Dongor qabristoniga ko'milgan. 1990 yil shoir qabri ustiga maqbara qurilgan.

Furqatning she'rlari kitob holida dastlab 1913 yilda Muqimiy she'rlari bilan birga bayoz holida toshbosmada bosilgan edi, 50—80-yillarda ko'p bor nashr etildi. Shoir hayoti va ijodi haqida qator ilmiy asarlar yozildi, dissertatsiyalar yoqlandi, opera librettosi, kinotsenariy va boshqa yaratildi. O'zbekistondagi bir qator qishloq, tuman, maktab, ko'cha va xiyobonlar, bog'lar uning nomi bilan ataladi.

TARQATMA MATERIAL

BAHOR AYYOMIDA

Bahor ayyomida gulgasht etarga bir chaman bo'lsa,
Qilurga sharhi hol, ahli muhabbat ikki tan bo'lsa.

Xazon ayyomida ul tavba qilgan bo'lsa ham maydin,
yetib mayxoralikning mavsumi, paymonshikan bo'lsa.

Bulut qatra fishonu, ruhafzo sabzalar xandon,
Arig'larning labida sabzakori bir chaman bo'lsa.

Havo ham mo“tadil, havzi musaffo, suffai dilkash,
Oqar suv g‘alt urib, sebarga uzra mavjzan bo‘lsa.

Sabui la'l birlan shishai bayzou oltun jom
O‘shal majlisda soqiy bir ngori siyntan bo‘lsa.

Gul uzra andalibu, sarvning boshida qumrilar
Yuzu qad hasratidin ohu faryod aylagan bo‘lsa.

Kishi to‘biyu kavsar, jannatu rizvonni ne qilsun?
Jahon ayvonida hosil bu yanglig‘ anjuman bo‘lsa.

Sururu shodlikni dahr bog‘ida nechuk ko‘rgay?
Kamina Furqatiyning maskani baytul-hazan bo‘lsa.

UMR XUSH O‘TMAS

Umr xush o‘tmas bahor ayyomi sahro bo‘lmasa,
Lolazor ichra bisoti aysh barpo bo‘lmasa.

Hosil o‘lmas bodau jom ila miynodin murod,
Jilvagar to soqiyi gulchehra ando bo‘lmasa.

Bazm ahli bo‘lsalar mayxoralar anda zarif —
Dardi yo‘q ag‘yor o‘shal majlisda aslo bo‘lmasa.

Dahr gulzorida xushdir yaxshi ta'miri bisot,
Gar xazondin gardi hodis anda paydo bo‘lmasa.

Obihayvon birla umri jovidonni ne qilay
Bir xati Xizru labi la'li Masiho bo‘lmasa.

Xok bo‘lsun ul tanekim, ishq o‘tida kuymasa,
Zeripo bo‘lsun sarekim, anda savdo bo‘lmasa.

Furqat aylar orzu bu anjumaini har bahor,
Odam ermas har kishida bu tamanno bo‘lmasa.

OHISTA-OHISTA

Vafo aylab yiroqdin oshkor ohista-ohista,
Bir ishqim aylading, jono, hazor ohista-ohista.

Na yaxshi marhamatlar aylamishsan nomada izhor;
«Muhabbat rasmi qilg‘il» deb shior ohista-ohista.

Jadal birla kishi maqsudig‘a yetgan emas, ore,
Bo‘lur vaqt bilan har nav' kor ohista-ohista.

Nechuk toqat qilaykim, bora-bora zo‘r etib ishqing,
Ko‘nguldin oldi sabr ila qaror ohista-ohista.

Berib taskin ko‘ngulg‘a: vasliga bir kun yetarman deb
O‘zimni o‘rgatay hajringga, yor, ohista-ohista.

Parishon o‘lmayin to xotiringni jam'i qil, jono,
So‘rab holimni xat birlan biror ohista-ohista.

Nechuk osoyish aylay, ey ko‘ngul oromikim, sensiz
Bo‘lub borur jahon ko‘zimg‘a tor ohista-ohista.

O‘shal kun bir ko‘rib qolganda qilgan novaki g‘amzang
Hanuz aylab kelur ko‘ksim figor ohista-ohista.

Visoling bodasidin qilmasang shodob Furqatni,
Xabar aylar ani hajru xumor ohista-ohista.

RUXSORI AHMAR USTIDA

Termu tobi bodadin ruxsori ahmar ustida?
Qatra-qatra yoki shabnamdur guli tar ustida?

O‘smaliq qoshlarmu yo shamshir qondin zangliq?
Yoki pistoqi to‘kulmish rangi ahzar ustida.

Yuz uza kokulmidur har sori pechutob ila?
Ganji husningmu yotur yo ikki ajdar ustida?

Chehra ochtingmu bu tadbir-la chamanda toldilar,
Xasta bulbul gul uza, qumri sanovbar ustida?

Xoki poyingni taloshur ko‘zga el surmoq uchun,
Ore, har yerda hujum aylar gado zar ustida.

Ikki jodu nargising solg‘ay jahong‘a fitnalar,
Bo‘lmasa uryon qoshingdin ikki xanjar ustida.

Nozanin, sen tashla istig‘noni, xud bori garon,
Noz debosi nazokat xulq paykar ustida.

Furqatiy qoshu ko‘zingdin fitnalar ko‘rdi bale!
Sho‘rish o‘lmoq rasmdur oy tug‘sa axtar ustida.

KASHMIRDA

Bir qamar siymoni ko‘rdim baldai Kashmirda,
Ko‘zлari masxuru yuz jodu erur tasxirda.

Zarra-zarra zar sochar boshig‘a har kun oftob,
Subh kelgach, kecha yotib chashmai iksilda.

Bir ko‘rib chohi zaqan Horut ila Morut ikov,
Chohi Bobil ichra qolmishlar bo‘lak tadbirda.

Lam'ai qiyg‘och ko‘zidin aning barqi nigoh,
Tezlik javharlari gar bo‘lsa har shamshirda.

Qoshi uzra xolining asrорidin bir nuqtadur,
Surai Nun o‘qudim payvasta har tafsilda.

Forig‘ ermas hyech kim ul dilraboning ishqidin,
Zulfiga dilbastalig‘ har bir juvonu pirda.

Aydim: «Ey, jon ofati, zulfigga bo‘lmishman asir!
Aydi: «Bu savdoni qo‘y, umring o‘tar zanjilda!»

«Nuqta lab ustida bejodur»,— dedim, aydi kulib:
«Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda».

Aydi: «Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?»
Man dedim: «G‘urbatda Furqat bor ekan taqdilda!»

KA VLAMA (Mashrab g‘azaliga muxammal)

Oshiqi dildodadurman dilbarimni kavlama,
Axgar o‘ldi g‘am o‘tida paykarimni kavlama,
Sayr qildim bahru bar xushku tarimni kavlama,
Ey sabo, g‘amzodadurman, bistaramni kavlama,
Chun shafaq oludaman xokistorimni kavlama!

Charxi kajraftordin behad alomatlar kelur,
Bu sabab ko‘zdin yuza ashki nadomatlar kelur,
Gar yurakni qo‘zg‘asam shirin hikoyatlar kelur,

Har zamone Laylidin menga kitobatlar kelur,
Sanki Majnun bo‘lmasang sardaftarimni kavlama!

G‘amdin ozoda bilur ozodalarni holini,
Yo‘qsa miskin na bilur shahzodalarini holini
Xurdadonlar bilmadilar soddalarni holini,
Xonavayronlar bilur aftodalarni holini.
Eyki mahram bo‘lmasang chashmi tarimni kavlama!

Ishq savdosi tushub boshimg‘a, ahvolim xarob,
Jonom aylar tan aro siymob yanglig‘ iztirob,
Ta‘na qilma, zohido, ko‘nglumda g‘amlar behisob,
To kishig‘a dard tegmay bo‘lmadi bagri kabob,
Dilda darding bo‘lmasa dardi sarimni kavlama!

Necha kunlar hamdam o‘zga vahshiyu tayr ayladim,
Bilmadim bu yo‘lda shar' qildim vayo xayr ayladim
G‘am hujum etti aning-chun maskanim dayr ayladim,
Lomakoni shahrini bir hu bila sayr ayladim,
Jabraili ishqman, bolu parimni kavlama!

Gah o‘zimni suvg‘a urdum, goh o‘tga dam-badam,
Bo‘lmadi davron safosi lahzae boshimg‘a kam,
To shariatni tutub qo‘ydum tariqatga qadam,
Bahri rahmatga kprib qildim vujudimni adam,
Ma'rifatdin bexabarsen, gavharimni kavlama!

Chun qadam qo‘ydung bu yo‘lg‘a bo‘lma bematlab vale,
Faxri zillat bo‘l, talashma g‘urbati mansab vale,
Furqatiy, sargashta bo‘lsang, yig‘lagil har shab vale,
Durri daryoyi maoniy bo‘ldu chun Mashrab vale,
Diyda bino bo‘lmasang ko‘b javharimni kavlama!

SAYDING QO‘YABER, SAYYOD

Saydnng qo‘yaber, sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domipi bo‘ynidin, bechora ekan mendek,
O‘z yorini topmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadpora ekan mendek.

Kes rishtanikim, qilsun chappaklar otib jasta,
Hajrida alam tortib, bo‘ldi jigari xasta.
Tog‘larg‘a chiqib bo‘lsun yori bila payvasta,
Kel, qo‘yma balo domi birla oni po basta,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendsk,

Kuygan jigari bagri sadpora ekan mendek.

Besh kun seni davringda bechora xirom etsun,
Ohular ila o‘ynab, ayshini mudom etsun,
Yomg‘ur suvi to‘lganda, tog‘ lolani jom etsun,
Haqqingga‘a duo aylab, umrini tamom etsun,
Hijron o‘qidnn jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jpgari bagri sadpora ekan mendek.

Sargashta bu vodiyda bnr boshng‘a rahm etkil,
Yo‘q toqati bandingga, bardoshiga rahm etkil,
Yig‘lab senga termulur, ko‘z yoshiga rahm etkil,
Rahm etmasang o‘ziga, yo‘ldoshiga rahm etkil,
Hijron o‘qidip jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadiora ekan mendek.

Tog‘da ochilib lola, yer sabza bahor o‘lsa,
Axir bu nechuk bedod, olam anga tor o‘lsa?
Chiqmay desa joyidin, uzlatda figor o‘lsa,
Gar chiqsa banogohi domeg‘a duchor o‘lsa,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadpora ekan mendek.

Bechorani zulm aylab, qo‘l-bo‘ynini bog‘labsan,
Har sori chekib-sudrab, o‘ldirgali chog‘labsan,
Ko‘ksini jafo birla lola kabi dog‘labsan,
Sot menga, agar qasding olg‘uvchi so‘rog‘labsan,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadpora ekan mendek.

Yo‘q hushi, pari tekkan devonag‘a o‘xshaydur,
Ko‘z yoshi yana to‘lgan paymonag‘a o‘xshaydur,
G‘am seli bilan ko‘ngli vayronag‘a o‘xshaydur,
Furqatda bu Sa‘dullo hayronag‘a o‘xshaydur,
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora zkan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadpora ekan mendek.

6-mavzu. Is’hoqxon Ibrat va uning asarlari tahlili

Ibrat (taxallusi; asl ism-sharifi Is’hoqxon Junaydullaxo‘ja o‘g‘li) (1861, — Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani — 1937, Andijon) — o‘zbek ma'rifatparvari, shoir. Qo‘qondagi Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasida o‘qigan (1878—86). 1887—92 yillarda Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, Kobul va Jidda shaharlarida bo‘lgan. Hindistonning Bombay va Kalkutta shaharlarida yashagan (1892—96). Safardan qaytgach, To‘raqo‘rg‘onda yangi usul maktabini ochgan (1907), o‘z qishlog‘ida «Matbaai Is’hoqiya» nomli litografiya tashkil qilgan (1908). Ibrat yangi maktablar

ochish, o‘qituvchilar tayyorlash, ayollarni ilm-ma’rifatli qilish ishlarida faol qatnashgan. O‘z she’rlari («Tarixi chopxona», «Madaniyat haqida masnaviy», «Gazeta xususida», «Qalam»)da mahalliy va chor amaldorlari kirdikorlarini fosh etgan («Ilmi Ibrat», she’riy to‘plam, 1909). Ibrat arab, fors, hind, turk, o‘zbek va rus so‘zlaridan tarkib topgan «Lug‘at sitta as-sina» («Olti tilli lug‘at», T., 1901) tuzgan, bu asar o‘sha davr uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Ibratning yozuvlar tarixiga oid «Jome’ ul-hutut» («Xatlar majmui», 1912) asarida lotin, yunon, xitoy, hind, arab, Kirill yozuvining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida ma’lumot berilgan, ilmiy-tarixiy asarlari («Tarixi Farg‘ona», 1916; «Tarixi madaniyat», 1925; «Mezon uz-zamon», 1926) esa Qo‘qon xonligining vujudga kelishidan to 20-asr 30-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Ibrat «Turkiston viloyati gazeti», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg‘ona» gazetalariga yozgan maqolalarida fan, ma’rifat va madaniyatni targ‘ib etgan. 1937 yilda qatag‘on qurboni bo‘lgan. Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 14-o‘rta maktab va Toshkentdagi bir ko‘chaga Ibrat nomi berilgan.

TARQATMA MATERIAL

G‘AZALLAR

O‘shal bulbul qilar afg‘on, sahar vaqtি chaman ichra,
Qo‘nar gul deb tikan uzra, sahar vaqtি chaman ichra.

Qilar bag‘rini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,
Bo‘lur gul zavqidin qurbon, sahar vaqtি chaman ichra.

O‘shal bulbul bo‘lur dog‘lar, chamanni gasht etib chorlar»,,
Qizil gulni tilab yig‘lar, sahar vaqtি chaman ichra.

Chiqar bulbulni afg‘oni, chaman ichra oqib qoni,
Tasaddiq gul uchun joni, sahar vaqtি chaman ichra.

Muhabbat birla mast erdi, ani yo‘lida jon berdi,
Qizil guldin xabar so‘rdi, sahar vaqtি chaman ichra.

Muyassar bo‘lsa ul jonon, ato qilsa o‘shal subhon,
Yo‘lida jon qilay qurbon, sahar vaqtি chaman ichra.

Ibrati bexabar bo‘lma yana g‘aflat bilan o‘lma,
Gunohi beedad qilma, sahar vaqtি chaman ichra.

* * *

Bo‘lma amalga muxtor ozurda jon o‘lursan,
Bad fikr fitnasidin dil o‘tla qon o‘lursan.

Gar to‘g‘ri so‘z qilursan, ul fahm egri aylar,
Anga tushuntururga dardi dahon o‘lursan.

Vallot yoki qozi kori erur mashaqqat,
Ashrorlar so‘zidin dardi nihon o‘lursan.

Gar ushlasang shariat pos ushlamoq mashaqqat,
Bir qo‘l nizomi davlat toki omon o‘lursan...

Hasmini bir-birini alar etsa muqayyad,
Ikkisi sanga roji', qaydin omon o‘lursan.

Adling bo‘lursa aqvi, izhor aylamas hyech,
Gar zarra zulm qilsang, xalqqa ayon o‘lursan.

Gar hukmi joriy qilsang norozi har ikkisi,
Man sudga arza bergum, anda yamon o‘lursan.

Kelgay birisi birdan, har kimni o‘g‘ri aylab,
Topguncha tarbiya sen, sendin gumon o‘lursan.

Bechoralig‘din o‘zga ish ixtiyor qilma,
Har chand xo‘b bo‘lsang, bir dam zamon o‘lursan.

Ko‘b bo‘ldi advokatlar yo omidin vakillar,
Ko‘fiyadin bo‘lakni bilmas, fig‘on o‘lursan.

Kelgay zaifi xayli, sanga jadali mayli,
Uqini shast qilg‘ay, san bir kamon o‘lursan.

Har kasb pesha qilg‘il, bo‘lmas amal sanga qut,
Bekasb o‘tsang Ibrat, muhtoji non o‘lursan,

* * *

Tiriklik zahmatidin ushbu kunlardan qalaysizlar?
Bu qimmatlik yili bug‘doyu unlardan qalaysizlar?

Hamani qo‘ymadi o‘z holig‘a, tashvishlar soldi,
Mushavvash aylagan bu ahli dunlardan qalaysizlar?

Jahon hyech knmga gardush etmadi iqbolima tavri,
Zamona holi mol kofu nunlardin qalaysizlar?

Bosib xalqi jahonni ayladi toroj o‘g‘rilar,
Salomat yotdigizmu, bo‘yla tunlardan qalaysizlar?

Fasodu olam etti shu kabi har yerda insonni,
Bu tarzda fitnayu toroj bunlardan qalaysizlar?

Ki har bir kimsada ming xil alomoti qiyomatlar,
Mashaqqat vaqtini umri o'rirlardan qalaysizlar?

* * *

Ishqing dilu jona jo bo'lubdur,
Jonus dil anga fido bo'lubdur.

San aylamasang agar davosi,
Dardim mani bedavo bo'lubdur.

Ohim tutunila ro'zigorim
Yaldo tuniday qaro bo'lubdur.

Tan bog'idin andalibi jonim
Kuyingni tilab jalo bo'lubdur.

Ishqing ichra chu men kimi nasibi,
Yori soridin jafo bo'lubdur.

Husn ichra vafo yo'q emish jonon,
Ki sen kabi bevafo bo'lubdur.

Vaslingga yeturg'a Ibrat asru,
Xajr ilkiga mubtalo bo'lubdur.

* * *

Ming uch yuzu yigirma oltida chopmaxona,
Ochmoqg'a bo'ldi ruxsat va so'z berib zamona.

Maqsad bu ishdin erdi olamg'a ilm qasri, -
Ham qo'ymoqg'a asarlar yod ovozi jahona.

Kasbu kamol islom bo'lmay taraqqiyatda,
Holiq'a tushmasun deb etduk buni bahona.

Bizdin keyingilar ko'p ilmu hunar toparlar,
Hayfoki anda biz yo'q, e'timodxona.

Olamdin ushbu ona sonsiz kishilar o'tdi,
Mingdin biri qo'yubdur olamg'a bir nishona.

Men katta boy emasdik kim aylasam binoyi,
Dahlim yetishmas erdi ro'zg'ori, choyu nona.

Sad xayfkim g‘anilar sarfini bilmadilar,
yeb-ichtilar semurub sig‘may turub chofona.

Uz asrimizda o‘tti bir necha ag‘niyolar,
Qoldurmayin nishona yer ostin etti xona.

Bu sanga katta Ibrat hushyor bo‘lki, ketti,
Emdi sanga kelurmu ketgan u ota-on.

KO‘RGONI KELDIM SOG‘INIB

Guldek yuzingni dilbarim
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.
San — shohi olam, man — gado,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Ishqingda dilbar zor-zor,
Yig‘lab yuribman, ey nigor.
Kel ey, bukun ko‘zi xumor,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Sizdin bo‘lak yo‘qtur kishim,
O‘zga bilan yo‘qtur ishim.
Mastona ko‘zlik mahvashim,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Tan ichra jonim san eding,
Xush mehribonim-san eding,
Shirin zabonim san eding,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Man hasta dil hayron bo‘lub,
Ishqingda sargardon bo‘lub,
Farvona yanglig‘ o‘rgulub,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

Darding bilan darmondaman,
Topkin iloj bemoraman,
Vasling bilan aftodaman,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.

7-mavzu. Karimbek Kamiy she'riyati va ijodiga oid ilmiy asarlar tahlili.

Karimbek Kamiy — milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyo-tining yirik vakillaridan biri. Shoир Amoniyning «Dar madhi janobi mavlono Kamiy Toshkandiy» she'rida shunday misralarni o'qiyamiz:

Ayladi Farg'onani bul dam musaxxar har so'zi,
Balki Islombulni oldi qavli mavlono Kamiy.

Kamiy so'zlarining Farg'onaga yetib borganligiga shubha yo'q. Uning she'rlari asr boshida boshqa bir xonlik hududida — Kogonda chop etilgan bayozlarda uchraydi.

orazmlik shoир Ilyos Mulla Muhammad o'g'li So'fining Kamiy g'azaliga yozgan muxammasi bor. Shoирning «Murabba'i dar ta'rifi maktab» she'ri 1906 yildayoq Sankt-Peterburgda chiqadigan «Ulfat» gazetasida bositgan. Bularning barchasi Kamiy she'rlari asrning dastlabki yillaridayoq Turkiston chegarasidan chiqa boshlaganini ko'rsatadi. Amoniy aytmoqchi, mavlono Kamiy so'zları «balki Islombulni oldi». Darhaqiqat, shunday. 1918 yil Istanbulda chop etilgan M.F.Ko'prulizodaning «Turk adabiyotida ilk mutasavviflar» kitobida Kamiy ijodidan namunalar uchraydi. Bu 10-yillarda shoир she'rlarining Turkiyaga qadar yetib borganiga dalolat qiladi.

Shoir Karimbek Kamiy ijodi o'z davrida ham e'tiborsiz qolmadi. Unga she'riyatning pastu baland ko'chalarida yurgan keksayu yosh avlod o'z munosabatini bildirdi. Shulardan biri Muqimiydir. Mavlono Muqimiy do'stiga yozgan maktublaridan birini «Birodari kiromiy mavlaviy Kamiy» deb boshlaydi. Bu yerda Muqimiyning Kamiyga munosabati, qolaversa, unga bergen bahosi o'z aksini topgan. Kamiyning shogirdlaridan biri Sidqiy Xondayliqiy o'z ustozini «suxanvarliq iqlimida shuhrabardoru oliyshon» deb ta'rif etadi. O'shlik shoир Amoniy esa shoир tavsifiga alohida she'r bag'ishladi. Unda Kamiyni «xushfasohat iqlimiga shoh», «lisonul-g'ayb» deya vasf etdi. Uning shoirlig fitratida «fayzi ilohiydan asar» ko'rdi. Lekin shoир ijodiga munosabat bir xilda bo'lib qolmadi. Anbar Otin, Ibrohim Davronlarning Kamiy ijodiga nisbatan tanqidiy fikrlari ham borki, bu — ular orasidagi adabiy-estetik va falsafiy qarashlarining turli xilligi bilan izohlanadi. Shoир vafotidan keyin uning ijodi va shaxsiga baho berish sho'ro adabiyotshunosligi zimmasiga tushdi. G'ayri milliy mafkuraga asoslangan mazkur adabiyotshunoslik ilmi ba'zi hollarda shoirni «Vatan xoini», «xalq dushmani», «millatchi jadid», «kontrrevolyudion» shoir sifatida baholab keldi. Natijada Kamiy ijodi o'nlab yillar xalq nigohi va tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib ketdi. Lekin XIX asr oxiri XX asr boshlari o'zbek adabiyo-ti, mazkur davr ma'rifatparvarligi va ayniqsa, Toshkent adabiy muhit haqida so'z ketganda Kamiy ijodi va uning nomini chetlab o'tishning iloji yo'q edi. Shu bois sho'ro mafkurasi davrida ham ba'zi xolis adabiyotshunoslari uning shaxsini oqlab, ijodini yoqlab chiqishga harakat qildilar. Adabiyotshunos M.B.Solihov shoirning «Soldi beilmliq xatolarg'a» deb boshlanadigan muxammasini «Jadidizmning go'zal adabiyoti»ga kiritdi va o'z kitobidan (O'zbek adabiyotida millatchilik ko'rinishlari. T., 1932, 14-bet) joy berdi. 1950 yili Moskvada «Antologiya uzbekskoy poezii» majmuasi bosmadan chiqdi. Majmuada Kamiy haqida muxtasar ma'lumotnomalar va S.Someva tarjimasida shoirning «Murabba'i dar ta'rifi mакtab» she'ri kiritildi. Ma'lumotnomada «Kamiy O'zbekistonda ilg'or fikrning namoyandalaridan biri»

deyiladi. 1960 yil bosmadan chiqqan «O‘zbek adabiyoti» majmuasida (4-jild 1-kitob) Kamiy ijodidan ba’zi namunalar berildi. 70-yillardan boshlab G’.Karimov, B.Qosimov, A.Jalolov, M.Hamidova, M.Zokirovlarning maqola va tadqiqotlarida Kamiy shaxsi va uning ijodiga mo“tadil yondoshish boshlandi. 90-yillarga kelib shoir ijodini maxsus tadqiq etishga kirishildi. Vaqtli matbuot sahifalarida uning hayot va ijod yo‘liga oid maqolalar, adabiy merosidan ba’zi namunalar chop etila boshladi. Nihoyat, 1998 yili Kamiyning 4500 misraga yaqin she’rlar majmuasi «Dilni obod aylangiz...» nomi bilan nashr etildi. Bu bilan shoir ijodini xalqqa tanitish, ilmiy muomalaga olib kirish va adabiyotdagি o‘rnini belgilash imkonи yaratildi.

TARQATMA MATERIAL

Ishqiy lirikasi

Kamiy ijodiyotining asosiy qismini ishqiy lirika tashkil qiladi. Xo‘s, shoir lug‘atida ishq nima? Buni biz:

Ishqdir olamda bir rohatfizoy komil asar,

Mabdayi ayni sirishku mazhari ohi sharar,- misralaridan anglab olgandek bo‘lamiz. Uning nazdida ishq barchani hayratga soluvchi bir «komil asar». Ko‘z yoshining manbai ham u, o‘tli ohning mazhari ham u. Aynan mana shu yerda azaliy va abadiy ishqning tabiatи ochilganday. Shunday ishq egasi bo‘lmagan inson - inson emas. Shuning uchun ham Kamiy:

Dilekim, onda yo‘qdur otashi ishq

Ki, andin sham’ ila parvona yaxshi,-

deydi. Tabiiy, ishq har bir oshiq qalbida bir bor yangilanadi. Unda yangicha kechinmalar uyg‘otadi, ohorli tuyg‘ular tug‘diradi.

Bunga o‘sha oshiqning ma’shuqasi, uning fe'l-atvori, o‘ziga xosliklari sabab bo‘ladi. Kamiyning ham she’riyatda o‘z ishqiy olami va o‘z ma’shuqasi bor. Bu yor ham o‘ziga xos suvratu siyratga ega. U husnu malohatda shunday go‘zalki, naqqosh Moniy ko‘rgan zamon hayratdan qotib, chizib turgan suvratini ham chizolmay qoladi. Bu yorning ruxsori olamni yoritadi. Hatto «ul zeb bul mohi tobonlarda yo‘q». Bu husn shunday tarovatga egaki, undan o‘zi mast qilish xususiyatiga ega bo‘lgan sharob mast emish: «Mast ermish sharob husningdin». Uning jamoliga bir marta Oy bilan Quyosh qarshi kelgan edi, ko‘ring oqibatini: «Birin ruxsori dog‘ o‘ldi, birin sorg‘ordi siymosi».

Kamiy bir masnaviysida suyukli yor qiyofasini shunday chizadi:

Ey, g‘amzasi ofati zamona,

Husn ichra jahonaro yagona.

Ey, qomati rashki sarvu shamshod,

Ey, kiprigi tig‘u chashmi jallod.

Ey, yuzlari mohu mehri anvar,

Ey, xatlaru zulfi mushku anbar.

Ey, lablari ayni obi hayvon,

Ey, so‘zлari rohati dilu jon.

E'tibor bering, bu she'riy parchada yorning husni, qomati, kiprigi, xattu zulfi, lablaridan keyin gap uning shirin tilligiga, so'zining «rohati dilu jon»ligiga ko'chhyapti. Til - kishining ma'naviyatiga aloqador. Darhaqiqat, Kamiy she'rlarida yorning nafaqat zohiriy suvrati, balki uning ma'naviy qiyofasi ham o'z aksini topgan. U g'azallaridan birida yor tabiatining nozikligi, go'zal axloqi, ko'nglining ravshanligi, boodobu bohayoligini shunday ta'riflaydi:

Nozanin xo'yu neku axloq, ey ravshan zamir,
Sharmu odobu hayo bobida yo'q senga nazir.

Kamiy ishqiy she'rlarining aksari mana shunday yorning ta'rifu tavsifiga bag'ishlangan. Shoир bu yorning vasliga mushtoq, lekin «baloyi firoqi»ga mubtalo. U hajr shomi o'tib, vasl tongi otishini istaydi, biroq orzulari armonga aylana boradi. Xullas, Kamiyning ishqiy she'riyati, nafaqat sevimli yorning suvratu siyrati, balki hijronzada shoир qalbining so'ngsiz iztiroblari, hasratu alamlarining ham badiiy in'ikosidir. Ayni paytda bu she'riyat o'z ijodkorining nozik ta'b, hissiyotga to'la shoirona qalb egasi ekanligiga ham guvohlik beradi.

Ma'rifatparvarligi

Kamiyning ma'rifatparvarlik she'riyati gimnaziyani tanishtiruvchi she'rlari bilan boshlandi. Bu jihatdan u Furqat maktabining davomchisiga aylangan edi. Lekin, shoир ijodida keyinchalik uslubiy o'zgarishlar yuz berdi. U, asosan, milliy madrasalarimizning tolibi ilmlarini ilmga chaqiruvchi da'vatkorona ruh oldi.

Kamiyning «Dar ta'rifi tavsifi ilm...», «Ayo, ey, mulla Foziljon qori», «Har makonda bo'lsang, ey xonim, farog'at birla bo'l» she'rlari mana shular jumlasidandir. Shoир mazkur she'rlarida ilmni tar-g'ib qilar ekan, unga ikki dunyo saodatining kaliti deb qaradi:

Obro'yi dinu dunyo ilmdur, beshakku rayb,
Kasbi ilm et, ikki dunyoda saodat birla bo'l.

Kamiy nazarida insonni e'tiborli qiladigan ham, uni bax-tu iqbolga, molu davlatga yetishtiradigan ham ilm. Uningcha in-son molu dunyo, naslu nasabiga qarab emas, aynan ilmu odobiga qarab aziz va sharaflı sanaladi:

Azizlik sonmangiz molu nasabdur,
Sharaf hosil etan ilmu adabdur.

Shoir «Dar ta'rifu tavsifi ilm» she'rini «Toliboni ilma dasturul-amal» deb atagan edi. Darhaqiqat, Kamiyning bu davr ma'rifatparvarlik she'riyati ilm toliblari uchun o'ziga xos dastur xarakteriga ega. Masalan, shoир millat farzandlarini ilmga da'vat qilarkan, shuning barobarida fazlga, adabga, hayoga ham chaqiradi. Bir ilm tolibini vasf etganda, uning nafaqat ilmini, balki fazlini ham ibrat qilib ko'rsatadi («Fazlu donish ichra yaktoi zamon Abdulg'ani»). Agar ulardan birini duo qiladigan bo'lsa:

Kamolu fazlu ilmingni ziyoda,
Bazudi aylasun Xalloqi Boriy, -

deya Yaratgandan unga ilmgina emas, fazlu kamol ham so'raydi. Shoир nazarida mакtab ilm bilan birgalikda «hayovu adab»ning ham koni. U fayz chashmasi, fazl maskani... Bir so'z bilan aytganda «favki har shay», ya'ni, har narsadan ustun:

Maktabki, koni ilmu hayovu adab erur,
Maktabki, fayz chashmasiyu fazli Rab erur.
Maktabki, obro'yu kamola sabab erur,

Maktabki, favqi har shayyu kulli nasab erur.

Shuningdek, Kamiy ma'rifatparvarlik she'riyati ilm toliblariga ilmni xolislik va pok niyat bilan o'rganishni tavsiya qiladi:

Bo'lib pokizavu ham pok niyat,
Hamisha jahd qilg'il ilm sari.

Albatta, shoir ilmga da'vat qilarkan, amalni ham yoddan chi-qarmadi. U talabalarga qarata: Boamal bo'l, boadab bo'l, behiyal,— deya ta'lim berdi. Zero, amalsiz ilm insonni ziyonu zahmatlarga olib borishi tayin.

Kamiyning ma'rifiy qarashlari bo'yicha ilm o'rganish erkaklar singari ayollarga ham shart. Hatto bu Ollohnning farzi ekanligini shoir alohida ta'kidlaydi. Bu haqdagi mashhur hadisga ishora qiladi:

Mardu zang'a ilm farz o'lg'onlig'i,
Barchaga mashhur bu shirin masal.

10-yillarga kelib Kamiy ma'rifatparvarligi yangi bosqichga ko'tarildi. Endi uning da'vati ilm toliblariga emas, millatga qaratildi. Uni milliy uyg'onishga, taraqqiyotga chorladi, kamchiliklaridan, nuqsonlaridan so'z ochdi:

Qilmag'ay ilm sari kimsa nazar,
Xalq behuda kasba mayl aylar.
Qolmadni hyech qadri ilmu hunar,
Ko'rdi beilm qavm necha zarar.
Dilki, millat g'amidin qon o'ldi,
Doimo sudimiz ziyon o'ldi.

Nainki birligina foydaning ziyonga aylanishi, balki millatning yo'ldan ozganligi, balolar girdobida bir xas singari qolib ketganligi, hatto birov larga qaram bo'lib, butun mol-mulki qo'ldan ketganligi ham, shoir nazdida, ilmsizlik oqibati edi:

Ilmsizlik chiqordi tuz yo'ldin,
Oldi qoplab balo o'ngu so'ldin,
Bizda na qoldi sarvatu puldin,
Ketdi mol ila mulkimiz qo'ldin
G'arbiylar, ya'ni O'vrupolarg'a.

Davr shiddatkor hodisalarga boy edi. Fevral voqyealari yuz berdi. Chor hukumati ag'darildi. Millat boshidan «jahannamiy zulumot» chekindi, «subhi najot» tobora yaqinroq ko'rina boshladi. Mana shunday bir vaziyatda ham Kamiy ma'rifatga sodiq qoldi.

Millat uchun, Vatan uchun najotni ilmda ko'rdi, maorifda deb bildi:

Najot istasang ilmu maorifa yopish,
Hamisha ilmni tahsil ayla-yozu qish -

Senga ulumu maorif kerak, na zar, na kumush,
Bu so'zni tingla, pandi tamomi mazhabi kish.

Ijtimoiy she'riyati

Kamiy she'rlarida charxning «ravishi kaj» ligidan to zolim podshohning zulmigacha, ochlik yillarining «suubatu alami»dan Fevralning su-rurigacha,

Oktyabrning «ranju zulmi»dan boshlab Turkiston muxtoriyatini qonga botirgan bolsheviklarning «fe'li bad»igacha o‘z ifodasini topgan.

Shoirning mana shunday she'rlaridan biri «Alhazar, ey shohi zolim, alhazar» deb boshlanadigan muxammasidir. Muxammas 25 misradan iborat bo‘lib, zolim shohni zulmdan saqlanishga chaqiruvchi quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Alhazar, ey shohi zolim, alhazar,
Rahm qun bar holi mazlumon nagar,
In suxan xush guft on neku sar:
Oh ursa piru zan vaqt sahar,
Bo‘lg‘ay andin yuz tuman zeru zabar.

Xoh farmoningda bo‘lsun bahru bar,
Xoh bo‘lsun sanda jam'i molu zar,
Bas, keraqdur zulmdin qilmoq hazar,
Oh ursa piru zan vaqt sahar,
Bo‘lg‘ay andin yuz tuman zeru zabar.

She'r mana shunday ruhda davom etadi. «Shohi zolim»ni «no-tavonlar holidan xabar» olishga chaqiradi, «aftodalar»ning «Haq janobig‘a niyoz aylab» oh urishlaridan, oqibatda esa butun molu davlati «zeru zabar» (ostin-ustin) bo‘lishidan ogoh etadi. Xuddi shu paytlar mazlum Turkiston bir zolim podshoh -Aleksandr III ning zulmidan qon yutmoqda edi. Asrlar davomida o‘ziga bek bo‘lib yashagan va ajdodlarining qaynoq qonlari tomirlarida jo‘sh urgan bu yurtning farzandlari hali-hali mustamlakachilikning haqoratomuz siyosatiga ko‘nikolmay kelayotgan edi. Shundan har joy-har joyda, tez-tez zulmga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tarilib turdi. Ularning eng dahshatlilaridan biri 1892 yili Kamiyning ko‘z oldida yuz berdi. «Vabo qo‘zg‘oloni», «Toshotar voqyeasi» nomlari bilan tarixga kirgan bu Toshkent qo‘zg‘olonida yuzlab mahalliy xalqning qoni to‘kildi, o‘nlab yo‘lboshchilarining boshi ketdi. Kamiyning mazkur muxammasi mana shu qirg‘indan keyin jabrdiyda xalqning Aleksandr III ga, mustamlakachilik siyosatiga nafrati o‘laroq dunyoga kelgan edi. 1895 yili Rusiya imperatori vafot etdi. Shu munosabat bilan «Turkiston viloyatining gazeti»da Kamiy qalamiga mansub ta'rix-marsiya chop etiladi. Sho‘ro adabiyotshunosligi uzoq yillar shoirni «oq podshoning maddohi» deb qoralab keldi. Lekin marsiya mazmuniga e'tibor bersak, bu da'voga butunlay teskari holatning guvohi bo‘lamiz. Keling, matnga diqqatni qarataylik:

Taammul birla boqsoq, darhaqiqat,
Qani Iskandaru Doro bila Jam?

Qani Kayxisravu Kaykovus, Bahman,
Qani Afrosiyobu Zolu Rustam?

Qani Bahrom - haft iqlimni olg‘on,
Qani Qaysar, qani Fag‘furi Chin ham?

Qani Xisrav, qani Parvizu Hurmuz,
Qani No‘shiravoni odil, mukarram?

Kelib har birlari navbat-banavbat,
Muaxxar ketti, ba'zisi muqaddam.

Bilurmusiz qayon bordi bu bari,
Bo'ling ogoh, ey avlodi Odam.

Ajal soqiysidin no'sh ayladilar,
Fanoning sharbatin bari, ba hardam.

Jahonni sar-basar tasxir aylab,
Aleksandr Aleksandruvich ham.

8-mavzu. TARQATMA MATERIAL

Muhammadsharif So'fizoda 1869 yilning 29 yanvarida Namangan viloyati, Chust tumanida hunarmand-kosib oilasida tug'ilgan. Otasi Egamberdi So'fi pichoqchilik, charx tortish ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Onasi Zaynab xola xohishiga ko'ra u qo'shnisi Manzura otindan xat-savod o'rganadi, eski maktablarda ta'lim oladi. U Hofiz, Bedil, Alisher Navoiy, Muqimiy va Furqat kabi allomalar ijodini chuqur o'zlashtirib, she'rlar mashq qila boshlaydi. Turkistonda chiqadigan «Turkiston viloyatining gazeti» kabi Qozon, Orenburg va Boqchasaroyda chiqadigan ro'znama, oynomalar bilan qiziqadi. Boku va Tiflisda chop etilgan ozor tilidagi asarlarni mutolaa qiladi.

1893—1898 yillarda u Qo'qonda yashab, Muqimiy, Furqat ta'sirida «Vahshiy» taxallusi bilan hajviy asarlar yaratadi. Ayniqsa, uning «Dakaning», «Bedanang», “Ayting bu so'zimni”, «O'pay», «Beg'ubor dardu olam» kabi hajviy va lirik g'azallari e'tiborga loyiq edi. Biroq hali Muqimiy hajviyasi zarbidan qutulib ulgurmagan zamona hokimlari yosh Muhammadsharifning keskin tanqidiga qarshi hujum boshlaydilar. Oqibatda u 1899 yili Qo'qondan Chustga qaytib keladi. Ikki yil o'tgach, uni amir-amaldorlar «ul beadab va bad aslni» dahriylikda ayblab, qatl etishga hukm chiqaradilar.

O'zining yozishicha, «so'ng Chustdan qochib, Mir viloyatiga tafakkur qilib, muddati 14 yil har mamlakatda yurub» («Turkiston viloyatining gazeti», 1914, 10-son) umr kechiradi. Xuddi shu 1900—1914 yillar So'fizoda dunyoqarashida muhim bosqich hisoblanadi. Avval Bokuga borib, Jalil Dulizoda, Sobir Tohirzoda, Muhammad Hodiy kabi ozarbayjon adabiyotining taraqqiyatini vakillari bilan tanishadi. So'ng Arabiston shaharlari, Hindiston va Turkiya mamlakatlarida oddiy mehnatkash xalq hayotini ko'radi. 1910-1913 yillarda Qo'ng'irotda muallimlik qiladi, ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlarini yozib, Boku va Orenburgda chiqadigan ro'znama va oynomalarda tez-tez ko'rina boshlaydi. Ayniqsa, uning mahoratidan darak beruvchi «O'zbek xonimiga», «Xonimlar isminda», «Vatan», «Muslimalar» asarlari e'tiborli edi.

1913 yilda Chustga qaytib kelib, yetim maktablari ochadi va unda muallimlik qiladi. Dunyoviy fanlarni yengil va yangi usulda o'rgatishga bel bog'laydi. Ayni chog'da ayrim shariat peshvolarini, boy-amaldorlarni o'tkir hajviy tig' bilan savalaydi. Bunga chiday olmagan hokim sinf vakillari uni halok etish payiga tushadilar. Buni

sezgan shoir So‘fizoda 1915 yili yana xorijiy mamlakatlarga ketishga majbur bo‘ladi.

Quvdi meni johillar o‘shandog‘ vatanimdan,

Lekin quva olmas suxanimni dahanimdan, —

deb, e’tiqodi, irodasini yana bir bor tiklab oladi. Bu safar davomida u Hindistonda, so‘ng Afg‘onistonda o‘qituvchilik bilan mashg‘ul bo‘ladi. 1918 yilda Afg‘oniston maorif vazirining o‘rinbosari sifatida Turkistonga afg‘on vakolatxonasining tilmochi bo‘lib tayinlanadi. 1918 yil so‘ngida u afg‘on arboblari bilan O‘zbekistonga qaytib keladi va shu yerda umrinin oxirigacha xizmat etadi.

Yana munofiqlar qarshiligiga uchrab, olti oyga qamaladi. So‘fizoda butun umr qiyinchiliklar ko‘rsa ham, o‘z xalqiga xizmat etishdan zarracha to‘xtamadi. Uning asarlari «Qizil O‘zbekiston», «Mushtum», «Farg‘ona» kabi ro‘znama va oynomalarda tez-tez bosilib turdi.

1925 yil 13 avgustda «Farg‘ona» gazetasida «Xushchaqchaq qalamlar» sarlavhasi ostida uning bir qator hajviy she’rlari bosildi. Uning «Haqiqatdan ko‘z yumganlar», «Qalaysizlar?», «Saylovga» kabi she’rlarida o‘sha suronli yillar tahlikalari ustida mulohaza yuritiladi. 1934 yilga kelib, «Bayram nashidalari» nomli dostoni nashr etiladi. Unga o‘zbek adabiyoti oldidagi xizmatlari uchun Hamza Hakimzoda Niyoziy bilan bir qatorda 1926 yil 27 fevralda O‘zbekiston xalq shoiri degan yuksak unvon beriladi. U 1937 yilda og‘ir betoblikdan vafot etadi.

9-mavzu.

TARQATMA MATERIAL

Sidqiy Xondayliqiy (taxallusi; asl ism-sharifi Sirojiddin Maxdum Mirzohidoxund o‘g‘li) (1884 — hozmrgi Bo‘stonliq tumani Xondayliq qishlog‘i — 1934) — shoir, xattot, tarjimon. Arab, fors tillarini o‘rgangan. Xattotlikka qiziqqan, zamonasining mashhur qilqalami Muhammad Shohmurod kotib (1850—1922)ga shogird tushgan. Sidqiy tosh yo‘nib, unga ishlov berish, turli bezaklar tushirish, suratlar ishslash, muhr yasash bilan ham shug‘ullangan. Ayni paytda she‘r mashq qilgan. Shoir sifatida shakllanishida Kamiyning xizmati katta bo‘lgan. U boshliq adabiy davralarda faol ishtirok etgan. Ilk she’rlarini «Shuhrat», «Shevan» (nola, fig‘on) taxalluslari bilan yozgan («Tuhfai Shavkat», 1913; «Savg‘oti Shavkat», 1914 — to‘plamlar). Keyinroq barcha asarlarini Sidqiy taxallusi bilan chop ettirgan. Lirik she’rlarida mumtoz adabiyotimizdagи hayotiy, insoniy muhabbat, odamiylik singari yaxshi an‘analarni davom ettirgan. Poetik merosining salmoqli qismini hajviyat va ijtimoiy she’rlar tashkil qiladi. Ijtimoiy-siyosiy she’rlari esa davrning muhim voqyealariga bag‘ishlangan («Muhoraba», «Yashasun yoshlар», «Toza hurriyat» va b.). Mardikorlik voqyealari haqida asarlar yozgan [«Rabo(t)chilar namoyishi». «Rabo(t)chilar kelishi», 1917]. Sidqiying «Rusiya inqilobi» dostoni (1917, mart) Rusiya inqilobi voqyealarini keng epik planda tasvir etuvchi dastlabki asar. Dostonning hajmi 1502 misra. Shundan 72 misrasi fors-tojik tilida, qolgani o‘zbekchada yozilgan. Voqyealar 23 fev. — inqilobning birinchi kuni tasviridan boshlanadi, so‘ng kunmakun beriladi. Sidqiy Fevral inqilobini quchoq ochib qarshi olsada, uning natijalaridan qanoatlanmagan. Doston inqilobdan keyingi sharoitni jiddiy va atroflicha tahlil etish, barchani birlikka, hamjihatlikka chorlash bilan yakun topgan. Bu g‘oya «Umidi ittifoq» (1918) tarji‘bandida davom etadi. Sidqiy «Tazkirai imomi A‘zam», «Sad irshodi mulla Sidqiy

Xondayliqiy» («Mulla Sidqiy Xondayliqiyning yuz nasihat»), «Mezoni shariat» (1915, 1917, 1992), «Zarbulmasali Sidqiy», «Holoti Sidqiy» kabi nasriy asarlar ham yozgan. Ularning ko‘pchiligi diniyaxloqiy mavzuda. «Hikoyai latifa», «Bahrom va malikai Gulandom», «Ajoyib ulmaxluqot», «O‘g‘ri va qozi», «Bo‘ston» (Sa‘diy) kabi asarlarni tarjima qilgan. Sidqiy ko‘chirgan devon, bayoz va risolalar, yasagan muhrlari nusxalari, toshlavhalar hamda chizgan To‘ychi Hofiz va Tavallo suratlari xususiy va davlat kutubxonalarida, shuningdek, 20 dan ortiq bosma va qo‘lyozma asarlari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

G‘AZALLAR

Ohkim, ko‘z to‘kdi qon eski hukumat dastidin,
Bo‘ldi tanlar notavon eski hukumat dastidin.

Molimizni, jonimizni zulm ila bosib olib,
Bo‘ldi el muhtoji non eski hukumat dastidin.

Bevayu bechoralar ochu yalang‘och yig‘lashur,
Bas, buzuldi xonumon eski hukumat dastidin.

Ehtiyot etmas esang pul deb cho‘ntakka qo‘l urar,
To‘zdi, yirtildi chopon eski hukumat dastidin.

Bir belat olmoqqa besh so‘m baski, mendin oldilar
Aylamaymu yuz fig‘on eski hukumat dastidin.

Zulm o‘ti birla jigarlar kuydiyu bo‘ldi kabob,
Chunki o‘rtandi jahon eski hukumat dastidin.

Gar bozorg‘a bir nimarsa tushsa oldi zo‘r ila,
Ko‘rdi ko‘p odam ziyon eski hukumat dastidin.

Xoinu zolim, qaroqchi kisaburlar erdilar,
Uldilar ko‘p korvon eski hukumat dastidin.

Mehru shafqat bitdi, yo‘q bo‘ldi elning ko‘nglidan
Kim, topilmas parcha non eski hukumat dastidin.

To‘qchilik ketdi, kelib o‘rnig‘a bu qimmatchilik,
Bu kabi bo‘ldi zamon eski hukumat dastidin.

Shod emas yoshu qari, hyech yer aro bu jazm erur,
Kim, bo‘libtur notavon eski hukumat dastidin.

Mardikor olmoq xususida qirilduk ko‘p kishi,
Bo‘ldi bas o‘qg‘a nishon eski hukumat dastidin.

Soldi qirg‘izlarni boshig‘a, bilursiz qatli om,
Oqtı suv o‘rnig‘a qon eski hukumat dastidin.

Sotdigu berdik hama uyda yo‘qu bor narsani,
Qolmadi singan qozon eski hukumat dastidin.

Shukrkim, yangi hukumat, Sidqiy, shod ayladi,
Yo‘qsa, chiqg‘ay erdi jon eski hukumat dastidin.

* * *

Falakdin na yetgay farog‘at menga,
Berur rohat o‘rnig‘a mehnat menga.

Sharofatdadurlar razolat eli,
Darig‘oki, yo‘qtur shafoat menga.

Furumoyalar bo‘lsalar arjumand,
Ko‘rub oni yetmasmu hasrat menga.

Vafo ko‘rmadim do‘stlardin dame,
Na bo‘ldi alardin hamiyat menga.

Boshimg‘a balo bo‘ldi fazlim meni
Ki, yo‘q zarracha qadru qimmat menga.

Dame ko‘rmadim shodliqning yuzin,
Magar ro‘zi erkanmu riqqat menga.

Chu oyina yo‘qtur safoyi dilim
Ki, bilmam nechukdur bu illat menga.

Suxanvarlik iqlimida so‘rsangiz —
Erur Sidqiy bir yangi shuhrat menga.

* * *

Ul shakarlab aylasa noz ila shirin navo,
To‘tiyi tab'im tuzar ul vaqt aro qandin navo.

Beasar yolg‘on fig‘onim qayda yetgay ul sori,
So‘zi dildin chekmas ersam, yig‘labon gar chin navo.

Tinmag‘ur ko‘nglim tinib bir lahza orom olmagay,
To aning ko‘yig‘a borib chekmasa chindin navo.

Uylakim chang aylabon qaddim duto, gar aylasam,
Shomi g‘amda o‘lturub bo‘lg‘ay (netay) oyin navo.

Yig‘lashur ahvolima rahm aylashub vahshu.tuyur,
Dashti hajr ichra chu qilsam ingranib gar men navo.

Qayda Sidqiy yetqosen gulgun qabolar vaslig‘a,
Chekmas ersang sidq ila har lahza sad rangin navo.

* * *

Yorab, na yanglig‘ erdi bu baxti qaro menga,
Kim bo‘ldi oshno bori nooshno menga.

G‘am gulshanida g‘uncha kibi ^xuni dil nasib —
Bo‘ldi-yu, naylay, o‘lmasa o‘zga g‘izo menga.

Bo‘lg‘ay g‘am ila mehnatu kulfatni javhari,
Har yerda bo‘lsa har necha nash'u namo menga.

Aqlsizdin o‘ldimu hoshoki, sad darig‘,
Ushbu zamonda bo‘ldi hunar bir balo menga.

Har qayda qadri qiymati yo‘q bo‘lsa fazl elin,
Bozori dahr ichida na bo‘lg‘ay baho menga.

G‘am kishvarining o‘ldum ajab dodpeshasi,
Xaylu hasham nechunkim erur ohu vo menga.
Sidqiy, yoshimning seli bilan charx ayladim,
Bosh uzra bo‘ldi shomu sahar osiyo menga.

* * *

Vasl umidin ul pari qat' etqoch istig‘no qilib,
Oqsadim hajri tunida g‘am toshig‘a qoqilib.

Bekasu behamdamu, beyorlig‘din, do‘stlar,
Yig‘lamaymu holima, ko‘z yoshimi daryo qilib.

Yuzlabon beboklik bozorig‘a Majnun kibi,
Oldim ul Laylivashim savdosini savdo qilib,

Notavon ko‘nglum sari ko‘yidin oning har kuni,
Tinmadi to o‘tmaguncha yuz tuman g‘avg‘o qilib.

Boqmayin ketdi o‘tub, men naqshi poyidek aning,

Yo‘lida qoldim mazallat xokida ma’vo qilib.

Sidqiyo, sen ul sabodin ayla irsolı salom
To desun holingni anga subh aro ixfo qilib.

* * *

Mazhari fayzi jovidon qog‘oz,
Ma’dani ma’nii nihon qog‘oz.

Yoki ma’no arusig‘a bo‘lmish
Jumlaoso na xush makon qog‘oz.

Noma yozmoq chog‘imda yor sori,
Ko‘z yoshim birla bo‘ldi qon qog‘oz

Shahboz tabiatimg‘a ne tong
Bo‘lsa andoqki, oshiyon qog‘oz.

Yig‘lagay xoma sharhi xol uchun,
Olsam ilkimga har qachon qog‘oz.

Menga noahl elidin, albatta,
Yaxshi, zeroki beziyon qog‘oz.

10-mavzu. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnali.

TARQATMA MATERIAL

Bir a'mo bolaning hasrati

Eshitarmanki, kun (oftob) ko‘b go‘zal... Nahr bo‘yinda, suvning ustida uzayib osilgan gullarning ko‘runishi ko‘b latif emish... Nozik-nozik sayragan qushlarning ...havoyi qo‘sh qanotlarining uchushinda ko‘rulaturgon nimarsalardan emish!.. Eshitarmanki, kechalari ko‘k yuzinda yoshurungan yoruqlar ko‘runar emish... Mavj va girdoblaridek hazin bo‘lgan dengiz ichinda oq chotirlik kemalar oqub ketarlar emish!... Eshitarmanki, gullarning ranglari islарindan, suluvlikda yana ziyoda emish. Daralar... Tog‘lar... Maydonlar... Suvlar, beshalar, xusan, tong zamonlari u qadar latif... u qadar totli emishlarki, bu qadar buyuklik va ehtishomg‘a qarshi inson hayratindan sajdag‘a ketarmish. Lekin, man ana ul gulduragani eshitilaturgon dengizni... na u ranglik gullarni... na ko‘k yuzini... na kunni... na beshalarni... na u yaxshi mevalarni... na qushlarni... na oydinlikni... ko‘rolmasligimdan taassuf etmayman. Xayr, Ollohim! Xayr! Shu foni olamning yaxshiligindan hyech birini orzu etmayman, magar... Hayhot!... Onajonimni ko‘rsaydim!

Muharriri: fransuz qizi Sorrun (?)
Mutarjimi: Rijoizoda marhum Mahmud Akram.
Usmonlichadan tabdil etgoni: Mahmudxo'ja.
«Oyna» j., 1914 y., 27-son, 505-bet

Oq yelpog'ichli chinli xotun

Sung‘iy mamlakati aholisidan Chung‘ichin nom zot bir adib bor edi. Bu olami fanog‘a inonmas va har zamon andin pirovoz va rihlat etmoqqa toliblik qo‘lidan kelmas edi. Oni uchun jonini ovuntirmoq uchun xayolilar fikr va befikrg‘a xotur etkuvchi ishlarg‘a ruju' etmoqla o‘ziga tasalli berardi. Vafotidan so‘ngra dunyoni nekbaxt va mahsudlaridan hisoblandi.

Chung‘ichin Xitoy muzofotlaridan birinda nomi Havo tog‘ining etaklarinda kezar ekan, birdan o‘zini bir mozoristonda ko‘rdi. Oh, mozoriston — ming-ming nomuntazam tepachalar sado va nidodin xoli maxsus zamini ma'volar (boshpiana, makon). U tepalar ostinda chor va nochor inson yotarlar edi. Ufqi jadid sari tamoman mushtag‘il (band) qabrlarni ko‘rar-ko‘rmaz sayyoh shu fikrg‘a botdi. Afsus, butun tiriklik hayot yo‘lini oxiri kelib yetgan joyi budur. Bu iqomatga mavt va manzilga xomushona bir karra kirildimi yana qaytmoq mumkin yo‘q. Boq xotimai hayot na o‘ldi? Chin ahli faqat bir tiriklik bilar. U hayotki shu'lai shams ila munavvar, hovoi sof ila ihotadur. Chin faylasufi bu fikrlarg‘a sirona qabrg‘a-da yurar ekan, libosi motam kiymish yosh bir xotung‘a rost keldi. Bu xotun yangidan tepalangan bir qabr kanorinda o‘lturub qo‘linda yelpog‘ichi lukurni yelpiyur va ham doimiy yelpiyur.

Bu qadar ajib bir harakat sababini anglamoq shavqina tushub, sayyoh yosh bonug‘a odob-la salom berdi.

— Xonim, o, bu mozorg‘a yotgan kimdur, na uchun shu tufroqni muttasil yelpimak zahmatig‘a giriftorsiz, so‘ramog‘im mumkinmi?

Mani faylasufim har ish sababini bilmoqchi, ammo sizning bu amalingiz aslo ihota tafakkurimg‘a kirmaydur, dedi. Bechora xotun yelpog‘ichni yelinmoqda muttasil lo-yan qat'i davom etardi. Xotun qizardi, bo‘zardi, boshini oldingga engkdi. Faylasuf behuda yerg‘a savolini takror aytdi. Motamkash xotundan javob eshitmadni va aslo qulqoq bermay jonining bor quvvati-la yelpog‘ichni harakatga kelturub turar edi. Chung‘ichin u mahaldin mutaassufona ayrildi. Xotunning illat va sabab harakatini bilmay orzusidin hamda shiddatlik orzusidin o‘zini saxlab bilmoq edi. Shabparrak qanoti kabi mutavalli harakatlanib turmish yelpog‘ichga har zamon do‘nub eng chuqur va mutahayyirona bir-fikr ila boqib bechora faylasuf aslo bir shay anglamayur edi. Asnoi tahayyurda muqobilinda bir ojiza chiqib faylasufni bir qabr kanorig‘a imlab, shu so‘zlarni so‘yladi: «Eshitdimki, xonumdin savol so‘rdingiz, ammo javob ololmadingiz. Man orzungizni daf' etarman. Ammo muqobili umid aylarmanki, siz ham manga bir necha pul bersangizki, borib, umrumni uzun bo‘lishi uchun duixonlardin bir tumor sehrangiz olayin». Chung‘ichin kissasidin oqcha chiqardi va a‘juza xotun ham bu mojaroni so‘yladi:

«Qabr kanorinda ko‘rganingiz shu xotun Lu ismlik xonimdur. Uzun bir bemorlikdin o‘lmish To'u nominda bir adibni bevasi va u qabr o‘lgan erining qabridur. Er va xotun yaki digarini shiddatlik bir ishq va muhabbat ila sevarlardi. Hatto, oxirgi nafasinda To'u xotunidin ayrilmoq kulfatidin shikoyat etar, go‘zal bu xotinini hanuz

bahor hayot va husnini sitoratlik zamonda tashlab ketmoq dardi fikrig‘a so‘zan urardi. Lekin na chora, muqtasi' qadrga tobe' bo‘ldi, boshqa iloq yo‘q.

Bemorlik holida Lu xonim xasta To'uning boshidin hyech ayrilmas, eridin so‘ngra dunyoga tirik qolmaslikni va bolin hayotg‘a ishtirokidek qarorg‘a, mamotg‘a ham sherik bo‘lushini ahd ila bayon ayladi. Lekin To'u munga javoban: "Zinhor xonim buyla ahd va yamin aytmangiz", — der edi. Xotun: "Agarda sizdin so‘ngra sheriklik balosiga giriftor bo‘lib, ko‘zlarining yumulganidan so‘ngra shu ziyoi oftobni ko‘rmoqg‘a majbur bo‘lsam, yaxshi bilingki, boshqa birovning xotini bo‘lmoqg‘a aslo ro‘yi rizo ko‘rsatmayman", — deb javobini berdi.

To'u: "Xonim bonu, zinhor bu fikrdan voz keching,—derdi. To'u xonim: "Ey To'u, qo‘yingiz asror etmangiz, bori besh sanag‘acha uylanmaslikg‘a ahd etoying". Lekin bu safar deya To'u: "Bonu, bunday ahd etmang, faqat mozorim ustidaki tufroq quriguncha qadar mani unutmaslikka ahd etsangiz kifoya..."

Lu xonim muni uchun mahkam ahd etdi. To'u ikkinchi ochmaslik uchun ko‘zini yumdi. Bonu kadaridin devona kabi bo‘ldi. Xumor va xitoyi ko‘zlaridin dumu' (ko‘z yoshlari) otashin shashqator joriy, xumoi (isitma, kasallik) shadid (shiddatli) mahdumlari kabi o‘zini shash jihata etardi bedard-bedavo.

Dunyo odati uzra har shay kechar. Bu sil g‘amum va baroi hujumda kechdi-ketdi. Oh-nolalar kechmas, faqat kelmasun — To'uning vafotidin uch kun so‘ngra Lu xonimning ko‘zi bir ma‘qul sifatg‘a kirdi. Shuylaki erini shogirdlaridin bir javon (yosh yigit) ta‘ziyatga keldi. Qadrdon shogirdni oh va oh ila qabul etdi. Bu javon nihoyat muzayyan (bezangan) bir chehra sohibi edi. Asnoi mukolamada bir oz To‘udin va ko‘broq bonudin bahs etdi. Bekaning latofat andomidin, go‘zalligidin va ziyodasi-la xushlaganidin bayon etdi. Xonim ham andin mammun va rozi qoldi. Javon shogird yana kelishini va'da ila vido' etdi.

Bir vido'i umidvoriy...

Sodiq ul-va'da Lu xonum u va'dalarg‘a intizoran, ko‘rganingiz, qabr ustig‘a keldi. Kunlarni yelpog‘ich shamoli-la eri qabrining tufrog‘ini qurutub ahd etmoqg‘a vaqf etar...» Kampir hikoyani bitirar-bitirmas faylasufingiz shu fikrg‘a botdi. Umr qisqa, yoshlik shirin, yosh xotun va erlarni zavq havolarg‘a uchirar. Har holda Lu xonim soliha bir xotun emishki, ahdini paymol etmak istamaz.

Intiho

Ey qori, hikoyaning hosili mundin iboratdur. Adabiyot jadidai mustaqbala (kelajak zamon) mizga raqamidin yodkori xayr iltifotig‘a yetsa, xo‘jandi shoир muhtaram Sayriy afandig‘a bir tuhfadur. Mutolaasig‘a tanzil buyursalar, shoyadki, rishtai nazma chekilsa, bizu sizdin bir xotirai mustaqbala qolurdi. Bu dahmi she'r bilmam qalbimdin chiqdi. Muqaddam shoир emas edim:

Bu olami hama hayhot behuda,

Naqshi zar ob paymuda (omonat)...

11-mavzu. Abdulla Avloniyning Turkiston matbuot va teatri taraqqiyotidagi

o‘rni.

TARQATMA MATERIAL

AFG‘ON SAYOHATI

1336 hijriy 16 ramazon 1919 melodiy 15 iyul

1919-melodiy 15-iyunda kech soat 6 da Toshkandan Afg‘onistong‘a qarab harakat qilduk. Bizim ila birga mashhur mustashriqlardan o‘rtoq Brovin ham bor edi. O‘rtoq Brovin bir necha yovrupo tillarin bilmoq ila barobar mukammal forsi tilini (ham) bilurdi. Bizlar ila birga Turkiston Jumhuriyatining «voenni attashe» — harbiy qo‘misari o‘rtoq Ivano‘f, savdo va tijorat shu‘basi tarafindan o‘rtoq Kuliko‘f, siyosiy qo‘misar o‘rtoq Ziboro‘flardan boshqa bir necha texniklar, havo tilgiromchilari, aftomobil ustolari, o‘n bir nafar qizil askarlar ham bo‘lub, bular(ning) 9 nafari musulmon edi. Bulardan boshqa Afg‘onistondan Turkistonga kelmish afg‘on hay'ati vakolasindan Abdulrahimxon ila birga elli(k) afg‘on askari va bir sartarosh ham bor edi.

- 1) Abdulrahimxon valadi Abdulqayum — amir(n)ing mirzosi;
- 2) Qandilxon valadi Mehrdilxon — amir(n)ing mulozimi;
- 3) Sohibxon valadi Abdulkarimxon — amir(n)ing mulozimi;
- 4) Usto Abdulg‘ani valadi Abdulrahmon — amir(n)ing sartaroshi.

Bulardan boshqa hind inqilobchi firqasindan 3. H. Zikriyo afandida bizlar ila yo‘ldosh edi. O‘rtoq Zikriyo afandi lisoni forsni(ng) mukammal bilmog‘i ila barobar inglizcha mukammal so‘zlasha bilardi, oz-moz ruschada so‘ylashurdi.

16-iyunda kech soat 8 da kelub Xavos istansasida qolduk. Yo‘llarda bo‘(l)sun, istansalarda bo‘(l)sun, yalang‘och, avrotlari ochuq, kiyimlari pora-pora musulmon xotin-qizlari, yosh-yosh bolalar ko‘rilurdi. Albatta, ilmsiz va tarbiyatsiz, ahvoli olamdan xabarsiz musulmonlarning hol-ahvollari birgina O‘rta Osiyo yo‘linda emas, butun Turkistonning hamma o‘lkasinda sho‘yla fano va ayanch holda ekanlig‘in hyech kim inkor qilmaydi... Bizim Turkistonda har yerda hozirda ish boshin-da o‘lturgan rus tovarishlarimizning o‘zлari ish boshig‘a o‘lturub olub, o‘zлari oshalab, biz musulmonlarga yalatuvlarining natijasidur.

Mazkur aholilardan so‘ralganda, alhamdulilloh, bu yil bulturgiga qaraganda hollarimiz yaxshi. Bu yil faqat yalang‘och bo‘lsamiz ham bir oz yemaklikg‘a gadolik va tilanchilik qilub umr o‘tkaramiz. Agarda bultur kelgan bo‘lsangiz edi, bul yo‘lda «oh, non!...» deb jon berib yotgan mu-sulmonlarni ko‘rar edingiz, deya bu hollariga ham shukur bayon qillardilar.

17-iyunda saboh soat 8 da Xavosdan Samarqandg‘a qarab ravoka bo‘lduk. Bizim bu mingan mada-niyat ayg‘irimiz pishqira-pishqira ravon bo‘ldi. Hozirda Turkistonda yer moyi — dugut — qora moy oz o‘ldig‘indan o‘tun yoqilub yurardi. Bu madaniyat moshinamizga o‘tun yoqiladig‘indan bu ayg‘irning og‘zidan yo‘lning har ikki tarafiga o‘tlar sochilurdi. Yo‘lning ikki tarafida oftobning harorati ila qoq bo‘lub yotgan o‘tlarni(ng) gurullatib yondurub yuborurdi. Xususan, kechalari yo‘lning ikki tarafidagi o‘tlarning moshinadan tushgan uchqundan yonmog‘ila charog‘on bo‘lur edi. Nogahoniy o‘laroq bizim moshinamizding o‘ti so‘nub, ikki soat yo‘lda to‘xtab qoldi. Shul vaqt bir necha bizim qirmizi askarlar ila vagon xizmatchilari ro‘baro‘mizdagи

faqirgina bir odamning bog‘iga devoridan oshub tushub, o‘ruk va olmalarin olub yemoqg‘a boshladilar. Bir necha xotunlar kelub, yig‘lashub, «Biz faqirlarning ozgina mevamizni(ng) sizlar yeb ketasiz, bizlar qish kunida nima yeb ovqat qilamiz», desalarda quloq soladurgon kishi yo‘q edi. Rahm qilmoq o‘rnida hatto xotun bechoralarni(ng) mushtlab urardilar. O‘rtoq Brovin yonimg‘a kelub:

— Avloniy afandi, Siz ijroiya qo‘mita a’zolaridansiz, yuring, birga borub onlari firtaqaqlar qilamiz, — deya, ikkimiz birga onlarning qoshiga boruvimiz ila yerlarina qaytdilar.

17-iyunda kech soat 4 da Samarqand shahriga yetushduk. Bu kecha Samarqand istansasida qolduk. Ertasi Toshkandan o‘rtoq Ivano‘f o‘rtoq Kazako‘f ila yetub keldi. Chunki bu (n)lar bizdan bir kun so‘ng Toshkandan chiqg‘an bo‘lsalar-da, bularning mingan madaniyat ayg‘irlarining yemi yer moyi o‘ldig‘indan tez chopar emish. Shuning uchun ikki kunlik yo‘lni bir kunda tay qilmishlar.

18-iyunda kech soat 4 da Buxoroga erishduk. Bu kecha Kogonda qolduk. Kech soat 9 da Kogon ijroiya qo‘mitasining idorasida maxfiy majlis bo‘ldi. Bu majlisda aksari Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining a’zolari hozir edilar. Majlisga raislikni Kazako‘f ado qildi. Majlis yopiq o‘ldig‘indan bu majlisda hal qilingan masalalarni(ng) ochiq yozmoq mumkin emasdir.

19-iyunda saboh soat 10 (da) butun Kogondagi qizil askarlarning ko‘rigi bo‘ldi. Turkistonda birinchi o‘laroq barpo qilingan boevoy poezd — harb otash arobasining yo‘lga qo‘yilushi munosabati ila hamma hukumat arboblari tarafindan turli mavzu‘da nutqlar so‘ylandi. Hamda buradagi qirmizi askarlarg‘a TurSIK tarafindan qizil alvon bayroq taqdim qilindi. Soat 11 larda Marvda burada Toshkanda muallimlik vazifasida ko‘p vaqtidan beri xidmati ila tamilgon uch turk zabit(lar)ining qo‘lg‘a tushub turmada yotganliklarin xabarin manga erishdirdilar. Buradan jo‘namog‘imiz soat 12 da o‘ldig‘indan bir soat ichinda qo‘limdan kelg‘uncha harakat qilsam-da, onlarni(ng) borub ko‘rmoqg‘a mumkin o‘lmadi. Bul xususda Kogon prezidenti Pechyoniko‘fg‘a, Kazako‘f-g‘a uchrab mazkur mahbuslar xususida so‘ylashdim. Onlardan olg‘on javobim «Bu ish osobiy otdelni(ng) ishi, bizlar qo‘ldan kelg‘uncha harakat qilub, bu(n)laring ishlarin tez ko‘rilub tamom qilinmog‘iga harakat qilurmiz. Siz xotirjam bo‘lingiz!» — deya meni quruq so‘z ila qanoatlantirdilar. Faqat na chora, quruq so‘zga yupanub, vaqtim o‘lmadig‘indan soat 12 da madaniyat yo‘rg‘amizga minub, Kogondan harakat qilduk.

Biroz yurgandan so‘ng yo‘l ishlab yurgan bir necha qafqazlik birodarlar vag‘onimizning moshinasini(ng) oldini(ng) to‘sub to‘xtatdilar. Kazako‘f tushub, onlar so‘ylashgandan so‘ng manga qarab «O‘rtoq Avloniy, borub onlar ila so‘ylashub keling, bularning orasida nima bo‘lgan ekan», dedi. Man borub uzog‘da turgan buxoroliklar ila so‘ylashgonimda, ma'lum bo‘ldiki, o‘tin ila yuradir-gon moshinadan o‘t chiqib, buxoroliklarning birmuncha bug‘doylarini (yo)ndurub yuborgan ekan. Shul sababli Buxoro fuqarolari temir yo‘l ishchilaridan ikki boshliq(lar)ini tutub, qamab qo‘ygan ekanlar. Manim tarjimonim Abdulmatlab afandi ila ikkimiz borub, ko‘b so‘zlar (bilan) buxoroliklar qo‘lindan ikki qamalgan kishinin(ng) qutqarub olduk. Buxorolikdan birini chaqirub kelub, Kazako‘f oldida Buxoroga, Kogonga tilgirom ila ahvolni(ng) ma'lum qilub, «Ayb bu ishchi-larda emas, otash arabaning moshinasida — bul ahvolni(ng) ma'lum qilamiz. Kogondan komissiya kelub, bug‘doylaringizni baho qiladur. Turkiston

Jumhuriyati zarar-burdingizni to‘laydi», — deb jo‘nab ketdik. Kech soat 12 da Chorjo‘yga yetushduk. Bu kechani Chorjo‘yda o‘tqarduk.

20-iyunda kunduz soat 10 da paraxo‘dga o‘lturub, Karkiga qarab jo‘namoqg‘a hozirlanduk. Paraxo‘dimiz o‘zig‘a kerakli nimarsalarin hozirlag‘uncha soat 2 bo‘ldi. Bizim bu suv ayg‘iri baqira-baqira janubga qarab so(at) ikki yarimda jo‘nadi. Bizim bu tushgan paroxo‘dimiz nihoyatda eski bo‘lub, hamda orqasida askar va urush asboblari yuklangan «barja» ismli o‘zi yuralmaydirg‘on dumi ham bor edi. Bu orqasiga boylab olgan dardi bedavo dumini daqiyunus zamonasidan qolgan eski va churuk arqonlar ila boylab olg‘on edi. Chorjo‘ydan Karkig‘a borish bizim bu ko‘hna paroxo‘-dimiz ila besh kunlik yo‘l bo‘lub, Karkidan Chorjo‘yg‘a kelish ikki kunlik yo‘l emish. Chunki daryo-ning manba‘iga qarab yurmoq bu ko‘hna paroxo‘dimiz uchun og‘ir o‘lub, suvning mansabiga oqadurg‘on tarafiga qarab yurmoq yengil emish. Bu Omu(r) daryoning borguncha ikki taraf sohili kichik-kichik qishloqlardan iborat bo‘lub, yerning aksari Buxoro xonlig‘iga tobe'dur. Bu yerda vatan qilub o‘lturgon xalqlarning aksari turkmanlardir. Turkmanlar tabiat jihatindan nihoyatda g‘ayur va jasur, xudroy, ilmsiz, ma'lumotsiz, axloqsiz, tutgan yerini kesadirgon xalqdirlar. Tabiiy daryo sohili o‘ldig‘indan yeri nihoyatda o‘sumlikdir. Har xil ekin va mevalar o‘sadi. Xususan, bu daryo lablarida bitgan qobun butun dunyoga shirinlikda mashhurdur. Havosi mo‘tadil o‘ldig‘indan odamlari nihoyatda sog‘lomdurlar.

21—22 iyunlarni(ng) daryo sohilinda kemamizni(ng) langarandoz qilub o‘tkazduk. Bizim bu kemamiz ko‘b eski o‘ldig‘indan ko‘b yeri suvgaga botub yurar edi. Shul sababli ko‘b yerlarda daryoning sayoz yerig‘a to‘g‘ri kelub, qumg‘a o‘lturub qolub, kemachilar bir soat, ikki soat ovora bo‘lub, bu «boboy kemaini qumdan arang xalos qilurdilar.

23-iyunda kech soat 8 da eng xavflik atalg‘on Burdaliq ismli yerga yetushduk. O‘rtoq Ivano‘f ila o‘rtoq Brovin mening qoshimg‘a kelub, «Birodar Avloniy, Siz afg‘onlar ila bu qishloqg‘a borub ahvolot olib keling. Chunki eng xavflik hisoblangan joy ushbu yerdir», — dedilar. Kech soat 9 da man, hindistonlik Zikriyo afandi hamda to‘rt afg‘on mehmonlar ila barobar Burdaliq qariyasiga borduk. Bir necha qo‘rg‘onchalarg‘a borub xabar olduk. Bu yerda Karki beklarining barmoqlari ila to‘plangan, bizim qarshimizg‘a hozirlangon askarlarining bor-yo‘qlig‘indan ma'lumot olgonimiz-da ma'lum bo‘ldiki, bul yerda bizimcha xavf qilingan dushmanidan asar yo‘q. Ikki soat chamasida yo‘l yurub qishloqilardan ikki tovuq, yigirma besh dona tuxum sotub olub, paroxo‘dimizg‘a qaytub kelduk. Ulardan olgon ma'lumotni(ng) kelub o‘rtoq Ivano‘fg‘a bayon qilduk. Bu kecha xotirjam Burdaliq sohilinda yotduk.

23-iyunning tongi otdi. Bizim-chun bu kungi tong(ning) eng xavflik, eng dahshatlik edigi aytishindan ma'lum bo‘lub turar edi. Saboh soat 4 da paroxo‘dimiz Karki tarafig‘a qarab ravona bo‘ldi. Yarim soat chamasida yo‘l yurgandan so‘ng o‘ng tarafimizdan tu(r)kmanlar tirboron qilmoqg‘a boshladilar. O‘rtoq Brovin ila o‘rtoq Ivano‘f mening qoshimg‘a kelub «Avloniy, siz borub afg‘onlar ila ul turkmanlardan ahvolot olub kelingiz!» — dedilar. Man mehmon afg‘onlar hamda hindistonlik Zikriyo afandini(ng) olub Abdulmatlab afandiga oq bayroq ko‘tartirub, to‘g‘ri turkmanlarning arkoni harblariga borduk. Bizlarni yirog‘dan ko‘rgan hamon ikki otliq arkoni harbdan chiqub bizim qarshimizg‘a keldilar. Bul kishilarning ikkisi(n)da oltmis yoshla-rinda, qo‘llarinda miltiq, bellarinda qilich turkman beklarindan edi. Otlarindan tushub, bizlar ila ko‘rishdilar. Hol-ahvol so‘rashgandan so‘ng, man:

— Bizlar sizlarga mehmonmiz. Daryo uzorindan Karkig‘a borub, uradan

Afg‘onistong‘a o‘tub ketamiz. Balki sizning askarlarining bizning kimlar ekanlig‘imizni(ng) bilmasdan, balki biz-larni(ng) dushman hisoblab otish ochgandirlar? Turkman beklarindan biri:

— Bolam, siz bilganni(ng) biz ham bilamiz. Bizlar ruslar ila qirq yildan beri yashab do‘sit kelduk. Ammo shul kunlarda oromiz buzuldi. Karkida ruslar bizlarg‘a ko‘b jabru zulmlar qil-dilar, bir necha beklarimizni tutub o‘ldirdilar. Uylarimizni yondirdilar. Bola-chaqamizni ham o‘ldirmoqdan toymadilar. Bizlar insoniyat nuqtai nazarindan bunday xo‘rliqg‘a chidashga toqatimiz qolmadi. Hukumatga qarshu qiyom qilmoqg‘a majbur bo‘lduk. yo najot, yo o‘lim deya ishga kirish-dik. yo ishimizni(ng) o‘ngg‘arub olamiz, yo barimiz qirilub bitamiz.

Man:

— Sizlar Buxoro xonlig‘ina tobe' kishilarsiz. Buxoro xukumati bizlarg‘a ta'minot berub, yo‘lda sizlarg‘a hyech xavf-haros yo‘qdir. Agarda sizlarg‘a biror nimarsa vuqu‘ bo‘lsa, bizlar javobgarmiz, degan edi. Bobo, sizlar nima uchun xonlaringizg‘a itoat qilmaysiz, oq bayroq ko‘ta-rub ketub yotgan bizim paroxo‘dimizg‘a otish ochdingiz? Turkman begi:

— Bolam, bizlar qat‘iyan qaror qilganmizki, Chorjo‘y tarafindan kelgan paroxo‘dni Karkiga o‘tkazmasliqg‘a. Bul xususda Buxoro amirining farmoni bo‘lsa ham itoat qilmasmiz. Bizlar qaydan bilamiz, ehtimolqi, sizlar paroxo‘dda Karkig‘a yordamg‘a o‘q-yaroq olib ketayotgandirsiz.

Man:

— Bobo! Agarda sizlar paroxo‘dda yaroq-o‘q bor deb xavf qiladirgon bo‘lsangiz, ruxsat beringiz, bizlar qayiqg‘a tushub o‘tub ketayluk.

Bek:

— Yo‘q, bolam, daryo ichindan qayiq turub, chibinni(ng) ham o‘tkarmasmiz! Man:

— Bobo! Bo‘lmasa, bizlar Afg‘onistong‘a qandoq qilub ketamiz? Bek:

— Bolam! Agarda sizlar xohlasangiz, sizlar bizlarning mehmonimizsiz. Elchiga o‘lim yo‘q! Sizlarning hammangizni bizlar boshimizg‘a ko‘taramiz. Ot ila, aroba ila bir ko‘ndirub, ertasi kun Afg‘iston chegarasiga yetkurub qo‘yub kelamiz. Agarda bizim so‘zimizg‘a inonmasangiz, xat qilub muhr ham bosub beramiz. Sizlarning birortangizni burningiz qonasa, bizlar javobgardirmiz!

Man:

— Biz ila birga ketub borayotgan bir necha ruslar ham bor, ularga nima deysiz?

Bek:

— Bolam, boyaga senga elchiga o‘lim yo‘q, dedim. Kim bo‘lsa bo‘lsun, bizlardin ayirmasig‘a qaramasdan, necha kishi bo‘lsangiz, hammangizni o‘tkazub yuboramiz.

Man:

— Bobo! Agarda bizlarga to‘g‘ri paroxo‘d ila daryodan o‘tub ketuvga ruxsat bersangiz bo‘lmasmi?

Bek:

— Bolam! Man sanga bog‘ona dedim-ku, hyech mumkin emas. Agarda bizlar o‘tqarub yuborsak-da, yo‘lda boshqalar bor. Alar o‘tkarmaslar. Ushbu yerdan boshlab to Karkig‘acha daryoning har ikki tarafida askar bor. Mutlaqo sizlarni(ng) o‘tkargani qo‘ymaslar. Agarda mening so‘zimg‘a kirmas-dan ilgari qarab yursangiz, bekorg‘a ovora bo‘lasiz. Albatta, biroz yurgandan so‘ng keyin qaytmoqg‘a majbur bo‘lasiz.

Man:

— Otajon! Bo‘lmasa, man sizdan olgan ma'lumotni(ng) paroxo‘ddagi o‘rtoqlarg‘a borub so‘ylayin, onlar nima maslahat ko‘rsalar, shunga qarab ish qilurmiz. Balki tez yana yoningizg‘a kelurman, — deya xayrlashub, paroxo‘dimizg‘a qaytub kelduk. Uradan olingon ma'lumotlarning hammasini kelub, paroxo‘ddagi arkoni harb va

Afg‘oniston hay'ati vakolasin jam' qilub, birin-birin so‘ylab berdim va o‘z fikrimcha, bek boboning so‘zi to‘g‘ridur. Nima bo‘lsa ham qaytmoq maslahat. Menimcha, o‘tib ketmoq mahol ko‘rinur, — dedim, Majlis mening fikrimg‘a qo‘shulmadi. Nima bo‘lsa ham qat‘ian daryoni(ng) yorub, kuch ila bo‘lsa-da, o‘tub ketmoqg‘a qaror qildilar.

Majlis asnosinda ba‘zi o‘rtoqlar (Kazako‘f) bizlarg‘a har nimarsa bo‘lsa ham ish qilub, urishsangiz ham daryodan Karkig‘a bir iloj qilub o‘tushga harakat qilingiz, degan edi. Turkmanlarda nima quvvat bor deysiz. Qars-qurs besh-o‘n o‘q otgan ila bo‘ldi — qo‘ydimi? Nariroq borub to‘pdan, pulemyotdan, bo‘mbamyotdan, miltiqdan bir otish ochsak, turkmanlar o‘zлari qochurg‘a joy topolmay qoladirlar, deya so‘zlagan kishilar-da bo‘ldi. Soat tom bir edi. Paroxo‘d ichida hamma askarlar mukammal yarog‘landilar.

Bizim bu ikki paroxoidimizda bir to‘p, bir pulemyot, bir bo‘mbamyot, yuz kishi internatsional Astriya - Major askarlardan boshqa bizlar ila birga Afg‘onistong‘a ketub borayotgan 11 kishi — firqa oloyi va bir necha paroxo‘d xodimlari, qariyb bir yuz qirq kishi, hammasi mukammal yarog‘landi, To‘p va pulemyotlarning atroflari toylangan paxta ila o‘raldi. Hamma askarlar-da o‘zlarini paxta toyları ila ihota qildilar-da, paroxo‘dimiz xushtagini chal-di-da, «har chi boda bod» deya ravona bo‘lduk. Bizlar borub so‘ylashgon turkmanlar daryoning o‘ng sohilindan kemamiz yiroq o‘ldig‘indan otgan o‘qlari yetushmas edi. Onlar o‘qlarining yetgan-yetmaganiga qaramasdan paydar pay o‘q ravon qilmoqda edilar. Tole‘ga qarshu bizim paroxo‘dimiz borgan sari daryoning siqiq yeriga borur edi. Bora-bora o‘ng tarafdan o‘q yetadirgan yerga borib qoldi.

Soat 3 dan 20 minut o‘tgan edi. Daryoning so‘l sohilindan Oqtepa ismli yerdan qumlik baland-baland tepalar ustidan durbin ila qaralganda, o‘rmalashgan turkman askarlari ko‘rina boshladi. Kemamiz besh daqiqa chamasi ilgari ketgan edi. Birdan o‘ng tarafdan hamda so‘ldan otish ochdilar. Bu nogahoniy ikki tarafdan birdan ochilgan otishning o‘rtasida qolgan bir hovuch inson kattasi o‘zini yiturub, aqlini shoshirmog‘i tabiiydur. Bizim qo‘manda hay'ati bizim tarafdan otish ochmoqg‘a paroxo‘d hushtagini ta'yin qilmishdi. Tole‘ga qarshu birdan bir o‘q kelub kema-mizning par qozonini teshub yubordi. Bir tarafdan do‘l yoqg‘ondek o‘q paroxo‘dning moshinaxonasi-ga qarab kelsa, ikkinchi tarafdan kayut(a)larga qarab chizillab o‘qlar kelmoqda edi.

Paroxo‘dning par qozonining teshiluvi-da bizim uchun bir balo bo‘ldi. Butun kemadagi kishilarning quloqlari(ni) shavullab, garang qilub yubordi. Quloqlarimizg‘a paxta tiqub qo‘ysak-da chidab turmoq imkon xorijinda edi. Shul vaqt ovozi xasta bo‘lgan odamga o‘xhash kemamiz uch marotaba xirillab yubordi. Bizning askarlar tarafindan-da otish dushman tarafиг‘a qarab ochildi. Lekin tole‘ga qarshu ish ishdan kechgan edi. Chunki bu vaqtida o‘rtoq Ivano‘f ila askar boshlig‘i va ulardan boshqa 22 kishi majruh bo‘lub, 3 kishi o‘lgan edi. Bizim kayutamizda bizlar-dan boshqa to‘rt rus, avstriya(li), arman o‘rtoqlar-da bor edilar. Bunlarning hammalari angliski besh otar miltiqlar ila qurollangan edilar. Faqat man ila birodarim Abdulmatlabg‘a vintovka yetushmay qolgan edi. Bu bizim bahodir o‘rtoqlarimiz «Sizlar miltiq otishni(ng) bilmaysiz. Hali qarab turing, bizlar qanaqangi dushmanni uramiz», — deya avvalda

yarog‘langan vaqtlarida maqtanub-da qo‘ygan edilar. «Mard kishi maydonda aylansun» fahvosinchalari, birdan (bir) bizim kayutaning tepasida otishub turgon avstriya(li)ga o‘q tegub, bizning kayutag‘a yumalab tushmasinmu.

Buni ko‘rgan zamon o‘rtoqlarimizning g‘ayrat va bahodirliqlari suvg‘a urub ketdi. Bo‘g‘umlari bo‘shashub, tarvuzlari qo‘ltuqlaridan tushub, ikkinchi miltiqni(ng) qo‘llariga olishga holatlari qolmadi — jur'at qila bilmadilar. Faqat birgina Grisha ismli o‘rtoqdan boshqalari kayutadan yuqoriga chiqmoqg‘a-da jur'at qila olmadilar. Bizning ila birga ketayotgan avstriya(li) do‘qturi-mizda hyech nimarsani(ng) bilmaydirgon, vaqt g‘animatda o‘zining nomin do‘qtur qo‘yub olgon bir kishi ekan. Kayutamizga yumalab tushgan avstriya(li)ning qoni butun xonamizni(ng) qong‘a bo‘yagandan so‘ng, arodan bir soat kechgandan so‘ng o‘larcha mast holatida kelub, bechorani(ng) yarasini bog‘ladi. Yarani(ng) bog‘lagan vaqtida bir fi(l)shir do‘qturimizning kamoli mastlig‘idan qo‘ltug‘idan ko‘ta-rub turardi. Agarda o‘z holina qo‘ysa, yiqilub ketuvi shubhasiz edi. Harna o‘lsa, ish ishdan kechmish edi.

Paroxo‘dimiz borgan sari so‘ng(l) tarafimizdagи dushmanning eng quvvatli otishining ostiga yaqinlasha borur edi. Tole'ning badlig‘ina qarshu shu asnoda bizim paroxo‘dimizning orqasiga bog‘langan barjamizning bir arqoni uzelub, birgina arqoni qolgon edi. Agarda ikkinchi arqoni-da uzilsa, bir kemamiz — qancha asbob, qirq-ellik chamasida odam, bir to‘p, bir bo‘mbamyot dushman qo‘liga tushgan bo‘lur edi. Ish o‘ngidan kelmasa, sho‘yla bo‘lar ekan. Pulemyotimizda «tit-tit» deya uch-to‘rt o‘q chiqorub, bir to‘xtab, tuzukkina otilmadi. To‘pimizda besh-oltidan ortuq o‘q chiqara olmadi. Bo‘mbamyot esa ikki yoki uchdan ortuq o‘q uzolmadi. Tabiiy, inson jonidan umid uzungandan so‘ng ko‘b-da qo‘rqmas ekan. Paroxo‘d ichidagi insonlarning hammasida butun ish qo‘ldan ketganlig‘in sezgan edilar. Paroxo‘dimiz bo‘lsa, qoq dushmanning uyasi bo‘lgan qumlik tepaning tagina borgan edi. Shul vaqt paroxo‘dning ustiga chiqub qarasam, bir-ikki kishi mastsho, hama suvga urub ketubdur. Har zamonda bir bizning tarafda-da o‘q otilub qo‘yadur. Tezdan dushman qo‘lig‘a hamma-mizning asir tushajagimiz muqarrar edi.

O‘rtoq Grishani(ng) chaqirub dedimki, «o‘rtoq Brovin qayu yerda bo‘lsa, borub ayt. O‘rtoq Ivano‘f majruh bo‘lub, o‘zi ila o‘zi ovora. Avloniy aytadurki, tezlik ila siz rasfarajeni qiling. Paroxo‘d keying‘a qarab qaytmasa, qolganlarimizdanda ayrilamiz», — degil deya o‘rtoq Broving‘a o‘rtoq Grishani yubordim.

Tezdan o‘rtoq Grisha «Sening so‘zingni borub o‘rtoq Broving‘a aytdim, maqbul bo‘ldi. Paroxo‘dning qaytmog‘iga buyruq qildi», — dedi. Demak, paroxo‘dimiz sekin o‘ng tarafina burilub, suvning oqishiga qarab, ma'yusona ravona bo‘la boshladi. Harif dushman qaytsak-da, otishni shid-datlandirur edi. Soat 4 dan 30 daqiqa o‘tgan edi.

Demak, ma'yusona bir suratda keyin qarab chekildik va dushmanning otgan o‘qlarining aksari «razrivnoy» bo‘lub, oxirgi vaqtarda ko‘broq «boevoy» o‘q yog‘dira boshlagan edi. Tabiiy, dushman tarafida-da zoe'ot bizim tarafdan ikki hissa hisob qilinurdi. Dushman bizning keyin qarab qaytuvimizdan istifoda qilub, yarim soat-lik yo‘lg‘acha otish ila kuzatub keldida, jim bo‘ldi. Demak, bu bizim ko‘hna paroxo‘dimiz dushman-ning to‘rt soatlik yog‘dirgon o‘qiga chidash berdi. Oling‘on ma'lumotlarga binoan, dushman tarafinda rus ofisarlari o‘lmak ila barobar inglislagentlari-da borlig‘i ma'lum bo‘ldi.

12-mavzu. Abdurauf Fitrat – yangicha adabiy tafakkur asoschisi. Fitratning she'riy, nasriy va dramatik asarlari tahlili.
TARQATMA MATERIAL

Yurt qayg‘usi (ona bilan o‘g‘il)

— Ona! Nechungina yig‘laysan? Bugun saodatga erishdik, yana qayg‘urasanmi? Bugun o‘z tilagingga yetishding, ko‘z yoshlaringni to‘kadirsanmi? Emdi qayg‘urmoq chog‘i bitdi, yig‘lamoq pallasi yo‘q bo‘ldi, rohat kunlaring yetishdi, onam!

— Oh... o‘g‘lum, arslonim! Mustabid hukumat uyimni talatdi: buyuk binolarimni yiqitdi: suyukli o‘g‘lonlarimni o‘ldurdi.

Tahammul etdim, sabr qildim, kimsaga bir og‘iz so‘z bu to‘g‘ridan ochmadim. Negakim, qo‘llarinda qilich, o‘muzlarinda to‘fang, mani o‘ldirmoqqa hozir edilar. Dunyoning mukofot ekanligin bilgan edim.

Bilar edimki, bu zolimlar bir kun qilg‘on zulmlarining mukofotini ko‘rarlar. Bilardimki, to‘kilgan qonlarning har bir tommasidan biror arslon yaratilub bunlarning qonlarini icharlar.

Ko‘zlar ko‘r, qulqlari kar bo‘lib onalarini tonimaydilar, yuragimni teshadirlar, bag‘rimni parchalaydilar. o‘zlarini tar-biya qilib yetishtirgan onalarini yo‘q bo‘luviga sabab bo‘ldilar. O‘ylamas o‘g‘illarim butun bir qutimni yotlarga talatib, nomusimni g‘ayrilarning oyog‘i ostinda oldilar. Bo‘yla onalarig‘a dushmanliqlari o‘z boshlarig‘a yetdi, bukun ko‘rub to‘rg‘on mukofot u qilg‘on zulmlarig‘a qarshi edi.

Shu davlat, shu g‘ururlariga mast bo‘lg‘on xoinlarning kasofati tegdi. Butun uyimni yondirdilar, yuragimdan alangalar chig‘a boshladi, buyuk binolarim yonib bitdi. Go‘zal-go‘zal masjidlarim kul bo‘ldi. Zolimga qarshi otilegan to‘plar manim tom yuragimni teshdi, u mustabidlarga qarshi otilegan to‘fanglar mani xavfga soldi. Nima qilayin, oh, minglarcha gunohsiz ma‘lum o‘g‘lon-larimni nohaq yerda qonlari to‘kildi, qancha onalar bolasiz va necha o‘g‘lonlar onasiz qoldi.

— Onajonim! Yig‘lama, dushmanlar mahv bo‘ldi, u mustabid qon ichuvchilar bitirildi. U mustabidlari qo‘lindan ochilg‘on yaralaringni tuzatmak uchun do‘qturlar hozirlanib, zahmlar tuzatildi.

Emdi yig‘lama. Saning saodatingni chin ko‘nguldan istab yurg‘on bolalaring holingni so‘rg‘ali keldilar. Tur! Yig‘lamoq o‘rnida bir oz kul.

— Oh, arslon o‘g‘lonlarim! Emdi chin suyukli o‘g‘lonlarimni quchog‘inda yotayin. Oh, men sizni bu kunlarim uchun yetishtirgan edim. Manim emkanib tarbiya qilg‘on choqlarimni esingizdan chiqarmaysiz.

Abdurauf Fitrat
«Buxoro axbori» gazetasining 1920-yil 5-oktabr sonida bosilgan

Musulmon sevgisi

Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning qilgan g‘azotlaridan biri tugagach, bir musulmon xotin tushib qolgan yaradorlarni izlab topmoqchi bo‘ldi: o‘liklar orasiga kirdi. U yon-bu yonni izlar chog‘da “Oh... suv!..” degan bir tovush eshitdi. Bir yarador musulmonning suvdonini ko‘rdi.

Ozroq suv topib shu yaradorning oldiga keldi. Boshini astagina ko‘tarib, suvni ichtirmoqchi bo‘ldi. Yarador musulmon dudog‘ini suvgaga yetkuzar chog‘da boshqa yoqdan “Oh... suv!..” degan o‘zga bir tovush keldi. Yarador suv keltirgan xotinga dediki:

- Bu suvni mendan burun shu tovush egasiga eltidib ber. Bir yo‘ldoshim yaralanib suvsab yotar ekan, men icholmayman.

Xotin suvni ikkinchi yaradorga olib bordi. U ham suvni ichayin deb turgan chog‘ida “Oh... suv!..” degan yana bir tovush eshitdi, xotinga dediki:

- Shu yo‘ldoshim suvsiz ekan, men icholmayman, ber suvingni shunga.

Xotin suvni uchinchi yaradorga yetkazdi. U suvni ichayotganda birinchi yaradorning “Oh... o‘oldim... suvsizlikdan” degan tovushi keldi. Bu ham xotinga:

- Suvingni mendan burun shu tovush egasiga ber! – dedi va o‘zi ichmadi.

Xotin yana qaytib birinchi yaradorning oldiga kelsa, bechoraning o‘lib yotganini ko‘rdi. Ikkinchi yaradorning oldiga bordi, u ham o‘lib yotgan ekan. Uchinchi yarador ham suvsizlikdan o‘lib qolmasin deya yugurib ketdi:

- Ey, voh!.. Bu ham o‘lib qolibdi! – deb suvni to‘kdi.

Musulmonlarning o‘lim chog‘ida ham bir-birlarini qanchalik sevishlarini o‘ylab ko‘z yosh qildi.

Abdurauf Fitrat

“O‘qi” kitobi, Boku, 1917 yil

Tilimiz

Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so‘zning to‘g‘risi shudir. Dunyoning eig boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili yonaho‘l (yana shu) turkchadir. Boylarning baxtsizligi sovet hukumati chog‘inda bo‘lg‘on bir ishdir, bundan burun baxtli edilar deganlar tilimizning holini bilmasdan gapiralarlar.

Bir tilning boyligi u tildagi so‘zning ko‘pligi (kasrati kalimot), undirlik (undirish) kengligi (vus’ati ishtiqoq), yusup tugalligi (mukamalliyati qavodd) bilan bo‘lur. Turkchada so‘z ko‘pligi bormi?) (Arabchilarimizcha aytganda, kasrati kalimot mavjudmi? Bu so‘z bukun emas, necha yuz yil burun o‘rga chiqmish, deya Navoiyning kitobi turkchaning boyligini ochibgina bildira olmasa ham, turkchada so‘z ko‘pligini yaxshi biladir. Navoiy yolg‘iz yig‘lamoqning turlarini ko‘rsataturg‘on turkcha so‘zlarning shunchasini yozadir: Ingramoq, singramoq, ingichqirmoq, yig‘lamoq, yig‘lamsinmoq, o‘kirmoq, siqtamoq.

Mana sizga bir hodisaning yetti turi uchun otkim, oralarinda ingichka ayirmalar bordir. Turkchada bu hol oz emas. Arabcha nufuz, murur, ubur; u to‘g‘risinda turkchamizda o‘tmoq, kechmoq, oshmoq, ortonmoq bor. Arabcha qand, azm, amal, qarshusinda turkcha tilak, istov, orxan bor. Arabcha zarf yoninda turkcha idish bor, sovut bor. Arabcha fanda manfaat o‘rninda turkcha tosix bor, unum bor. Arabcha qalb o‘trusinda turkcha yurak bilan ko‘ngul bor. Arabcha sadr uchun turkcha ko‘ks va ko‘krak bor. Turkcha lug‘at yozmoqchi bo‘lg‘onimda, turkcha so‘z boyligi to‘g‘risida bundan ortiq yozolmayman. So‘zni turkchada undirik kengligi (ya’ni vus’ati ishtiqoq)ga ko‘chiraman. Ilm ishining turkchasidan undirilgan so‘zlar shulardir: Bil, bilgay, bilajak, bilgusi, bilar, bilsa, bilsa-chi, bilay, bildi, bilibdir, bilgan, bila boshladi, bila yozdi, bila

oldi, bila turdi, bila berji, bilib, bilgach, bilgali, bilmak, bilish, biluv, bilmov, bilim, bilgi, bilik, bilmas, bilmaslik.

Mana sizga yolg‘iz fe'llardan 13 fe'l, qo'shma fe'llardan 6 fe'l. Qo'shma fe'llardan har birining buyrug‘i bo'lishi (fe'lning bo'lishlilik kategoriyasi), Holi, kelajagi, sharti, qo'zg‘ovi bor. $13*6=78$ bo'lur. Bunlarga uft (fe'llari — fe'lning zamon kategoriyasi), vaqt, sabab fe'llari qo'shilsa, 81 ta bo'lur. Bunga Ism va sifat yozilg‘on 18 qo'shilg‘onda 99 so'z bo'lur. Bu 99-tasidagi so'z tollug‘i (o'zak ma'nosida) buyruqdir (ya'ni bil so'zidir). Demak, turkchada bir tomirdan 98 so'z undiring emish. Emdi yusup tugalligiga (mukammaliyati qavoidga) boqaylik.

Arab, fors, rus, nemis, frantsuz tillaridan qay birining sarf (grammatika) kitoblarini olib qarasak, ko'ramizkim, bir so'zni yasamoq uchun bir qancha yozilg‘on, undan so'ng shul qoidadan tashqari qolq‘on (mustasno) so'zlar deb to'rt-besh so'z ko'rsatilgan. Turk so'zlarinda esa, bunday so'z topilmaydur. Yusupsizlik degan hollar turkcha sarfda sira yo'qdur. Tilimizning avji to'g‘risida ham boyligi, tugalligi bilindimi? Emdi so'zni turkchaning baxtsizlikdan qutula olmamishdir. Turk tili dunyoning eng baxtsiz tilidir. Turkchaning baxtsizligi arab bosqini bilan bog‘lanmishdir. Arablar bosdiqlari (bosib olgan ma'nosida) o'lkaga yolg‘iz hukumatlarini emas, dinlarini, yo'sinlarinida tanitg‘on, oling‘on edilar.

Musulmonlikning tubi, tomiri qur'on bilan hadisdir. Shuning uchun yangi musulmonlar arabcha o'rganishni o'zlariga vajob deb bildilar, o'qidilar, o'rgandilar, sevdilar. Bundan keyin forscha va turkcha arabcha bo'g'uviga kirib qoldilar. Fors tilining hol butunlay yomonlashdi. Forslar o'z tillarini tashladilar. Yolg‘uz kitoblarini emas, o'zaro yozuvlarini ham arabcha yoza boshladilar. Lekin bu ish ko'p cho'zilmadi. Fors tili bir silkinish bilan o'zini arab bo'g'uvidan qutqara oldi. Fors tilining bu silkinishi Eron shoiri Firdavsiyning arabchalikka qarshi qaynag‘an, qizig‘on eronli bir millatchi edi. O'ttiz yil tirishdi, dongli «Shohnoma» kitobini yozib chiqardi. «Shohnoma» yozib chiqaruvdan Firdavsiyning ikkita tilagi bor edi: Eron ulusining arabdani sovutib, eronli tuyg‘usini bermak va arab tilini Erondan surib chiqarmoq. Shuning uchun «Shohnoma»ning har bir yerinda eronlini maqtagan shoir arablikka kelganda:

Zahir shutur xo'r dan susimor,
Arabro bajoyi rasidast kor,
Ki taxti Kayanro ko'nad orzu,
Tufu, bar tu, charx kardan tufu! —

deb qiyqirmishdir. Bu so'zlarning turkchasi shudir: Tu suti bilan ilon eti yemakdan boshqa ish bilmagan arabning ishi, shu yerga chiqmishkim, Eron imperatorining taxtini istaydilar. O, shu ishga sabab bo'lgan falak, tufu senga, tufu!

Yana shuning uchundirki, Eronda arabcha hokim bo'lg‘on ir zamonda yozilg‘on «Shohnoma»da arabcha so'zlar yo'q darajada ozdir. Firdavsiy bu ikki tilakni bilib, onglab, ishga kirishganini bildirmakchi o'lib, yozadirkim:

Bas, ranj burdam soli si,
Amam zinda kardam ba dini forsiy —

demishdir. Turkchasi: Bu o'ttiz yil ichida ko'p emkardim (azob chekmoq), Eronni forsicha yozganim shu kitob ila turgizdim, demakdir. Forsi ishda shunday qilib yoqasini qutqormish. Lekin, bizning baxtsiz turkchamiz bir Firdavsiy yetishtira olmamish.

Dunyoning eng boy tili bo‘lg‘on turkchamiz yolg‘uz arabcha qumruqlar (zug‘um) bilan emas, forsicha tepkilari bilan dahi ezilmishdir. Ko‘zlarimizni to‘rt ochib qaraylik, dunyoning eng buyuk hakimi bo‘lg‘on Ibn Sino turkdir. Ikkinci Arastu atolg‘on Forobiy turkdir. Arab tilini mangulik tirdizib kelgan Javhariy turkdir. Vahdati vujud falsafasining imomlaridan o‘lgan Jaloliddin Rumiy turkdir. Forsiy adabiyotning payg‘ambarlaridan bo‘lgan Nizomiy dahi turkdir. Shu yerda otlari yozilg‘on kimsalarda yolg‘uz turk ulusini emas, butun dunyoning ulug‘ kishilarindan erurlar. Ikki turk ulusi bunlarning asarlaridan osnilonolmay (ajralmoq) qolmish, balki o‘zlarini ham yaxshigina taniyolmay qolmishdir. Bunlari o‘z biliklarini turkcha yozsalar edi, bukun turk ulusining holi ehtimolki boshqa turli bo‘lar edi. Baxtsizlik bundanda ortiq bo‘lurmikan?! Turk o‘g‘li turk bo‘lg‘on Mahmud G‘aznaviy Firdavsiyni chaqirib, turk ezilishini ko‘rsatgan «Shohnoma»ni yozdursun, deya har yo‘liga bir oltun bersun. Shu baxtsizlikdirki, turk o‘g‘li bo‘lg‘on usmonli hoqonlariga o‘z tuyg‘ularini forsicha she‘r bilan so‘y latmi iedir.

Yana shul baxtsizlikdirkim: Kafkaziya turklarining Qalarin tutmish deya fors tilining hurmatiuchun sakson yorinda so‘zi o‘rnida hashtot dedirmishdir.

Turkcha baxtsizdir. Ming yildan beri ezila kelmishdir. Lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir, yashar. Negakim, boydir. Turkcha yashamishdir. Yashar, lekin o‘zini arab, fors tillarindan qutqara olurmi, yo‘qmi? So‘zni bu yerga yetirgach, barmog‘imni yaraning o‘zagina bosmnsh bo‘ldim. Bu surdig‘img‘a ikki turli javob kelari belgilikdir. Ha, yo‘q. Emdi shu yo‘q deganlar bilan yurishaylik. Bunlar deyalarkim, turkcha arab fors tillarindan qutulolmas, nechun? Mana dalillari: a) chunki, arab, fors tillari boydir. Bunin javobini berdikkim, turkcha ham boydir. Chunki, bukungi turk dunyosining bilimli ulug‘ yozuvchilari shu yo‘lga kirmishdir. Bunga javob beramizkim: Turk dunyosining ulug‘ hakamlari bo‘lg‘on Forobiy bilan Abu Ali o‘z asarlarini arabcha yozorga qo‘l qo‘ygan edilar. Siz nechun ularning izidan chiqdingiz? Siz Abu Ali ning izidan chiqqanda, bizda sizning izingndan chiqqa olsak kerak; v) chunki, tilimizda ko‘p narsaning oti yo‘qdir. Javobimiz: Bu so‘zdan tilagingiz nimadir? Shul choqda tilingizdagい arab, fors so‘zlarining turkchasi topilmaydur demoqchi bo‘lsangiz, so‘zingiz yanglishdir. Turkchani bilmas ekansiz. O‘rganing.

Hozirgi so‘zlarimizdagи arabcha, forskalardan bir nechasi uchu turkcha topilmaydir, desangiz to‘g‘ridir. Biz ham ularn chiqarmoqchi emasmiz. Unlarni olurmiz, lekin o‘zi mizniki qilurmiz. Turkchalashtirurmiz. Qoidaning turkchasi yo‘qdur. Sarfningda turkchasin topolmadik Ikkisin dahi olurmiz. Lekin, siz kabi Qavodi sarfiya demasdan, Sarf qoidalari dermiz: ye) chunki, ilmiy istilohlarning turkchasi yo‘qdir. Kim dedi buni? Shamsning turkchasi quyoshdir. Kavokibning turkchasi yulduzlardir. Me’onorining turkchasi suyuq o‘tdir. Sahobi ma’ni—yorug‘ bulut, handasa — o‘lchov xat chiziq, zoviya — burchak, puchmoqdir. Kavohi sobita turg‘uvchi yulduzdir. Kavkabi zuzaib — quyruqli yulduzlardir.

Tuzuk, bir necha istilohlarning turkchagini b, kungacha topolmag‘onmiz, ularni saqlarmiz. Chunki, turkchamiz qabo (orqada)dir, do‘qqi (qo‘pol), adabiyot tili emasdir. So‘z bu yerga keldimi? Chidamoq qo‘ldan kelmas. Qabolik, do‘qqilik ko‘rsatmoqchi bo‘lib deymizki: Siz ulusingizni sevmaysiz. Shuning uchun turk ulusi va turk tilining siz bilan ishi yo‘qdir. Qarshingizdagи kishilar bu so‘zni eshitib o‘tirmaslar, qilarini qilarlar. Men ulusimni jonimdan ortiq sevaman derlar. Bunlarning mana shu so‘zları ko‘muchdir, (yolg‘on). Tushungizda siz bir xotinni sevsangiz, tirishib, jon chekishib,

kuch bilan uyiga kiribsiz, yoniga suqlgandan keyin, yuziga qarab: Men syzni ko‘p sevaman, siz ko‘n chiroylisiz, lekip shu ko‘zingiz ko‘p do‘qqidkr, shuni chiqarib tashlang, burningiz yomon is beradir, shuni kesib oting, desangiz sevgilingiz bo‘lg‘on xotin ikki-uch tayoq urib sizni quvmasmi? Albatta, quvar. Turk tilini sevamiz, lekin tili qabodir, musiqasi totsizdir, tarizi qorong‘udir, deganlarning ham bir-ikki tayoq yeb, quvilmoqlari kerakdir, lekin, turk tili baxtsizdir.

«Ishtirokiyun» ro‘znomasining 1919 yil 12 iyundagi 32 soni.

She'r va shoirliq
(Adabiy mubohasa)

She'r va shoirliq degan so‘zlar bizda yangig‘ina bir narsa emas. Turk ulusi o‘z borlig‘ini ochung‘a ko‘rsatkali she'r va shoirliqni bilibg‘ina kelganlar. Har kim ishonadirkim, turk ulusining borlig‘i va madaniylig‘i arab kelgach boshlanmagan. Turklar Oltoy tegrasinda madaniyat qurub, hukumat yasab, tinchgina yashab turg‘anda arablarning Arabiston dag‘i hollarini, ehtimolkim, o‘zлari ham bilmas edilar. Madaniy bir ulusning she'rsizlig‘in so‘ylamak esa, gapurub turg‘an bir kishining jonsizlig‘ina ishonmoq kabi kulinchdir. «Turklar musulmonliqdan burun ham buyuk madaniy dong‘li bir kun kechirganlar». Mana bu so‘zni qabul qildikmi, «Turklarning musulmonliqdan burun ham she'rlari, shoirlari, adabiyotlari bor edi» demakdan o‘z boshimizni qutqara olmaymiz. O‘zbek, totor, qirg‘iz, turkman orasinda turk odi kabi unutilmas bir yo‘sunda bu kungacha yashab kelgan cho‘bchaklar, matallar, ertaklar, o‘lan va laparlarning har birini eshitib yuramiz. Turkman, qirg‘iz ellarindag‘i navras kishilari, kichkina bolalar, o‘quv, yozuv bilmag‘an xalqning qizlarining so‘z ustaliqlari borlig‘ini bilib turamiz. Mana shunlarning har biri turk eski adabiyot madrasasindan tushub qolg‘an baholi toshlardan boshqa narsa emasdir. Ulus ora og‘izdan-og‘izg‘a aylanib yurg‘an cho‘bchaklardan yaxshig‘ina onglashilurkim, turk eski adabiyot madrasasinda sevgi va oshikdan boshqa falsafa, hikmat va axloqdan ham ko‘b narsalar bor ekan.

Esiz, minglarcha esizkim, arab kelgani sababli eski turk adabiyotining buyuk va baholi izlari so‘lindi, yo‘qoldi ketdi. Ziyrak, tirishg‘an, chidamli, ongli har ishning ketini tushungan arablar qaysi o‘lkani bosib olg‘anda eng ko‘p shul o‘lkaning eski dini, eski tili, eski bitiklari, eski asarlarini bitirurg‘a tushar edilar. Biz turklar arab bosqini bilan o‘z harflarimiz va o‘z yozuvimizni yo‘qotg‘andan keyin o‘z adabiyot va she'rlarimizdan ham ayrilishimiz tabiiy edi. Mana shul ayrilish sababli ko‘b kerakli narsalarimizni yo‘qotdik. Eski adiblarimizning she'r va shoirliq to‘g‘risida qanday yo‘llari, qanday qarashlari bor edi, bunlarni bilmaymiz. Bunlar yo‘qolg‘an, qo‘limizdan chiqg‘andir. Eski turk adabiyoti to‘g‘risida ochiq va yetarlik bilgilarimiz yo‘kdir. Adabiyotimizning ikinchi bo‘limi musulmonliqdan boshlanadir. Adabiyotimizning bu bo‘limi uchun kerak bo‘lg‘an negizlar va tamallarni bizga Eron orqali arablar yuborg‘anlar. Biz musulmonliqdan so‘ng adabiyot yo‘llarini iyaruchiliqdan sira qutultira olmag‘anmiz, adabiyot yo‘llarinda eng katta hunarimiz ko‘prak eronlilarg‘a, undan keyin arablarga iyarmak bo‘lg‘an. Adabiyot yo‘llarindag‘i bu iyaru-chilig‘imizning ko‘zga ko‘rinur yerlarini chizib o‘taylik.

So‘nggi arab adiblari she'rni «kalamu muvazzanin muqaffanin» deya ta'rif qila(r) edilarkim, «vaznli, qofiyali gap» demakdir. Bizning shoirlarimiz ham she'rni shul bino qabul etdilar. Shuning uchundirkim, «vazn» va «qofiya»si bo‘lg‘an turli ma'nisiz so‘zlarning sharafina ishong‘an sayin she'rning haqiqatindan uzoqlashib qoldilar. yetti-sakkiz so‘zni bilgili bir vaznda tizib, ketinda bilgili bir so‘zni qofiya qo‘ymoq bilan she'r orasinda yerdan qo‘kkacha ayirma bordir. She'rda kishilarning qonini qaynatg‘uchi, singirlarini o‘ynatg‘uchi, miyasini titratkuchi, sezgusini qo‘zg‘atg‘uchi bir kuch, ma'naviy bir kuch bor. Shunday bir kuchi bo‘lmag‘an so‘z vazn va qofiyasi bo‘lsun she'r bo‘la olmaydir.

Yuqorida dedikkim, she'rni «vaznli, qofiyali so‘z» deb ta'rif etkanlar. Arabning so‘ng adiblari deydirlar: bu so‘z to‘g‘ridir. Arabning yasama shoirlari bo‘lg‘an mantiq ilmlisi she'rni yanglish yo‘lda ta'rif qilg‘anlar. Arablarning chin va tabiiy shoirlari bo‘lg‘an johiliyat shoirlari esalar, she'rni bu ma'no bilan onglamag‘an edilar. Tarixi islomni o‘qug‘an maktab bolalari ham bilarkim, arablar Qur'on oyatlarina qarshi «huva qovlu shoir» (va shoir so‘zidir, she'rdir) degan edilar. Qur'on «Va ma huva biqovli shoir» (bu shoir so‘zi emas, she'r emas) deb so‘zlarini qaytarg‘an edi. Tabiiy shoir bo‘lg‘an johiliyat shoirlari she'rni «vazn» va «qofiya»li so‘z deb bilg‘an bo‘lsa edilar, «vazn» va «qofiya»si bo‘lmag‘an Qur'on oyatlarini «she'r» demas edilar. Biz ham she'rni «vazn» va «qofiya»dan iborat (deb) bilib turg‘ancha chin she'rg‘a yaqinlasha olmaymiz. Talabimiz qilg‘an kabi «sharob, jom, xumor, hol, xat, qosh, ko‘z, gul, bulbul» singari o‘n-o‘n besh so‘zni bilgili vazn tizib, «ol, hol, xol» kabi so‘zlarni «qofiya» qilarmiz-da, o‘zlarimizni she'r yozg‘an atab o‘tub ketarmiz. Holbukim, she'r boshqa, «qofiya» bilan «vazn» boshqadir. O‘yla esa «she'r» nadur?

Bilasizkim, har birimizda jon va ongimizni telegramizdag‘i narsalar va hodisalardan chorlandurub turg‘uchi «besh sezgich» (havvoi xamsa) bordir. Jonimiz shul besh sezgich orqali dunyoning o‘z telegramizga erishkan narsa va hodisalarni bilib tura(r) va har birisindan qayg‘i, sevinch, qo‘rquv, qizish, qaynash kabi sezgi va tuyg‘ilar oladir. Qishning qorli sovuq bir kunida yirtiq choponli, ko‘k betli, oq soqolli bir tilanchi boboning o‘rnida yiqilib qolq‘anini ko‘rganda yuragimiz sezgisiz qolarmi? Shundayoq yop-yolg‘uz bu yo‘lda bir kishining yaralarig‘a o‘ralib, qonlarig‘a belangan o‘lukni qo‘yub qochar; biri o‘lukning boshig‘a tutub, uning bo‘yalib yotqon gavdasini qo‘rganda har kim o‘zig‘a yarasha bir narsa sezar: biri buyuk bir qo‘rquv bilan holig‘a yig‘lar; biri chuqur qozib ko‘mar; biri esa ul yarali gavdani ko‘rgach, qoni qaynab ketar. Bu ishni qilg‘an vijdonsiz yirtqichlarni topub o‘ldirmak uchun har yon chopar. «She'r» yurakimizda hosil bo‘lg‘an ana shunday sezgilarni hunarlicha so‘zlar bilan boshqalarning yuragiga o‘tkarmakdir. Shoir tegrasindag‘i narsa va hodisalardan oldig‘i sezgilarni hunarlicha (xidmatkorona) so‘zlar bilan boshqalarg‘a o‘tkarmakchi bo‘ladir. Kishining yuragi qancha «sezag‘on» (mutaxassis) esa, shuncha yaxshi shoir bo‘lar. Shoirliq uchun yuraqda bir sezgi va u sezgini hunarlicha so‘zlar bilan boshqalarg‘a o‘tkarguchi bir kuch kerakdir.

«Qofiya» bilan «vazn»ning esa, she'rning haqiqatig‘a ta'siri yo‘kdir. Bir necha kishilar she'r uchun «hunarlicha so‘zlar»ning ham teyishligini inkor qila-lar. «She'r yuraqdagi sezgi to‘lkunlarini so‘z orqali tashqarig‘a to‘kmakdir» deydilar. Bu qarash bir oz ifrotdir. She'rning bir san'at bo‘lg‘anligini qabul etkandan keyin bu qarashning ahamiyati qolmas, ayniqsa, biz kabi «chin she'r va san'at» ochunindan uzokdashg‘anlar esimizga kelgan har bir so‘zni «yurakimizdagい sezgi to‘lqunlari» gumon qilib

tashqarig‘a ota bersak, Tangri ko‘rsatmasun, o‘quchilarimiz qocharg‘a yo‘l topolmay qolarlar..!

She‘r iki turlidir: manzum she‘rlar (tizim she‘rlari), mansur she‘rlar (sochim she‘rlar). Tizma so‘zlar bilak she‘r so‘ylamak bo‘lg‘ani kabi sochiq so‘zlar bilan ham she‘r so‘ylamak bo‘lar. Sochiq she‘rlar (mansur she‘rlar) uchun «vazn» va «qofiya»ning teyishligi bo‘lmasa ham so‘zlarning hunarlicha (san’atkorona) bo‘lishi teyishdir.

II

O‘tkan maqolamizda she‘rning «nimaligi»ni (mohiyatini) aytkandan keyin iki turlilagini ko‘rsatdik. Iki turli she‘rdan sochim she‘r to‘g‘risida qisqag‘ina gapurub, tizim she‘r to‘g‘risindag‘i so‘zni ikinchi maqolag‘a qo‘yg‘an edik. Tizim she‘rlarining oydin va ochiq bir sifati «vazn» bilan «qofiya»dir. Birinchi maqolada «vazn bilan qofiya-ning she‘rni o‘qiturg‘a ta’sirlari yo‘qdir» degan edik. Bu yerda esa, tizim she‘rda vazn va qofiyaning kerakligini so‘ylarmiz. Vazn bilan qofiyaning she‘rg‘a ta’siri yo‘qdir, vazn va qofiyasi bo‘lmaq‘an ko‘p she‘rlar bo‘lg‘ani kabi «she‘r» bo‘la olmag‘an vaznli, qofiyali so‘zlar ham ko‘pdir. She‘r yurak sezgilarini ko‘rsatmakdir. Vazn va qofiya esa, so‘zning «bezagi» (ziynati)dir. Yurakimizdagи sezgilarni to‘g‘ri bermakchi bo‘lsoq qofiyasiz, vaznsiz bir she‘r (sochim she‘r) yoziladir. She‘rimizni bezamakchi esak, vaznli, qofiyali she‘r (tizim she‘r) yozarmiz. Vazn va qofiya yurakimizdagи sezgilarimizni tasvirlay olmaydir; sezgilarimizni tas-vir etuchi so‘zlarimizni bezaydir (ziynat beradir); sezgilarimizni boshqalarg‘a o‘tkarmak uchun aytildi‘usi so‘zlar vaznli, qofiyali bo‘lg‘anda musiqa ohangini berib tura-dir, shuning uchun quloqqa yoqimliroq keladir.

Qop-qorong‘u bir kechada boshqa birisining puchmog‘inda sevgilisini ko‘zlab turg‘an bir kishi shamolning esishi bilan yaproq va butoq tebranishlarindan chiqqan mungli musiqaga iyarib bir she‘r aytadir. Bu she‘rning yetti-sakkiz so‘zi bir vaznda tizilgan, bir vaznda ko‘ringan har so‘z turkumining og‘ir nido - quloqg‘a bir turligina ta’sir beruchi so‘zlar qo‘yilsa, ul she‘rning ta’siri, albatta, yaxshiroq bo‘lar. Mana she‘rda vazn va qofiya bezagi (ziynati) shudir.

Endi muslimmonliqdan so‘ngra turk shoirlarining qabul etdigi vazng‘a boqaylik. Turk shoirlarining muslimmonliqdan so‘ngra qabul qilg‘an vaznlari tubda arab vaznidir. Eronlilar bu vaznni arablardan qabul etib olg‘andan keyin o‘z she‘rlarini o‘ynoqi va nazm ruhig‘a ko‘ra o‘zgartkanlar, isloh etkanlar. Bu kun bizning oramizdag‘i «vazn» shul eronlilar tomonidan o‘zgartirilgan vazndirkim, arab vaz-nindan bir oz ayirmasi bordir. Dunyo sahnasinda «iyaruv-taqlid»ning ro‘lini hyech bir millat biz turklar kabi ado eta olmag‘andir! Biz qaysi bir millatning qaysi bir narsasiga taqlid etmakchi bo‘lsak, o‘zimizning milliy ruhimizg‘a qaramasdan taqlid etamiz. Arablar qaysi bir ulusdan qaysi bir so‘zni olg‘anda o‘z shevalarig‘a ko‘ra buzub olg‘anlar. Bir arabni o‘ldirsangiz (ham) «Petrog‘rad-Petas-burg» demaydir. «Bitrojrad-Bitrasburj» deydir. «Fransik» demaydir «afranj» deydir va, shunday qilib, o‘z tilining istiqlolini saqlag‘an bo‘ladir. Arablarga iyarmak bilan maxtanib yurgan bizlar esak, arabning bu yaxshi qilg‘ina butun qarshi ketamiz.

Tilimizg‘a ko‘b qofiyali arab so‘zini emas, uning imlosini ham o‘z so‘zimizning imlosiga qarab o‘zgartmakni «farz» deb bilamiz! Eronlilar arab so‘zini o‘z tillarig‘a qarab o‘zgartkan ekanlar, biz eronlilardan she‘r vazni ostida o‘z ruhini emasda, tilimizdan chiqarg‘an yerinda she‘r vaznida bo‘lsa; biz she‘rning o‘zini olganmiz (yashasun taqlid!). Holbukim, eron vazni bilan turkcha she‘r yozub turk ulusig‘a

o‘qutmoq mumkin emasdir. Forsi(y)cha dunyoning eng o‘ynoqi va nozli so‘zlaridandir. «Vazn» chanbarinda teatru sahnasindag‘i qizlar kabi o‘ynab turadir. Turk so‘zi esa, og‘ir, viqorli, gavdalidir. «Mafo‘ylun, mafo‘ylun» chanbarinda o‘ynab turmoq nari tursin, vaznga kira olmaydir, sig‘maydir. Eron vaznida turkcha she'r yozg‘anlar iki turli ishka majbur qolalar. Birinchisi, she'r orasinda ko‘brak arabcha so‘zlar kirguzalar. «Mafo‘ylun» vaznni turkcha so‘zlardang‘ina to‘ldura olmaylar. Ikinchisi, vazn raiysi bilan turkcha so‘zlar-ning gavdasini buzarlar, eron vaznida she'r aytqon butun turk shoirlari shul iki kasalga tutilg‘anlar, birortasi ham qutula olmag‘an. Turkcha she'rda arabcha, forscha so‘zlar kirguzgan turk shoirlarimyzning har holda bilgili bir yo‘llari bor edi. Undan ham so‘zning ma'nisini anglab o‘z yerinda qo‘ya(r) edilar. Hozirg‘i shoirlarimiz esalar, bus-butun yo‘lsiz va qoidasiz keta(r)lar. Netaykim, nurli shoirlarimizdan biri «yozuvchilar uyushmasi»ga bir she'r yozmish. She'rnint birinchi misra'(s)i shudir:

Kuch bilan bosg‘an yo‘lingu millata «rohi alhamdu».

Shu she'rdagi «rohi alhamdu» so‘zig‘a ko‘nmasak mumkin bo‘lmaydir, «roh» forsi(y)cha bir so‘z, «hamd» arabcha so‘zdir. «Al» so‘zi arabcha «izofa» qoidasig‘a qarshi birlashdirishdir. O‘z tillarini «aslan anglash sharqiyada matlabdir» degan bir qism isloh shoirlari ham bo‘yla bir ishka kulibgina qaraydir.

Turkcha so‘zlarning gavdasini buzmay olmoqg‘a ko‘b ti-rishkan shoir Navoyidir. Navoyining she'rlarinda gavdasi buzilg‘an so‘z oz ko‘rinadir. Demak, Navoyi hazratlari bu ishning sovuklig‘ini onglamish, biroq o‘zini butun qutqara olmamishdir. Misol aytib, Navoyining shul she'rini ko‘rsatamiz:

Yuzingni ko‘rib, meni ramida

Ishq o‘tig‘a bo‘lg‘ali giriftor.

Shul baytdagi «yuz» so‘zini buzub «yuzz» qilmag‘uncha vazn to‘g‘ri kelmaydir. Emdi shul iki ishka she'rlarni, baytlarni oxtaraylik. Yuqorida so‘ylag‘an edikkim: zohiran o‘z yurakindagi ezgu tuyg‘ularini so‘zlar vositasi bilan boshqalarg‘a berib o‘tkarmakchi bo‘ladir. Boshqa turli aytkanda: shoir so‘z orqali boshqalarg‘a ta’sir etmakchi bo‘ladir. Buning uchun shoирg‘a kerakdirkim: so‘zlarining yaxshi qabul bo‘lishig‘a tirishsun, she'rni buzg‘uchi so‘zlardan uzoqlashib tursun.

Bilamizkim, har ulus o‘zining milliy musiqasini, milliy tilini ko‘brak sevar, bunlardan ko‘brak ta’sir oladir. Bir turk ko‘b yillar Ovro‘paning muzika maktabida o‘qug‘an bo‘lsun. Ovro‘paning muzikasini necha yillar quloq solg‘an, necha yillar tinglagan bo‘lsun. Bir kun Turkistonga kelib eski turk musiqasini eshitkanda boshqa holg‘a tushar. Ovro‘pa muzikasida ko‘ra olmadig‘i ta’mnida kelib eski turk musiqasida ko‘radir.

Mana shu hol til to‘g‘risida ochiqroq va buyukrakdir. Negakim, til ulusning eski bir narsasidir. Usmonli hukumatining askariy xidmatiga kirgan dong‘li nemis jineroli «Fundurg‘ruhich» poshoning usmonli cheriklari (nafarlari) to‘g‘risida shuyla bir mutolaasi bor. «Fundurg‘ruhich» posho derkim: «Usmonli nafarlari asru urushg‘an erurlar, buni har kim biladir. Bunlarning bir urushga kelishlari «din» ko‘lkasindandir, bunlarda «din» sezgisi kuchlidir. Biroq bunlarg‘a «vazn» sezgisi bermak bo‘lmaydir. Negakim: «vazn» so‘zining turkchasi yo‘qdir. «Vazn» arabchadir, turk oldida yot so‘zdir. Yot so‘z nima bo‘lsa ham safo istag‘an ta’sirni bera olmaydir».

Yaxshig‘ina pishirilg‘an palovdan bir og‘iz olib hordiq bilan chaynab turishlik kishining tishig‘a tosh tekib qolsa kayfi qanday qochar? Yot bu so‘zg‘a uchrag‘an

turkning ham kayfi shuyla qochadir. «Turkniki» deb o‘qub turgan she‘rida yot so‘zg‘a uchrab, kayfini qochirg‘an boyaqish turk turkcha so‘zlardan ham bir-ikisining gavdasini buzuq ko‘rgach, u she‘rdan bezadir. Ikinchi yo‘la uni o‘qumoqchi bo‘lmas. Mana shuning uchundirkim: turk shoirlari o‘z she‘rlarini turk ko‘bchiligiga ma’qul qila olmag‘anlar. O‘zлari turkcha aytg‘ach, she‘rlarining sovuqlig‘ini ko‘rgach, forsiycha yoza boshlag‘anlar.

Forsi(y)cha she‘r so‘ylarg‘a berilg‘an ko‘b turk shoirlari bor. Ularning bu ishlari uchun ko‘b sabablar ko‘rsatiladir. Biroq menga ul sabablarning birinchisi, Eron vaznidan tug‘ilgan shul qabohatlardir. Turkcha she‘rning o‘ziga ko‘ra bir uzri bor. Eron vaznida so‘ylamak fikriy shul tonuqlar ila churutilgach, turk vaznining oliy (sufati) qolib ketadir. Uni boshqa bir maqolada so‘ylarmiz.

13-mavzu. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodini mustaqillik davrida o‘rganish muammolari haqida munozara.

TARQATMA MATERIAL

Hamza Hakimzoda Niyoziy — XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan, shoir, dramaturg, teatr arbobi, pedagog. U novator ijodkor sifatida badiiy adabiyotning hamma turlarida qalam tebratdi, uni xalq qalbiga yanada yaqinlashtirdi. U adabiy ijod bilan musiqa, rejissyorlik san‘atini qo‘sib olib bordi, natijada o‘lmas sahna asarlarini yaratdi: «Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar majmuasi», «Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari», «Maysaraning ishi» kabi she‘riy to‘plam va dramalari mana shunday ijodning yorqin namunalardir. Hamza Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakati shakllanayotgan bir pallada badiiy ijodga kirib keldi va bu harakatning butun mazmunidan shaklu shamoyiligacha uning badiiy ijodi va amaliy faoliyatida o‘z ifodasini topdi. Jadid pedagogi sifatida usuli savtiya maktablari ochdi va ular uchun bir necha darslik va majmualar yaratdi.

Hamza 1889 yil 6 martda Qo‘qonda ziyoli oilada — tabib Ibn Yamin Niyozi o‘g‘li oilasida tug‘ildi. Ibn Yamin o‘zbek, arab, fors tillarida ancha savodli bo‘lib, Qo‘qon ulamosi orasida katta e’tiborga loyiq tabib edi. Hamza dastlab mahalla maktabida, 1899—1906 yillarda Qo‘qon madrasalarida o‘qidi, birmuncha vaqt rus-tuzem maktabida rus tilini o‘rgandi.

XX asr boshlarida sodir bo‘layotgan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar Hamza hayotiga, uning ijodkor sifatida shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi, 1905 yil inqilobiy harakatlar Rusyaning chekka o‘lkalari xalqlarida ma’rifat, ozodlik, istiqlol sari intilishlariga turtki bo‘ldi. Uning badiiy ijodga, nafis san‘atga bo‘lgan qiziqishi 1900 yillardan boshlandi. 1908 yilda Namanganda o‘qib yurgan kezlarida Hamza tatar maorifchisi Abdulla To‘qmullin bilan tanishadi: «Ul menim qo‘limda o‘z qalamim bilan yuz sahifadan ortig‘roq eski usuldagagi yozishmalarimi ko‘rib, tarbiyag‘a kirishdi», - deb yozadi Hamza tarjimai holida. 1909 yilda Hamza Buxoroning ulug‘ taraqqiy parvar mudarrislaridan, usuli jadid maktablari tarafdoरlaridan bo‘lmish Muhammad Ikrom ibn Abdusalom qo‘lida arab tilini o‘rganish uchun Buxoroga boradi, ammo u yerda yuz bergen shia va sunniy janjali bunga imkon bermaydi.

Uning ijodiga, ayniqsa Ismoilbek Gaspralining «Tarjimon», Fotih Karimiyning «Vaqt» gazetalari, Rizo Faxriddinning «Sho‘ro» jurnali, shu bilan birga, o‘zbek tilida

Toshkentda chiqa boshlagan Ismoil Obidiyning «Taraqqiy», Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘lining «Xurshid», Abdulla Avloniyning «Shuhrat» gazetalari kuchli ta’sir ko‘rsatdi, ular bilan aloqa o‘rnatdi. Hamzaning ilk she’rlari va maqolalari mana shu gazeta va jurnallarda bosildi.

«Tarjimon» gazetasini muntazam kuzatib borgan Hamza Gaspralining 1906-1907 yillarda shu gazeta sahifalarida bositgan, butun turk olamining, shu jumladan, Turkiston o‘lkasining mustamlaka asorati botqog‘iga tushib qolishi sabablari haqida babs yurituvchi «Mukolamai salotin» asari bilan tanish bo‘lgan.

Hamza 1910 yilda Toshkent shahrida amaliy faoliyatga kirishib, Qashqar mahallasida birinchi marta usuli jadid maktabi ochadi. Bu davrda u Toshkentda Turkiston jadidchilik harakatining rahbari Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li va uning atrofidagi shogirdlari usuli jadid muallimlari aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar, Sami’qori bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Mana, Hamza arxividagi hujjatlardan biri: «Pirlardan: muhtaram ustozи oliy muallim Munavvarqori... Adreslari: Eski Toshkand, usuli savtiya maktabida, mahalla Mehrobodda. Muloqotimiz 1908 milodiy 11 dekabrda».

1911 yilda Qo‘qon shahrida u shunday maktab ochadi. Bu maktablar chor ma’murlarining ta’qibi bilan yopiladi. U 1911 yilda haj safariga otlanadi: Afg‘oniston, Hindiston, Turkiya, Arabiston mamlakatlarining markaziy shaharlarida bo‘ladi. Hamza qaerda bo‘lmisin, u yerning ta’lim-tarbiya, o‘quv muassasalari bilan tanishadi. Haj safaridan qaytgach, pedagogik faoliyat bilan bir qatorda, adabiy-badiiy ijodga beriladi. 1914 yilda dastlab Marg‘ilonda, keyin Qo‘qonda usuli jadid maktabi ochadi. Bu haqda «Tarjimai holi»da quyidagilarni yozgan edi: «1914 yilning oxirlarida Marg‘ilonda maktab ochdim. Sakkizinchи oygacha bormay, Andreev ismindag‘i Skobel maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi... Undan yana Ho‘qand kelib, yo‘qsil bolalar uchun pulsiz o‘qish maktabi ochdim... o‘zim 4 oyga davom ettirgandan keyin uezd nachayligi Medinskiy tomonidan tintuv bo‘lib yopildi. Lekin hyech bir qanday qog‘ozlarim qo‘liga tushmagani uchun qamalmay qutuldim».

Hamza bu davrda yangi maktablar uchun «engil adabiyot», «O‘qish kitobi», «Qiroat kitobi» kabi darsliklar yaratdi. 1915 yilda qo‘qonlik ma’rifatchilar bilan hamkorlikda usuli jadid maktablari uchun darsliklar nashr qilish, o‘quvchilarni Toshkent va boshqa shaharlarda bosmadan chiqqan darsliklar bilan ta‘minlash maqsadida «G‘ayrat» kitobxonasi tashkil etadi. Bu kitobxonada Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Munavvarqorining «Adibi avval», «Adibi soniy», Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniyarning darsliklari ham ko‘p nusxalarda bo‘lgan.

Hamza o‘z ijodini an'anaviy lirik she’rlar yozishdan boshladi. U «Nihoniy» (yashirin, maxfiy ma’nolarini bildiradi) taxallusida ijod qildi va 1905-1914 yillarda ushbu taxallusda yaratgan she’rlarini to‘plib, «Devoni Nihoniy»ni tuzdi. Devonga shoirning 177 she’ri kiritilgan bo‘lib, ulardan 150 tasi g‘azal, qolganlari masnaviy, murabba’, muxammas, musaddas va 1 maktubdan tashkil topgan; bulardan 165 ta she’r o‘zbek tilida, 10 ta she’r fors- tojik tilida, 2 ta she’r o‘zbek va rus tilida shiru-shakar janrida yozilgan.

Shoir ijodida muhim o‘rinni ajoyib she’riy guldstalari — «Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi» egallaydi. Bu umumiy nom ostidagi 7 she’riy to‘plamga 1915—1917 yillarda yaratgan she’rlari kiritilgan. Bu she’riy to‘plamlar:

«Atir gul», «Oq gul», «Qizil gul», «Pushti gul», «Sariq gul», «Yashil gul», «Safsar gul». Ularda xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini uyg‘otish, ilm-ma’rifatga da’vat etish g‘oyasi yetakchi edi:

Bu Nihon qon yig‘layur millat uchun laylu nahor,
Yoz o‘tub, qish keldi holo, bizga bo‘lgan yo‘q bahor,
Sarsari bodi jaholat qilmak istar toru mor,
Chora shul mакtab ochaylik, shoyad o‘lsun sabzazor.
Ey musulmonlar, qachon bir darda darmon istariz?
Millata shavkat, taraqqiy, sha’nu davron istariz?

Hamzaning «Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar» majmuasi»dagi mazkur 7 to‘plamga kirgan she’rlari, matbuotda e’lon qilgan she’r va publitsistik maqolalari, yaratgan dramalari, «milliy romanlari» uning jadidchilik harakatining badiiy adabiyotdagi yirik namoyandalaridan biriga aylanganligini ko‘rsatadi. Abdulla Avloniy kabi Hamza «Qulq notalari ila eshitilib kelmish milliy tabarruk ashulalarimizning o‘rni yo‘qolmasun uchun ba’zi qabih she’rlar o‘rniga» milliy ruh, millatning istiqlol haqidagi orzu-intilishlarini ifodalovchi so‘zlar bilan bu xalq kuylarini muzayyan qilish, bu bilan millatni uyg‘otish vazifasini o‘z oldiga qo‘ydi. Hamza milliy istiqlol g‘oyalarining musiqa, xalq kuylari vositasida, qo‘shiqlar shaklida xalq qalbiga tezroq va ta’sirliroq kirib borishi mumkinligini yaxshi tushungan. O‘zbek adabiyotida sharqiyalarning yaratilishi ham ko‘proq Hamza va Abdulla Avloniyalar faoliyati bilan bog‘lanadi. Hamza Hakimzoda musiqa sohasida ham katta qobiliyat sohibi edi. Shu ma’noda, Hamzaning ushbu to‘plamlari A. Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» to‘plamlariga hamohangdir.

Shoirning Birinchi Jahon urushi arafasida xalq orasida mashhur bo‘lgan «Lo‘m-lo‘m Mamajon» ashulasi ohangida yaratgan «Yig‘la, Turkiston» she’rini olib ko‘raylik. Ashula quyidagi satrlar bilan boshlanar edi:

Lo‘m-lo‘m, lo‘m-lo‘m Mamajon, lo‘m-lo‘m Mamajon,
Istakonda choy ichgan, lo‘m-lo‘m Mamajon.

Hamza millatni jaholat, istibdod, ilmsizlik tufayli faje’ ahvolga tushgan Turkistonni yig‘lashga da’vat etadi: sen shunday yig‘laginki, hatto «ruhsiz tanlar tebransin», seni shunday ahvolga solgan, o‘zi zillatga, xorlikka botgan millat uyg‘onsin!
«Lo‘m-lo‘m Mamajon» ashulasidagi sho‘x ohang o‘rnini qayg‘u va uning ohangida millatni ilm-ma’rifatga da’vat egallaydi:

Darig‘ tutmang ilm uchun ketsa molu jon,
O‘quv farzligi ming yo‘l Qur’onda farmon,
Ma’rifatsiz tonulmas ahkomi imon,
Ilmsizga aytulmas komil musulmon.
Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.

Xorazm xalq kuylari ohangida bitilgan «Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston» misrasi bilan boshlanuvchi she’rida shoir mustamlaka o‘lkaning iqgisodiy, ma’naviy, siyosiy tutqun ahvolini buyuk dard bilan qalamga olgan. Har bir millatning istiqboli — ilm- ma’rifatda. Shoirni qiyayotgan, uning faryod chekishiga sabab bo‘layotgan narsa millatning ilmsizligi, bu ilmsizlik oqibatida o‘ziga «O‘lmasindan ilgari jismiga kafan bichgan»i:

Bo‘g‘zi sori to‘lguncha g‘aflat sharobin ichgan,
O‘lmasindan ilgari jismiga kafan bichgan,
Umid rishtasin kesub, oru nomusdan kechgan,
Bog‘lu qo‘ling, Turkiston, nobakorlarmi chechgan?

O‘zgalarchi? Ular o‘z xalqi uchun molu jonini qurbon qiladilar, ilm-ma'rifat yo‘lida bor- yo‘g‘ini baxshida etadilar, millat ravnaqi uchun qon yutadilar. Shoir shu o‘rinda Turkistonning o‘tmishiga razm soladi: olamga ilm nurini taratgan, iqboldi quyoshdek charog‘on zamonlarning o‘tib ketganidan afsus chekadi:

Esiz, esiz Turkiston, qani avvalgi holi?
Olamga ziyo bergen ul xurshidi iqboldi?
Abri g‘aflat qurshadi, tun bo‘ldi istiqboli,
Xo‘r bo‘lsa millatimiz, tutmasmikin uvoli.

Shoir shunday xulosaga keladi: sening bog‘liq qo‘lingni bu nobakorlar yechmaydi! «Vatanga molik bo‘lgan nobakor to‘ng‘iz» kelgindilardan Turkistonni ozod qilish uchun o‘zligini yuksak darajada mas‘ul biladigan hakiqiy millat fidoyilarini tarbiyalash kerak.

Shoir har to‘rt misradan keyin takrorlanuvchi:

Zulmat toshi yog‘ilsa-da, ko‘zi ochulmaz,
Ruhsiz tandur, xanjar ursa, qoni sochulmaz, —

naqarot misralarda mumtoz she‘riyatimizga xos tamsil san‘atidan mohirona foydalangan. —

E’tibor bering, xalq o‘zligidan, milliy ruhdan mahrum etilgan, quruqjasadi qolgan — bu jasad o‘lik jasad, har qancha tig‘ ursang ham qon chiqmaydi. Xalqimizda ham shunday ibora qo‘llanadi.

Umuman, Hamzaning «Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi»ga kirgan she‘riy to‘plamlar nafaqat o‘quvchilar, hatto san‘atkor-hofizlar o‘rtasida ham katta shuhrat qozongan.

Bu haqda Hamza ijodining dastlabki tadkiqotchilaridan Sotti Husayn shunday yozgan edi: «U tor doiradagi o‘quvchilar o‘rtasidagina emas, ashulachilar o‘rtasida ham tarqala boshlagan.

Shuning bilan baravar bu ashulalar to‘plami... reaksiyon kuchlarning, ruhoniylarning qattiq g‘azabiga uchragan».

Ko‘pgina o‘zbek ijodkorlari qatori Hamza dunyoqarashining takomilida jadidchilik harakatining buyuk rahnamosi Ismoilbek Gasprali va uning «Tarjimon» gazetasining roli katta bo‘lgan. 1914 yil 11 sentyabrda Gasprali vafoti munosabati bilan hamma o‘zbek jadid ijodkorlari singari Hamza ham o‘z hamdardligini bildirib, «Yavmul-vafot» (Sadoyi Farg‘ona, 1914 yil 24 sentyabr) maqolasini va «Marsiya» (Sadoyi Farg‘ona, 1914 yil 28 sentyabr) she‘rini e’lon qildi. She‘rda shunday misralar bor:

Oh, millat, yetdi bu dam qayg‘ulik, g‘amlik zamon,
Tegdi og‘zingga halokat toshi, emdi to‘la qon,
Dod qil davri falakdan, botdi xurshidi jahon,
Motam ayla, og‘lasun ahvolinga har insu jon,
Ko‘k sari uchdi Masiho jismlar jondan judo,
Ya‘ni takrori taraqqiy murg‘i shabxonadan judo.

Hamzaning «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»ga mansub «Safsar gul» to‘plamiga mardikorlikka olingan o‘zbekning yurtdan uzoqdagi xoru zorliqda kechgan hayotini tasvirlovchi she'rlari kirgan. Ularda mardikorlarning ichki his-tuyg‘ulari, el-yurtiga bo‘lgan cheksiz muhabbat, sog‘inchi o‘z ifodasini topgan. Ammo shoirning ushbu to‘plamida «oq podshoh»ni, general gubernatorni ko‘klarga ko‘taruvchi, mardikorlarni fidokorona mehnatga da‘vat etuvchi she'rlar ham mavjud. Bu hol shoirning ijodida uzoq davom etmadi: u mardikor olish voqyeasi mustabid tuzumning millatni tahqirlovchi, uni abadiy tutqunlikda saqlovchi tadbiри ekanligini tushunib yetdi. Bu hol uning mazkur to‘plamidan bir oz keyin yaratgan «Farg‘ona fojialari» tetralogiyasining «Istibdod qurbanlari» qismida rus mustamlakachilarini ayovsiz fosh etishida yaqqol ko‘rinadi.

Hamzaning siyosiy qarashlarini, uning Turkiston muxtoriyatiga munosabatini aniq tasavvur qilishda Turkiston muxtoriyati g‘oyasining paydo bo‘lishi munosabati bilan 1917 yilda yozilgan «Muxtoriyat yoki avtonomiya» hajviy dramasi muhim ahamiyatga ega. 1917 yil Fevral inqilobi, Romanovlar sulolasining barbod bo‘lishi butun jadid mutafakkirlari qatorida Hamzaning ham istiklol haqidagi intilishlariga qanot bog‘ladi. Jadidchilik harakatining rahbarlari Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li va Abdulla Avloniylar tomonidan 1917 yil mart oyida «Sho‘royi islom» jamiyatini tuzildi. Bu jamiyatning «Markaziy sho‘ro»si tarkibida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mustafo Cho‘qaev, Ubaydulla Xo‘jaev kabi siyosiy arboblar bor edi. Shu yilning yozidan bolsheviklarning faolligi kuchaydi va mutaassib din peshvolari «Ulamo» nomi bilan «Sho‘royi islom»dan ajralib chiqdi. Bu ajralish keyinchalik bolsheviklar uchun qo‘l keldi, «Ulamo» jamiyatini mustaqillik uchun kurash olib borgan sho‘royi islomchilarni barbod qilishda mustamlakachilarga yordam berdi. «Sho‘royi islom» va «Ulamo» jamiyatlarining sho‘balari o‘lkaning turli shaharlarida ham tashkil etildi. Fevral inqilobi natijasida Turkistonda qanday davlat tuzish masalasi yuzasidan bu jamiyatlar o‘rtasida keskin ixtiloflar, ziddiyatlar vujudga keldi. Hamza «Ulamo» jamiyatining Qo‘qon shu'basi majlisini ushbu «Muxtoriyat yoki avtonomiya» dramasiga asos qilib oldi. Muallif dramaning qisqacha syujetini shunday bayon qiladi: «Turkistonda hurriyat bo‘luvi munosabati ila yoshlar va ulamolar orasinda ixtilof o‘laroq ulamolar ayrilib ketuvlari, ruhoniy majlisin tasviridir».

Bu o‘rinda yoshlar — «Sho‘royi islom» jamiyatini a’zolari, ya’ni jadidlar; ulamolar — mutaassib qadimchilar «Ulamo» jamiyatini a’zolari ekanligi dramaning boshidan oxirigacha ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Asar muallifi el-yurt taqdirini o‘z zimmalariga olgan ulamolar qanchalik razil, nashavand, tuban kishilar ekanliklarini o‘z tillaridan fosh etadi. Ular hatto avtonomiya, muxtoriyatning qanday davlat tizimi ekanligini tasavvur ham qila olmaydilar:

«L.(domla): Bu demokraticheskiy respublikani bizga ko‘p zarari bor emish. Zeroki, bizdan podshoh bo‘lmas emish, tag‘in avvalg‘idek qozi, mudarrislarni hukamolar, gubernatorlar saylab qo‘yodirlar emish. 2-nchi, xotunlarni ko‘chada faranjisiz (hamma yoqosin ushlab, «Astag‘firulloh!» «Navzanbilloh!...») chiqub yurishi uchun farmonlar bo‘lur emish... Endi bo‘lari bo‘ldi. Xo‘sh! Iftor, to‘y, zakot, xayrehson degan gaplar bari sop bo‘ldi!...»

«F.(domla): Aytmadimmi, bu kishi ham g‘aznot o‘qiydirlar, yaki az taroqchi, biz endi shul din buzuqi gumroh totor shum usuli jadidchilarga qo‘shilar ekanmizda, hayhot! Bale!»

Mustaqillikka qadar hamzashunoslар bu dramani Qo‘qon muxtoriyatining «rasvosini chiqargan», uning «reakdion mohiyati»ni fosh etgan asar sifatida baholab keldilar. Aslida Hamza Turkiston muxtoriyatini tuzishda faol ishtirok etgan jadidlarga qarshi buzg‘unchilik, sotqinlik ishlarini olib borgan mutaassib «Ulamo» jamiyatni a’zolarining naqadar nodonligini, kaltafahmligini fosh etgan edi. Asarda qahramonlar ismining bosh harfi berilgan. Hamza ushbu asar tufayli «Ulamo» jamiyatining ta’qibiga uchradi va 1917 yil oktyabridan 1918 yilning 10 martiga qadar Turkiston shahrida do’sti Saidnosir Mirjalolov xonardonida yashirinib yashadi*. Demak, 1917 yil 27 noyabr Turkiston muxtoriyati e’lon qilingan kunni Hamza Turkiston shaxrida mammuniyat bilan kutib oldi va «Turkiston muxtoriyatina» she’rini yaratdi. She’r «Ulug‘ Turkiston» gazetasining 1918 yil 11 yanvar sonida e’lon qilindi. She’rda shoir musulmon millatini ulug‘ bayram bilan muborakbod qilar ekan, ularni bir sanjoq—bayroq ostida birlashishga da’vat etadi:

Keling emdi birlashing, islom millati!
Ketsin sunniy, shialik nifoq illati!
Bir sanjoqqa to‘plansun islom davlati!
Qutlug‘ bo‘lsun Turkiston muxtoriyati!
Yashasun endi birlashub, islom millati!

Hamzaning 1917 yil Oktyabr to‘ntarishigacha bo‘lgan ijodidagi asosiy g‘oya ma’rifatparvarlikdir, u bu davrda jadid adabiyotining yirik namoyandasi sifatida badiiy ijodning hamma imkoniyatlaridan, turlaridan foydalandi. Barcha jadid mutafakkirlari kabi u 1917 yil Fevral inqilobidan so‘ng hamma ish o‘rinnadi, Turkiston xalqlari mustamlaka qulligidan ozod bo‘ldi, deb o‘yladi. 1917 yilda «Kengash», keyin «Hurriyat» jurnallarini nashrdan chiqardi. «Hurriyat» jurnalining birinchi sonida e’lon qilingan «Bugungi qadrlik kunlar» bosh maqolasidagi ushbu so‘zlarda Hamzaning bu tarixiy voqyeaga munosabati yaqqol ko‘zga tashlanadi: «Bu kun baxt falakindan chiqmish haqiqat qo‘yoshi musovot,adolat kabi eng sof ziyyolari bila eng qorong‘uda yo‘qolgan igna kabi nozik va muhim maqsadlarimizi ham yalturatub ko‘rsatmakdadur. Mana, bukun haqiqat, hurriyat vositasi bila eski xoin va zolim, mustabid hukumatni 50 yildan beri bo‘yin, qo‘l va oyog‘imizg‘a sezimsiz solub kelgan umrlik og‘ur zanjirlarin ko‘zga ko‘rsatub yechdi, xalos qildi. Bu kun haqiqat, musovot vositasi bila, bir taraf, zolim amaldorlar, ikkinchi tarafdan rahmsiz, shafqatsiz talonchilar temir tirnog‘i ostida po‘stlari butun sidirilib, yuraklari ezilib, cho‘kub xonumonlaridan ajrab kelub turgan mazlum, nohaq faqiru bechora, yetim, g‘ariblarning burgutlar panjai margidan raho qildi... Bu kun eng qadrlik, eng g‘animatlik kun! Bu kun Ostroumof, Ilminskiy kabilarning tarbiyasida yashagan va aning maslakiga xizmat etuvchi, vatandagi o‘z oramizdan chiqqon din xoinlarini xiyonatlarin haqiqat maydoniga otur. Nohaqlarni sharmanda va sarnigun qilur».

Albatta, Hamzaning mustamlakachilarga qarata aytgan jasoratli so‘zlari Vaqtli hukumatga ham, uning o‘lkadagi hamtovoqlariga ham ma’qul bo‘lmadi, ikkala jurnal birin-ketin yopildi.

Hamza Oktyabr to‘ntarishidan keyin sho‘rolar hokimiyatini qo‘llab-quvvatlovchi she’rlar, qo‘sishqlar bitdi, bolsheviklar hokimiyatining yangi shakddagi mustamlakachilik siyosatini ko‘ra olmadi. Ba’zan o‘z qobiliyatini badiiy ijodga emas, sho‘ro huku-matining targ‘ibot-tashviqot ishlariga safarbar etdi. Uning 20-yillarning o‘rtalarida yaratgan «Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi» dramasi,

«Burungi qozilar yoki Maysaraning ishi» hajviy komediyasi o‘zbek dramaturgiyasi va teatr san’ati taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

Hamza 1926 yil 27 fevralda «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni bilan taqdirlandi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1928 yilning avgustida sho‘ro hukumatining topshirig‘iga binoan Shohimardonga boradi, u yerda mavjud hukumat siyosatini barqaror qilishda, ruhoniylarga qarshi kurashda faol ishtirok etadi va 1929 yil 18 mart kuni shu kurashning qurboni bo‘ladi. Hamzaning bir guruh mutaassiblar tomonidan o‘ldirilishi sho‘ro mafkurasida uning ijodini sinfiylik-partiyaviylik tamoyillariga asoslanib baholash uchun mezon bo‘ldi. Uni ma’naviy zamindan yulib olib, o‘zi mansub bo‘lgan jadidchilik harakatiga, uning namoyandalariga qarshi qo‘ydilar, o‘zbek sho‘ro adabiyoti va san’atining yagona asoschisi sifatida talqin va taqdim etdilar. Bu g‘ayriilmiylikning eng yuqori namunasi sifatida Hamzaga bag‘ishlangan 17 seriyali «Olovli yo‘llar» filmini ko‘rsatish mumkin. Uydirmalar asosiga qurilgan bunday asarlar Hamzaga nisbatan hurmat-ehtiromni oshirish o‘rniga unga bo‘lgan ishonch va e’tiqodga putur yetkazdi.

Sho‘ro mafkurasining bu boradagi salbiy oqibatlaridan biri shu bo‘ldiki, milliyatchi shoirning ayrim satrlari, hatto asarlariga «pardoz» berildi, «tahrir» qilindi, «Boy ila xizmatchi» dramasi 1939 yilda dramaturg Komil Yashin tomonidan sotsialistik realizm talablari asosida, aytish mumkinki, qayta yozildi.

Hamza ijodi mustaqillik, istiqlol tufayligina haqiqiy bahosini olmoqda. U hyech bir bo‘rttirishsiz, qo‘sib-chatishsiz ham XX asr o‘zbek adabiyotining atoqli vakili: novator shoir, hozirjavob nosir, iste’dodli dramaturg, g‘ayratli teatr arbobi, mohir pedagog sifatida zamondoshlari Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lponlar qatoridan munosib o‘rin olishga haqlidir.

14-mavzu. Cho‘lpon she’rlari tahlili. TARQATMA MATERIAL

Adabiyot nadir?

Adabiyot har bir millatning hisli ko‘ngul tarixining eng qorong‘u xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg‘on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasinda aning to‘lquni odamning har xil maishatiga qarab o‘zgaradir.

Har sinf, xalqning o‘ziga maxsus ohangi, o‘ziga ta’sir qiladurg‘on zori bo‘lur. Mana shul muhit bo‘shliginda bo‘lgan qat’iy to‘lunning bir-biriga birlashmagidan har odamga har xil shodliq va yo ko‘b achchiq ta’sir etmagindan odamning ko‘nglida o‘zi bilmasdan o‘rnashub qolg‘on va har vaqt, umrining oxiriga qadar saqlanaturg‘on qayg‘ulanmak va yo ko‘krak kerib qo‘b dam olurday oh urmaklar — hamasi ko‘ngilda har xil rangda, har xil kayfiyatda to‘lub yotqon adabiyot xosasindan sanalur. Kishi ba’zi vaqtida shodlikdan kulur va ba’zi vaqtida ko‘z yoshin to‘kub yig‘lar, oh tortar. Odamning mundog‘ har xil kayfiyatga kirub turmog‘i o‘z ixtiyori nla bo‘lmay, balki maishati yo‘lida har vaqt uchrab turadurg‘on falokatning anga ba’zi vaqtida zulm ko‘rsatmog‘i va ba’zi vaqtida bir yaxshilik ko‘rsatub suyundirmog‘idin kelub — yaxshi ko‘rganda suyunib, yomonliq ko‘rganda yig‘lab — shundog‘ bo‘lub ikki turli o‘zgarub turar, ba’zi vaqtida falak bir odamni qayg‘uga solar, ul o‘zi tushunib, o‘ylab turub, oh tortub yig‘lar.

Bu hasratlarni o‘z ichiga sig‘dirolmas. Birovga aytsa, «Voy bechora» deyurmukin, deb o‘z qayg‘usini birovga aytmakka tilar. To‘p to‘g‘ri aytganda u qadar ta’sir qilmas. Adabiyot ila aytganda albatta ta’sir qilar. Mening bir oshnamning o‘ldigi xabari kelar. Men hyech xafalanmayman. Bir vaqtida maktub kelar, maktubda alarning ko‘rgan kunlari adabiyot ila bunday yozilur:

Gullar bila pok qayg‘uli mahzun boqurdi
Ko‘z yoshlarimiz to‘xtamay tun-kun oqurdi.

Mana shuni o‘qub albatta bir ta’sir ila alarning qayg‘usiga qo‘shulurmiz. Bir bola uxlamasa alla aytarlar. Bola tez uxbab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qulur. Eski bobolarining bir ma’shuqa uchun Qoshg‘ar taraflariga yayov borganini va yo‘lda o‘g‘rilar tarafidan o‘lturulgani g‘oyat yaxshi ohang bilan aytilar. Ul vaqtida bola ta’sirindan uxbab ketar. Shunga o‘xhash o‘zining shavkat va g‘ayrati ila zamonasida butun dunyoni havor va dahshatga solg‘on jahongirlarning o‘tkazgan kunlarin va davrlarin tarixlarda ko‘rsa va eshitsa har kishi yuragida bir botirliq va bir fidokorlik his etar va qahramonona umidlarda bo‘linur.

Mana shunday qahramonona umid, qahramonona his va qahramonona g‘ayrat — barchalari tarixiy adabiyotning natijasidan boshqa narsa emasdir. Hyech to‘xtamasdan harakat qilib turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o‘limg‘on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilg‘on millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur.

Bizdan boshqa millatlarga ko‘z solsak ko‘ramizki, alarning olti yoshdan oltmis yashar qarilarina qadar adabiyotdan bir lazzat olub oxir umriga qadar adabiyot o‘qub eshitmakni vazifai milliyasidan hisob qilur. Mana shuning uchundirki, Ovro‘poning har shahar va qishloqlarida har kun, har hafta adabiyot kechalari qilinur, adabiyot o‘qilur, nutq so‘ylanub xalq ko‘b kirub ta’sirlanurlar. Mana totor qardoshlarimiz yilda bir dafa bo‘lsa ham shahar va qishloqlarida «Adabiyot kechalari» qilib xalqg‘a ruh berub ko‘b olqishlar, ofarinlar oldigini g‘azetalardan o‘qub turmakdamiz. Bizlar esak adabiyotdan lazzat olmak bir tarafda tursun, hatto bobolarimiz va bolxosa «Islom madaniyati» zamoninda katta ro‘l o‘ynag‘on va alarning maishatlarin ko‘rsatgan ta’rix umumiylarni o‘qub anglamoqdin ham ko‘b yiroq turamiz.

Bizni ulamo va eshonlarimiz to‘n kiymakdan, avomlarimiz choyxonalarga chiqub choy ichmakdan va ziylilarimiz esa Ovrupo kiyumliklaridan va qiymatlik papiro‘sleridan lazzat olurlarki, «adabiyot nima?» desang, javobida yuqorida aytigancha «ya’ni, masalan»dan boshqa javoblari yo‘qdir. Mana shuning uchundirki, kundan-kunga ruhimiz tushub, keladirg‘on istiqbolimizga umidsiz qarab, boshqa millatlar kabi shod va umidli yashamaymiz va bizda shodlik va ruh bo‘limgani uchun bir ishni qilamiz deb endi o‘ylaganimizda o‘y yo‘q — fikrlar chochilub, aqlarimiz parishon bo‘lub ketar.

Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladirk‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir.

Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o‘quylik. Adiblar yetishdirayluk, «adabiyot kechalari» yasayluk. Ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk. Agarda «bayoz» va bema’ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo‘lurmiz. Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig‘ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk. Menim bu ojizona fikrima qo‘shilaturg‘onlar bo‘lsa adabiyotning foydasi to‘g‘rusinda «Oina» va «Sado»larimizga tarixiy va adabiy maqola va she’rlar yozsunlar, kitoblar tartib bersunlar. Hozirda bizga birdan-bir lozim bo‘lg‘on narsa — adabiyot, adabiyot, adabiyot...

(1914)

Muhtaram yozg‘uvchilarimizg‘a

Ma'lumdirki, har narsa o‘z ahli tarafindan yozilsa yaxshi yoziladur. Shukrlar o‘lsunki, bizning oramizda ham so‘nggi yillarda milliy tiyot va ro‘mon kitoblari yozilub bosdiriluvlar ko‘rilmakg‘a boshladi... «Padarkush» yozilg‘ondin keyin yoshlарimизда katta bir rag‘bat hosil bo‘lub har shaharning sahnalarida o‘ynaldi. Toshkand, Samarcand, Xo‘qand kabi markazlarda 2—3 marotaba ham o‘ynaldi. Ishta bular millatning intibohiga xayrli bir foldir. Ammo muning ilagina suyunib o‘zimizni yupatmayluk. Hali bizga ko‘b tiyot va ro‘mon kitoblari yozmoq kerakdurkim, bu qarz bir hovuch ziyoli yoshlарimiz ila ahli qalamimiz ustlariga tushadir.

Muhtaram qalam ahllari, milliy maishatni yomon deb yozmay, zohirda bo‘lsa ham to‘ylarda, gapxonalarda, bachchabozlar majlisida, bazmlarda va shunga o‘xhash millatning eng tanqid qilaturg‘on o‘rinlarinda birga aralashub yurmaklari kerakdurki, toki komil o‘shal odatlarni kitob sahifalarida chiroyliroq qilub yozgundai bo‘lsunlar.

Milliy maishatdan bezgan bilan bezilub, ko‘milub ketaberadir. Onda aralashib yurulsa, ondagi so‘zlarni, odatlarni o‘rganmoqqa bo‘ladurki, kitob betlariga ko‘chirub yozmoqqa materiyollarning eng asllari xalq orasidan olunadir. Ovruponing katta-katta muharrirlari o‘shal o‘zlarining yaxshi-yomon odatlari orasida yurubdirlar. So‘ngra qo‘llariga qalam olub, yaxshisini yaxshi, yomonini yomon ko‘rsatub yozubdurlar. Ishta muhtaram yoshlарimiz mashaqqat bo‘lsa ham xalqimizning ichida oralashub yurub kitoblar yozuvg‘a materiyollar tayyorlasalar. Bu yo‘ldagi ihtiyojni bir qadar ado qilg‘on bo‘lur edilar.

Bizim bu arzimiz bir muharrirlargagina emas, muhtaram artistlarimizg‘a ham bordir. Ular ham sahna keraklarini xalq orasida yurub o‘rganmaklari lozimdir. Ojizona bu fikrimni hurmatli yoshlарimizga arz qilaman.

«Sadoi Turkiston» gazetasining 1915 yil 6 fevral

Ikki yo‘qotish

So‘nggi yillar, o‘zbek yoshlig‘i, taraqqiyatvarlig‘ining bir mucha cholishqon, pok ko‘ngillik yigitlarini — yer tagi olamiga sudrab olib ketdi. Hammasini bir-bir sanab esdan o‘tkarmak shu choqda mumkin bo‘limg‘onligi uchun, yuzakigina bir o‘y yurgizish bilan ham A‘lamuf, Ismoilzoda, Sultonuf, Sobir G‘afur va boshqalardan chizilg‘on bir qator tegrali sadaf donalarini ko‘rmak mumkin bo‘ladur. Mahmudxo‘ja otamiz bilan Muftizoda Abdirahmon va A‘zamjonlar sadaf donalarining imomi bo‘lub ketdilar. Ayniqsa, Mahmudxo‘ja otamiz bilan bir qatorda turg‘on Mirzo Fozil (o‘shliq), tariximizga qaytib ketgan har bir chog‘imizda o‘zini sezdirib qo‘yadir.

Vaqti bilan chorning temir qo'lliq jondori bilan kurashish davrida, shu bir hovuch boturlar, ne samimi, ne berilgan yigitlar edilar. O'lganlarning o'rniga yuzlar, minglar bilan o'rribosarlar yetishib, ko'nglimizga umid yog'dulari yog'dirg'on tunlarda-da ketganlarning xotiralari ko'b achchig' va zaharlik ta'sir etmakdadir. Xo'qanddan kelgan o'shandoq yigitlarning biri yona ikki yo'ldoshning oramizdan yo'qolg'onlig'ini xabar berdi. Yaqin orada Xo'qand va umuman Farg'ona yoshlarining katta otalari, bobolari hukmida bo'lg'on domla yo'ldosh Mavlaviy bilan ishlik yoshlardan va taraqqiyapar shoirlardan Ibrohim (Davron) vafot etganlar. Domla Yo'ldosh Mavlaviy — Turkiston va umuman islom ulamolarining haqiqatga qarshi ko'r bo'lishlaridan ta'sirlangani holda o'zining tabiatni asari o'laroq boshqa yoshlar kabi ular bilan kurashishlikdan ojiz bo'lg'onlig'idan bir chekkaga uzlat qilib, chiqib ketgan olimlardan edi. Ho'qanddagi «Usuli jadida» harakatiga boshdan-oyoq oralashqon bu muhtaram zot, hur fikrli va rind qalandar bir kishi edi. O'zi so'ng choqlariga qadar dars aytishini tashlamag'on bo'lsa-da, boshqa ko'b mudarrislar kabi shu vosita bilan Qorun xazinasini to'plamoq kabi yo'lg'a ham ketmagan edi. Burundan beri yo'qsul va qashshoqlarcha yashab keldi, o'lganida ham meros nomiga bir narsa ham qoldirmag'on. Hatto, o'zi og'riq ekan... og'riqdan tuzalish choralarini ham ko'rmagan va istamagan.

Yurtimizning ilmsizliq orqasida ketib borg'on yo'lining oxiri qandog' qo'rqinch ekanini ortiq chuqur tushunar edi. 13—14-yillarda ziyyaratiga kirganimda shu masaladan ko'plab gaplashib o'lturib «men bu ketishimizdan ko'b qo'rqaman», degan edi. O'shal vaqtdagi i ahvol va sharoitni yaxshilab bilgan kishilar bu so'zning dahshatini ko'b chuqur tushunar edilar. 63 yoshinda vafot etgai bu zot, arab adabiyotining ulug' olimlardan edi, shu adabiyot bahslari ustida «Sho'ro» muharriri Rizo qozi bilan muhorabasi bor edi. Turkcha (o'zbekcha) va forscha she'rlar ham aytar she'rda (Jovid) otini qo'llar edi.

Marhum Xo'qand yoshlari tarafidan sha'niga loyiq bir suratda dafn etilgan va asarlarini tekshirmak uchun yosh ulamolar tomonidan 3 kishilik bir hay'at yuzaga chiqarilg'on.

Ibrohim Davron — (A'zamxon Ibrohim o'g'li) 48 yoshida vafot etgan. Bu yigit Xo'qand yoshlari orasida nashriyot ishlari bilan tanilg'on bir kishi bo'lub inqilobgacha Ho'qandda yangi kitoblar va gazetalarni tarqatar va yozg'uchilik bilan shug'ullanar edi. Uning «Milliy jumboqlar» va «Ash'ori nisvon» otliq bosilgan ikki asari bordur.

Avvalgisi bizning milliy tobishmoqlarimizni to'plag'on bir asar bo'lub, ikkinchisi o'zbeklardan yetishgan ba'zi bir shoiralarning she'rlar majmuasi edi. Ulug' ahamiyatga ega bo'lg'on so'nggi asari, taassufga qarshi maydonda ko'rulmaydir. Holbuki, Arbobiy tomonidan tekshirilaturg'on bir narsa edi.

Marhum rasmga ham havaslik bo'lub, o'z asarlari uchun rasmlar ishlagan va 1914 yilda Turkiyada ham sayohat etgandir. «Sadoyi Turkiston» gazetasining doimiy yozuvchilaridan bo'lub, unda she'rlar yozg'uchi edi. (1914). Buda ko'p yo'qsulliq bilan o'lgan.

Uning bir juft she'ri esimda qolg'onkim, o'qumag'onliqg'a qarshi yasalg'on bu isyon — (o'z vaqtida) ko'b katta isyon edi (o'zicha).

«Johil padarim, johil modar esa mutloq
Hayron qoluram kufr aylayman orasinda».

Do‘xtur Muhammadyor Xayoliy hikoya

Turkistonning qorong‘u bir go‘shasida (...) nomlik bir uezdni shahrida Hoji Ahmad ismli 60 yashar kambag‘algina sartarosh hoji bor edi. Oning xotuni chaxotka (sil) kasaliga mubtalo o‘lib, to‘qqiz oy qadar himmatlik to‘sagida yetgandan so‘ngra vafot bo‘lgan edi. Ul xotundan Muhammadyor ismida bir o‘g‘ul tug‘ilgan edi. Hoji Ahmad o‘z shahrida Hoji sartarosh deb mashhur edi. Uning hojiligining bosh sababi — 15 yashar ekan vaqtida otasi ila hajga borgan edi. Otasi hajda vafot topgandan so‘ngra yolg‘iz o‘zi Misr, Stambul, Fors, Marokash, Belujiston, Bag‘dod, Eron va Afg‘oniston taraflarini va ichki Rusiyani o‘n yil qadar sayohat qilib qaytgan edi. Sayohatdan qilgan foydasi — forscha, arabcha, ruscha va inglizcha tillarda so‘ylamakka qodir bo‘ldi. Ammo o‘zining nodonligi sabab bo‘lib sayohatda ko‘p mashaqqatlar ko‘rganligidan, o‘g‘li Muhammadyor o‘quv yoshiga yetar-yetmas, butun kuch va quvvati ila oni o‘qiturg‘a harakat qildi.

O‘n yoshga yetganda ichkari Rusiyadan (Ufa madrasai oliyasin bitirgan) bir muallim kelib qoldi. Bu shaharda bir-ikki hafta turgach, xalq og‘zidan «gazet o‘qiyduran va yetmish ikki tilni biladirgan» Hoji sartaroshning shuhratini eshitib, ko‘rishmoq uchun Hoji Ahmadning sartaroshlik do‘koniga keldi. Muhammadyor ham shunda o‘lturban edi. Otasining ishorati ila o‘rnidan turib kamoli ta‘zim ila ko‘rishi. Hoji Ahmad ila muallim qanday uzoq so‘ylashib o‘tirdilar. So‘z orasida muallim afandiga Hoji Ahmad: «Mening bisotimda shul birgina o‘g‘lim bor. Buni zamona ixtisosiga o‘qitmoqni xohlayman. Agar qabul qilsangiz, shunga yaxshigina milliy tarbiya bersangiz, so‘ngra hukumat maktablarida o‘qitsam», dedi. Muallim bir oz fikr qilib turgach, o‘qitgani qabul qildi. Hoji Ahmad do‘konini yopib, muallimni hovlisiga olib keldi. Muallimda yosh Muhammadyor kamoli shavq ila o‘qimoqda edi. Va bo‘sh vaqtlarinda ham o‘qimagan bolalar kabi choyxona, bazm va fahshxonalarda yurmay, bir rus ofitserining taxt rayosatida tarbiyai badaniya o‘yunlari qilmoqda va foydali kitoblar mutoalasi ila o‘tkarmoqda edi. Bu tariqa bir yil g‘ayrat ila o‘qidi. Bu muddatda butun ahkomi islam, tarix va jo‘g‘rofiyalarni mukammal bildi. Bir yildan so‘ng Hoji Ahmad suyukli o‘g‘lini hukumat maktablariga bermoqchi bo‘ldi. Oh... faqat pul yo‘q edi. Shu pulsizlik juda ezmoqda va bechora bolani allaqachon fazlu kamolot, ilm va urfondan quruq va mahrum qo‘ymoqda edi!

Nachora, muallim afandisi ila barobar yordam qilmoqlarini o‘tinmoq uchun shahar mo‘tabaroni huzurlariga bordilar. Ba’zi boylar muallimni qiyofasini ko‘rgan zamon eshikdan kirgazmasdan haydamoqda va ba’zilari qabul qilmoqda edi, va ba’zi birlari esa Muhammadyorning chiroyliliklariga qiziqib, bir muncha oylik ila o‘ziga mirzolik va mahramlikka so‘ramoqda edi. Faqat bizim Hoji Ahmad bularning qiladirgan kirdikorlaridan xabardor bo‘lgani uchun suyukli o‘g‘lini bermas edi. Bechora Hoji Ahmad boylardan yordam umid qilmoqni tashlab, boshqa yo‘llar izlamoqda edi. Bu vaqtida shaharda katta to‘ylar bo‘lmoqda, qimorbozlar, mastlar birlarini pichoqlashib, inson qonlari jaholat!. jaholatN. deb oqmoqda edi?!. Birdan bir bo‘lgan shogirdlarga yordam jami’ati aqchasizlikdan to‘xtagan edi! Bu orada muallim afandi ketmoqchi bo‘lib hozirlandi. Kech soat 9-larda Hoji Ahmad o‘g‘li ila birgalashib muallim afandini kuzatmoq uchun vokzalga chiqdilar. Kuzatib qaytib kelub yotganda bir joyda qimorbozlar pul talashib mushtlashmoqda ekan. Hoji

Ahmad kelib nasihat qilib ayira boshlagandan so‘ng, birisi kelib Hoji Ahmadni bo‘g‘ib o‘ldirdi va Muhammadyorni yarador qildi. Hoji Ahmad o‘lur vaqtida Muhammadyorga qarab: «O‘g‘lim! Meros... sanga o‘ltirgan... joy... vasiyatim... o‘qi... o‘-qi... o‘qi... o‘qi... men... dur... zomin» deb jon taslim qildi.

Muhammadyor o‘ldiruvchilarni bir-ikkisini topib, har nima qilib bo‘lsa ham o‘ch olmoqni qasd qilib ko‘rdi. Lekin otasini o‘ldiruvchilar bular bo‘lmay, balki jaholat ekanligini o‘ylab, tynchgina otasini ko‘mdi. Va jaholat ila chindan olishmoqqa qaror qildi. Jaholatila olishmoqning quroli (asbobi)ni esa otasi aytib ketgan edi. Ya‘ni jaholatga qarshi to‘p, miltiq, to‘pponcha, xanjar, o‘q-doru emas, yolg‘uz: «o‘qi-o‘qi-o‘qi» edi!!

Bir tarafdan otasining vahshiyona suratda o‘ldirilganini va bir tarafdan ilm va ma‘rifat ila dunyoga nom chiqargan vatani — Turkistonning jaholat daryosida suyunasuyuna suzganini ko‘rgan Muhammadyor xafachilikdan sil (chaxotka) kasaliga yo‘liqdi. Tamom sil bo‘lib yetmasa ham, sillik asari yuzida zohir bo‘la boshladi. Bu orada shaharda bir katta o‘t chiqib, musulmon ma-hallalarindan 6—7 mahalla kuyub, musulmonlar (sohiblari) ko‘chalarda och-yalang‘och qoldilar. O‘rtada bir armani magazini kuygan bo‘lsa ham, armani magazinini straxavat ettirganligidan zarar oz edi... Bizni musulmonlar-chi? Bizni musulmonlar straxavatni nimaligini bilmaydurlar edi. Bilganlari harom... deb qildirmagan edilar... Bu hollarni ko‘rganda qandog‘ chidab tuolsun? Qaysi vijdon bunga buncha muhammul qilsun? Bechora Muhammadyor bu hollarni ko‘rib, kasali ziyodalanmoqqa boshladi. Shaharni yangi shahar qismida «Ibrat» nom teatruda «Ichkulik va uning vahm natijalari» nomli ibratli bir kartina ko‘rsatilur edi. Har qancha holsiz bo‘lsa ham, chiday olmadi. Bu badbaxt ichkulik natjasini ko‘rmoq uchun oshiqib, kechani kutdi.

Nihoyat, oqshom namozidan so‘ngra piyoda «Ibrat» teatruga qarab yurdi. Teatru bog‘ida bir to‘pponcha ovozi chiqdi... Kartina to‘xtatilib, hamma xalq tashqariga yugurdi... Bechora holsiz Muhammadyor ham xalq orasida tashqariga chiqmoqda edi. Chiqdi, qaysi ko‘z bilan ko‘rsin!.. Shaharning teatru bog‘chasida mast holda karta o‘ynab o‘ltirib, ozgina pulni talashib turib, birisi to‘pponchasini chiqarib birisiga otib yuborgan. Otuvchini ushlab, majruhni xastaxonaga yuborsalar ham majruh yo‘lda jon bergen. Otuvchi ham teatru bog‘chasida bu holga hayron bo‘lib o‘z-o‘zini otgan... Ikki yosh-yosh musulmon jaholat sababli bu dunyoga vido' qildilar. (Ichkilikning vahim natijalari) haqiqat bo‘lib ko‘rildi.

Bu hollarni ko‘rgan Muhammadyor hushsizlikdan yiqildi. Muhammadyorni polisiya shahar xastaxonasiga olib bordi... Muhammadyorning otasi yo‘q... onasi yo‘q... qavm-qarindoshi yo‘q... Kim kelib holidan xabar olar... Oh, yolg‘izlik... oh, yetimlik... oh, bularga sabab bo‘lgan jaholat... ket! Yo‘qol!.. O‘l!..

Biror oy qadar shahar xastaxonasida davolangandan so‘ngra Muhammadyor yaxshi bo‘lgan edi. Xastaxonadan chiqqan vaqtida do‘xtirlar davolanmoq uchun Kavkaziyagacha bbrarga ham shul taraflarda turib, o‘qirg‘a tavsiya qildilar. Muhammadyor puli yo‘qligini kuch-hol bilan do‘xtirlarga bayon qildi. Do‘xtirlar bir oz mushovaradan so‘ng Muhammadyorga bir xat berdilarki, bu xat bilan butun Kavkaziya xastaxonalarinda borib davolanib yotsa ham bir tiyin haq olinMas edi. Muhammadyor xastaxonadan chiqib, hovlisiga keldi...

Hovlisida hyech kim yo‘q... na ona bor... na ota bor, na qo‘rqinch manzara...? Hovlini 6 oyga bir o‘rusga 225 so‘mga ijaraga qo‘yib, kech soat 7 da stansiyaga qarab yurdi, kelsa poezd ketgan...

Erta bilan soat 9 dagi poezdga qoldi... Mahzun holda yana uyiga qaytib, o‘z xonasidagi o‘rusda bir kechalik mehmon bo‘ldi.

Erta bilan soat 8 da stansiyaga chiqib poezdni kutib turdi... Nihoyat, 20-asr madaniyati keldi, ajdar kabi pishillab, har tarafga suv chochib... Muhammadyorni vatanidan ayirmoqchi bo‘ldi. Stansiyada bir g‘arib manzara ediki, Muhammadyorning ko‘nglini buzmoqqa boshladi...

Bir musulmon xurjin yo‘qotgan! Biri boraturgan stansiyasin nomini bilmay, boshqa stansiyaga bilet olib qo‘ygan... va shunga o‘xhash zahmatli manzaralar oldida Muhammadyor qotib qoldi... Nihoyat, ikkinchi zvonok urilganda chiqib, uchinchi klassdan joy topib o‘tirdi... Haligi qo‘rqinch manzaralar... Bunda andan ham ziyoda hukm surmoqda edi... Bir musulmon birisi bilan urishib burni qonagan, bir musulmonni poezd ma‘murlari tutib Olib urardilar... Muhammadyor chidayolmadı. Poezdning tashqarisiga chiqib, tikka turib stansiyani tomosha qilaboshladi. Bir armani Kavkazning qorong‘u go‘shalaridan kelib stansiyada do‘kon ochib boy bo‘lib, ikki o‘g‘lini hukumat mакtablarida tarbiya qilmoqda... va yerli musulmonlar esa topgan pullarini to‘yga, janozag‘a sarf qilib faqirlikda, xorlikda qolmoqda edilar. Yana ko‘ngli buzildi. Yana diqqatlik, oh... o‘yga botdi... Bir vaqt uchunchi zvonbk ham urildi. XX asrning otsiz arobasi yuraman deb bir qichqirib, ilgariga qarab harakat qila boshladi... Ya‘ni Muhammadyor muqaddas vatanidan ajrab yot ellarga borib, yot bir maishatga qarab yurar edi. Uchunchi vagonni ichiga kirib, bir oz ul taraf, bul tarafga aylanib yurdi. Boshi tamom Turkiston haqinda fikrlar, o‘ylar ila to‘lgan edi... Birdan bir ovoz keldi:

- Muhammadyor! Qaradi... O‘ziga tarbiyai badaniyadan ta‘lim bergen o‘rus ofitseri Pyotr edi. Muhammadyor borib ko‘rishdi. Va ofitserga: — Qayga borasiz? — dedi.

Ofitser:

—Men bir askariy ish bilan ikkinchi stansiyada tushaman. Siz qayga borasiz? — deb savol qildi. Muhammadyor bir oz o‘ylab turgandan so‘ng:

— G‘urbatga!

— Nima uchun?

—O‘qimak... O‘qimak... o‘qimak uchun,— dedi...

Muhammadyorga «Otangiz salomatmi?» deb ofitser bir savol berishiga qarshi, Muhammadyor ko‘zlaridan yosh oqizib:

— O‘ldi..— deb javob berdi...

Bu so‘zni eshitgan ofitser ham ko‘zlaridan marhamatli yoshlarni oqizdi. Muhammadyor ofitserdan bir «durbin» so‘rab olib, yolqutga chiqdi. Vatanining tuprog‘i ustiga suvlarin sochib, atroflarda o‘ltirg‘on yerli musulmonlarning diqqatini jaib qilib yurmakda edi. Muhammadyor durbin ila uzoqdag‘i tog‘larga qarab turib, ko‘z yoshlarni oqizib tog‘larga va o‘zining orqasida qolgan vatanga xitob qilib:

— «Ey, Chingiz va Temur askarlarini ko‘rgan qop-qora tog‘lar! E, vatanim Turkistonning eski davrini ko‘rgan tog‘ bobolar!

Chin aytin! Bu yigirmanchi asr madaniyatini ham ko‘rib turibsiz! Uch kunlik yo‘lni o‘n soatda qilgan bu yigirmanchi asr madaniyatining ayg‘irini ko‘rib, vatandoshlarim nimaga og‘izlarini ochib qoldilar? Nimaga bu madaniyatga kirmoqqa

o‘zлari harakat qilmaydurlar? Qachongacha ikki g‘ildirakli ko‘chalarga sig‘maydigan arobalar?..

Ey, vatandoshlarim! Qachongacha bu g‘aflat? Nimaga buncha hushyormassizlar? Oxir, sizlar ham odam-ku! Odamlardek harakat qilingizlar! Ko‘z oldimizga kelib turgan ilm va ma‘rifat mevasidan foydalanmasdan, nimaga bu ishlarga kirishmaysizlar! Uyqudan ko‘z ochinglar! Urininglar! Ilm, ma‘rifat va hunar izlanglar! Vaqt yetdi, balki o‘tdi»,—der edi!

Kech soat 7 da ofitser ila Muhammadyor vidolashdi va o‘z joyiga kirib uyqug‘a ketdi.

Bir necha kundan so‘ngra Muhammadyor o‘zini Bokuning katta stansiyasida ko‘rdi. Qo‘lida tugun va boshqa narsalar bo‘lganligidan tezlik ila poezddan tushib, bir arobaga o‘ltirib shahar ichiga qarab yurdi., Musulmon millionerlari, musulmon boylari, necha turki jamiyatlari, boyorlari va xayriya yo‘liga millionlab ionalari ila mashhur Boku shahri Muhammadyorg‘a ajab tuyulur edi. Bokuning birinchi gazetalarindan bo‘lgan va butun islam shaharlariga ketaturg‘on kundalik, o‘n sahifa «Kavkaz» nomli gazeta idorasiga kirdi, mudiri ila ko‘rishdi. Mudirga hamma ahvolni ochiq tushintirdi. Mudir chorasisiga kirishurman, deb javob byordi. Muhammadyor shaharni kezmoq uchun idoradan chiqdi. Kech, bir millioner tarafidan Sharq usuli ma'luriyasinda bino qilingan «Bahri Hazar» nomli nomerda qo‘ndi. Erta birlan mashhur bir kitobxonadan bir no‘mra «Kavkaz» gazetasini oldi. Bosh tarafida shu e’lonni ko‘rdi: «E’lon: Jamiyat xayriya, islomiya tarafidan qo‘srimiz bo‘lgan Turkistondan ilm izlab kelgan 14 yoshlik Muhammadyor ismli bir dindoshimizni hukumat mакtablariga berib «Jamiyat xayriya» hisobiga o‘qitmoqchimiz. Shu to‘G‘rida bu kun kech soat yetti yarimda «Jamiyat xayriyada majlis bo‘ladur. Muhtaram a’zolarning mazkur vaqtida kech qolmasdan hozir bo‘lmoqlari kerakdur. Muhammadyor afandi ham hozir bo‘lsinlar.

Ehtirom ila, jamiyat mudiri...»

Kech soat yetti yarimda biroz a’zolar maslahat qilg‘onlaridan Muhammadyorni oliv tahlimigacha (jamiyat) o‘z hisobiga o‘qitmoqqa qaror berdi. O‘qishni tamom qilgandan keyin ikki yilgacha Boku va atrof qishloqlarda leksiya o‘qimak shart qilindi. Emdi Muhammadyor, baxtiyor o‘lmish baxt qushini qo‘lina qo‘ndirmish edi. Bo‘necha tortgan mashaqqatlarning mevasini bundan keyin bilgan edi. Qaysi millatina moli joni ila xizmat qilajak edi.

O‘z vatanidan va vatandoshlaridan yordam ko‘rmagan Muhammadyor Boku yoshlaringin himmatlari ila umidig‘a yetushdi. Ya’ni, shahar maktabiga doxil o‘ldi... Demak, eng muqaddas amaliga — maqsadiga yetdi... Endi oz bo‘lsa ham o‘zini xor qilgan vatan va vatandoshlariga xizmat qilajak edi... Muhammadyor o‘z vatanini, o‘z yurtini va o‘z joyini tushunar va yig‘lar edi... Bir kuni kech, asr vaqtinda «Shahar bog‘cha»sig‘a kirib skameykada o‘ltirib gazeta ko‘rar edi... ko‘rdiki: «Turkistonda birinchi martaba teatru»

O‘qib biturdi-da, shodlig‘indan qayda o‘tirganini unutib, sakrarga boshladi... Shul vaqt yoniga Boku yosh muharrirlaridan bir do‘sti kelub o‘ltirdi... Muhammadyorni sakraganini ko‘rib hayron bo‘ldi. Etagindan tortib, skameykaga o‘ltirg‘izub,— Muhammadyor afandi! Nima bor, bu qadar sevinch?—dedi. Muhammadyor yolg‘iz:

— Turkistonda birinchi m... m-m-m... m... marotaba tiyo... t... t... t... tru — dedi-da... qoldi. Bokuli muharrir bir oz o‘ltirub qarasa, kech soat 12 bo‘lubdur. Bog‘chada hyech kim qolmag‘an. Muhammadyor turib bog‘chadan chiqdi. Imtihon vaqtı yaqin bo‘ldig‘idan Muhammadyor kecha va kunduz harakat bilan chalishmoqda edi. Nihoyat imtihon bo‘lib o‘tdi. Muhammadyor birinchi bo‘lub imtihon berub chiqdi... Muhammadyor kecha-kunduz tinmay harakat qilg‘onlikdan yengil bir xastalik arz bo‘la boshladi. Tabiblar tavsiyasi ila «Borjo‘m» suvlariga borib, bir oy qadar davolatub tuzalib qaytdi.

Yana shul «Boku jamiyatı xayıriysi»ning yordami ila Muhammadyor Boku gimnaziyasiga kirdi... Muhammadyor gimnaziyaga kirgandan keyin gimnaziya darslariga shul qadar muhabbat qo‘ydiki, bayram kunlarida ham chiqmas edi. Soat o‘tdi, kun o‘tdi... yil o‘tdi... Muhammadyorni gimnaziyadan ham chiqar vaqtı bitdi. Nihoyat, imtihon ham bo‘lib o‘tdi. Gimnaziya imtihonida ham Muhammadyor birinchi bo‘lib oltin medal oldi. Yana «Jamiyatı xayıriya» yordami va Boku boylarining himmatlari ila Petrog‘rad dorilfununing tib sho‘basiga kirdi. Muhammadyor dorilfununga kirgandan so‘ng ikkinchi yili vatani Turkistonning madrasa shogirdlari hayotindan olib «Umrik shogirdlar» nomli bir ro‘mon yozdi. Ro‘monning 12 juz‘i bo‘lib, Turkistonda hanuz mundog‘ milliy maishatdan olingen katta ro‘mon chiqmagan edi. Hattoki bu ro‘mon Petrog‘radda muntashir rus jurnallaridan birisida ruscha tarjima etilib bosildi. Bu ro‘mon shunday mohirona yozilg‘on ediki, madrasada qirq, ellik yil turg‘onda ham mundog‘ yaxshi va shogirdlarning madrasada o‘qimay samovarlarda davr surganliklarini yozmoq mumkin emas edi. Dorilfununni tamom qilib chiqishig‘a byr yil qolganda poytaxt chunonchi Moskva va Petrog‘raddagi Turkistonli maskovchi boylar hayotindan olib, «Poytaxt mehmonlari» nomli bir teatru kitobi yozdi. Bu kitobda ilmsiz boylarning poytaxt nomerlarinda til bilmay, ilm bilmay va ajnabiylar tarafindan o‘zlarig‘a qilg‘an haqoratlар g‘oyat mohirona suratda ko‘rsatilmish edi. Bu kitobni ham Muhammadyor o‘zi ruscha tarjima qilib nashr qildi. Petrog‘rad teatrularindan birisinda ba’zi bir student rafiqlari ila o‘zining maishatini ta’min qilmoq uchun sahnag‘a qo‘yib, kitobda eng birinchi bo‘lgan «Xo‘ja bin...» rolini Muhammadyor o‘zi olib, ko‘b olqishlarga manzur bo‘ldi. Bir teatrudan rasxoddan tashqari o‘z maishatiga sarf foyda bo‘lib, 3000 so‘m qadar qoldi...

Nihoyat imtihon vaqtı yetib, Petrog‘rad dorilfununing xib sho‘basidan birinchi bo‘lib imtihon berib, do‘xtirlik shahodatnomasi oldi... Yana vataniga qaytmadi. Bokudagi himmatli boy va o‘zining teatrudan oldig‘i pullari ila bu Turkistonli shogird Isvech (Shvetsariya) dorilfununlarig‘a tajriba uchun yugurdi... Petrog‘rad vokzalida kechki poezddan butun maktab orqadoshlari Mo‘hammadyorni uzatmoqdalar edi... Bir Turkistonli kambag‘al bola harakat va g‘ayrat orqasinda Rusiya maktablarin bitirib, Ovruponi eng olg‘a ketgan Mamlakatlaridan Isvechga o‘qimoqqa ketadur...

Mana, g‘ayrat samarasi... mana, g‘ayrat mevasi. Mana, harakat gullari... ib-rat... ibrat... ibrat... Mana, «Jamiyatı xayıriya» foydasi, mana, ittifoqlik samarasi, mana, birlik mevasi...

Bizning Turkiston bolasi nihoyat «madaniyat yo‘rg‘asi» ila Isvechning poytaxtiga borib, dorilfununni tib sho‘basiga some' yozildi... Bechora shogird 7 sana Isvechda ochlik va to‘qlik bilan sabru sabot ila yugurdi, nihoyat Isvechdan ham

qaytarga yo‘lga chiqib Italiya-Turkiya, Rumaniya-Bulg‘oriya tuproqlari ila aylanib Odisaga, Odisadan to‘g‘ri Bokug‘a keldi.

Boku vokzalinda butun Boku yosh ziyolilari Muhammadyorni qarshi olib, o‘zining «ma’naviy otasi»nikiga olib borib, tushushib, Muhammadyorning sharafina 50—60 kishilik bir ziyofat berishdilar. Muhammadyor Bokuda ochilgan «Islom tib kursi»da uch yil muallimlik qilib, o‘z vatani Turkistonga qaytmoqchi bo‘ldi... va ondagi «ma’naviy otasin»dan ruxsat olib, jaholat daryosinda suyuna-suyuna suzmoqda bo‘lgan vatani Turkistonga qaytib, qo‘ldan kelgan qadar xizmat qilmoqqa maslahat so‘radi. Ma’naviy ota ro‘xsat berib, kech paroxod iskolasida Boku yosh ziyolilari uzatmoqdalar edi. Ma’naviy ota ustiga «Boku yodgori» yozilgan bir oltin soatni Muhammadyorga berib, andagi ziyolilarga qarar bir qisqa nutq o‘qimishni Muhammadyordan tiladi... Muhammadyor paroxod ustidan turib ziyoli yoshlarga xitob qilib qisqacha bir nutq o‘qidi. Hozirun Muhammadyorni chapak ovozlar olqishlab, chechaklar irg‘itmoqda boshladilar. Nihoyat, paroxod hushtak berib, dengiz suvlarini to‘lqinlantirib, Turkistonga qarab yurdi...

Muhammadyorning paroxod ustida ziyolilarga xitoban o‘qigan nutqi:
— Ey, ma’naviy akalarim! Va ey, ma’naviy otalarim!.. Men bir faqir shogird edim, keng Turkistonning eng qorong‘u go‘sasidan ilm va ma’rifat istab shahringizga keldim. Siz himmatlilarning himmati millatparvaronalarining iltafsili ilmni Rusiya dorilfununlaridan o‘tub Ovrupo dorilfununlariga qadar bitkuzdim. Ishta bu hammasi «Jamiyat xayriya» va «Nashri morif» jamiyatlarining samarasidir. Men ham vatanimga yordamim ila qo‘llarimni shimarib, jaholatda qolgan qardoshlarining uyg‘otmoq va turg‘uzmoqqa g‘ayrat qilaman. Ma’naviy shahrim bo‘lgan Boku va ma’naviy otonalalarim bo‘lgan sizlarga samimi tashakkurimni arz aytib va jaholat daryosining ajdar baliqlari bo‘lgan biz Turkistonlilarning uyg‘onmog‘imiz va yo‘l topmog‘imizga yordamlashishingizni hammalariningizdan bajo etaman... (So‘zi shul yerga kelganda paroxod sekin-sekin qo‘zg‘almoqda edi.) Xayr, boringiz sog‘ o‘lungiz otalarim, akalarim va suyukli og‘alarim,— deb nutqini bitirdi...

«Madaniyat balig‘i» Suvni o‘rtasidan yorub, bir dohini va bir xodimni vataniga sudrab olib ketar edi. Nihoyat, latif havoli bahor faslida daraxtlar chiqargan barglar kabi qo‘m-ko‘k millat dardida yo birorta nozaninning ishqida va yo birorta xonimning changalida ezilib, yuraklari qizil gul kabi qonga to‘lganlarga eng birinchi tasalli beradirgan va onlarga buyuk ruh va umid beradirgan to‘lqinli dengizdan vahshiy (yovvoyi) odam degan bir narsa yashagan yer yuziga chiqdi. «Madaniyat yo‘rg‘a»siga mindi, qani haligi yumshoq latif havoli dengizlar va suvlar? Qani haligi dengiz suvlarini to‘lqinlatib yuradigan shamollar? Qani 3—4 yil avval Isvechda, Fransiyada, Italiyada, xususan Alp tog‘larida ko‘ringan latifliklar? Qani Alp tog‘lari ustida ishlab topgan puliga va dunyosiga to‘y qilmay, uloq chopdirmay, bachcha o‘ynamay, eshon, mullalarga va qorni yo‘g‘onlarga yaltiragan to‘nlar kiygazmay suyuklu o‘g‘lini o‘qitgan va tarbiya qilgan Isvech qishloqlari, qani 7—8 qavatlik ziynatlik tog‘lar va qadrxonalar? Hozir onlar yo‘q! Oni o‘rniga pastgina xashak va loydan yasalgan binolar va onlarda sag‘ir bir holda yashagan musulmonlar! Topganin bachcha, uloq va ichkilikka ham domla-eshon va boylarga shaldiratib to‘n va zarboflar bergen boylar qo‘linda qul hukminda bo‘lib yurgan o‘zbeklar, qozoqlar, turkmanlar va hammasi musulmonlar...

Oh!.. Oh!.. Bu razolat va safolatni o‘z millatida, o‘z xalqida ko‘rib taraqqiy tamadinlarini ko‘rmoq ko‘pni bilgan, ko‘pni ko‘rgan va hamma narsadan xabardor Muhammadyorga g‘oyat og‘ir tuyulur edi. Ba’zi vaqlarda ko‘zidan yoshlar oqar edi. Uning ustiga, vagon ichida pish-pish uxlagan va bilet yo‘qotib konduxturlardan tayoq yegan betartib yana musulmonlar edi... Ortiq Muhammadyor sabr qilib turolmadi. Poezdning balkoniga chiqib uzoqlarda ko‘ringan haybatli, qop-qora va ustlarida ko‘m-ko‘k maysalar o‘sib chiqqan tarixiy tog‘lar — ota-bobolarini davrlarinda onlarga buyuk qal’alik hukmini olgan tog‘lar, tepaliklar, balandliklar, suvlar, o‘rmonlar, daraxtzor va qumzorlarni yaltiragan ko‘zları ila tomosha qila boshladi... Chiroylit manzaralari, uzoq, buyuk, yashil va baland-balad tog‘lari Isvechdan kam emas edi. Nahr-nahr oqib turgan suvlari va nima eksa shuni olsa bo‘ladigan mahsuldor tuproqlari ila Amriqodan hyech kamligi yo‘q edi. Ilmsiz boylari, johil «olim»lari, yolg‘on eshonlari va isrofni koni bo‘luvi ila hyech bir narsaga o‘xshamas edi... Xitoylar ham bu darajada yalqov (xushyoqmas) emas edilar!..

Xalq o‘z foydasin anglasa, milliy maktab va madrasalar ochsa, Ovrupo dorilfununlariga bolalarin yuborsa, do‘xtur, advokat, muharrir va hunarmand, savdogarlar va muhandis (injener)lar chiqsa — bularning har biri o‘z vazifalarida turub ishlarin tartibi ila yurg‘uzsalar va xalqimizning foydasini kuzatsalar, na qadar oliy va naqadar go‘zal bo‘lur edi!.. degan xayollar ko‘ngliga kelur edi. Faqat bularni bo‘lishiga ko‘zy yetmas edi. Chunki borgan sari orqaga qarab ketmoqdamiz... Taraqqiy asari hyech ko‘rinmasdan bir ta-raqqiyya mingtadan tayyor turadir. Yo‘q, yo‘q! Faqat Muhammadyorga o‘xshagan ziyolilardan har shaharda bir-ikki chiq qoshlasa vujudga chiqar edi, deyarga ham bo‘lur edi... Muhammadyorning o‘z shahriga kelguncha ko‘p fikrlar ila boshi aylandi...

O‘z shahrining stansiyasiga ham kelib tushdi. Yurib-yurib, yana o‘z vatani va o‘z joyiga keldi. Muhammadyor ketgandan beri o‘z shahridan ham 5—10 ziyoli yoshlar yetishgan edilar. Muhammadyorni onlar kutib oldilar. Arobaga o‘ltirib, eski shaharga to‘g‘ri yuraboshladilar. Shaharning ruslar turadirgan qisminda ajab darajada o‘zgarishlar: yangi-yangi nomerlar, bog‘lar, bog‘chalar, magazinlar, teatrular, maktablar, metropol; yo‘llar tosh, ko‘chalar keng, elektrik fanorlar — Isvechga o‘xshar edi!.. Faqat shaharning musulmonlar turadirgan qismi avval qanday bo‘lsa, yana shunday erdi. Yana xafalik... Muhammadyor o‘z hovlisining oldiga kelib tushdi. O‘z hovlisining imoratlarini Ovrupo usulida solingan ko‘rdi. Avval imoratlarni soluvchi va 225 so‘mg‘a 6 oyg‘a Muhammadyordan ijaraga oluvchi o‘rus ekan, ko‘rib Muhammadyor o‘ruscha o‘zini tanitdi.

O‘rus Muhammadyorga qarab:— «Sizdan men muni ijaraga 6 oyga oldim. Olti oy o‘tdi hyech kim chiqmadi, bir yil o‘tdi hyech kim chiqmadi, uchinchi yilda men ushbu imoratni soldim. 5—10 ming so‘m ketdi. Faqat bundan uch yil avval sarf qilgan pulimni imoratingizdan chiqarib oldim. Uch yildan beri uch ming so‘mdan to‘qqiz ming so‘m foyda qildim. Joyingizni tezlik ila bo‘shatib beraman ham qo‘lingizga besh ming so‘m pul beraman, qolganini afu etasiz»,— dedi.

Muhammadyor: — «Agarda joyingiz bo‘lmasa o‘tirib turing. Menga yolg‘iz shul joydan ikki adad xona bersangiz bo‘ladir», desa ham o‘rus:—«Menim boshqa yaxshi joyim bor, shunga ko‘chaman. Men sizga 9 ming so‘m qilgan foydani bersam ham bo‘lur edi, ammo to‘rt ming so‘m orada ba’zi islohlariga ketdi»,— dedi.

Muhammadyor suyuna-suyuna rizo bo‘ldi. Ertasi kuni rus hovlisini bo‘shatib, besh ming so‘m berib ketdi. MuHammdyoR keng joyda rohat-rohat to‘ra boshladi, Ostidagi magazinlarni yana ijaraga qo‘yib, hukumatning ruxsati ila yuqori xonada bir xususiy shifoxona ochdi. Boylardan olib, hyech narsasi yo‘q faqirlarni pulsiz davolay boshladi. Har kun 50—60 so‘m do‘xtirlikdan xususi bor edi.

Bir qishloqning bir yeridan ikki tanob keladirgan bog‘cha olg‘on edi. Muhammadyorning g‘ayrati ham xudo bergen baxti ila naft (yoqiladirgan yog‘) koni chiqdi. Hozir Muhammadyorga millionlar ila ish ko‘rurga to‘g‘ri kelur edi. Bir tarafdan o‘z ishlarin yo‘lga qo‘yub, ikkinchi tarafdan yoniga 5—10 miqdori ziyolilardan olib, ruxsatli «Jamiyat xayriya» ochdi. «Jamiyat xayriya»ga o‘zi ko‘p aqcha berdy. Shaharda bir musulmon qiroatxonasi ochildi. Shu yili Muhammadyor haftalik «Vatan» ismli bir rasmiy journal ila «Xabar» ismli kundalik bir gazeta nashr etarga boshladi. Muhammadyor bir hunar maktabi ocharga peshvozlar qilsa ham ko‘p mone’lar chiqib, oni o‘rniga yozliq muallimlar kursi ochilib, yoz vaqtida muallimlarga har xil ta‘lim yo‘llari, tarbiya usullari haqinda o‘qitmoqdalar va leksiyalar boshlandi. Shundog‘ qilib, kichkina bir shaharda «Maorifxona»lar ko‘paymoqda va boshqa shaharlarga o‘rnak bo‘lmoqda edi.

15-mavzu. Abdulla Qodiriy “Baxtsiz kuyov” pesasi. Jadidchilik va Abdulla Qodiriy hikoyalari. Hajviy asarlari. Birinchi roman-“O’tkan kunlar”ning yaratilishi.

TARQATMA MATERIAL

YOZISHG‘UVCHILARIMIZGA

«Mushtum» o‘zining yozishg‘uvchilarning samimiyatini, dardini yaxshi biladir. Chunki dard bo‘lmasa, samimiyat bo‘lmasa, biz podachini qo‘lida kaltagi bilan ko‘rmas edik.

Biz bu o‘rinda shu samimiy yo‘ldoshlarimizga, qo‘ldoshlarimizga, bir-ikki og‘iz gap sotmoqchi bo‘lamiz: siz bir muhitda yashaysiz, ya‘ni qishloqda, shaharda yoki ko‘yda. Shu o‘zingiz yashagan muhitda, shubhasiz, dag‘allik bor, qo‘pollik bor, qing‘irlik bor, qiyshiqlik bor. Shu anosiri arbaadan qaysi bo‘lsa bo‘lsin, mutaoqib sizning ijtimoiy ruhingizga o‘zining chuchmal ta’sirini bermay va nafratingizni uyg‘otmay qo‘ymaydilar. Albatta, shu vaqt «Mushtum»ni o‘ylab qo‘lingizga qalam olasiz. Ammo shu qalam olishdan ilgari birmuncha andisha lozimdir: shoshmaslik kerak. «Shoshgan qiz erga yolchimas» maqolini balki eshitganingiz bordir. O‘n karra o‘lchab, bir martaba kesmoq yaxshi:

- 1) siz olgan mavzuning ijtimoiy va siyosiy manfaati;
- 2) qosh qo‘yib, evaziga ko‘z chiqarmaysizmi;
- 3) masala zamirida shaxsiy manfaatingiz, ya‘ni oldi-berdi jan-jalingiz yo‘qmi...

Bu jihatdan kanoatingiz tom bo‘lsa, endi navbat qalamnikidir. Yaxshi bilish kerakki, qalam — o‘qlog‘i, matbuot — ketmon bozori emas. Yo‘sinsiz ravishda xotiraga kelgan xar bir so‘zdan jumlalar to‘qimoq fazilat sanalmaydi. So‘z — qolip, fikr uning ichiga quyilgan g‘isht bo‘lsin, ko‘pchilik xumdonidan pishiq chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo‘lib yotsin!..

So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining o‘ziga tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli, yozuvchilik — aytmoqchi bo‘lgan fikrni hammaga barobar anglata bilishda, oraga anglashilmovchilik solmaslikdir. Bundan boshqa, fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so‘z va jumlalarga yozuvda aslo o‘rin berilmasligi lozim. Shundagina iboraning tuzatib bosilishiga yo‘l qo‘ymagan va mustaqil uslub va ifodaga ega bo‘lib, o‘zingizning qalamdagি istiqbolingizni ta‘min qilgan bo‘lasiz. Kishiga ishonish va behuda kuchanish ma‘qul gap emas, birovga orqa qilib, o‘zingizda bo‘lgan talantning ruhiga fotiha o‘qiy ko‘rmangiz! Bir soatda emas, o‘n soatda yozish, bir qayta emas, o‘n qayta tuzatish kishining yordamiga termulishga qaraganda ham foydalik, ham umidlidir.

O‘QISH-O‘RGANISH *(Mayda hikoyalar yozganda so‘zni qanday tejash kerak)*

Mayda hikoyalar ustasi Chexov so‘z to‘g‘risiga kelganda haddan tashqari xasis, ortiqcha so‘zlar sarf qilish u yoqda tursin, kerakliklaridan ham mumkin qadar yulishga harakat qiladi. O‘zi aytadi: Mayda hikoyalar yozganda so‘zni ortiqcha isrof qilgandan ko‘ra kerakliklarini ham mumkin qadar ozroq ishlatish kerak». Uning hikoyalarida so‘z isrofgarchiligiga sabab bo‘ladigan ortiqcha detallar ham bo‘lmaydi. U butun detallarni o‘zi aytgan asosda ishlatadi. «Birinchi ko‘rinishda miltiq bo‘lsa, shu miltiq uchinchi yoki to‘rtinchi ko‘rinishda albatta otilishi kerak, yo‘qsa miltiq to‘g‘risida so‘zlashning hojati yo‘qdir».

Uning «Buqalamun» hikoyasi ham boshqa hikoyalariday g‘oyat siqiq, quyuq yozilgandir.

Uning so‘zga xasisligi o‘quvchiga malol kelmaydi. Yani, aytmoqchi bo‘lgan fikrining tushunilishini og‘irlashtirmaydi. «Buqalamun»da voqyea yilning qaysi faslida bo‘layotgani aytilmaydi, ammo bundagi so‘zlardan faslni aniqlash mumkin (Albatta, bu so‘zlar yilning faslini bildirish uchungina keltirilmaydi). «Paltomni yech-chi, yeldirin...

Kun juda isib ketdi... yomg‘ir yog‘sa ham ajab emas». Quyidagi so‘zlardan voqyea tushki ovqatdan keyin bo‘layotganini ham bilib bo‘ladi: «Tevarak jim. Maydonchada hyech kim ko‘rinmaydi. Do‘kon va qovoqxonalarning eshiklari ochiq. Huvillab turadilar. Bu eshiklar yonida gadoy u yoqda tursin, bir zog‘ ham ko‘rinmaydi».

Mana bular ikki maqsad ko‘zda tutilib aytilgan so‘zlar bo‘lib, ikkinchi maqsad mantiqiy ravishda birinchisidan kelib chiqadi.

Detallar (voqyeani tashkil etgan voqyeachalar) ham yolg‘iz qolib, keraksiz so‘z bo‘lib qolmaydi. Masalan, hikoyaning boshida «Ochumelov yangi shinel kiygan», deyilgan ekan, bu nariroqqa borib, shinelning yechilishi, yana kiyilishi bilan bog‘lanadi.

Xryukinning o‘ng qo‘lini yuqoriga ko‘tarib, xaloyiqqa qonagan barmog‘ini ko‘rsatishi, uning: «Endi, shu majruh barmog‘im bilan ehtimolki bir hafta ishga yaramasman», degan arzi Ochumelovning: «Sen ahmoq, qo‘lingni tushir! Ayb o‘zingda!», deb qichqirishi bilan bog‘langan.

Hikoyani «sersuv» (ko‘p suqli) qiladigan narsalardan biri ko‘rsatish o‘rniga so‘zlab berishdir. Agar Ochumelovning «Buqalamun» ekanini uning so‘zları orqali

ko'rsatilmasa, avtor tomonidan ta'riflansa, dunyo-dunyo so'z ketar edi. Chexov buni o'zi aytib bermasdan, Ochumelovning o'z so'zi bilan ko'rsatadi. Ochumelovning dastlabki fikri:

— «Itni o'ldirish kerak, quturgan bo'lsa ham ajab emas». It generalga qarashli, deyilgandan keyin:

— «It nozik, sen ho'kizday, bo'yingga qara!» Yana, it generalniki emas, deyilgandan keyin:

— «Generalning itlari qimmatbaho narsalar edi. Bu bo'lsa, egasiz daydi itga o'xshaydi. Epaqalik yungi ham yo'q. Shunday bema'ni itni ham saqlaydimi kishi!»

Yana, it generalniki, deyilgandan keyin:

— «Balki qimmatbaho zotli itdir».

Oshpaz, it generalniki emas, degandan keyin:

— «Bu egasiz daydi it».

It generalning ukasiga qarashli ekani ma'lum bo'lganda:

— «Yaxshigina it ko'rindi. Ulguncha yugurdak ko'rindi». Mana bu dialoglarga avtorning hyech qanday izohi kerak emas. Bu dialoglar ham voqyeani siljitudi, ham hikoya qahramoni Ochumelovni xarakterlaydi. Chexov uslubidagi ayrim xususiyatni sezgan L. Tolstoy bunday degai edi: «Chexovning impressionistlarga o'xshagan o'ziga xos formasi bor... Yaqindan qarasak, xuddi har bir to'g'ri kelgan va bir-biriga aloqasi bo'limgan bo'yoqlarni farq qilmasdan ishlatganga o'xshaydi, ammo uzoqroqdan qarasang, bu bo'yoqlardan ajeшиб bir manzara vujudga kelganini ko'rasan».

Tolstoying bu so'zi Chexovning o'z so'ziga juda mos keladi. U deydi: «Tabiatni tasvir qilishda mayda bo'laklar olish va bularga shunday tartib berish kerakki. o'qib ko'zingni yumganingda ko'z oldingga bir manzara kelsin». «Buqalamun» hikoyasining biron so'zini chiqarib tashlash yoki biron so'zni qo'shish mumkin bo'limganligi, so'zga naqadar diqqat qilinganligini ko'rsatadi.

O'ZBEK MUMTOZ VA MILLIY UYG'ONISH ADABIYOTI

fanidan test topshiriqlari

Fan bobi	Fan bo'limi	Qiyinlik darjası	Test topshirig'i	To‘g‘ri javob	Muqobil javob	Muqobil javob	Muqobil javob
1	1.1	1	“Tarixi Muhojiron” asari muallifi kim?	*Dilshod Barno	Anbar otin	Muqimiy	Is'hoqxon Ibrat
1	1.2	1	«Dar bayon ta'rifi va tavsifi Toshkand» qasidasi qaysi shoirning qalamiga mansub?	*Komil Xorazmiy	Furqat	Avaz O'tar o‘g‘li	Zavqiy
1	1.1	1	Ma'rifatparvarlik g‘oyalari qaysi davr o‘zbek adabiyotida yetakchi o‘rinni egallagan?	*XIX asr oxiri va XX asr boshlari adabiyotida	XV-XVI asrlar adabiyotida	XVI-XVII asrlar adabiyotida	XVIII-XIX asr boshlari adabiyotida
1	1.4	1	Ahmad Tabibiyning dostonlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping	*“Mazharul ishtiyoq”, “Latoyif ut-tavoif”, “Vomiq va Uzro”	“Navodirul vaqoe”, “Dahmai shohon”, “Dahmai shoh Dabbus”	“Tarixi muhojiron”, “Ra'no va Zebo”, “Qissai Salim Javhariy”	“Tuhfatus sulton”, “Munisul ushshoq”, “Hayratul oshiqin”
1	1.1	1	O‘z davrida “toji shoiron” deb e'zozlangan shoir kim edi?	*Muhyi Ho‘qandi y	Furqat	Zavqiy	Nodim Namangoniy
1	1.3	2	“Ma'lum bo 'lsunkim, xon hazratlari bag‘oyat mushfiqfuqaro, bag‘oyat xayrdo 'st kishi erdilar. Ko‘p madrasalar va masjidlar bino qildilar...Alhaq ko‘p	*Muhammad Rahimxon Feruz. Muhammad Yusuf Bayoniy	Amir Umarxon, Is'hoqxon Ibratning «Tarixi jadidai Toshkand» asrida	Azizbek. Muhammad Solihning «Tarixi jadidai Toshkand»	Muhammad Rahimxon Feruz. Ahmad Tabibiy. “Majmuatush shuaroi Feruzshohiy”

			<i>yerlarni obod etdilar.”</i> Mazkur ta'rif qaysi hukmdorga berilgan va parcha qaysi tarixiy asarda keltirilgan?	«Shajarai Xorazms hohiy» asarida	asrida		asarida
1	1.1	1	Xiva shahrida litografiya birinchi bor qachon tashkil etildi?	*1874	1870	1880	1884
1	1.1	1	O'rta Osiyo xalqlarini ruslashtirish, mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash uchun xizmat qilgan rus-tuzem mактabi Toshkentda birinchi marta qachon ochildi?	*1884	1870	1875	1882
1	1.1	2	Turkiston o'lkasi Rossiya tomonidan qachon bosib olingan va qaysi tarixiy asarlarda mazkur istiloning dahshatli manzaralari aks etgan?	*1853- 1885 yillar. «Shajarai Xorazms hohiy» (Bayoni) , «Tarixi Farg'ona » (Is'hoqx on Ibrat)	1873-76 yillar. «Buxoro tarixi» (Narshaxiy , «Samariya » (Abu Tohirxoja) .	1873-76 yillar. «Shajarai Xorazmsho hiy» (Bayoni), «Tarixi Farg'ona» (Is'hoqxon Ibrat).	1865-68 yillar. «Tarixi jadidai Toshkand» (Muhammad Solih), «Tarixi muhojiron». (Dilshod Barno)
1	1.1	1	XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida yashab ijod etgan diniy- tasavvufiy yo'nalishdagi shoirlarni ko'rsating	*Saryom iy, Haziniy	Furqat, Zavqiy	Muqimiy, Saryomiy	Muhyi, Komil
1	1.1	2	Munis va Ogahiyarning tarixnavislik faoliyatini davom ettirgan ijodkorni ko'rsating	*Bayoni y	Is'hoqxon Ibrat	Komil Xorazmiy	Tabibiy
1	1.6	1	Namangan hududida	*Is'hoqx	Mahmudx	Nodim	Hayrat

			birinchi marta bosmaxona tashkil qilgan mutafakkirni belgilang	on Ibrat	o'ja Behbudiy	Namangoni y	To'raqurg'oniy
1	1.4	2	Ultarma, Do'rmoncha, Bo'r baliq, Oltiariq kabi qishloqlar Muqimiy «Sayohatnoma»sining qaysi yo'nalishida keltiriladi?	*«Qo'qo ndan Shohima rdonga».	«Qo'qond an Farg'onag a».	«Qo'qondan Isfaraga».	«Shohimardon xotirasi».
1	1.4	2	Muqimiy qalamiga mansub bo'lган lirik she'rlarini belgilang	*«O'zim har joydama n, ko'nglu m sandadur », «Yodimg a tushdi».	«Istar ko'ngul», «Fasli navbahor o'ldi».	«Kelmasa- kelmasun netay», «Yuzingni ko'rsatib avval...».	«Sallamno», «Xalq».
1	1.4	3	Fazlulloh Almaiyning <i>Ey, xayoli jonim ichra, tanda jon yanglig' hayot,</i> <i>Kelki sensiz talx bo'ldi jonima totlig' hayot.</i> matla'li g'azaliga qaysi shoir muxammas bog'lagan?	*Muqimi y	Furqat	Kamiy	Muhyi
1	1.4	3	<i>Kelganim ushbu makonga qiladur menga alam,</i> <i>Loyiqi tab' yo'q odamki, desam hasratu g'am, ...</i> misralari Muqimiyning qaysi asaridan olingan?	*«Oqjar odamlari haqida muxamm as»	«Lolazor aylab keling»	«Kim desun».	«Halovat ko'rmagan jonim».

			<i>Qoziyu mufti, a'lam doim hazinu ma'yus, Din posini tutay deb zindoni g'amda mahbus,</i> <i>Bechoralar na qilsun bo 'lsa siyosati Rus,</i> <i>Qo 'ymaydi bir tarafdin xalq ichra nangu nomus...</i> Mazkur misralar qaysi ijodkor qalamiga mansub?	* Furqat. “Munojo ti musadda s”.	Zavqiy. “Zamona kimniki”.	Nodim. “Dar mazammati zamona”.	Muqimiy. “Toleim”.
1	1.5	3	Karimbek Kamiyning ijtimoiy mazmundagi she'rlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.	* “Al- amon”, “Yo rab zamona xalqi”.	“Dar ta'rifi tavsifi ilm”, “Ayo, ey mulla Foziljon qori”.	«Maskovchi boy ta'rifida», «Tanobchila r».	«Voqyeai Viktor», «Voqyeai ko‘r Ashurboy Hoji».
1	1.4	1	Muqimiy birinchi marta Toshkentga qachon sayohat qildi?	*1887- 88.	1875-76.	1880-81.	1886-87.
1	1.5	2	Furqatning «Sayding qo'yaber, sayyod» deb boshlanuvchi mashhur musaddasiga qaysi shoir muxammas bog‘lagan?	*Nodim.	Muqimiy.	Zavqiy.	Muhyi.
1	1.4	2	Hodixo‘ja eshon Muqimiy satiralaridan qaysi birining bosh qahramoni?	*«Masko vchi boy ta'rifida».	«Tanobchi lar».	«Choyfurus h».	«To‘y».
1	1.2	2	Faxriddin Ali Safiyning «Latoyifut-tavoyif» asarining tarjimonini aniqlang.	*Komil Xorazmi y.	Ogahiy.	Avaz O‘tar o‘g‘li.	Bayoni.
1	1.4	1	Ahmad Tabibiy qalamiga mansub	*«Vomiq va	«Jangnom a».	«Jome'ul havodis».	«Majididdin va Faxriniso».

			dostonni aniqlang.	Azro».			
1	1.5	2	“Zubdatul-hukamo” unvoniga sazovor bo‘lgan shoir nomi to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping	*Furqat.	Tabibiy.	Hamza.	Ahmad Donish
1	1.5	2	Qaysi javobda furqatshunos olimlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	*Holid Rasul, Sharif Yusupov , Nurboy Jabborov .	Vohid Abdullaev, Natan Mallaev, Olim Sharafuddinov.	Vadud Mahmud, Abduqodir Hayitmetov, Subutoy Dolimov.	Begali Qosimov, Sodir Erkinov, A.Hojiahmedov, A.Xayitmetov.
1	1.6	2	“Madaniyat haqida masnaviy”, “Tarixi chopxona”, “Gazeta xususida” she'rlari muallifi kim?	*Ibrat.	Avloniy.	Fitrat.	Hamza.
1	1.4	2	Fazluloh Almaiyning “Hayot” she'riga qaysi shoir muxammas bog‘lagan?	*Muqimi y.	Furqat.	Komil Xorazmiy.	Feruz.
1	1.5	1	«Furqat yo‘llarida» asari qaysi adabiyotshunos olim tomonidan yozilgan?	*Sharif Yusupov	G‘ulom Karimov	Abduqodir Hayitmetov	Holid Rasul.
1	1.5	1	Furqat «Ahvolot» nasriy asarini qaerda yozdi?	*Toshke ntda.	Qo‘qonda.	Marg‘ilonda .	Farg‘onada.
1	1.6	1	Is’hoqxon Ibratning «Jome’ul xutut» asari qaysi sohaga bag‘ishlangan?	*Tilshun oslikka oid.	Tarixiy asar.	Adabiyotsh unoslikka oid.	She'riy to‘plam.
1	1.6	1	Is’hoqxon Ibrat qaerda ta’lim oldi?	*Qo‘qonda.	Toshkentda.	Istambulda.	Buxoroda.
1	1.6	1	Is’hoqxon Ibrat «Matbaai Is’hoqiya»ni dastlab qaerda ochdi?	*To‘raqo ‘rg‘onda.	Namangan da.	Chustda.	Farg‘onada.
1	1.6	1	Is’hoqxon Ibratning	*Husni	She'riy	San'atshuno	Adabiyotshuno

			«San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy» qanday xarakterdagi asar?	xat turlarini o‘rganish .	to‘plam.	slik.	slikka oid
1	1.4	2	Quyidagi hajviy asarlardan qaysi biri Muqimiy qalamiga mansub emas.	*«Hajvi Viktur».	«Maskovchi boy ta'rifida».	«Dar shikoyati Laxtin».	«Voqyeai ko‘r Ashurboy hoji».
1	1.7	2	Muhyi vafoti munosabati bilan qaysi shoir ta'rix bitgan?	*Kamiy.	Furqat.	Siddiqiy-Ajziy.	Is’hoqxon Ibrat.
1	1.1	1	«Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti» qaysi davrlarni o‘z ichiga oladi?	*1865-1905; 1905-1917; 1917-1929;	1861-1889; 1889-1916; 1916-1924;	1842-1895; 1895-1914; 1914-1920;	1900-1914; 1914-1917; 1917-1937;
1	1.4	1	Muqimiyning satirik asarlari berilgan javobni toping.	*«Hajvi Viktor boy», «Saylov», «Dar shikoyati Laxtin».	«Qahatlik», «Afandilar», «Ot».	«Hajvi ot», «Pashshalar», «Hajvi ahli rasta».	«Maskovchi boy ta'rifida», «Sipohiylarga», «Tarifi kalish».
1	1.1	3	Quyidagi misralar kimning qalamiga mansub? <i>Bu Ubaydullohning koshonasi,</i> <i>Usta Solih o‘g‘li do ‘konxonasi.</i> <i>Ey birodari ahli tamiz,</i> <i>Eski mahsiyu kavush tikamiz.</i>	*Zavqiy.	Furqat.	Muqimiy.	Nodim.
1	1.1	1	Xiva xonligi nechanchi yilda Rossiya mustamlakasiga aylandi?	*1873.	1865.	1870.	1880.

			Ushbu misralar Muqimiyning qaysi hajviy asaridan olingan? <i>Haqorat qilingan kishilar qolib,</i> <i>Topib boy so 'zi bunda zo 'r e'tibor.</i> <i>Qachon kambag 'allarning so 'zi o 'tar,</i> <i>Agar bo 'lsa aqchang, so 'zing zulfiqor.</i>	*«Voqye ai ko'r Ashurbo y hoji».	«Dar shikoyati Laxtin».	«Voqyeai Viktor».	«Maskovchi boy ta'rifida».
1	1.4	2	«Dukchi eshon voqyeasi» asari muallifini belgilang.	*Fozilbe k Otabek o'g'li.	Muhamma d Solih Qori.	Mirzaolim Mushrif.	Mulla Olim Maxdum.
1	1.1	1	Komil Xorazmiy kashf etgan «Tanbur notasi» va Xorazm maqomlarini notalashtirishdagi faoliyati qaysi ijodkor tomonidan davom ettirildi va nihoyasiga yetkazildi?	*Muham mad Rasul.	Muhamma d Rahimxon.	Ahmad Tabibiy.	Bayoni.
1	1.6	1	«Tarixi madaniyat», «Mezon uz-zamon» asarlari muallifini aniqlang.	*Ibrat.	Furqat.	Ajziy.	Saryomiy.
1	1.1	2	Yusuf Saryomiy asarlari majmui «Bayozi Mavlaviy Yusuf Saryomiy» kim tomondan tuzilgan?	*Tavallo.	Kamiy.	Sidqiy- Xondayliqiy .	Miskin.
1	1.2	2	XIX asr oxirida qaysi o'zbek shoiri Toshkentni madh etib asar yaratgan?	*Komil Xorazmi y.	Furqat.	Muqimiy.	Anbar Otin.

1	1.5	2	Furqatning «Sayding qo‘ya ber, sayyod» musaddasining yaratilishiga qanday voqyea sabab bo‘lgan?	*Sa'dullo ismli xonanda yigitning joniga qasd qilinishi.	Turkman shoiri Andalibning shu mavzudagi she'ri.	. Furqatning Toshkentda bo‘lishi.	Shoirning teatrda olgan taassuroti.
1	1.2	1	Komil Xorazmiy birinchi marta nechanchi yilda Toshkentga kelgan?	*1891	1870.	1875.	1895.
1	1.2	2	«Fuzalo», «Juhalo» she'rlari qaysi shoirning qalamiga mansub?	*Komil Xorazmiy.	Furqat.	Tabibiy.	Muhammad Yusuf Bayoniy
1	1.4	1	«Majmuatush shuaro» tazkirasini tuzgan ijodkorni belgilang.	*Tabibiy .	Komil Xorazmiy	Bayoniy.	Muhammad Rasul.
2	2.1	1	O‘zbek milliy matbuot kuni (1906 yil 27 iyun)ga qaysi gazeta asos qilib olingan?	*«Taraqqiy», (Ismoil Obidiy).	«Sadoyi Turkiston», (Ubaydulla Xo‘jaev).	«Samarqand», (Mahmudxo‘ja Behbudiy).	«Xurshid», (Munavvarqori Abdurashidxon).
2	2.5	1	Fitrat oliy tahsilini qaerda olgan?	*Turkiya .	Olmoniya.	Misr.	Moskva.
2	2.5	1	«Abulfayzxon» dramasida qaysi davr voqyealari ask etgan?	*Mang‘it lar sulolasি.	Shayboniy lar davri.	Amir Umarxon davri.	Chor hukumatiga qarshi kurash.
2	2.6	1	Hamzaning 1905-17 yillarda yozgan prozaik asarini belgilang	*«Yangi saodat».	«Zaharli hayot».	«Tuhmatchi lar jazosi».	«Maysaraning ishi».
2	2.3	1	Quyidagi sayohat xotiralaridan qaysi biri Abdulla Avloniy qalamiga mansub	*«Afg‘on sayohati» .	«Sayohat xotiralari».	«Xotiralar».	«Sayohatnomalar».
2	2.3	1	«Siz va Biz» pesasining muallifi qaysi javobda to‘g‘ri belgilangan?	*Abdulla Avloniy.	. Hamza Hakimzoda Niyoziy.	Mahmudxo‘ja Behbudiy.	Abdulla Badriy.

2	2.3	1	Abdulla Avloniy chop ettirgan gazeta...	*«Shuhrat»	«Taraqqiy»..	«Sadoyi Turkiston».	«Samarqand».
2	2.1	1	«Mir'oti ibrat» dostonining muallifi kim?	*Siddiqi y-Ajziy.	Behbudiy.	Avloniy.	Hamza.
2	2.3	1	«Hijron» qaysi shoirning taxallusi.	*Avloniy .	Hamza.	Ibrat.	Xislat.
2	2.8	1	Cho‘lpon 1917 yilga qadar qanday qissa yozgan?	*«Do‘xtur Muxam madyor».	«Uyg‘onis h».	«Buloqlar».	«Tong sirlari».
2	2.8	3	Cho‘lponning «Buzilgan o‘lkaga» she’riga «Tuzalgan o‘lkaga» javob she’rini yozgan shoirni toping.	*G‘ayrati y.	Hamza.	Avloniy.	Fitrat.
2	2.8	1	Cho‘lpon dramasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?	*«Yorqin oy».	«Pinak».	«O‘g‘uzxon ».	«Nurxon».
1	1.7	2	Mardikorlik voqyealariga bag‘ishlangan «Rabo(t)chilar namoyishi», «Rabo(t)chilar kelishi» she’riy asarlarining muallifi kim?	*Sidqiy-Xondayli qiy.	Hamza.	Avloniy.	Behbudiy.
2	2.4	1	«Ravnaqul islom» she’riy to‘plamining muallifi kim?	*Tavallo.	Saryomiy.	Haziniy.	Kamiy.
2	2.3	2	Kim matbuotda Indamas, Tangriqul kabi imzolar bilan asarlar e’lon qilgan?	*Avloniy	Munavvar qori	Hamza	Hoji Muin
2	2.1	2	«Turkiston muxtoriyati» qachon, qaerda o‘rnatildi va qachongacha yashab	*1917 yil noyabr; Qo‘qon, 1918,	1917 yil oktyabr; Toshkent, 1920,	1917 yil fevral; Toshkent, 1924,	1917 yil oktyabr; Xeva, 1924, «Turkiston

			turdi? Quyidagi asarlardan qaysi biri unga bag‘ishlab yozilgan?	«Turkiston muxtoriyatina» (Hamza).	«Qutuldik» (Avloniy).	«Hurriyat mevasi» (Xurshid).	muxtoriyatina» (Hamza).
2	2.7	1	Abdulla Qodiriyning «Padarkush»ga ergashib yozgan dramasini ko‘rsating.	*«Baxtsiz kuyov».	«Juvonboz ».	«Uloqda».	«Jinlar bazmi».
2	2.5	1	Fitratning adabiyot nazariyasiga oid asarlarini belgilang?	*«Aruz haqida», «Adabiyot qoidalari».	«Aruz haqida», «Muxtasar islam tarixi».	«Adabiyot qoidalari», «Muxtasar islam tarixi».	«Adabiyot qoidalari», «Eski o‘zbek adabiyoti namunalari».
2	2.5	1	«Chig‘atoy gurungi» qaerda tashkil topgan?	*Toshkent.	Samarqand.	Buxoro.	Xiva.
2	2.5	1	Fitratning «Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi: bolshevik balosi» degan fikri qaysi voqyea munosabati bilan aytilgan?	*1917 y. Oktyabr	1905 y.	1914 y. Birinchi jahon urushi.	1916 y. qo‘zg‘oloni.
1	1.7	1	«Rusiya inqilobi» dostonining muallifi kim?	*Sidqiy-Xondayli qiy.	Siddiqiy-Ajziy.	Kamiy.	Avloniy.
2	2.5	2	«Sayha» janriga ko‘ra qanday asar?	*She’rlar to‘plami.	Hikoyalar to‘plami.	Qissa.	Drama.
2	2.5	1	Fitratning «Munozara» asari ilk marta qachon chop etilgan?	*1909.	1904.	1906.	1914.
2	2.5	2	Fitrat «Munozara»sining o‘zbek tiliga ilk tajimoni kim?	*Hoji Muin.	S.Alizoda.	Vadud Mahmud.	Miskin
2	2.1	2	Fitratning qaysi asarida soxta dindorlar fosh	*«Ro‘zar».	«Abulfayz xon».	«Hind ixtitolchilari	«Muxtasar islam tarixi».

			etilgan?			».	
2	2.5	2	Fitratning yer islohati, dehqonlar hayoti haqida yozgan asarini toping	*«Arslon».	«Zahroning imoni».	«Ro‘zalar».	«Sharq siyosati».
2	2.5	2	«O‘zbek klassik musiqasi ham uning tarixi» asarining muallifini belgilang.	*Fitrat.	Hamza.	Avloniy.	A.Qodiriy.
2	2.5	2	Quyidagi adiblardan qaysi biri Shayton obrazini o‘z asarining markaziy qahramoni qilib olgan?	*Fitrat.	Hamza.	Avloniy.	Cho‘lpon.
2	2.5	1	Fitrat Buxoro hukumati tarkibidan chiqarilgach, qerda ishladi va yashadi?	*Moskva - Leningrad.	Toshkent-Samarqand.	Qo‘qon-Namangan.	Qozon-Ufa.
2	2.5	2	Fitrat 1927 yilda qanday rasmiy xizmatda bo‘ldi?	*Samarqand oliy pedagogika institutida (hozirgi SamDU) professor	O‘zbekiston maorif komissari	O‘rta Osiyo davlat universiteti(hozirgi ToshDU) professori	Nashriyot direktori
2	2.5	2	Fitratning 1924-26 yillarda chop etilgan dramalarini ko‘rsating	*«Abulfa yzxon», «Shayton ning tangriga isyoni», «Arslon».	«Munozara», «Arslon», «Chin sevish».	«Hind ixtilochilar», «Temur sag‘anasi», «Oila».	«Chin sevish», «Hind ixtilolchilar», «O‘g‘uzxon».
2	2.5	1	Fitrat redaktorlik qilgan gazetani ko‘rsating.	*«Hurriyat»	«Samarqand».	«Turon».	«Zarafshon».
2	2.5	2	Fitratning «Mirrix yulduziga» she’ri mavzui va mazmuniga ko‘ra Cho‘lponning qaysi she’riga yaqin	*«Buzilgan o‘lkaga».	«Go‘zal».	«Xalq»	.«Yana oldim sozimni»

			turadi?				
2	2.5	2	«O‘zbek adabiyotida chig‘atoychilik» (1929y) nomi bilan maqola yozib, Fitratning adabiyotshunoslik asarlarini siyosiy qoralab chiqqan mutaxassisini ko‘rsating	*J.Boybulatov.	Otajon Hoshim.	N.To‘raqulo v.	Olim Sharafiddinov.
2	2.5	1	Fitratning «Bedil», «Umar Xayyom» asarlari janriga ko‘ra qanday asarlar sirasiga kiradi?	*Ilmiy-adabiy	Poetik	Prozaik	Dramatik
2	2.6	2	«Sog‘inib», «Salom aytинг» she'rlari Hamzaning qaysi kitobida birinchi marotaba chop etilgan?	*«Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»	«Yangi saodat».	«Devoni Nihoniy»	«Yengil adabiyot»
2	2.3	2	«Zaharli hayot» Avloniyning qaysi asarini esga tushiradi?	*«Ikki muhabbat».	«Pinak».	«Advokatlik osonmi?».	«Biz va Siz».
1	1.1	2	Millatga ilk ta'rif qachon berilgan.	*Demokrit davrida (2,5 ming yil oldin).	XVIII asr fransuz inqilobi davrida.	Navoiy davrida.	To‘g‘ri javob yo‘q.
2	2.1	2	Jadid adabiyotining har jihatdan to‘laqonli adabiyotga aylangan davrini aniqlang.	*XX asrning 10-yillardan -20 - yillarinin g oxirigacha	XIX asr o‘rtalarida n XX asr boshlariga cha.	1880-1900 yillar.	1865-1905 yillar.
2	2.1	1	Qaysi javobda Ismoil Gasprinskiy asarlari	*«Dorul-rohat	«Xotinlar o‘lkasi»,	«Rusiya musulmonli	«Dorul-rohat musulmonlari»

			nomi to‘g‘ri qayd etilgan?	musulmonlari», «Mukola mai salotin», «Ovrupo madaniy atiga betarafona bir nazar».	«Madaniyat islomiya», «Mir’oti ibrat».	gi», «Ikki emas, to‘rt til lozim», «Turkiston ulamosi».	, «Shaytonning tangriga isyonii», «Mir’oti jadid».
2	2.4	1	«Vahshiy» taxallusi bilan ijod qilgan shoir kim?	*So‘fizoda.	Tavallo.	Xislat.	Avloniy.
2	2.7	2	Solih, Abdurahim, Fayziboy, Rahima, Domla imom qaysi drama qahramonlari?	*«Baxtsiz kuyov» «Abdulla Qodiriy» .	«Mazluma xotin» (Hoji Muin).	«To‘y» (Nusratilla Qudratilla, Xoji Muin).	«Ahmoq» (Abdulla Badriy).
2	2.2	1	Turkistonda chiqqan birinchi jurnal qaysi va uning faoliyati qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?	*«Oyna» - muharriri Behbudi y 1913 yildan 1915 yilgacha ; jami 68 son, 1720 sahifa	«Oyna»- muharriri Behbudi y 1911 yilda chiqaboshlagan	«Taraqqiy»- muharriri Munavvarqori 1913 yilda chiqaboshlagan	«Oyna» - muharriri Behbudi y 1915 yildan 1918 yilgacha ; jami 65 son, 1500 sahifa
2	2.1	3	«Agar bizim oramizda yaxshi odamlar bo‘lsalar, boshlab maktab muallimlaridirlar. Agar bizda foydali odamlar bo‘lsalar, bular ham ulardir... Sharafsizga , muhtaram o‘qituvchilar!» O‘qituvchilar haqidagi mazkur fikrlar qaysi	*«Tarjimon» gazetasi	«Oyna»jurnali	«Taraqqiy »gazetasi	«Sadoyi Turkiston» gazetasi

			matbuot vositasida bildirilgan?				
2	2.1	3	Qaysi ma'rifatparvar vafot etganida : « <i>Millat.... kabi qahramonlarni unutsa, o'z hayotini barbod etajakdir</i> »-deyilgan?	*Ismoilbek Gaspirinsky	Behbudiy	Avloniy	Munavvarqori Abdurashidxonov
2	2.1	3	« <i>Millatning ikki asosi bor: til birligi, din birligi. Millatning o'zligini yo'qotishi uchun shularning bittasi buzilishi kifoya</i> » Millat taqdiri haqidagi mazkur fikrlar egasini ko'rsating.	*Gaspirin nskiy	Avloniy	Ajziy	Fitrat
2	2.3	3	Quyidagi ma'rifatparvarlik ruhi bilan sug'orilgan satrlar muallifini ko'rsating <i>Maorif-la funun tahsilina qil rahnamolig' san,</i> <i>Qorng'uda qolan millatni nuri ilma irshod et!</i>	*Abdulla Avloniy	Xoji Muin	Mirmuhsin	So'fizoda
2	2.3	3	Qaysi adib o'z bolalik xotiralarini eslab : “ <i>Ayyonda muk tushib , Tavalloning she'rlarini o'qishga kirishaman.O'qiymان,d iqqat bilan berilib.uzoq o'qiymان...She'rlari rangdor,jonli, tili o'ziga xos,ravon... ”-deb yozadi?</i>	*Oybek	G'afur G'ulom	Hamid Olimjon	Usmon Nosir
1	1.6	2	1896 yilda olti tilni o'z ichiga olgan “Lug'ati sitta alsina ” (“Olti tilli	*Is'hoqxon Ibrat	Abdulla Avloniy	Elbek	Munavvarqori

			lug‘at’) nomli asar yozgan ijodkorni toping?				
2	2.2	2	Mahalliy jadid matbuoti qaysi kunni « <i>tarixiy kun</i> »deb yozadi.	*«Padark ush»ni sahnaga qo‘yilishi ni	Birinchi jadid maktabi ochilganin i	«Taraqqiy» gazetasining nashr etilishini	Oktyabr inqilobini
2	2.3	3	Kim jadidlar haqida : « <i>G‘azit o‘qig‘uvchilar ni mullalar «jadidchi» nom bilan atar edilar</i> », deb yozgan?	* Avloniy	Behbudiy	Fitrat	Hamza
2	2.2	3	« <i>O‘zbek teatrining asosini quyib beruvchi samarqandlik Mahmudxo‘ja Behbudiydir</i> ». Fikr egasini kursating.	* B.A. Pestovski y	tarixchi Vyatkin	A.S. Samoylovic h	V.Bertels
2	2.5	2	Fitratning «Tanlangan asarlar» tuplamini kim nashrga tayyorlagan va unga maxsus suzboshi yozgan?	*H.Bolta boev	Sh.Rizaev	B.Qosimov	I.G‘aniev
2	2.2	3	Mazkur fikr egasini kursating : « <i>Agarda til va adabiyotimizni muxofaza qilmay, anga ajnabiylug‘at va suzlarni kusha bersak, bir oz zamonda til va milliyatimizni yukoturmiz</i> »	* Behbudi y	Avloniy	Fitrat	Munavvarqori Abdurashidxon ov
2	2.3	2	Kim matbuotda Nabil, Indamas, Tangriqul, Surayyo, Chol, Abdulhaq kabi imzolar bilan asarlar e’lon kilgan?	* Avloniy	Munavvar qori	Hamza	Xoji Muin
2	2.2	2	Behbudiyning vafotiga	*	Xoji Muin	Tavallo	Vadud

			bag‘ishlab yozilgan «Maorif qurbanlari» dramasining muallifini ko‘rsating?	Xojimur od			Mahmud
2	2.4	2	So‘fizoda hayoti va ijodi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan olimlarni ko‘rsating?	* Miyon Buzruk Solihov, To‘lqin Rasulov	B.Qosimov, U.Normat ov	U.Dolimov, O.Sharafiddinov	To‘lqin Rasulov, B.Qosimov
2	2.1	1	Jadid adabiyotining taraqqiyot davrini ko‘rsating?	* 1915-1925	1910-1932	1917-1927	1915-1938
2	2.5	2	Fitratning bizgacha yetib kelmagan dramalarini ko‘rsating?	*«Begijon», «Temur sag‘anasi », «Abo Muslim»	«Begijon», «Abo Muslim», «Yurt sag‘anasi», «Xind ixtilochiları »	«Yurt qayg‘usi», «Temur sag‘anasi», «Xind ixtilochiları »	«Arslon», «Oq mozor», «Abo Muslim»
2	2.6	2	«Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi»da uchramaydigan to‘plamni toping?	* «Gunafs ha gul»	«Atir gul»	«Pushti gul»	«Sariq gul»
2	2.1	3	Til o‘rganishga da'vat kilib kim: «O‘qing , rus zabonin El aro bu yaxshi xislatdir, Zaboni bezabon o‘lmoq bioing, bu koni illatdir», -deb yozgan?	* Nozimax onim	Ibrat	Sufizoda	Avloniy
2	2.5	2	Millat taqdiri haqida bildirilgan mazkur fikr va shu nomdag'i makola egasini ko‘rsating: «Himmat va saboti bulmagan millatning haqqi hayoti yukduri»	* Fitrat	Bexbudiy	Hamza	Ibrat
2	2.2	1	Turkistonda chiqqan birinchi jurnal qaysi va uning faoliyati qaysi	*«Oyna» - muharriri	«Al-Isloh»-muharriri	«Taraqqiy»-muharriri Munavvarq	«Oyna» - muharriri Behbudiy 1915

			javobda to‘g‘ri berilgan?	Behbudi y; 1913 yildan 1915 yilgacha jami 68 son, 1720 sahifa chiqqan	A.Sayyoh, 1915 yilda chiqqa boshlagan	ori 1913 yilda chiqqa boshlagan	yildan 1918 yilgacha ; jami 65 son, 1500 sahifa
2	2.1	3	«Agar bizim oramizda yaxshi odamlar bo‘lsalar, boshlab maktab muallimlaridirlar. Agar bizda foydali odamlar bo‘lsalar, bular ham ulardir... Sharaf sizga, muhtaram o‘qituvchilar!» O‘qituvchilar haqidagi mazkur fikrlar qaysi matbuot vositasida bildirilgan?	*«Tarjim on» gazetasi	«Oyna» jurnali	«Taraqqiy» gazetasi	«Sadoyi Turkiston» gazetasi
2	2.2	3	Behbudiyning vafoti munosabati bilan yozilgan : <i>Sani mundin buyon Turon ko ‘rolurmu, ko ‘rolmasmu?</i> <i>Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu? - misralar muallifini ko‘rsating.</i>	*S.Ayniy	Cho‘lpon	Fitrat	Shukuriy
2	2.1	3	«Millatning ikki asosi bor: til birligi, din birligi. Millatning o‘zligini yo‘qotishi uchun shularning bittasi buzilishi kifoya» Millat taqdiri haqidagi mazkur fikrlar egasini ko‘rsating.	* Gasprinskij	Avloniy	Ajziy	Fitrat

2	2.3	1	Qaysi ma'rifatparvar ijodkor « <i>Indamas</i> » taxallusida asarlar yozgan?	*Avloniy	Munavvar qori	Saidahmad Ajziy	Hoji Muin
2	2.5	1	Fitratning dastlabki yirik asarlarini ko`rsating	*“Munozara”	“Abulfayz xon”	“Qiyomat”	“Arslon”
2	2.3	1	Jadid dramaturgiyasi mahsuli bo'lgan “ <i>Ikki sevgi</i> ” dramasining muallifini ko`rsating	*Abdulla Avloniy	Munavvar qori	Ziyo Said	Mirmuhsin Shermuhamed ov
2	2.8	3	<i>Muhabbat osmonida go 'zal Cho 'lpon edim, do 'stlar,</i> <i>Quyoshning nuriga toqat qilolmay , yerga botdim-ku.</i> <i>Cho 'lponning mashhur g'azali qanday nomlanadi?</i>	*Qalandar ishqqi	Muhabbat lirkasi	Cho 'lpon ishqqi	Mirrix yulduziga
1	1.1	1	Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti necha bosqichdan iborat?	*2	1	3	4
1	1.1	1	“Turkiston Viloyatining Gazeti” nechanchi yil tashkil etildi?	*1870	1868	1900	1906
1	1.1	1	Turkistonda ilk bor matbaa qachon tashkil etildi?	*1868	1867	1896	1910
1	1.1	2	Ziyovuddin Haziniy qaysi janrda ijod qilgan	*Diniy-tasavvufiy	Ma'rifatpar varlik	Tarixiy	Nasriy
1	1.7	2	“Ming bir kecha”ni o'zbekchalash tirgan kim?	*Sidqiy Xondayli qiy	Fazlulloh Almaiy	Abdulla Avloniy	Komil Xorazmiy
1	1.7	2	“Kalila va Dimna”ni o'zbekchaga o'girgan ijodkor kim?	*Fazlulloh Almaiy	Tavallo	Fitrat	Sidqiy Xondayliqiy

1	1.1	2	“Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari” asari muallifini aniqlang	*Laffasiy	Ogahiy	Bayoniy	Tabibiy
1	1.1	2	“Xorazm tarixi” asari muallifini toping	*Bayoni y	Laffasiy	Tabibiy	Feruz
1	1.1	2	“Sayyid” taxallusi bilan ijod qilgan hukmdorni aniqlang	*Amir Haydar	Amir Umarxon	Abdulahadx on	Olimxon
1	1.1	2	“Ojiz” taxallusi bilan devon tartib bergen ijodkor kim edi?	*Abdula hadxon	Nasrulloxo n	Furqat	Tavallo
1	1.1	2	“Dahmai shoxon” asari muallifini toping	*Sodiq Munshiy	Komil Xorazmiy	Laffasiy	Bayoniy
1	1.1	2	“Tarix risolasi”ni kim yozgan?	*Ahmad Donish	Bayoniy	Ogahiy	Komil Xorazmiy
1	1.1	3	“... u shunday mard kishiki, nihoyatda donishmand, o‘ta xushmuomala, himmati oliv, marhamati baland, parhyezkor, nihoyatda tetik, aqli, she'rshunoslik va baytshunoslikda tengi yo‘q, tabiatni nozik, zehni o‘tkir, she'rlari g‘oyat go‘zal, so‘zlar fasohatli..., devoni mukammal..., asarlari ommaga maqbul va manzur...” ta'rifi kimga berilgan?	*Mirzo Sahbo	Abdulaxad xon	Tavallo	Xaziniy
1	1.1	2	“Toji shoiron” deya e'zozlangan shoir kim edi?	*Muhyi	Furqat	Muqimiy	Saryomiy
1	1.1	2	“Tarixi muhojiron” kimning qalamiga mansub?	*Dilshod Otin	Uvaysiy	Anbar Otin	Nodira

			<i>Mastur qolmag 'aykim, so 'zning yo 'g 'oni chiqdi,</i> <i>Oltiarig 'lari ham vekselni koni chiqdi,</i> <i>Zovutni bitkarolmay, eshonni joni chiqdi,</i> <i>Afsus, ey xaloyiq, ishlar yamoni chiqdi,</i> <i>Oxir zamona ma'lum bo 'ldi, nishoni chikdi – satrlari Zavqiyning qaysi asaridan olingan?</i>	*Veksel	Uy puli	Zolim puli	Muncha ko'p
1	1.4	3	<i>Necha donolarni nodon ayladi ishqil majoz,</i> <i>Yorning ko 'yida sarson ayladi ishqil majoz,- satrlari kimning qalamiga mansub?</i>	*Haziniy	Muhyi	Saryomiy	Zavqiy
1	1.1	3	<i>“Buyuk bir iste'dodga ega bo 'lg 'onidan ko 'p san'atlarning ustosidur. Boshlab ... yaxshi bir texniqdur. Soat va moshi-nalarni tuzatmoq ishiga mohirdur... Yaxshi ovchidur, musiqa bilan ham ancha shug 'ullangandur. O 'z tilidan boshqa arab, fors, rus tillarini biladur. Forscha she'rlari</i> <i>fors adabiyoti bilan yaxshi tanish ekaniga shohiddur. Arab va rus adabiyotlari bilan ham ancha oshinodur”, - ta'rifi</i>	*Ajziy	Vasliy	Miriy	Sipandiy

			kimga berilgan?				
1	1.1	3	<p><i>Do 'rt ish bana bundan erdi maqsud,</i></p> <p><i>Bundan o 'la xalq baxti mas'ud:</i></p> <p><i>Ilmi a'llo olmoq va fununni,</i></p> <p><i>Davlatni, lisonni, zakunni.</i></p> <p><i>Har qavm bulardin o 'ldi mahrum,</i></p> <p><i>Istiqboli holidin o 'lur shum – sartlari Ajziyning qaysi asaridan olingan?</i></p>	*Mir'oti ibrat	Anjumani arvoh	Aynu-l-adab	Ganjinai hikmat
1	1.1	1	“Armug‘oni do‘ston va tuhfatu-l-ahbob” she'riy to‘plami kimga mansub?	*Vasliy	Ajziy	Miriy	Sipandiy
1	1.1	2	“Devoni Mavlaviy Yusuf Saryomiy”ni kim qachon nashr ettirgan?	*Tavallo, 1914 yil	Ajziy, 1910 yil	Vasliy, 1914 yil	Saryomiy, 1909 yil
2	2.1	2	Xalq orasida “nasoro maxsum” deya nom olgan ijodkorni aniqlang?	*Saidras ul Aziziy	Tavallo	Saryomiy	Kamiy
1	1.2	1	Komil Xorazmiy Rossiyaga birinchi marotaba nechanchi yil bordi?	*1873	1870	1875	1900
1	1.2	3	“Navras fikr va toza tab' shuarodin fazl va hunar ahli arosinda mumtoz...” Ogahiy kimga ushbu ta'rifni bergen?	*Komil Xorazmiy	Laffasiy	Feruz	Rojiy
1	1.2	3	“Ayn”u “shin”u “qof”inga to bo 'ldi	*Komil Xorazmi	Laffasiy	Feruz	Rojiy

			<i>ko 'nglum mubtalo “Dol”u “ro”u “dol”u hajringdin dame erman judo,- bayti kimning qalamiga mansub?</i>	y			
1	1.3	2	“Ishqiy g‘azallar piri” deb e’tirof etilgan shoir kim?	*Feruz	Komil Xorazmiy	Ogahiy	Rojiy
1	1.1	3	«Xon hazratlari Tabibiyg‘a amr etdilar, tokim ul g‘azallarni masnaviy zimnida jam' qilib, bir kitob etgay. Tabibiy farmon mujibi bilan amal qilib, ul g‘azallarni jam' qilib, har g‘azalni yozmoqchi bo‘lg‘onda, masnaviy bila ul g‘azalni aytg‘on kim erkanin bayon etib, bu tariqada tamomi g‘azallarni jam' qilib, tamom etib, ul kitobg‘a «Majmuatush-shuaro» ot qo‘yuldi». Ushbu satrlar kimga mansub?	*Bayoni y	Laffasiy	Tabibiy	Rojiy
1	1.4	1	“Majmuatu-sh-shuaroyi Feruzshohiy”ning muallifini aniqlang?	*Tabibiy	Laffasiy	Bayoni	Xorazmiy
1	1.4	2	Besh devon sohibi bo‘lgan xorazmlik ijodkor kim?	*Tabibiy	Laffasiy	Bayoni	Xorazmiy
1	1.4	3	“Shoir... erkin fikrli qarashlari sababli madrasadagi musulmon fanlarining to‘la kursini o‘zlashtirishdan voz kechgan. U Xivaga mustamlakachilar –	*Tabibiy	Laffasiy	Bayoni	Xorazmiy

			<i>ruslar, nemislar bilan, tatarlar bilan bevosita aloqalari tufayli va undan tashqari yangi yo 'nalishdagi tatarcha, usmoncha kitoblar, jurnallar va gazetalar orqali kirib kelayotgan yevropacha ilm mazasidan jindak tatigan". Gap kim haqida?</i>				
1	1.4	3	Fuzuliyining falsafiy didaktik dostoni “Haft jom” dostoni ta'sirida “yetti ravza” dostonini bitgan ijodkor kim?	*Tabibiy	Laffasiy	Bayoniy	Xorazmiy
1	1.4	3	<i>Kelganim ushbu makonga qiladur manga alam, Loyiqi tab' yo 'q odamki, desam hasratu g 'am, Gaplashurga kishi yo 'q ertadin oqshomg 'acha ham, Kun sovuq, qora chiroq, go 'rdek uyu, o 'tin kam. Chiqsam eshikka qilur to 'rg 'ayi chuldur- chuldur. Ushbu satrlar Muqimiyning qaysi asaridan olingan?</i>	*Oqjar odamlari	Tanobchilar	To'yi Iqonbachch a	Hajvi Viktorboy
1	1.4	1	“Hajvi Viktorboy”, “Hajvi Viktor”, “Voqyeai Viktor” she'rlari kining qalamiga mansub?	*Muqimi y	Zavqiy	Furqat	Kamiy
1	1.4	2	Muqimiylar “Sayohatnomasi”ning	*244 misra	400 misra	44 misra	155 misra

			hajmi...				
1	1.4	3	<p><i>Faryodkim, garduni dun,</i></p> <p><i>Aylar yurak-bag 'rimni xun.</i></p> <p><i>Ko 'rdiki bir ahli funun</i></p> <p><i>Charx anga kajraftor ekan, - satrlari</i></p> <p><i>Muqimiyning qaysi asaridan olingan?</i></p>	*Sayohat noma	Tanobchilar	To‘yi Iqonbachcha	Hajvi Viktorboy
1	1.5	1	“Zubdatu-l-hukamo” unvonining sohibi...	*Furqat	Muqimiy	Hamza	Tabibiy
1	1.5	3	“Xo‘qandi latifkim, bandag‘a mavlid va mansha'dur” deya yozgan shoir kim?	*Furqat	Muqimiy	Hamza	Zavqiy
1	1.5	2	“Chor darvesh”ni fors tilidan tarjima qilgan shoir kim?	*Furqat	Muqimiy	Hamza	Zavqiy
1	1.5	3	“O‘z nafimiz uchun Rusiya umurig‘a mulohaza qilsoq lozimdur” – so‘zлари kimga tegishli?	*Furqat	Muqimiy	Hamza	Zavqiy
1	1.5	3	<p><i>Surmadin ko ‘zlar qaro, qo ‘llar xinodin lolarang,</i></p> <p><i>G‘ozadin yuzlarda tobu o ‘smadin qoshlar tarang,-</i></p> <p><i>matla'li g‘azal kimning qalamiga mansub?</i></p>	*Furqat	Muqimiy	Hamza	Zavqiy
1	1.5	3	“Kuffor bandi ichra sonsiz tugunda qolduk”, - deya iztiroblangan shoir kim?	*Furqat	Muqimiy	Hamza	Zavqiy
2	2.1	1	Gasprinskiy birinchi marta Turkistonga	*1893	1899	1908	1910

			qachon kelgan?				
2	2.3	2	Avloniy “jadidlar to‘dasi”da qachon ish boshladi?	*1904	1900	1907	1910
2	2.1	2	Toshkentda birinchi musulmon xayriya jamiyati qachon ochildi?	*1909	1905	1910	1917
2	2.1	1	Rusiya jadidchilik harakatining rahnamosi kim edi?	*Gasprinskiy	Behbudiy	Fotih Karimiy	Fitrat
2	2.1	1	“Tarjimon” gazetasi qachon nashr etila boshladi?	*1883	1880	1900	1912
2	2.1	2	Tirikligidayoq millatning otasi, rahnamosi degan nom olgan ma'rifatparvar kim?	*Gasprinskiy	Behbudiy	Fotih Karimiy	Fitrat
2	2.1	2	“Rusiya musulmonligi” asari muallifini topping	*Gasprinskiy	Behbudiy	Fotih Karimiy	Fitrat
2	2.1	2	Millatning asosi ikkita: tavhidi til (til birligi) va tavhidi din (din birligi) degan ijodkor kim?	*Gasprinskiy	Behbudiy	Fotih Karimiy	Fitrat
2	2.1	2	Turkistonda birinchi “usuli jadi” maktabi qachon va qaerda ochildi?	*1893, Samraqand	1901, Toshkent	1900, Buxoro	1910, Xiva
2	2.2	2	Turkistonda jadidchilik harakatining bonisi, deya ta'riflangan mutafakkir kim?	*Behbudiy	Fitrat	Munavvarqori	Avloniy
2	2.2	3	“Turkistonda bekor odam yo‘KKI, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo‘qli, teatru sahnasiga chiqib, “masxarabozlik” qilsa”,	*Behbudiy	Fitrat	Munavvarqori	Avloniy

			- degan ijodkor kim?				
2	2.2	3	“Milliy fofja” atalgan birinchi asar nomi nima?	*Padarkush	Juvonboz	Uloqda	Zaharli hayot
2	2.2	2	Munavvarqori: “... ta'sirida “Baxtsiz kuyov” degan teatr kitobini yozib yuborg‘onimni o‘zim ham payqamay qoldim”, deganda qaysi asarni nazarda tutgan?	*Padarkush	Juvonboz	Uloqda	Zaharli hayot
2	2.2	3	“Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi... Yangi adabiyotning markazi – Samarqand... Yosh qalamkashlarning bosh ilhomchisi samarqandlik mufti Mahmudxo ‘ja Behbudiyydir”, satrlari kimga tegishli?	*Samoylovich	Bartold	Ostromov	Gasprinskiy
2	2.2	2	“Samarqand” gazetasining necha soni chiqqan?	*45	55	10	100
2	2.2	2	Behbudiyy ikkinchi sayohatiga qachon chiqdi?	*1914	1910	1915	1903
2	2.2	2	“Mahmudxo ‘ja Behbudiyy Falastinda” maqolasining muallifi kim?	*I.Baldau	B.Qosimov	Sh.Yusupov	U.Dolimov
2	2.5	2	Fitratning “Himmat va saboti bo‘lmagan millatning haqqi hayoti yo‘qdur” maqolasi qayerda nashr etilgan?	**”Oyna” jurnalida	“Samarqand” gazetasida	“Turon” gazetasida	“Najot” gazetasida

			<i>Sani mundin buyon Turon qo 'rolurmu, ko 'rolmasmu?</i>	*Ayniy	Behbudiy	Cho'lpón	Fitrat
2	2.2	3	<i>Saning mislingni Turkiston topolurmu topolmasmu? – satrlari kimning qalamiga mansub?</i>				
2	2.3	2	“Shuhrat” gazetasi qachon kim tomonidan nashr etildi?	*1907, Avloniy	1910, Behbudiy	1909, Munavvarq ori	1915, Cho'lpón
2	2.3	2	“Hijron” taxallusi bilan ijod qilgan ma'rifatparvar kim?	*Avloniy	Fitrat	Cho'lpón	Ayniy
2	2.3	3	“Teatru o‘yunbozliq emas! Masxarabozliq ham emas. Teatr bamisol oynavand bir uykim, kirgan har bir kimsa o‘z husnu qabihini ko‘ra olur... Yuziga un surtib masxaraboz shakliga kirgan zotlar tabibi hoziqdirlar...”, so‘zları kimga tegishli?	*Munavv arqori	Avloniy	Behbudiy	Fitrat
2	2.3	3	“1915 yilda mahalla xalqi domlamiz “teatrchi” bo‘ldi”, “masxaraboz bo‘ldi”, - deb o‘zi haqida yozgan ijodkor kim?	*Avloniy	Munavvar qori	Behbudiy	Hamza
2	2.3	1	Avloniying “Turkiy guliston yoxud axloq” asari qachon narr etildi?	*1913	1915	1910	1918
2	2.3	2	Avloniy nechanchi yildan she'r yoza boshtagán?	*1894	1900	1901	1905
2	2.3	2	“Sho‘royi islom” jamiyatı qachon va kim	*1917, Munavva	1915,	1919,	1920, Avloniy

			tomonidan tuzildi?	rqori	Fitrat	Behbudiy	
2	2.3	2	“Hurriyat marshi” kimning qalamiga mansub?	*Avloniy	Hamza	Cho‘lpon	Fitrat
2	2.4	2	“Mag‘zava” imzosi bilan hajviy she’rlar chop etgan shoir kim?	*Tavallo	Qodiriy	Hamza	Cho‘lpon
2	2.4	3	“Totor qardoshlarimizning mashhur shoiri marhum Abdulla afandi To‘qaevning she'rina tazmin” bog‘lagan shoir kim?	*Tavallo	Qodiriy	Hamza	Cho‘lpon
2	2.4	2	“Shavkat” taxallusi bilan ijod qilgan shoir kim?	*Sidqiy	Avloniy	Hamza	Fitrat
2	2.4	3	“Adabiyot va oshiqona g‘azali ko ‘b bo ‘lsa ham, aksar tab‘i hajviyotig ‘a moyil bo ‘lub, Nikolay yo ‘lig ‘a suv sepqonlarg ‘a va hutom dunyog ‘a sotilg‘on mufti maojinlarig ‘a quvvati boricha qarshu harakot va zo ‘r mone‘iyat ko ‘rsatur edi”, satrlari kimga tegishli?	*Sidqiy	Avloniy	Hamza	Fitrat
2	2.4	2	“Tazkirai Imomi A‘zam” asari muallifi kim?	*Sidqiy	Avloniy	Hamza	Fitrat
2	2.4	3	“Men ul bo‘yoqchimanki, maktab xumida rang berib, qora chappalarni o‘n ikki oyda oq qilaman”, degan	*So‘fizo da	Fitrat	Avloniy	Hamza

			ma'rifatparvar ismini toping				
2	2.4	2	“Chust shaharida bir mulla shoir usuli jadid maktab ochgan ekan. Chust aholilari ani(ng) axloqi buzuq deb maktabini tarqatib, o‘zini Chustdin haydab yuborgan ekanlar”. Gap qaysi ijodkor xususida?	*So‘fizo da	Fitrat	Avloniy	Hamza
2	2.5	2	“Mijmar” taxallusi bilan ijod qilgan shoir	*Fitrat	Hamza	Qoliriy	Cho‘lpon
2	2.5	2	Fitrat Istanbulga o‘qish uchun qachon ketgan?	*1910	19098	1911	1914
2	2.5	3	Ey, ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding? – satrlari kimga tegishli?	*Fitrat	Hamza	Qoliriy	Cho‘lpon
2	2.5	3	Tilaklarim, armonlarim, she'rim, Ko‘milsunlar, kerakmaslar menga. «Hayot» degan qopqon borsun, Parchalansun, bitsun, yo‘qolsun. Parcha kimning qalamiga mansub?	*Fitrat	Hamza	Qoliriy	Cho‘lpon

Ilova

I. Ilk mustamlakachilik davri: ijtimoiy-siyosiy, madaniy adabiy hayot.

- 1.1. Komil Xorazmiy.
- 1.2. Muhammad Rahimxon Feruz.
- 1.3. Ahmad Tabibiy. Muqimiyl.

- 1.4. Furqat.
- 1.5. Is'hoqxon Ibrat.
- 1.6. Fazlulloh Almaiyl. Karimbek Kamiy. Sidqiy Xondayliqiy.

II. Milliy va ijtimoiy kurashlar davri.

- 2.1. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Ismoilbek Gasprinskyi.
- 2.2. Mahmudxo'ja Behbudiy.
- 2.3. Abdulla Avloniy.
- 2.4. To'lagan Xo'jamyorov – Tavallo. Muhammadsharif So'fizoda.
- 2.5. Abdurauf Fitrat.
- 2.6. Hamza Hakimzoda Niyoziy.
- 2.7. Abdulla Qodiriy.
- 2.8. Abdulhamid Cho'lpon.

O'ZBEK MUMTOZ VA MILLIY UYG'ONISH ADABIYOTI FANIDAN NAZORAT SAVOLLARI

Joriy nazorat savollari

1. XIX asr oxiri XX boshlarida Turkistonda ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayot.
2. Turkistonni chor imperiyasi tomonida istilo qilinishi va bu holatning ijtimoiy hayotga ta'siri.
3. Adabiy maktablar haqida umumiy ma'lumot.
4. Xiva adabiy muhiti: Komil Xorazmiyning ijodiy va siyosiy faoliyati.
5. "Elga shohu- ishqqa gado" Feruzning Xiva adabiy muhitida tutgan o'rni
6. Ahmad Tabibiy faoliyati. Asarlari.
7. Qo'qon adabiy maktabi vakillari
8. Furqat ijodiy merosi
9. Furqat lirikasida ma'rifatchilik g'oyasi.
10. Muqimiy ijodida ijtimoiy hayot tasviri.
11. Muhyi Ho'qandiy ijodi.
12. Is'hoqxon Ibratning tarixiy asarlari
13. Ibratning ilmiy merosi.
14. Ibrat – ma'rifatparvar shoir.
15. Toshkent adabiy maktabi to'g'risida ma'lumot bering.
16. Almaiyning hayot va ijod yo'li.
17. Karimbek Kamiy Toshkent adabiy muhitining yirik vakili.
18. Turkistonda jadidchilik g'oyasi va harakatining maydonga kelishi.
19. Ismoil Gasprinskiy va Turkiston.
20. Gasprinskiyning nasriy asarlari.
21. "Doru-r-rohat musulmonlari" romani tahlili
22. "Mukolamai salotin" hikoyasida Amir Temur obrazi talqini.
23. "Tarjimon" gazetasining milliy matbuotimizga ta'siri.
24. Siddiqiy-Ajziyning "Mir'oti ibrat" dostoni
25. Mahmudxo'ja Behbudiyning yangi o'zbek adabiyotining shakllanishidagi o'rni .
26. "Padarkush" – birinchi o'zbek dramasi.
27. Behbudiylar publisistikasi
28. Behbudiylar darsliklari
29. Abdulla Avloniy she'riyatining XX asr boshlaridagi yangi o'zbek lirikasiga qo'shgan hissasi
30. "Biz va Siz" dramasi tahlili
31. "Portugaliya inqilobi" dramasida istiqlol mavzusi.
32. Abdulla Avloniyning didaktik asarlari
33. Muhammadsharif So'fizodaning ijodiy merosi.
34. Miskin g'azallari tahlili
35. Tavalloning "Ravnaqul islom" to'plami.
36. Sirojiddin Sidqiyning ijodiy merosi.
37. Sidqiyning "Rusyo inqilobi" asari haqida.
38. Fitrat dramalari haqida umumiy ma'lumot.
39. "Chin sevish" dramasi tahlili.
40. "Hind ixtitolchilar" dramasida ozodlik g'oyasi.

41. “Abulfayzxon” – birinchi o‘zbek tragediyasi
42. Fitratning ilmiy asarlari.
43. Hamza ijodiy yo‘lining ma'rifatparvarlik bosqichi
44. “Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari” dramasi tahlili
45. “Yangi saodat” romanı tahlili
46. Hamza lirikasida ma'rifat g‘oyasi.
47. Abdulla Qodiriy hikoyalarida realistik tasvir
48. “Baxtsiz kuyov” dramasi tahlili
49. “O‘tkan kunlar” romanı to‘g‘risida ma'lumot bering
50. Abdulla Qodiriy publisistikasi
51. Cho‘lpon lirikasida ramziylik.

Oraliq nazorat savollari

1. “Doru-r-rohat muslimonlari” romanida jadidchilik g‘oyalarining badiiy tasviri.
2. “Mukolamai salotin” hikoyasida Amir Temur obrazi talqini.
3. “Tarjimon” gazetasining milliy matbuotimizga ta'siri.
4. Siddiqiy-Ajziyning “Mir'oti ibrat” dostonida yangicha ma'rifatparvarlik.
5. Mahmudxo‘ja Behbudiyning yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishidagi o‘rni.
6. “Padarkush” – birinchi o‘zbek dramasi.
7. Behbudi publisistikasida ijtimoiy hayot.
8. Behbudi darsliklarida istiqlol g‘oyalari.
9. Abdulla Avloniy she'riyatining XX asr boshlaridagi yangi o‘zbek lirikasiga qo‘sghan hissasi
10. “Biz va Siz” dramasida badiiy tasvir.
11. “Portugaliya inqilobi” dramasida istiqlol mavzusi.
12. Abdulla Avloniyning didaktik asarlari.
13. Muhammadsharif So‘fizodaning ijodiy merosi.
14. Miskin g‘azallarida yangi an'anlar.
15. Tavalloning “Ravnaqul islom” to‘plami.
16. Sirojiddin Sidqiyning ijodiy merosi.
17. Sidqiyning “Rusiylo inqilobi” asari haqida.
18. Fitrat dramalarida istiqlol orzusi.
19. “Chin sevish” dramasi tahlili.
20. “Hind ixtitolchilari” dramasida ozodlik g‘oyasi.
21. “Abulfayzxon” – birinchi o‘zbek tragediyasi
22. Fitratning ilmiy asarlari.
23. Hamza ijodiy yo‘lining ma'rifatparvarlik bosqichi
24. “Zaharli hayot yoxud ishq qurbanlari” dramasi tahlili
25. “Yangi saodat” romanida ijtimoiy voqyelik tasviri.
26. Hamza lirikasida ma'rifat g‘oyasi.
27. Abdulla Qodiriy hikoyalarida realistik tasvir.
28. “Baxtsiz kuyov” dramasida ijtimoiy voqyelik.
29. “O‘tkan kunlar” romanida istiqlol g‘oyasi.
30. Abdulla Qodiriyning hajviy asarlarining o‘ziga xos jihatlari.
31. Abdulla Qodiriy publisistikasida badiiy tasvir.
32. Cho‘lpon yangi o‘zbek lirikasining asoschisi.

33. “Kecha va kunduz” romani to‘g‘risida ma'lumot bering.
34. “Yorqinoy” dramasida ijtimoiy voqyelik va yangi davr.

Yakuniy nazorat savollari

1. Turkistonda jadidchilik harakati va yangi maktablar.
2. Is’hoqxon Ibratning tilshunoslikka oid asarlari.
3. Ismoil Gasprinskiy va Turkiston.
4. Tavallo ijodida millat va milliyat mavzusi.
5. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida milliy tarbiya masalasining o‘ziga xos jihatlari.
6. Behbudiy publitsistikasida istiqlol g‘oyasi.
7. XIX asr oxiri XX boshlarida Turkistonda ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotning o‘ziga xos xususiyatlari.
8. Turkistonne chor imperiyasi tomonidan istilo qilinishi va bu holatning ijtimoiy hayotga ta'siri.
9. XIX asr oxiri XX boshlari Turkiston adabiy maktablari va ularning mushtarak va farqli xususiyatlari.
10. Xiva adabiy muhiti: Komil Xorazmiyning ijodiy va siyosiy faoliyati.
11. Feruzning Xiva adabiy muhitida tutgan o‘rni
12. Ahmad Tabibiy asarlarida yangicha ma'rifatparvarlik.
13. Qo‘qon adabiy maktabi vakillari ijodida yangicha ma'rifatparvarlik.
14. Furqat ijodiy merosining mustaqillik davrida o‘rganilish tamoyillari.
15. Furqat lirikasida ma'rifatchilik g‘oyasi.
16. Muqimiy ijodida ijtimoiy hayot tasviri.
17. Muhyi Ho‘qandiy ijodida yangicha ma'rifatparvarlik.
18. Is’hoqxon Ibratning tarixiy asarlarida istiqlol g‘oyalari.
19. Ibratning ilmiy merosi.
20. Ibrat – ma'rifatparvar shoir.
21. XIX asr oxiri XX boshlari Toshkent adabiy maktabining o‘ziga xos jihatlari.
22. Almaiy ijodida tarjimachilikning o‘rni.
23. Karimbek Kamiy Toshkent adabiy muhitining yirik vakili.
24. Turkistonda jadidchilik g‘oyasi va harakatining maydonga kelishi.
25. Gasprinskiyning nasriy asarlarida estetik ideal.

GLOSSARY

Milliy uyg‘onish – fransuzcha “Renessans”, ruscha “Vozrojdenie” ma’nosiga to‘g‘ri keladi. Renessans – Vozrojdenie G‘arbda insoniyat tarixining mumtoz davri hisoblanib keladigan qadim yunon, rim madaniyatiga – antik madaniyatga nisbatan aytilgan bo‘lib, uning bosh xususiyati shahar madaniyatining gurkirab o‘sishi, ilm va ijod egalariga xos qomusiylik, gumanizmning ijtimoiy-ma’naviy turmushning barcha jabhalariga kirib borishidir. XX asr boshlarida Turkistonda sodir bo‘lgan “milliy uyg‘onish” Vatan taraqqiyotining bosh omili – millatning o‘z-o‘zini anglashi sifatida qaraladi.

“Adabiyot” (Литература, Literature) - arabcha so‘z bo‘lib, u “odob” (ko‘plik shakli “adab”) so‘zidan olingan.

“Adabiyot tarixi” (История литература, History of literature) - adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini o‘rganadi.

Aruz (Аруз, aruz) arabcha so‘z bo‘lib “chodir ushlab turadigan o‘rtaga qo‘ylgan yog‘och” demakdir. Aruz she‘r tizimi – qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarning muayyan tartibda guruhanib, takrorlanishiga asoslangan metrik she‘r tizimidir. Manbalarda aruzga VIII asrda Aruz vodiysida yashagan arab olimi Xalil ibn Ahmad asos solgani, “aruz” atamasi shu joyning nomlnishidan olingani, “Qur‘on” arab tilida nozil qilingani, shu bois tilining mavqyei yuksak bo‘lgani, islom dinining ta’siri tufayli aruz musulmon sharqida uzoq asrlar davomida yetakchi she‘r tizimi bo‘lib kelgani, dastlab arab adabiyotida paydo bo‘lgan ushbu she‘r tizimi IX asrda fors adabiyotida qo‘llana boshlagani qayd etiladi. Fitrat Hijriy 462 yilda Qashqarda yozilgan “Qutadg‘u bilig”ni turkiy adabiyotda aruzda bitilgan dastlabki asar sifatida ko‘rsatadi. Aruz IX asrdan XIX asr oxiri – XX asr boshigacha o‘zbek adabiyotida asosiy she‘r tizimi bo‘lib kelgan. Aruz mexanik tarzda emas, balki fors va turkiy til xususiyatlariga moslashtirib o‘zlashtirilgan. Mumtoz aruzshunoslikda aruzning ritmik birliklari sifatida harf, juzv, rukn va bahr ko‘rsatiladi. XX asrda Fitrat o‘zbek tilining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, hijo, rukn va bahr turkiy “o‘zbek” aruzining ritmik birliklari ekanligini asoslab bergen.

Barmoq (Бармак, Barmoq) – misralardagi bo‘g‘inlar sonining tengligi va bir xil tartibda guruhanib takrorlanishiga asoslangan she‘r tizimi. Barmoq turkiy xalqlar she‘riyatida keng tarqalgan she‘riy vaznlar tizimidir. Barmoq turkiy tillarning tabiati, fonetik xususiyatlariga to‘la mos keladi. Turkiy xalqlar folkloridagi she‘riy asarlar barmoqda yaratilgan. Shu bois Fitrat “barmoq – milliy vazn” degan. Barmoq yuzlab vaznlarni o‘z ichiga olgan she‘r tizimi bo‘lib, uning ritmik intonnatsion imkoniyatlari juda kengdir. Barmoqda misralardagi bo‘g‘inlar sonining tengligi hamda ular (bo‘g‘inlar)ning qanday tartibda turoqlanishi (guruhanishi) she‘rning ritmik xususiyatlarini belgilaydi.

Badiiylik (Поэтика, Poetics) – ijodiy-ruhiy faoliyat mahsuli sifatida yaratilgan asarning san‘atga mansubligini belgilovchi xususiyatlar majmui. Obrazlilik badiiylikning birinchi sharti bo‘lib, u voqyelikni badiiy obrazlar orqali idrok etish, badiiy obrazlar vositasida fikrlash demakdir.

Badiiy til (Художественный язык, Poetic language) – so‘z san‘atining asosiy quroli, badiiy adabiyotning obraz yaratish vositasi. Badiiy til “Badiiy asar tili”, “badiy asar tili”, “poetik til” deb ham yuritiladi. Badiiy til milliy til bazasida voqye bo‘lib, milliy tildan badiiy informatsiyani shakkantirish va yetkazish maqsadida foydalanan shaklidir. Badiiy til milliy tidan keskin farq qiluvchi alohida emas. Badiiy til badiiy asarlarda namoyon bo‘ladi. Kundalik muloqot tili oddiy informatsiya yetkazsa, badiiy til badiiy informatsiya yetkazadi. Badiiy til yetkazayottgan informatsiya obrazli informatsiya bo‘lib, uning vositasida ijodkor tasavvurida yaralgan obraz muayyan ko‘rinish kasb etadi. Badiiy obraz esa voqyelikning konkret his etiladigan, o‘quvchi ongida qayta jonlanadigan ijodiy aksidir. Ilmiy, rasmiy uslubda ifodalangan informatsiya esa konkret obraz sifatida tasavvur uyg‘otadi. Obraz ijodkor qalbida qayta ishlangani bois hissiyotga yo‘g‘rilgan bo‘ladi va bu hissiyot o‘quvchi, tinglovchi, tomoshabinga “yuqadi”. Obrazlilik (tasviriylik) va emotSIONallik badiiy tilga xos xususiyatdir.

Bahr (Бахр,Bahr) arabcha so‘z bo‘lib, “dengiz” demakdir. Bahr –aruzda yozilgan she‘r va ruknlarning takrorlanish tartibi, muayyan she‘rdagi o‘lchov asosi. Aruzda hijo, rukn, misra va bayt (arab aruzida, harf, juzv rukn, bahr, bayt) she‘rning o‘lchov birliklari bo‘lib, bunda bayt konkret

she'rning ritmik jihatdan tugal birligi, boshqalari esa uning tarkibiy qismlaridir. Bahr misra doirasida voqye bo'ladi. Chunki birinchi misradagi ruknlar tartibi keyingi misralarda aynan takrorlanadi. Aruzda 8 ta rukn (asl)ning muayyan tartibdagi takroridan bahrlar paydo bo'ladi. Naoviy "Mezon ul avzon" asarida aruzda 19 ta bahr mavjudligini, Bobur esa "Muxtasar"ida unda 21 ta bahr borligini ko'rsatadi. Bahrlarning 7 tasi (mutaqorib, mutadorik, hazaj, ramal, rajaz, komil va vofir) bitta rukn takroridan (masalan: mafoiylun / mafoiylun... – hazaj; foilotun / foilotun... – ramal) hosil bo'ladi. Faqat maf'ulotu asli (rukni) o'zi mustaqil holda bahr hosil qilmaydi. Bittadan olingen ikkita asl (rukni) takroridan yan 8 ta bahr (muzori', hafif, mujtass, munsarih, muqtazab, tavil, madid va basit) hosil bo'ladi. Masalan: mafoiylun / foilotun... – muzori'; foilotun / mustaf'ilun... – hafif. Ikkita bir xil va bitta boshqa asl (rukni) takroridan esa yana 4 ta bahr (qarib, mushokil, g'arib va sari') hosil bo'ladi. Masalan: foilotun / foilotun / mustaf'ilun – qarib; foilotun / foilotun / mafoiylun – mushokil. O'zbek tili xususiyati bilan bog'liq holda she'riyatimizda hazaj, ramal, rajaz, muzori', hafif, mujtass, munsarih, sari', mutaqorib bahrlari faol qo'llangan. O'zbek she'riyatida mutadorik, komil, tavil bahrlari esa juda kam uchraydi. She'riyatimizda vofir, muqtazab, madid, basit, qarib, mushokil, g'arib, ariz, amiq bahrlari ishlatilmagan.

Bayt (Байт, Bayt) arabcha so'z bo'lib, "uy" degan ma'noni bidiradi. Bayt – sharq she'riyatidagi ikki misrali band turi. Lekin har qanday ikki misra she'rning bayti bo'lmaydi. Bayt ritmik-intonatsidi va mazmun jihatidan nisbiy mustaqillik kasb etishi, ya'ni band maqomiga ega bo'lishi kerak. Shu bois bayt atamasi g'azal, qit'a, qasida janrlariga nisbatan ishlatilishi o'rinli. Sharq she'riyatidagi boshqa janrlarining ikki misrali bandlariga nisbatan esa "masnaviy" atamasini qo'llash tug'riroq bo'ladi.

Drama – (Драма, drama) yunoncha drama – harakat. Badiiy adabiyotning uchta turidan biri. Dramaning tasvir predmeti harakat bo'lib, tragediya, komediya, drama uning janrlaridir. Sahnada ijro etish uchun mo'ljallab yaratiladi. Dramaning asosiy nutq shakli dialog bo'lib, personajlarning monologik nutqi ham diologik asosga ega bo'ladi.

"Dialog" (Диалог, Dialogue) yunoncha so'z bo'lib, "gplashish, suhbat" demakdir. Dialog adabiy-badiiy matn komponenti bo'lib, u asardagi personajlarning nutqiy berilgan o'rinlaridir. Hozirgi zamon prozasi matni rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topadi. Suqrot, Aflatun singari yunon mutafakkirlarining ayrim asarlari bir necha kishining muayyan masalalar suhbatidan iborat. Fitratning "Munozara", "Bedil" asarlari ham shunday. Bu kabi dalillar dialog ikki yoki undan ko'p kishining muloqoti bo'lishi barobarida falsafiy-publisistik yo'nalishdagi alohida janr ekanligini bildiradi.

Estetik ideal (Эстетик идеал, Aesthetic ideal) (yunoncha idea so'zidan – tasavvur, tushuncha) – estetika, jumladan, adabiyoshunoslikning muhim ilmiy kategoriyalaridan biri, go'zallik, estetik mukammallikning yuksak darajasi haqidagi his etiladigan konkret-timsoliy shaklda aks etuvchi tasavvurlar jami

Erkin she'r (Свободный стих, Free verse) – rus she'riyatidagi sillabo-tonik (bo'g'inlar miqdori va bo'g'inlarning urg'uli-urg'usizligi) she'r tizimi asosida paydo bo'lgan misralardagi stopalar soni har xil bo'lgan she'r shakli. Erkin she'rda misralardagi bo'g'inlar soni, ularning o'zaro qofiyalanishi qat'iy tartibda bo'lmaydi. Ammo she'r davomida o'lchovda teng va o'zaro qofiyadosh misralar erkin tarzda takrorlanadi. O'zbek she'riyatida erkin she'r o'tgan asrning 20-30-yillarda paydo bo'lgan. "Stopa" yunoncha so'z bo'lib, "oyoq, tovon" demakdir. Qadimda she'r ritmi oyoqni ko'tarib-tushirish orqali belgilangan. Ya'ni qisqa hijoda oyoq tovoni yerdan uzilib, cho'ziq hijoda yerga urilgan. Stopa – cho'ziq va qisqa hijolarning muayyan tartibdagit guruhi, ularning takrorlanishi hisobiga muayyan o'lchovdagi ritmnning yuzaga kelishidir. Stopa mohiyatiga ko'ra aruz she'r tizimidagi rukn bilan o'xshashdir. Sillabo-tonik she'r tizimida beshta stopa (rukni) mavjud bo'lib, ular: xorey (– V), yamb (V –), doktil (– VV), anapest (VV –) va amfibraxyi (V – V). Bunda urg'uli bo'g'in shartli belgisi – , urg'usiz bo'g'inniki V.

Epik, epos (Эпик, Epos) – yunoncha epos rivoyat, hikoya. Badiiy adabiyotning uchta turidan biri. Eposning asosiy xususiyati voqyeabandlik bo'lib, unda muayyan zamon va makonda kechgan voqyea-hodisalar bayon qilinadi. Epik turdag'i asarlar hayotni badiiy qamrab olish ko'lamiga ko'ra janrlarga ajratiladi. Hikoya janrida qahramon hayotidagi birgina voqyea ifodalansa, qissa janriga mansub asarda uning hayotidagi muayyan bosqich ifodalanadi. Romanda esa qahramon hayotidagi katta davr tasvirlanadi.

Fantastika (Фантастика, Fantastic) – yunoncha phantastika – xayol-tasavvur. Hayotda mavjud bo‘lman, xayol-tasavvurda yaratilgan narsa-hodisalar tasviri. Yuksak darajadagi shartlilikka asoslanadi. Fantastika faqat xayol mahsuli emas. Unda hayotda mavjud voqyealarning ayrim jihatlari sezilib turadi. Xayoldagi voqyelik mavjud hayot voqyeligiga asoslanadi.

Fabula (Фабула, Plot) (lotincha fabula – hikoya, masal) – ayrim manbalarda syujet terminining sinonimi sifatida qo‘llanadi. Ba’zilar voqyealarning hayotda qanday kechgan bo‘lsa, aynan o‘shanday, hyech qanday o‘zgartirmasdan aks ettirilishini fabula desa, ayrimlar syujet uchun asos bo‘lgan hayotiy voqyelikka fabula, deydi. Arastu asarda hikoya qilinadigan voqyealarni “mif” yoki “tarix” degan. Qadimgi rimliklar esa ularni “fabula” deyishgan. XVII asrda fransuz klassitsizmi nazariyotchilari asarda qalamga olingan voqyealarni “syujet” deb atashgan. XX asrda rus formal maktabi vakilari fabula – asarda tasvirlangan voqyealarning hayotda yuz berish tartibidir. Syujet esa voqyealarning asarda naql qilinish(joylashtirilish) tartibidir, deyishgan.

Filologiya (Филология, Filologue) - grekcha so‘z bo‘lib, philo - sevaman, logos - so‘z, bilim demakdir.

G‘oya (Идея, idea) – badiiy g‘oya, badiiy mazmunning muhim komponenti, asardan anglashiladigan, undan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma fikr. Asarda diqqat qaratilgan voqyealodisalarga muallifning g‘oyaviy-hissiy munosabati, badiiy idrok etilishi va baholanishi natijasida namoyon bo‘luvchi badiiy hukm, xulosa. G‘oya mazmunning o‘zak komponentidir. G‘oya har qanday asarda mavjud. Har bir asarning g‘oyasi mazmun-mohiyati, ko‘lami, qamrovi, ifodalanish darajasi va boshqa jihatlariga ko‘ra farqlanadi. Badiiy asar g‘oyasi ijodkorning dunyoqarashi, maqsadi, o‘zi qalamga olgan voqyelikka munosabati, qiziqishi kabi omillar bilan bevosita bog‘liqdir. Har bir haqiqiy ijodkor esa borliqni o‘zicha ko‘rib, mavjud hayot voqyeligini o‘zicha idrok etadi va unga munosabatini bildiradi. Shuning uchun asarda tasvirlangan voqyelik haqiqiy hayot voqyeligi emas, balki muallif ko‘rolgan va idrok etgan voqyelikdir. Bir davrda, bir joyda kechgan voqyelikni har bir ijodkor asarida o‘zicha aks ettiradi. Chunki hayot voqyeligi g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali. U ijodkorlarning qalbiga turlicha ta’sir ko‘rsatib, ongida turlicha aks etadi. Ijodkorning dunyoqarashi badiiy asar g‘oyasini belgilovchi muhim omildir. Jamiyatdagi hukmon mafkura, ijtimoiy-siyosiy qarashlar ijodkorning dunyoqarashiga kuchli ta’sir o‘tkazadi. Badiiy g‘oya – individual hodisa. Lekin bu har bir ijodkor o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib, asarida har qanday g‘oyani ifodalashi, ilgari surishi mumkin, degani emas. Ijodkor avvalo qaysi ijtimoiy guruhdanligi, qanday ijtimoiy-siyosiy qarashning tarafdori ekanidan qat‘i nazar, o‘z asarida umuminsoniy qadriyatlarni yoqlashi shart. Chunki chinakam badiiyat ijodkorning ezgulik,adolat, insonparvarlik, go‘zallik kabi mangu qadriyatlarni ulug‘lashini taqozo qiladi. Badiiy asar g‘oyasining ahamiyati va qimmati uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muvofiqligi hamda asarda hayot voqyeligining obrazli tarzda ta’sirchan ifodalanishi asosida belgilanadi. Roman, qissa, doston, tragediyalarda qo‘yilgan muammolar ko‘lamidan kelib chiqib, ulardagagi g‘oyalar tizimi – badiiy konsepsiya to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Hijo (Хижо, Hijo) arabcha so‘z bo‘lib, “to‘g‘ri o‘qimoq” degan ma’noni bildiradi. Hijo – turkiy (o‘zbek) aruzda eng kichik ritmik birlik, bir havo zarbi bilan aytildigan tovushlr guruhi. Turkiy aruzda ritm she’r misralarida bir xil miqdordagi, bir xil tartibda guruhlangan qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarning takrorlanishi asosida hosil bo‘ladi. Birgina qisqa unlidan iborat yoki qisqa unli bilan tugaydigan bo‘g‘in “qisqa hijo” deyiladi. Shartli belgisi: V. Undosh bilan tugaydigan yopiq yoki cho‘ziq unli bilan tugaydigan ochiq bo‘g‘in “cho‘ziq hijo” deb yuritiladi. Shartli belgisi: – . tarkibida cho‘ziq unli bor yoki qo‘sish undosh bilan tugaydigan bo‘g‘in esa “o‘ta cho‘ziq hijo”dir. Qisqa hijoga joylashgan o‘rniga qarab, ikki xil tarzda, ya’ni: misra ichida kelsa: - V, misra oxirida kelsa: ~ belgisi qo‘yiladi.

Aruzdagagi hijo bilan tilshunoslikdagi bo‘g‘in ayni bir xil emas. Hijo bilan bo‘g‘in farqli hodisa. Ayonki, o‘zbek tilida unlisiz bo‘g‘in bo‘lmaydi. Ya’ni so‘zdagi bo‘g‘in miqdori undagi unlilar soniga hamisha teng bo‘ladi. Aruzda esa bir sokin, ya’ni mustaqil undosh harfning o‘zi mustaqil holda ham, o‘zidan keyin kelayotgan so‘zning birinchi qisqa unlisi yoki birinchi bo‘g‘ini bilan qo‘silib ham bir hijoga teng bo‘lishi mumkin. Masalan, “sabr qil” jumlesi “sab – r – qil” tarzida hijolarga ajralishi va uning chizmasi – V – bo‘lishi mumkin. Aruz she’r tizimida ba’zan vazn talabiga ko‘ra qisqa hijo cho‘ziq hijo yoki aksincha, ya’ni cho‘ziq hijo qisqa hijoga aylanishi mumkin.

Mavzu (Тема, Theme) (arabcha so‘z bo‘lib, “qo‘yilgan, tartibga solingan” degan ma’noni bildiradi) – badiiy mazmun komponenti, asarda qo‘yilgan ijtimoiy, ma’navits-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali. Adabiyotshunoslikda ikki ma’noda: asarda tasvirlangan hayot materiali hamda badiiy asarda idrok etish uchun qo‘yilgan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolar majmui. Asarda qalamga olingan voqyelik – hayot materialini “mavzu” deyish, e’tibor qaratilgan, mushohada yuritish uchun qo‘yilgan masalalarni “mavzu” emas, “muammo”, “problema” deyish to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki har qanday chinakam badiiy asar ijodkorning o‘z davri, o‘zi yashayotgan ijtimoiy muhitga munosabati, u xususidagi o‘y-kechinmalari, tashvishi, iztirobi mahsuli sifatida paydo bo‘ladi. Ijodkor shaxs boshqalardan ko‘ra mavjud hayot tartiblari, undagi ijobiy va salbiy jihatlar haqida ko‘proq o‘ylaydi, tashvish chekadi. Tabiatidagi ana shu xususiyat, fazilat uni asar (she'r, hikoya, roman, doston, drama, komediya, tragediya) bitishga undaydi. Asl asar ijodkordagi ichki zarurat – “ehtiyoj farzandi” (A.Oripov) sifatida yuzaga keladi. Ijodkor o‘zini o‘ylantirgan muammolarni badiiy idrok etish uchun hayot voqyeligidan material tanlab, uni tasvirlaydi.

Poetika (Поэтика, Poetic) (yunoncha poetike techne – ijod san'ati) – keng ma’noda adabiyot nazariyasi, hozir ko‘proq adabiyot nazariyasining tarkibiy qismi ma’nosida qo‘llanadi, adabiy asar haqidagi ta’limot.

Qofiya (Рифма, Rhyme) arabcha so‘z bo‘lib, misra oxiridagi so‘zlarning bir-biriga mos bo‘lishidir. She’rda misralar oxiridagi qo‘srimcha, so‘z, ba’zan so‘z birikmalari ohangdosh bo‘lib keladi. Aniqrog‘i, ularning tarkibidagi tovushlar guruhi ohangdoshlik hosil qiladi. Qofiya ritmik jihatdan misrani ta’kidlash orqali she'r ritmining his qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. She'r o‘qilayotganida qofiya misraning tugaganidan darak beradi. She'riyatda qofiyaning: to‘liq va to‘liqsiz qofiya, unli tovushlar ohangdoshligiga asoslangan assonans qofiya, undosh ohangdoshligiga asoslangan dissonans qofiya, rus she'riyatida qofiyalanayotgan so‘zlarning ochiq bo‘g‘in bilan tugasa – jenskaya rifma, yopiq bo‘g‘in bilan tamom bo‘lsa – mujskaya rifma kabi qo‘llanishlari mavjud. O‘zbek she'riyatida qofiyadosh so‘zlardagi tovushlar qay darajadi mosligi jihatidan och (to‘liqsiz) va to‘q (to‘liq) qofiyalar ajratiladi. Misralardagi so‘zlarning tovush tarkibi to‘la mos (masalan: savdo – g‘avg‘o – paydo – shaydo, laylo – Ra’no kabi) kelsa, to‘q (to‘liq) qofiya deyiladi. Och (to‘liqsiz) qofiyalarda qofiyadosh so‘zlarning tovush tarkibi qisman (masalan: dahriy – qahridan, titrab - guldirak) mos keladi.

Ritm (Ритм, Rhythm) yunoncha so‘z bo‘lib, “teng o‘lchovlilik” degan ma’noni bildiradi. Ritm, keng ma’noda muayyan bo‘laklarning ma'lum vaqt oralig‘ida tartibli takrorlanib turishidir. Badiiy nutqning nasriy va she'riy shakllari ritm jihatidan farq qiladi. Nasrdagidan farqli holda she'riy nutq ritmi maxsus hosil qilinadi, muayyan o‘lchov (bo‘g‘in, turoq, vazn, misra, band, qofiya) asosida tartibga solinadi. Ritm she'riy nutqning emotsiyonalligi, musiqiyligi, jarangdorligining asosidir.

Rukn (Заголовок, Heading) – arabcha so‘z bo‘lib, “ustun” demakdir. Rukn – aruzda juzv (turkiy aruzda hijo)larning muayyan tartibda birikishidan hosil bo‘luvchi ritmik bo‘lak, juzv bilan bahr orasidagi ritmik birlik. Aruzda juzvlarning ma'lum tartibda qo‘shilishidan 8ta afoyil yoki asl ruknlar yuzaga keladi:

- 1.Fauvlun-vatadi majmu'+sababi hafif
- 2.Foilun-sababi hafif+vatadi majmu'
- 3.Mafoiylun-vatadi majmu'+sababi hafif+sababi hafif
- 4.Foilotun-sababi hafif+vatadi majmu'+sababi hafif
- 5.Mustaf'ilun-sababi hafif+sababi hafif+vatadi majmu'
- 6.Maf'ulotu-sababi hafif+sababi hafif+vatadi mafruh
- 7.Mafoilatun-vatadi majmu'+fosalai sug‘ro
- 8.Mutafoilun-fosalai sug‘ro+vatadi majmu'

Mazkur sakkiz asl ruknning takroridan bahrlar hosil bo‘ladi. Asllarning zihafga uchrashidan tarmoq (yoki far‘iy, furu') ruknlar yuzaga keladi.

Syujet – (Сюжет, Plot) (fransuzcha sujet – predmet, asosga qo‘yilgan nasa) – badiiy shaklning enng muhim unsurlaridan biri, asardagi bir-biri bilan uzviy bog‘liq voqyealar tizimi. Lirik asarlarda o‘y-fikr, his-kechinmalar rivoji syujetdir. Adabiyotshunoslikda syujetlar ikkiga: voqyeaband va voqyeaband bo‘lmagan syujetga ajratiladi. Hikoyada bitta voqyeaga e’tibor qaratiladi va unda qisaa

roman, drama, tragediya, komedyada bir necha voqyea naql qilinadi hamda ular ta'sirida qahramon xarakteri, dunyoqarashidagi o'sish-o'zgarishlar jarayoni ko'rsatiladi. Syujet birlamchi funksiyasi asarda diqqat markaziga qo'yilgan muammoni badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materiaini uyuşhtirib berishdir. Syujet personajlarning harakati, faoliyati, o'z maqsadi yo'lidagi intilishi, kurashidan tarkib topadi. Syujetning ikki tipi: tashqi harakat dinamikasiga asoslangan hamda ichki harakat dinamikasiga asoslangan turi mavjud. Voqyealarning o'zaro munosabatiga ko'ra syujet xronikali va konsetrik turlarga bo'linadi.

Shakl va mazmun (Форма и содержания, Form and Content) - voqealarning tashqi ko'rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.

She'r (Стихотворение, Poem) – muayyan o'lchovdagi ritmik nutq. Alisher Navoiyning tazkirachilik an'anasini yurtimizda mavaffaqiyat bilan davom ettirgan Mutrobiy Samarqandiy (1556 – 1630 yoki 1650)ning qayd etishicha, "she'r" arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi "topmoq va bilmox"dir. Shu jihatdan shoirni "biluvchi va topuvchi" deb ataydilar. Chunki shoir boshqalar topa olmaydigan sara so'zlarni topadi va ular tizimiga o'zgalar eplay olmaydigan darajadagi shaklni beradi. Istiloh sifatida "she'r" so'zi ma'no, vazn va qofiyaning hamohang kelishini anglatadi. Chunki yaratuvchisi ularni ana shu bir-biriga bog'liqlik holatda shakllantiradi" (Samarqandiy M. Tazkirat ush shuaro. – "Ilohiy arsh ostidagi xazinalar kaliti shoirlarning tilidir" mazmuniga ko'ra – dong taratgan so'zamollar va oliy maqomli shoirlarning sinovdan o'tgan so'zlari va ma'qul gaplaridir) (O'sha manba. 12-bet).

She'r tizimi (Стихотворение система, Verse system) – muayyan o'lchovga asoslangan she'riy vazn (o'lchov)lar tizimi, majmui. She'r tizimi she'r tuzilishining asosini, uning asosiy qonuniyatlarini belgilab beradi. She'r tizimi o'sha xalq tilining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Barcha she'r tizimlarida bo'g'in asosiy o'lchov birligi sifatida olingan. Bo'g'in esa turli tillarda turlicha sifat va miqdor ko'rsatkichlariga ega. Shundan kelib chiqqan holda, jahon xalqlari she'riyatida bo'g'inning miqdoriga asoslangan sillabik she'r tizimi, bo'g'inning urg'uli yoki urg'usizligiga asoslangan tonik she'r tizimi, bo'g'inning cho'ziq yoki qisqaligiga asoslangan metrik she'r tizimi, bo'g'inning baland yoki past talaffuz qilinishaga asoslangan melodik she'r tizimi mavjudligi qayd qilinadi. Bir yo'la ikki jihatni asos qilib olgan she'r tizimlari ham bor. (Sillabo – tonik she'r tizimi, turkiy (o'zbek) aruzi) She'r tizimi vaznga nisbatan keng qamrovli tushuncha. Vazn muayyan (konkret) she'rda namoyon bo'ladi. U ma'lum bir she'rning o'lchovini bildiradi. She'r tizimi esa muayyan o'lchov tamoyiliga asoslangan vaznlar majmuidir. Masalan, "aruz tizimi" deganda misralarda cho'ziq va qisqa hijolarning ma'lum tartibda takrorlanib kelishiga asoslangan she'r tizimi nazarda tutiladi. Aruz tizimi esa ko'plab konkret vaznlarni o'z ichiga oladi.

Sarbast, verlibr (Верлибр, Unrhymed verse) – misralaridagi bo'g'inlar soni ham, ularning cho'ziq-qisqaligi ham, turoqlanishi va qofiyalanishi tarkibi ham mutlaqo erkin she'r. Sarbast she'r XX asrdan o'zbek she'riyatida ommalashgan. Sarbast she'rda musiqiylik misralarda bo'g'inlar soni bir xilligi yoki tartibli qofiyalanish asosida emas, balki so'z va tovush takrori, ritmik urg'ular hisobiga ta'minlanadi. Sarbast she'rda ohangdorlik boshqa she'riy janrlardan farqli holda, avvaldan maromiga solinmaydi, muayyan maromga mos kechinmalar ifodalanmaydi. Aksincha, sarbast she'rda fikrtuyg'uga mos ohang so'zning ma'nosi asosida yuzaga keladi.

Sabab (Причина, Reason) arabcha so'z bo'lib, "chodirning arqoni" demakdir. Sabab – sokin va mutaharrik harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo'luvchi ritmik birlik. Harflarning qanday tartibda birikishiga ko'ra sababning ikki turi farqlanadi: sababi hafif (yoki yengil sabab) va sababi saqiyil (yoki og'ir sabab). Bitta mutaharrikka bir sokin harfning qo'shilishidan sababi hafif hosil bo'ladi. Masalan, "gul": mutaharrik (gu) + sokin (l), "ko'z", "qad". Ikkita mutaharrik harfning qo'shilishidan sababi saqiyil (talaffuzi sababi hafifga nisbatan qiyinroq ekani uchun shunday nomlangan) hosil bo'ladi: "gala", "sana" (mutaharrik (ga) + mutaharrik (na)).

